

3 2021

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI


ILMIY AXBOROTLARI НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК

ТАШКЕНТСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО ПЕДАГОГИЧЕСКОГО УНИВЕРСИТЕТА

SCIENTIFIC BULLETIN

OF THE TASHKENT STATE PEDAGOGICAL UNIVERSITY

ILMIY-NAZARIY JURNAL
НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-THEORETICAL JOURNAL



ANIQ FANLAR
TABIY FANLAR
FALSAFA
PEDAGOGIKA
PSIXOLOGIYA
IJTIMOIY-GUMANITAR
FANLAR

ISSN 2181-9580

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTLARI
ILMIY-NAZARIY JURNALI

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК
ТАШКЕНТСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО
ПЕДАГОГИЧЕСКОГО УНИВЕРСИТЕТА

SCIENTIFIC BULLETIN
OF THE TASHKENT
STATE PEDAGOGICAL UNIVERSITY

2021

3-son

Jurnal Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2014-yil 30-iyulda №02-00175 raqam bilan ro'yxatga olingan.

MUNDARIJA

G‘aniyev G.A. Fizika fanini o‘qitishda “bilvosita idrok”ning ahamiyati. “Sensor kanallari” intellekt xaritasi	4
Nazarov N.A. O‘rxun yozuvidagi «sir» etnonimi va Sirdaryo gidronimining o‘zaro aloqadorligi	12
Tilayev.E.R. Axborot texnologiyalarining globallashuvi sharoitida yoshlarda ozod shaxs ko‘nikmalarini tarbiyalash	20
Ahmedova V.A. Dramalarda qahramonlik modusining transformatsiyasi	27
Allayarova Z.B, Elboyeva M.B. History and development of the terminology system of the uzbek agrarian sector and problem of lexicographical interpretation	38
Berdiyev A.A. XVIII-XIX asrlarda Qo‘qon xonligining Sharqiy Turkiston va Toshkent bilan savdo aloqalari	44
Kadirova X.B. Identikligini namoyon etishda turizm sohasining o‘ziga xosligi	53
Muhammadiyev A.M, Mahmudov A.A. Abjad hisobini aniqlash amaliyoti	64
Niyazova F.S., Toshtemirova A.S. Crosslinguistic influence, contrastive analysis of turkish and english in turkish efl learners	69
Nurbayeva M.T. Alisher Navoiyning tarbiya masalasiga yondashuvi	74
Ibragimova X.S. Oliy ta’lim muassasalari talabalarida musiqiy-ritmik kompetensiyalarni shakllantirish	78
Namozova M.U. Amir Xudoyberdi she’riyatida muhabbat mavzusining ifodasi	86
G‘oyimov U.E. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mehr-saxovat tuyg‘usini shakllantirish imkoniyatlari`	91
Mamatov M. Yoshlar ma’naviyatini shakllantirishda islom dini manbalarining o‘rni	96
Azimov T.D., Muminova D.S, Aripova K.A. Muhandislik va kompyuter grafikasini o‘qitishning o‘ziga xosligi	103
Kuchkarova D.F, Samatova K.M. Chizma geometriya va muhandislik grafikasi fanidan internet – nazorat tashkil qilishga yondashuv	108
Baygaziye T.N. Abu Nasr Forobiyning inson ruhi va tanasining o‘zaro munosabati to‘g‘risidagi qarashlari	112
Pardayeva D.T. Oliy ta’lim muassasalari talabalarida leksik kompetensiyalarni rivojlantirish	117
Ernazarova G.I. Hozirgi she’riyatda mumtoz mohiyat	124
Axatova M.S. Alisher Navoiy asarlarida naqshbandiylik g‘oyalariga sadoqat – halollik va poklik	131

Norboboyeva M.T. Ko'ngil iltijolari	136
Джалилова Д.С. Вечное наследие Навои	141
Sirojiddinova I.M. Innovatsion faollik jarayonida pedagogik- psixologik integratsiya mexanizmini shakllantirish usullari	145
Sobirov N.X. Sozandalik mahoratini rivojlantirishda milliy musiqa madaniyatining o'рни	153
Utayeva I.B. Xorijiy tilning grammatik tushunchalarini o'zlashtirish jarayonida talabalarning mustaqil bilim olish faoliyatining mazmun, shakllari va usullari	159
Axmadalieva B.Sh. Maktabgacha ta'lim tashkiloti guruhlarida bolalarni kitobxonlikka qiziqtirish omillari	172
Жакупов Г.А. Значимость морфонологических фузионных характеристик при изучении русского языка носителями агглютинирующих языков	178
Им С.Б. Роль морфонологических элементов в деривационном процессе	185
Расулова И.М. Oilada shaxslararo zo'rvonlikka moyil hulq-atvor shakllanishining ijtimoiy psixologik xususiyatlari	193
Xalilova F.A. Oliy ta'lim muassasalarida elektr texnik materiallar fanini o'qitish metodini takomillashtirish	199
Kholmurodova D.K. Challenges in teaching speaking to EFL learners	207

**FIZIKA FANINI O‘QITISHDA “BILVOSITA IDROK”NING
AHAMIYATI. “SENSOR KANALLARI” INTELLEKT XARITASI**

**G‘aniyev G.A. – Toshkent davlat pedagogika universiteti Shahrisabz
filiali direktori, fizika matematika fanlari nomzodi, dotsent**

Annotatsiya. Maqolada bilvosita idrok to‘g‘risida mulohozalar yuritilgan, chunki idrok uchun olinadigan ma’lumotlarning bir qismining borliqqa aloqasi bo‘lmay DNK lar orqali o‘tgan bo‘ladi. Shuningdek, signallarning sensor kanallari orqali uzatilish mexanizmi batafsil bayon qilingan. Tasavvur qilish ham aynan shu mexanizmga aloqadorligi asoslangan. Inson bosh miyasi yarimsharlarining birgalikdagi faoliyati mexanizmi va bu mexanizm faoliyatini takomillashtirishga yordam beruvchi «Intellect xarita»dan foydalanish imkoniyatlari yoritilgan «Sensor kanallari» intellekt xaritada ma’lumotlarni bosh miyada idrok qilinish va ijodiy fikrlashni vujudga kelish mexanizmi, ya’ni «to‘la fikrlash» jarayoni akslangan.

Kalit so‘zlar: jarayon, voqea, idrok, tasavvur, idrok, signal, neyron, dendrit, sinaps, akson, dofamin, ambidekster, verbal, vizual, g‘ayrioddiy.

**ЗНАЧЕНИЕ “КОСВЕННОГО ВОСПРИЯТИЯ” В
ПРЕПОДАВАНИИ ФИЗИКИ. ИНТЕЛЛЕКТ КАРТА НА ТЕМУ
“СЕНСОРНЫЕ КАНАЛЫ”**

**Ганиев А.Г. - директор Шахрисабзского филиала Ташкентского
государственного педагогического университета, кандидат физико-
математических наук, доцент**

Аннотация. В статье были сделаны рассуждения о косвенном восприятии, поскольку часть информации, которая может быть получена для восприятия, передается через ДНК без связи со вселенной. Также подробно описан механизм передачи сигналов по каналам датчиков. Воображение также основано на том факте, что оно связано с этим механизмом. В статье освещается механизм совместной деятельности полушарий головного мозга человека и возможности использования «интеллект-карты», способствующей совершенствованию функционирования этого механизма «сенсорных каналов», интеллект-карта отражает механизм восприятия информации в головном мозге и формирования творческого мышления, то есть процесса «полноценного мышления».

Ключевые слова: процесс, событие, восприятие, воображение, восприятие, сигнал, нейрон, дендрит, синапс, Аксон, дофамин, амбидекстер, вербальный, визуальный, необычный.

THE IMPORTANCE OF “INDIRECT PERCEPTION” IN THE TEACHING OF PHYSICS. MIND MAP “SENSOR CHANNELS”

Ganiev A.G. - Director of Shahrizabz branch of Tashkent State Pedagogical University, Candidate of Physical and Mathematical Sciences, Associate Professor

Annotation. The article discusses indirect perception because some of the information obtained for perception passes through DNA without being related to existence. The mechanism of transmission of signals through sensor channels is also described in detail. Imagination is also based on the connection to this very mechanism. The article describes the mechanism of interaction of the hemispheres of the human brain and the possibility of using the "Intelligence Map", which helps to improve the functioning of this mechanism. The "sensory channels" of the intelligence map reflect the mechanism by which the brain perceives information and creates creative thinking, that is, the process of "complete thinking."

Key words: Process, event, perception, imagination, perception, signal, neuron, dendrite, synapse, axon, dopamine, ambidexter, verbal, visual, abnormal.

Idrok – ma'lumotlarni qabul qilib miyada tahlil qilish jarayoni. U tashqi olamdagi narsalar va hodisalarni baholab shunga mos harakat qilish imkonini beradi. Narsalar yoki atrofda ro'y berayotgan real voqealar haqida sensor kanallari orqali olinayotgan ma'lumotlar asosida qilinadigan idrokka bevosita idrok deyiladi. Yozma, og'zaki va boshqa (vizual) shakllarda beriladigan ma'lumotlarni idrok qilishga **bilvosita idrok** deyiladi[1].

Shu bilan birga idrokka ichki tuyg'ular, mavjud tajribalar qanday ta'sir ko'rsatadi degan masala juda qadim zamonlardan olimlarning diqqat markazida bo'lgan. Aniqrog'i, tashqi olam haqidagi barcha ma'lumotlar sezgi organlarimiz orqali keladimi yoki ularning ma'lum qismi idrokka «tashqi olamga bog'liq bo'lmagan aql» yordamida beriladimi?

Bu masala «tabiiy fanlar» - o'rganish ob'yekti tabiat qonunlari, ya'ni inson faoliyati natijasida hosil bo'lmagan qonunlar bo'lgan fanlar uchun ayniqsa muhimdir. Chunki bu toifaga kiruvchi fizika, kimyo, biologiya fanlarini o'rganishda olinadigan bilimlarning asosiy qismi «bilvosita» olinadi. Boshqacha aytganda, ular turli texnik

vositalar, kompyuterlar, o'zgarlar tomonidan tayyorlangan ma'lumotlar yordamida olinadi va o'z bilimlarini, tajribalarini analiz qilish bilan takomillashtiriladi.

Tajribalarning ko'rsatishicha idrok uchun olinadigan ma'lumotlarimizning bir qismining borliqqa aloqasi yo'q. Ingliz faylasufi va psixologi Dj. Lokkning «nativis» tik (natura-tabiat) konsepsiyasiga muvofiq idrok insonga tabiat tomonidan beriladigan «aql», aniqrog'i DNK larimiz orqali o'tgan ma'lumotlar asosida amalga oshiriladi. Faqat bu ma'lumotlar tajriba, bilim, fikrlashlar natijasida faollashadi. Miyamiz tashqi olamdan olinadigan ma'lumotlarni «xotira izlari» ko'rinishida saqlaydi. Ular esa o'z navbatida idrokka, «tasavvur» qilinayotgan obrazlarning xarakteriga, ma'no-mazmuniga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Bosh miya po'stlog'ining qalinligi 3 mm bo'lib, 6 ta qatlamdan iborat. Uning yuzasi o'rtacha 2200 sm^2 , 10 mlrd dan ko'proq neyronlari bor.

Garchi insonda juda ko'p sezgi kanallari bo'lsada, qadim zamonlardan asosan tashqi dunyodan ma'lumotlar oluvchi beshta: ko'rish, eshitish, hid bilish, tuyish va ta'm bilish sezgilari haqida mulohaza yuritilgan.

Sezgi organlari signallarni qayd etuvchi hujayralardan boshlanadi. Bu signallar sezgi turlariga qarab: elektromagnit to'lqinlar-ko'rishda, tuyishda; mexanik to'lqinlar-eshitishda; jismoniy-ta'm bilishda hamda kimyoviy - hid bilishda, bo'lishi mumkin. Shu bilan birga inson sezgilari imkoniyatlari cheklangan bo'lib $u \nu = 4 \cdot 10^{14} \text{ Hz}$ dan $\nu = 7.5 \cdot 10^{14} \text{ Hz}$ gacha bo'lgan yorug'lik to'lqinlarini ko'rishi va $\nu = 16 - 20000 \text{ Hz}$ bo'lgan tovush to'lqinlarini eshitishi mumkin. Neyron membranasi, yoki muskul hujayrasidagi potentsiallar farqining qisqa vaqtdagi (1 ms atrofida) o'zgarishi, ta'sir potentsialini yoki elektr impulsini vujudga keltiradi va u miya bilan bog'langan asab tolalariga beriladi. Shundan so'ng xabarlar orqa miya va so'ngra bosh miyaga boradi. Asab tolasidan miyaga keladigan elektr signallarining harakat tezligi 274 km/soatni tashkil qiladi. Odamda 31 juft orqa miya asab tolalari bo'lib, ularning barchasi sezgi xabarlarini uzatish vazifasini bajaradi. Bundan tashqari 12 juft bosh suyagi asab tolalari ham shu vazifa bilan shug'ullanadilar[2].

Sezuvchi hujayralar xabarlarini qanday qilib qayd qiladi degan savol tug'iladi. Ichki sezgi, ta'm bilish va hid bilish reseptorlarida sezgir oqsillar mavjud bo'lib, hid paydo bo'lganda (modda molekullari atrof muhitda paydo bo'lganida) ular ochiladi va hujayraga musbat zaryadlangan ionlar kiradi. Natijada depolyarizatsiya, ya'ni hujayrada qutblanishning buzilishi ro'y beradi. Hujayraning qaytib asosiy holatga o'tishi esa elektromagnit to'lqinlarning chiqarilishi ya'ni signallarning vujudga kelishiga olib keladi. Hosil bo'lgan signal miyaga uzatiladi. Eshitish va ko'rish reseptorlari ham shunday ishlab, tashqi ta'sirlar ulardagi hujayralar zaryadlarining siljishiga va potentsiallar farqining vujudga kelishiga olib keladi. Asab tolalaridan uzatilayotgan ta'sir potentsialining chastotasi (elektromagnit to'lqin energiyasi) qabul qilinayotgan to'lqinlar energiyasi bilan aniqlanadi. Agar sekundiga 20-40 signal

uzatilsa kuchsiz, 50-70 Hz bo'lsa o'rtacha, 100 Hz bo'lsa kuchli hisoblanadi. Chastotasi 100 Hz dan yuqori bo'lgan signallar, ko'ngilni behuzur qilishi mumkin. Ma'lumotlar bosh miyada qayta ishlanib miya po'stlog'iga ko'tariladi. Sezgilar doimo bir-birlari bilan aloqada bo'ladilar. Masalan, ko'rish, eshitish jarayoniga ham ta'sir qiladi[3].

Buyumdan kelayotgan yorug'lik ko'z vositasida qabul qilinadi va ko'z gavhari to'r pardada uning to'ntarilgan tasvirini hosil qiladi. Bu parda ko'zga tushayotgan yorug'lik energiyasini hujayralarda tarqaluvchi elektromagnit to'lqinlar energiyasiga ya'ni signallarga aylantiruvchi ikki xil: kolbacha va tayoqchasimon hujayralardan tashkil topgan bo'ladi. Kolbachalar yetti million atrofida bo'lib, uch turdagi: qizil, yashil va ko'k ranglarni sezuvchi bo'ladilar. Yorug'lik to'lqinlari to'lqin uzunliklariga (to'lqin energiyasiga) qarab kolbachasimon hujayralar atomlarini g'alayonlantiradilar. Atomlar asosiy holatlariga o'tganlarida elektromagnit to'lqinlar (signallar) chiqariladi. Bu signallar kombinatsiyasidan miya turli ranglarni hosil qiladi. Yoritilganlik (birlik yuzaga tushayotgan yorug'lik oqimi, fotonlar oqimi) kamaysa, kolbachasimon hujayralar faoliyati to'xtab, tayoqchasimon hujayralar ishga tushadi. Tayoqchasimon hujayralar esa ko'zda juda ko'p, yuz million atrofida bo'lib ular odatda soyasimon tasvirlar uchun mas'ul bo'ladilar va miyaga signallarni jo'natadilar[4].

Miya elektr signallarini uyg'otuvchi hujayra neyron va neyronlarni tutashtirib turuvchi gilyal hujayralardan tashkil topgan.

Neyron – ma'lumotlarni qabul qiluvchi, saqlovchi va ularni kimyoviy signallar va elektr impulslari yordamida uzatuvchi miya hujayrasi. Inson miyasi taxminan 90 mlrd neyronlardan tashkil topgan bo'lib, ular bir-birlari bilan shoxchalari (aksonlar va dendritlar) va sinaps-alloqalar yordamida 10 000 martadan ortiq bog'langan [5]. Miyaning aqliy rivojlanganligi aynan shunday alloqalar sonining ko'pligi bilan aniqlanadi. **Dendrit**- ma'lumotlarni qabul qiluvchi neyron shoxchalari. Har bir neyronda bir nechta dendrit shoxchalari bo'ladi. Neyronlarning dendritlari qancha ko'p bo'lsa u ma'lumotlarni shuncha yaxshi qabul qiladi va qayta ishlaydi. **Akson**- neyronning signallarni boshqa asab hujayralariga hamda muskul va ichki organlarning hujayralariga uzatuvchi shoxchalari. **Sinaps**- bir neyronning aksoni va boshqa neyronning dendriti, ya'ni neyronlar tanalarini bog'lovchi bo'ladi. U bir neyrondan ikkinchi neyronga signal uzatadigan o'ziga xos rele vazifasini o'taydi. Elektr signallari sinapsga yetganida kichkina pufakchaga o'ralgan va ikkita neyronlar orasida mediatorga aylanadigan maxsus modda ajraladi.

Bu «dofamin» gormoni bo'lib «rohatlanish, motivatsiya va o'qib-o'rganish» uchun mas'ul. U bilim olish ishtiyoqini tug'dirib, noradrenalin va adrenalinning biologik o'tmishdoshidir. Dofamin va serotonin rag'batlantirish sistemasining stimulyatorlari[6].

Dofamin – ta’lim jarayonida qiziquvchanlikni orttiradi. Qiziqish bilan o’rganilgan ma’lumotlar esa yaxshi o’zlashtiriladi. Bolaning eslash, bilim olish, qaror qabul qilish qobiliyatini yaxshilaydi. U baxtlik hissiyatini, ijodga moyillikni orttiradi.

Dofamin-bosh miyada neyromediator (qo’zg’atuvchi) vazifasini bajarib, signallarni markaziy asab tizimi bo’ylab bir neyron dan ikkinchisiga uzatilishiga yordam beradi va bosh miya yadrosiga ta’sir ko’rsatadi. Miyaning bu qismi esa ehtiros, xotira, qiziquvchanlik va motivatsiya uchun ma’sul bo’lgan markazlar bilan o’zaro ta’sirlashadi.

Dofamin ishlab chiqarilishini rag’batlantirish uchun: bodom, pista, ko’k choy, dengiz mahsulotlari, karam, olma, banan, qulupnay, shaftoli yeyish kerak. Jismoniy faol bo’lishi va normal uxlashi kerak. Maqsadga erishish yaxshi narsalar haqida o’ylash, shirin xotiralarni eslash ham dofamin ishlab chiqarilishini yaxshilaydi.

Kam harakat, semizlik, zararli odatlar (nikotin, kofein, alkogol va boshqalar) miyaning dofamin ishlab chiqarishiga salbiy ta’sir ko’rsatadi.

Miya rivojlanishi uchun qo’l va oyoqlarning harakati juda muhimdir. Inson miyasi kunida 19 km yurish uchun yaratilgan. Shuning uchun ham aqliy qobiliyatni yaxshilash uchun jismoniy harakat qilish kerak. Jismoniy harakat inson miyasini qon bilan ta’minlanishini, ya’ni miyani glyukoza va zaharli zarrachalardan tozalash uchun kislorod kelishini ta’minlaydi va miyadagi neyronlar aloqasini amalga oshiruvchi proteinning ishlab chiqarilishiga yordam beradi.

Aksariyat katta yoshli odamlar o’z orzularini tasavvur ham qila olmaydilar. Chunki ular bosh miyalarining o’ng yarimsharidan unumli foydalana olmaydilar. Aniqrog’i yoshliklaridan bu bilan shug’ullanmaganlar. Amalda esa bosh miyaning o’ng yarimsharini turli usullar bilan faollashtirib, uning yashirin imkoniyatlaridan foydalanish, xususan tasavvurni rivojlantirish mumkin. Bosh miyaning o’ng yarimsharini faollashtirish, har ikkala yarimsharlar faoliyatlarini muvofiqlashtirish va “ijodiy fikrlash” ko’nikmalarini rivojlantirish miya faoliyati unumdorligini oshirishga imkon beradi. Bosh miya po’stlog’i har ikkala yarimsharlarning hamkorlikda faoliyat ko’rsatishlarini ta’minlaydi. Chap va o’ng yarimsharlarning birgalikdagi faoliyatiga, ya’ni miya yarimsharlarining birgalikdagi fikrlashiga -“To’la fikrlash” deyiladi[7].

Bosh miya yarimsharlari faol ishlaydigan kishilarga «ambideksterlar» (ambidekstiriy - lotincha, ambi - har ikkala, dexter - o’ng) deyilib, - ularning nutqlari ravon va chiroyli, o’zlari hisob-kitoblarga mohir, his-tuyg’ulari jo’shqin va doimo ijodkorlikka intilgan bo’ladilar[8].

Ko’plab mashhur olimlar «ambidekster» lar bo’lishgan. Bular jumlasiga Leonardo de Vinchi, Yuliy Sezar, Benjamin Franklin, Nikolay Tesla, Andrey Saxarovlar kiradi.

Bolalar bosh miyalarining har ikkala yarimsharlarini ham faollashtirish maqsadida xalq ertaklari, xalq sport o'yinlari, xalq og'zaki ijodi, «intellekt xarita» dan foydalanish va ularning «ijodiy fikrlash» ini yaxshilashga erishish mumkin [9].

«Ijodiy fikrlash» jarayonida miya hujayralari o'rtasida aloqalar o'rnatiladi. Demak, miyada o'ziga xos «intellekt aloqalar» ya'ni xususiy ichki «intellekt xarita» vujudga keladi.

Bosh miya yarimsharlarining bir xil faol rivojlanishi eng ideal holatdir. Bunga quyidagi misollar yaxshi dalil bo'ladi:

musiqiy ta'lim olishda bosh miyaning chap yarimshari faol bo'lsa, turli tasavvurlar ostida tug'iladigan musiqiy asarning yaratilishi o'ng yarimsharning mahsulidir;

- shoir she'r yozganida o'xshatishlar qilish, fantaziya elementlarini topish uchun o'ng yarimshardan foydalansa, bu tuyg'ularni so'zlar yordamida ravon bayon qilishga chap yarimshar xizmat qiladi;

- arxitektor binoning tarxini chizganda uning fazoviy joylashuvi, estetik ko'rinishini aniqlashda o'ng yarimshar xizmatidan foydalanadi. Lekin barcha hisob-kitoblarni bajarish chap yarimshar yordamida amalga oshiriladi;

- E. Rezerford atomning planetar modelini tasavvur qilishda, N.Bor pastulanlarini taklif qilishda tasavvur qilishdan, ya'ni o'ng yarimshar xizmatidan foydalanishgan bo'lsa, ularning to'g'riligini isbotlovchi tajribalar tahlili va hisob-kitoblar chap yarimshar yordamida amalga oshirilgan;

- avtomobilning yangi modeli ko'rinishi ishlab chiqarishdan oldin konstruktor miyasining o'ng yarimsharida tasavvur qilinadi. So'ngra esa chap yarimshar yordamida texnik ko'rsatkichlari hisoblanadi.

Mutaxassislarining fikrlaricha besh yoshdan boshlab bolalar bosh miyalarining yarimsharlari «mutaxassisliklar»ga ajralisha boradi. Bunda til o'rganish qobiliyati muhim rol o'ynar ekan. Demak, besh yoshdan boshlab bolalarda «ijodiy fikrlash» elementlarini o'rgatishni boshlash mumkin. A. Einshteynning ham fanga qiziqishi 5 yoshidan, otasi unga kompasni ko'rsatgandan boshlangan. U skripka chalishni ham yaxshi ko'rgan.

Natijalar. «Intellekt xarita» yordamida o'quvchilarning «ijodiy fikrlash» ko'nikmalarini rivojlantirishning sarmahsul usuli sifatida

«Intellekt xarita» «ijodiy fikrlash» asosida istalgan muammoning yechimini topishning sarmahsul vositasidir.

Intellekt xaritaning ustunliklari. Verbal ma'lumotlarga vizual ko'rinish berish ta'limning samaradorligini bir necha marta oshiradi. Shu nuqtayi nazardan «Intellekt xarita» «ijodiy fikrlash» ga o'rgatishning ideal vositasidir. U nimalari bilan foydali:

- muammoga aniqlik kiritadi;

- muammoni yechishni rejalashtirish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni tartibga soladi;

- vaziyatni to'la tasvirlashga yordam beradi;
- verbal ma'lumotlarga vizual ko'rinish beradi;
- barcha zarur ma'lumotlarni saqlash vositasiga aylanadi;
- g'ayrioddiy yechimlarni rag'batlantiradi;
- fazoviy ko'rish intellektini rivojlantiradi.

«Intellekt xarita» ma'lumotlarni xotirada saqlashning sermahsul quroli bo'lishi bilan birga:


- «ijodiy fikrlashni» rivojlantiradi va fikrlash jarayonini g'ayrioddiy ifodalaydi. Yangi g'oyalar tug'ilishiga va ularning birlashuviga yordam beradi;

- muammoning eng maqbul yechimini topish uchun diqqat aniq mavzuga qaratilishini taqozo etadi. Bu esa diqqatni jamlashni o'rgatadi;

- ikkinchi darajali masalalarga e'tibor bermay, muammoning asosiy yo'nalishini aniqlab olishga o'rgatadi.

Tajribalarning ko'rsatishicha «intellekt xarita» inson miyasida ro'y beradigan fikrlash jarayonining tabiiy aksidir.

Quyida «Sensor kanallari» intellekt xaritasini keltiramiz.



Ushbu intellekt xaritada tasavvurga ozuqani idrok berishi va uning asosida bosh miyaning o'ng yarimsharida «ijodiy fikrlash» ning vujudga kelishi ko'rsatilgan.

Undan ko'rinib turibdiki, sensor kanallaridan keladigan ma'lumotlar bosh miyaning chap yarimshari bilan idrok qilinadi va narsaning aniq shakli tasvirlanadi. Ushbu ma'lumotlar asosida esa bosh miyaning o'ng yarimshari qismlarida «ijodiy fikrlash» elementlari vujudga keladi.

Keltirilgan intellekt xaritalar bir tomondan miya faoliyati, yarimsharlarining funksional mutaxassisliklari haqida bilimlarni chuqurlashtirishga, ikkinchi tomondan

o'quvchilarda «tasavvur» va «ijodiy fikrlash» ko'nikmalarining rivojlanishiga yordam beradi.

«Intellekt xarita» o'quvchilarning «tasavvur» qilish va «ijodiy fikrlash» ko'nikmalarining rivojlantirishning eng samarali usullaridan biri hisoblanadi [10]. Uni tuzish yangi g'oyalarning tug'ilishi, diqqatning jamlanishi va verbal ma'lumotlarni vizual ma'lumotlarga aylantirish, Unda ta'lim jarayonida unumli foydalanish imkonini beradi[11-13].

- Tabiiy fanlar, jumladan fizika fanini o'qitishda «bilvosita idrok»ning ahamiyati haqida fikr yuritilgan. Shu bilan birga idrok uchun olinadigan ma'lumotlarning bir qismining borliqqa aloqasi bo'lmay ular insonga DNK larimiz orqali o'tgan ma'lumotlardir. Ular esa tajriba, bilim va fikrlash natijasida faollashadilar.

- Inson sezgilari (sensor kanallari) imkoniyatlari cheklangan. Ma'lumotlar sensor kanallari yordamida qanday qayd qilinishi, ayniqsa yorug'lik ko'z vositasida qanday qabul qilinishi mexanizmi bayon qilingan.

- Signallarning neyron tolalari bo'ylab harakatlanishida «rohatlanish, motivatsiya va o'qib-o'rganish» garmoni dofaminning vazifasi bayon qilingan.

- Bosh miyaning har ikkala yarimsharini ham faollashtirish yordamida «to'la fikrlash» ko'nikmasini rivojlantirish va uning natijalari asoslangan.

- «Intellekt xarita» yordamida «to'la fikrlash» ko'nikmasi rivojlantirilib istalgan muammoning yechimini topish mumkinligi ko'rsatilgan.

- Maqolada «Sensor kanallari» intellekt xaritasi keltirilgan va qayd etilgan.

Adabiyotlar

1. Р. С. Немов «Психология» книга 3. Москва. Владос. 2005 г. 56-62 с.
2. В. Дубынин «Мозг и сенсорные системы» You tube.com 21.04.2017 г.
3. Головной мозг: Строение функции, общее описание. Golovai Mozg.ru
4. А.Акимов « О структуре человеческого глаза, сумеречном зрении и обработке мозгом импульсов» You tube.com 2014 г.
5. В. Дубынин «Базовы понятия, объясняющие химическую структуру мозга и принципы работы нейромедиаторов» You tube.com 27,02,2017 г.
6. Дофамин-гормон мотивации и радости. Обещание счастья. garmonal.ru. 21.07.2018.
7. Зденек М. Развитие правого полушария. Издательство Попурри, 2004 г.
8. Амбидекстр. Это кто такое. Psihomed.com.
9. Т. Бюзен «Интеллект карты» Москва «Манн, Иванов и Фервер» 2019 г.(105 стр)

10. [www.world mind mapping cannol. com](http://www.worldmindmapping.com).

11. G'aniyev Abduqahhor Gadayeovich - Shakhrisabz branch of Tashkent State Pedagogical University named after Nizami, Department of Pedagogy, Ph.D., associate professor. Ensuring The Safety Of Objects Of National Interests Of The Republic Of Uzbekistan In The Information Sphere Jour of Adv Research in Dynamical & Control Systems, Vol. 12, Issue-06, 2020.

12. A. G. G'aniyev, Sh. A. Ganieva, Z. Sh. Abdunazarova FORMATION OF "CREATIVE THINKING" SKILLS IN 5-6-YEAR-OLD CHILDREN WITH THE HELP OF MIND MAPS A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal **Researchfor** Revolution ISSN No-2581 –4230 Impact Factor-7.223 2020.

13. G'aniyev A.G. Using mind maps in formation of imagination and creative thinking skills in 5-6 year old children 2020. Volume Issue 11 European journal of molecular & clinical medicine. Pages 339-343.

O'RXUN YOZUVIDAGI «SIR» ETNONIMI VA SIRDARYO GIDRONIMINING O'ZARO ALOQADORLIGI

Nazarov N.A. – Toshkent Arxitektura-qurilish instituti professori

Annotatsiya. Maqolada Turk runologiyasi namunasi hisoblangan O'rxun toshbitigidagi "sir" etnonimi va Sirdaryo gidronimining o'zaro aloqadorligi masalalari tadqiq etiladi. Turkiy xalqlar etnogenezida muhim o'rin tutuvchi o'rta asrlardagi qipchoqlar O'rxun yodgorliklarida sirlar sifatida bitilganligi, ilk o'rta asrlarda va o'rta asrlarda Sirdaryo havzasida muhim mavqeni egallab, daryoning nomi ham sir-qipchoqlar bo'lgani bois Sirdaryo sifatida mintaqa xalqlari leksikonida muhrlanib qolganligi masalalari tadqiq etiladi.

Kalit so'zlar: O'rxun toshbitigi, sirlar, qipchoqlar, seyanto, tele, qadimgi turklar, qabila, Sirdaryo, etnonim, gidronim, tarixiy taraqqiyot.

ВЗАИМОСВЯЗ ЭТНОНИМА «СИР» В ОРХОНСКОЙ НАДПИСИ И ГИДРОНИМА СЫРДАРЯ

**Назаров Н.А. - профессор Ташкентского Архитектурно-
строительного института**

Аннотация. В статье исследуется связь этнонима сир отраженной в Орхонской надписи, которой являющейся образцом тюркской рунологии с гидронимом Сырдарья. Изучено, что средневековые кипчаки, сыгравшие

важную роль в этногенезе тюркских народов, отображенные как сирь в Орхонском памятнике, играли важную роль в бассейне Сырдарьи в раннем средневековье и средневековье, так как благодаря сиров-кипчаков название реки Сырдарья также вошло в лексикон народов региона.

Ключевые слова: Орхонские надписи, сирь, кипчаки, сеянто, теле, древние тюрки, племя, Сырдарья, этноним, гидроним, историческое развитие.

RELATIONSHIP OF THE ETHNONYM “SIR” IN THE ORKHON INSCRIPTION AND THE HYDRONYM OF SYRDARYA

Nazarov N.A. - Professor of the Tashkent Institute of Architecture and Civil Engineering

Annotation. The article examines the connection between the ethnonym Sire, reflected in the Orkhon inscription, which is an example of the Turkic runology with the hydronym of the Syr Darya. It is studied that the medieval Kipchaks, who played an important role in the ethnogenesis of the Turkic peoples, depicted as sirs in the Orkhon monument, played an important role in the Syr Darya basin in the early Middle Ages and the Middle Ages since thanks to the Sirs-Kipchaks, the name of the Syr Darya river also entered the lexicon of the peoples of the region.

Keywords: Orkhon inscriptions, Sirs, Kipchaks, Seyanto, Tele, ancient Turks, tribe, Syr Darya, ethnonym, hydronym, historical development.

Tarixiy taraqqiyot davomida ko‘plab toponimlarning etnonimlar bilan aloqadorligi kuzatiladi. Ayniqsa, bir etnos vakili yashagan yoki yashayotgan hududda joy nomlari va ushbu hududga yoki etnosga aloqador bo‘lgan tog‘, tepalik, soy, yaylov, buloq, quduq va h.k. nomlari ko‘plab uchraydi. Shu bois, Sirdaryo gidronimining O‘rxun yozuvida (To‘nyuquq bitiktoshi) uchraydigan sir etnonimi bilan bog‘liqligi ham haqiqatga yaqindir. O‘z fikrimizni isbotlash uchun tarixiy ma’lumotlarga murojaat etamiz.

Ma’lumki, bizning eramizning 605 yilida Sharqiy Tyan-Shanda yurgan sir qabilalari (Xitoy manbalarida Seyanto) G‘arbiy Turk xoqonligiga qarshi qo‘zg‘olon ko‘taradi, hoqonlik tarkibidan ajralib chiqib, ushbu hududni tark etishadi va hoqonning ukasi shad boshchiligida o‘z davlatlarini tashkil etishga muvaffaq bo‘lishadi.

Turklar ko‘chmanchi va o‘troq madaniyatga mansub superetnos sifatida insoniyat ijtimoiy-madaniy taraqqiyotga hissa qo‘shib kelganligi tarixdan ayon. Shuningdek, turkiy xalqlar umuminsoniy madaniyatning tarkibiy qismi bo‘lgan turkiy madaniyatga asos solib, tarixiy taraqqiyo davomida ijtimoiy-madaniy jarayonlar

rivojini ta'minlab keldi. Albatta, madaniyat, urf-odat va an'ana yozuvdan minglab yillar oldin shakllanib, madaniyatning nisbatan yuqori bosqichi yozuvni vujudga keltiradi. Albatta, turkiy xalqlar hamda ularning madaniyatga mansublik xislatlari haqida gap ketganda turkiylarni ko'chmanchilik madaniyati bilan bog'lash an'analari ilmda ustuvor mohiyatga ega. Lekin, bu ajdodlarimizni butunlay ko'chmanchi bo'lgan, o'troq madaniyat turkiylarga yot degani emas. Ko'chmanchilik madaniyatida mujassam bo'lgan passionarlik salohiyati dunyoni turklarga tanitgani kabi, turklarni ham dunyoga tanitdi. Turklar o'troqlashib, ilgari umuminsoniy sivilizatsiyaga hissa qo'shib kelgan bo'lsa, endi sivilizatsiyalashuv jarayonlarining boshida turdi. Ko'chmanchilik va o'troq madaniyati turkiy xalqlarga xos bo'lib, ularning o'zaro mujassamlashgan hosilasi turkiy sivilizatsiyani vujudga keltirganligi e'tiborlidir. Metallurgiya sanoatining ham tamal toshi qadimgi turklar tomonidan qo'yilgan bo'lib, ushbu jihat ham qadimgi turklarning o'troq hayot kechirganligini tasdiqlaydi. Zero, metal, jumladan oltin qazib chiqarib, ularga ishlov berish – faqat o'troq turmush tarziga ega bo'lgan xalqlargagina xosdir. Turkiy xalqlarga xos ushbu yutuqlar ularni Markaziy Osiyo mintaqasidagi yetakchilik mavqeini ta'minlab, ijtimoiy-madaniy taraqqiyotda ham turkiy omil yetakchi o'rinda namoyon bo'la boshladi. Turkiylar orasida, jumladan ularning yetakchi qabilalaridan biri bo'lgan sir-qipchoqlarning Markaziy Osiyo mintaqasidagi mavqei ijtimoiy hayotda aks eta boshladi. Mintaqadagi yirik daryo hisoblangan Sirdaryo atamasi bevosita qadimgi sir etnonimi bilan bog'liqligi, demakki turkiy xalqlar Sirdaryo havzasida qadimdan yashab kelayotganligi bilan birgalikda, ijtimoiy-madaniy taraqqiyotda ham sezilarni o'rin egallab kelayotganligini tadqiq etish ishning uslubini tashkil etadi.

Natijalar va muhokama. Yuqorida sirlar (seyanto) haqida to'xtaldik, bu etnonim turklar bilan bir qatorda O'rxun bitiktoshlarida ham uchraydi. «Qipchoqlarning qadimgi turkcha nomi "sir" edi, ular VI-VIII-asrlarga oid run yozuvlarida ham qayd etilgan. IV–VIII asrlarga oid Xitoy manbalarida "se" etnonimi ostida uchraydi, keyinchalik "seyanto" (V asrda, sirlar yamtar yoki yanto qabilalarini yengib, ularni ham o'z tarkibiga singdirishgan). Sirlar (seyanto) keyinchalik qipchoqlar sifatida tanildilar»[4, 5-b.]. Ya'ni: «Qipchoqlarning ajdodlari Tele qabilalari, so'ngra VI-VIII- asrlarda "seyanto" kichik guruhi bo'lgan»[12, 11-b.]. Albatta, seyanto turklarga nisbatan kichik guruh bo'lgan bo'lishi mumkin, lekin Turk hoqonligi sharoitida muayyan mavqega ega edi.

Xullas, sir qabilasi shad boshchiligida Xangayga ko'chib o'tib, O'tyukenda 619- yili o'z qarorgohlarini tiklaydilar. 628-yilda tele qabilalarining sirlar va uyg'urlar boshchiligida Sharqiy Turklarning Elhoqoniga qarshi kurashi avjiga chiqadi. Hoqon O'tyukenni hujumchi qabilalarga tashlab, o'zi hoqonlikning janubiy qismiga qochib ketadi. O'g'uzlarning, ya'ni turkiy qabilalarning bunday parokandaligidan foydalangan Tan (Xitoy) imperatori Tayszun Elhoqon qo'shiniga

zarba berib, 630 yilda sharqiy turk hoqonligiga barham berishga muvaffaq bo‘ladi. Yaxlit hoqonlikning barham topganidan so‘ng Xangayda sirlar va uyg‘urlar orasida nizo chiqib, sirlarning g‘alabasi bilan tugaydi. Shunday qilib Mo‘g‘uliston shimolida Elterish hoqon boshchiligida sirlar hoqimiyati tarix sahnasiga chiqadi. Hoqonlik Oltoydan Xinganga qadar hududni egallab, Yeniseyning yuqori havzasidan Gobigacha bo‘lgan hududlarni qamrab oldi. Tola daryosining shimoliy sohiligacha hoqonlikka bo‘ysunar edi. Ma‘muriy jihatdan yangi hoqonlik ham eski turk hoqonligi kabi g‘arbiy va sharqiy qanotlarga bo‘lingan edi. 641- yilda sir Jiyanchu Bilge xoqon hamda vafot etgan turk hoqoni – Xitoy tomonidan qo‘yilgan Elhoqon qo‘shinlari orasida shiddatli janglab bo‘lib o‘tadi. 646-yilda sirlarga qarshi uyg‘urlar boshchiligiga to‘qqiz-o‘g‘uz qabilalari urush boshlaydi. Va ular Xitoydan yordam so‘rab, birgalikda sirlarni yengishadi. 630-646-yillari tarix sahnasida faoliyat olib borgan sir hoqonligiga barham beriladi. Sirlarning o‘z hokimiyatini tiklashga bo‘lgan urinishlari 668 yili Xitoy tomonidan bostiriladi. Shunday qilib, sirlar o‘zlarining o‘n yilliklar davomida qarama-qarshi tarzda urushib kelgan o‘z qondosh qabiladoshlari bilan birga Xitoyga qaram bo‘lib qoladi. Hamda 679-yili sirlar va turklarning boshqa qaram qabilalari Xitoy hukmronligiga qarshi bosh ko‘tarishadi. Ikki yil davom etgan qurolli kurash natijasida 681 yilda ikkinchi turk hoqonligiga asos solinadi. Ushbu hoqonlik ham uyg‘urlar boshchiligida to‘qqiz-o‘g‘uz qabilalari ittifoqi tomonidan 687-691-yillar, 714-715-yillar va 723-724- yillardagi hujumlar natijasida susayib, 744-yili ikkinchi turk hoqonligiga ham barham beriladi. Mag‘lub sirlar Tola va O‘rxun havzalaridan shimoliy Oltoy va Sharqiy Tyan-Shan tomonlarga qochib ketishadi. 712-716-yillar oralig‘ida yozilgan To‘nyuqo‘q bitigida «Turk bilga hoqon Turk sir xalqini, O‘g‘uz xalqini tarbiyat qilib turibdi»[1, 79-b.], - deyiladi. 735-yilda qo‘yilgan Bilga hoqon bitiktoshida sir atamasi etnonim sifatida uchraydi [1, 126-b.]. Shunday qilib «Sirlar oxirgi marta manbalarda 735-yilda uchrab, etnonim sifatida tarix sahnasidan barham topib, boshqa nom bilan – qipchoq sifatida namoyon bo‘la boshlaydi. Va shu bilan sirlarning (seyanto) tarixi tugaydi»[8, 121-129-bb.]. Lekin, ijtimoiy-tarixiy jarayonlarda bir etnonimning ijtimoiy leksikondan tushishi, ushbu etnik qatlamning tamoman barham bo‘lishini bildirmasdan, balki tarix sahnasida boshqa etnonim bilan paydo bo‘lishiga imkon yaratadi. Zero, yuqorida ta’kidlaganimizdek, etnik transformatsiyalashuv jarayonlari qadimgi davrlarda, ilk o‘rta asrlarda va o‘rta asrlarda insoniyat tarixiy taraqqiyotida yaqqol kuzatiladi.

«Sirlar (seyanto) haqida shuni qo‘shimcha qilish mumkinki, xitoy yilnomalari, xususan Tanshu guvohligiga ko‘ra, seyanto, ya’ni sirlar tele qabilalari ichida kuchli bo‘lib, ular o‘z jang usullari bo‘yicha qadimgi turklarga o‘xshash bo‘lgan. Srostkin arxeologik madaniyatida sirlarning dafn etilish marosimlari qipchoqlarnikiga xos deb hisoblangan. Xususan jasadlarning o‘z oti bilan ko‘milishi qadimgi turklarda, so‘ngra esa seyanto, ya’ni sirlarda, so‘ngra esa IX–XII – asrlarda

qipchoqlar dafn marosimlarida uchraydi»[4, 5-b.]. Demak, Turk hoqonligi sharoitidagi sirlar o'rta asrlarda Yevroosiyo kengliklarida qipchoqlar sifatida ot surganlar.

Ya'ni, Turk hoqonligi sharoitidagi «sirlar» etnik transformatsiyalashuv natijasida qipchoq etnonimi ostida o'z faoliyatlarini davom ettiradi. «Etnotarixiy jarayonlarda etnosning shakllanib, yangicha mazmunda rivojlanishida etnik transformatsiyalashuv ham muhim o'rin tutadi. Etnik transformatsiya eski etnoslarning yangi ijtimoiy-madaniy sharoitlarga moslashib, o'z madaniyati tarkibiga inoetnik xususiyatlarni singdirib, etnoijtimoiy va etnomadaniy sahnada yangi etnik birlik sifatida qaror topishidir»[11, 58-59-bb.]. Bu yerda shuni ham ta'kidlash lozimki, transformatsiyalashuv jarayonlarida inoetnik madaniyatni singdirishi ham mumkin, singdirmasligi ham mumkin. Qolaversa, ushbu tarifni sirlarga nisbatan qo'llaniladigan bo'lsa, ular tarixiy shakllanishi yaxlit bo'lgan to'qqiz-o'g'uzlar bilan raqobatlashib yengilib, qipchoq sifatidagi etnonim raqobatchilari tomonidan sirlarga nisbatan kamsituv sifatida qo'llanilib, so'ngra sirlarning o'zlari ham ushbu kamsituvni etnonim sifatida qabul qilgan bo'lsalarda, biroq tarixiy tafakkurda ajdodlarining sir etnonimiga mansub ekanligi ham saqlanib qolganligi ayni haqiqatdir.

Manbalarda sir-qipchoqlar turk sifatida tilga olinib, butun turkiy xalqlar istiqomat qiluvchi shimoliy-sharqiy kenglik Qipchoq dalasi (Dashti Qipchoq) sifatida e'tirof etilishi tarixiy jarayonlarda ob'ektiv holat bo'lib, bir-birini to'ldirib kelishga xizmat qiladi. Bu borada mashhur turkolog olim S.Klyashtornyy: «Turk-qipchoqlar deganda shuni tushunish mumkinki, o'sha paytda qipchoqlarning yetakchi urug'i hukmronlik qilgan»[6, 162-b.], - deydi. Albatta, dovyurak yetakchi o'zi mansub bo'lgan elning ijtimoiy mavqeining yuksalishiga xizmat qiladi. Bu bois ham xalqlar tarixi buyuk shaxslar tarixidan iborat.

Shunisi e'tiborga molikki, qadimgi sirlarning avlodlari bo'lgan qipchoqlar turkiy xalqlar etnogenezida sezilarli iz qoldirganlar. N.A.Aristovning fikriga ko'ra «Qangli va qipchoqlardan janubiy-g'arbiy turklar, Volga tatarlari, boshqirdlar va boshqa xalqlar shakllangan, ular o'zbeklar, sartlar va qirg'iz-qozoqlarning shakllanishida ham muhim o'rin tutadi. Bugungi turklarning uchdan ikki qismi qangli va qipchoqlarning avlodlaridirlar»[2, 347-b.]. Bu borada olim o'z fikrini davom ettirib, «Kumanlarni qipchoqlar sifatida tushunish va qipchoqlarning qanglilar bilan qarindosh ekanligi hech qanday shubhaga o'rin qoldirmaydi. XII va XIII asr boshlaridagi musulmon allomalari qangli va qipchoqlarni sinonim sifatida ishlatishgan (Juvayniyning ta'kidlashicha Muhammad Xorazmshohning onasi qanglilardan bo'lgan, boshqa manbalar esa uni qipchoq deyishadi»)[2, 348-b.], - deydi. Demak, tarixiy sharoitlar taqozosi bilan elning yetakchisi qaysi etnik qatlamga mansub bo'lishiga qarab, etnonimlarning yetakchilik mohiyati o'zgarib turgan.

Oʻrta asrlarda tarixiy sirlarning avlodlari boʻlgan qipchoqlar turk davlatchiligi rivojida, shuningdek mintaqaviy etnoslararo jarayonlarda ham muhim oʻrin egallab, ularning ijtimoiy mavqei ham yuksak boʻlgan. «Turkon xotun (1150-1233) kelib chiqishi qipchoq boʻlgan Xorazm hukmdori. Qipchoqning boyovut urugʻidan...»[9]. Demak, Sirdaryo boʻyida joylashgan Boyovut tumani ham sir-qipchoq avlodlari sifatida oʻz ajdodlari etnonimi bilan atalgan daryo boʻyida ekanligi yuqorida ilgari surgan gipotezamizni tasdiqlashga xizmat qiladi.

Manbalarda aks etgan Sirdaryo talqiniga toʻxtaladigan boʻlsak, akademik V.V.Bartold: Sirdaryoga yunonlar tomonidan berilgan nom Yaksart boʻlib, u mahalliy xalqlar tomonidan Xashart sifatida qoʻllanilganligini, turklar Sirdaryoni Gavhar daryo (Жемчужной рекой) – Inju oʻgʻuz sifatida qoʻllaganliklarini aytib oʻtadi[5, 130-b.]. Toʻnyuquq bitiktoshida harbiy amaliyot ifodalangan shunday yozuvlar mavjud: «Elliktacha yigitni tutdik va oʻsha kechasiyoq har birini oʻz xalqiga joʻnatdik. U gapni eshitib, oʻn oʻq beglari, xalqi, hammasi bizga bosh egib keldi. Kelgan beklarni, xalqini surib, ozgina xalq qochgan edi. Oʻn oʻq lashkarini jang qildirdim. Biz ham lashkar tortdik, uni quvdik. Inju oʻgʻizni kechib Tinsi oʻgʻli yetadigan Bangligak togʻini oshib oʻtib, Temir darvozagacha quvib bordik. Oʻsha yerdan qaytardik» [13], - deyiladi. Bu yerda Inju oʻgʻiz sifatida bugungi Sirdaryo tilga olinadi. «Qadimgi turkiy til» oʻquv qoʻllanmasidagi Toʻnyuquq bitigida Inju oʻgʻiz atamasini Sirdaryoning oʻrta oqimi, sir esa quyi oqimi sifatida izohlanadi[1, 77, 84 bb.]. Shuningdek. Ulugʻ bitikda: «Sugʻdaq xalqini tuzatayin deb, Inju oʻgʻizni kechib, Temir qapiqqacha lashkar tortdik» [1, 109-b.], - deyilib, Inju oʻgʻiz sifatida Sirdaryo nazarda tutiladi. Taniqli etnolog olim Adham Ashirov «XIII-XIV – asrlarda Sirdaryo etagidagi Jand shahri yaqinida Joʻjixonning oʻgʻillari va nabiralari oʻrdasi «Sir oʻrda» deb atalgan. Qadimgi turkiy yodgorliklarda «sir» etnonimi ham uchraydi. Ushbu dalillar «sir» degan soʻzning etnonim ekanligi, asrlar davomida daryo nomiga aylanganligi va hozirga qadar yetib kelganligini koʻrsatadi» [3, 43-b.], - deydi. Demak, sir atamasining etnonimdan gidronimga aylanish jarayoni uzoq davom etib, bizning fikrimizda Sir hoqonligi (VIII-asr) sharoitida ijtimoiy tafakkurdan mustahkam oʻrin egallay boshladi. Olim Suyun Qorayevning fikriga koʻra: «XII-XIV-asrlarda Sirdaryo etagida Jand shahri yaqinida Joʻjixonning oʻgʻillari va nabiralarning oʻrdasi Sir oʻrda deb atalgan. Bu faktlar daryoning qadimiy nomlaridan biri ikki ming yil davomida xalq ogʻzida saqlanibgina qolmasdan, koʻchmanchi oʻzbek qabilalari Movarounnahrni bosib olgach, asta-sekin daryoning asosiy nomi (Sirdaryo) boʻlib qolganini koʻrsatadi» [16, 112-b.]. Sirdaryo gidronimi turkiy sir etnonimi bilan bogʻliq ekanligini yuqoridagi fikrlar ham isbotlaydi.

N.G.Mallitskiy ham ushbu masalaga toʻxtalib: «Sir atamasi baʼzan Sirdaryoning quyi oqimida joylashgan qozoq dalasining barcha janubiy qismini anglatadi»[10, 282-b.], - deydi. Albatta, N.G.Mallitskiy oʻrta asrlardagi tarixiy

manbalarda ifodalangan Xo'jand daryo, Sayhun atamalari ta'sirida shunday qarorga kelgan bo'lishi mumkin. Lekin, muhimi o'rta asrlar (XVI-XVII-asrlar)da yashab o'tgan Amin Ahmad Roziy o'z tazkirasida o'zbeklar va boshqa turkiy xalqlar Sayhunni Sirdaryo deb atashi to'g'risida tarixiy ma'lumotni yuqorida keltirdik.

Taniqli olim S.G.Klyashtornyy Sir nomi Silis sifatida qadimgi rimlik adib Pliniy tomonidan eramizning birinchi asrida tilga olingan, deydi. Ushbu atama dastlab daryoning quyi oqimidga nisbatan qadimgi sak etnonimi sifatida ishlatilgan bo'lsa, keyinchalik, ikki ming yilliklar davomida Orol bo'yidagi o'zbeklarning (XV-XVI – asrlar) ikki daryo oralig'i hamda yuqori oqim qismida keng joylashganliklari bois, ushbu atama butun daryoga nisbatan qo'llanila boshlangan, degan fikrni ilgari suradi [7, 189-190-bb.]. Demak, dastlab, qadimgi saklarga xos etnonim sifatida ishlatilgan bo'lsada, keyinchalik tarix sahnasida sirlarning mustahkam o'rin olganligi sharoitida (Sir hoqonligi - VIII-asr) Sir og'uz sifatida ijtimoiy muomalada mustahkam o'rin egallay boshlagan.

Abdulg'oziy Bahodirxon o'zining «Shajarai Turk» asarida Orol dengizini Sir dengizi sifatida tilga oladiki, Orol bo'yi asosan qipchoqlardan iborat ekanligi Sir gidronimining qadimgi etnonimning in'ikosi sifatidagi mohiyatini ta'minlashga xizmat qiladi. Akademik V.V.Bartold Abulg'oziy Bahodirxon Aral dengizini Sir dengizi sifatida tilga olganligin aytadi[5, 154-b.].

Fazlulloh ibn Ruzbexoni Isfahoniy o'zining «Mehmonnomayi Buxoro» asarida Sirdaryo haqida so'z yuritib, uning atrofi naylardan, ya'ni turklar qamish deb ataydigan o'simlikdan iborat bo'lib, chorva mollari uchun qulay joyligi haqida to'xtaladi, hamda shunday deydi: U Xo'jand va Shohruhiyadan boshlanib, uzunligi Turkiston bo'ylab uch yuz farsah (Farsah – Sharq mamlakatlaridagi uzunlik o'lchovi. Bir farsah taxminan bir otning bir soat davomidagi yurish masofasi, demak 7–9 km.ni tashkil etadi). O'zbek qishloqlaridan oqib, mahalliy aholi Qoraqum deb ataydigan sahro sari o'tib ketadi, deydi[14,73-b.]. Bu yerda alloma ta'kidlagan o'zbek qishloqlarida ham, so'ngra Qoraqum deb ataladigan sahroda ham qipchoq etnik qatlamining ulushi yuqoriligini hisobga olgudek bo'lsak, Sirdaryoning Qipchoqdaryo sifatidagi mohiyati namoyon bo'lib boradi.

Taniqli olim Shamsiddin Kamoliddin Sir gidronimining bir-necha talqiniga to'xtalib, uni To'nyuquq yozuvida ifodalangan hamda islomgacha zarb etilgan Xorazm tangalarida o'yilgan turk etnonimi bo'lgan «sir» bilan ham bog'lash mumkin, - deydi[15, 88-b.]. Va bunday bog'liqlik qadimgi, ilk va o'rta asr turklarining Markaziy Osiyo ijtimoiy-tarixiy voqe'ligida egallagan mavqeining yuksakligini dalillashga xizmat qiladi.

Ushbu tadqiqot ishining yangiligi shundan iboratki, unda birinchi bo'lib Sirdaryo gidronimi va sir etnonimining aloqadorligi, ya'ni o'zaro o'xshashligi tadqiq etilib, ilmiy jamoatcholik hukmiga havolas etiladi. Tarixiy tadqiqotlardan ma'lumki,

Sirdaryo havzasida Nurk hoqonligi sharoitida sirlar, oʻrta asrlarda esa qipchoqlar sifatida maʼlum boʻlgan etnik qatlam zich yashab kelmoqda. Qipchoqlar tarixiy taraqqiyot davomida mintaqqa ijtimoiy-siyosiy hayotida ham muhim oʻrin egallagan. Shu bois Sirdaryo gidronimi sir-qipchoq etnonimidan olinganligi haqida fikr yuritilganligi maqolaning yangilini tashkil etadi.

Umuman olganda, yuqorida fikrlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, Sirdaryoning yuqori, oʻrta va quyi oqimlarida qipchoqlarga mansub etnik qatlamning ilgaridan yashab kelayotganligi, tarixiy taraqqiyot davomida ilk oʻrta asrlarda sir, oʻrta asrlarda qipchoq etnonimi ostida faoliyat yuritgan etnik qatlam oʻz etnik atamalarini daryoga ham bergan. Daryoning Sirdaryo sifatida nomlanishi bevosita Oʻrxun yozuvi (Toʻnyuquq bitiktoshi)da ifoda etilgan sirlar nomi bilan bogʻliq.

Markaziy Osiyo mintaqasi tarixiy taraqqiyotida turkiy omilning oʻrni sezilarli. Qadimdan davlatchilik anʼanalariga ega boʻlgan turkiy xalqlar ushbu mintaqada bir-necha davlat tuzganligi, tarixiy toponim va gidronimlarning, xususan Sirdaryoning turkiy sir etnonimiga bogʻliqligi fikrimizni tasdiqlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Abdurahmonov Gʻ., Rustamov A. Qadimgi turkiy til. – Toshkent: «Oʻqituvchi», 1982.
2. Аристов Н.А. Заметки об этническом составе тюркских племен и народностей и сведения об их численности. – Санкт-Петербург, 1897.
3. Ashirov A. Oʻzbek madaniyatida suv. – Toshkent: Akademnasr, 2020.
4. Евстигнеев Ю.А. Кыпчаки / половцы / куманы и их потомки: к проблеме этнической преемственности. Москва: «Астерион», 2011.
5. К истории орошения Туркестана. Составитель академик В.В.Бартольд. – Санкт-Петербург, 1914.
6. Кляшторный С.Г. Кыпчаки в рунических памятниках //Turkologika. К восьмидесятилетию академика А.Н.Кононова. – Ленинград, 1986.
7. Кляшторный С.Г. Яксарт – Сыр-Дарья //Советская этнография, 1953. №3.
8. Кляшторный С.Г., Султанов Т.П., Государства и народы Евразийских степей. ... Петербургское Востоковедение, 2004: 2-е изд., исправл. и доп. 2004.
9. Культура и искусства тюркских народов //<https://web.facebook.com/nomadsgreatsteppe/posts/2332600293531247>
10. Маллицкий Н.Г. О некоторых географических терминах, имеющих отношение к Средней Азии //Изв. Всесоюзного географического общества. 1945. Т. 77. №5.

11. Назаров Насриддин. Марказий Осиёда миллатлараро муносабатлар. – Тошкент: «Global Books», 2018. – Б. 58-59.
12. Томпиев К.К. О тюркских племенах и народах Азии и Европы. Глава 54. Кимаки, кыпчаки. - Алматы: «КазАкпарат», 2010.
13. Тўнюкуқ битиги (Урхун битиглари) //Ш.Ўлжаева. Ўзбекистон тарихи. История Узбекистана. History of Uzbekistan. 9 августа 2017 г.
14. Фазлуллоҳ ибн Рузбехони Исфажоний. Михман-наме-йи Бухара (записи Бухарского гостя). Перевод, предисловие и примечания Р.П.Джалиловой. Под редакцией А.К.Арендса. – Москва: Восточная литература, 1976.
15. Шамсиддин Камолиддин. Исследования по исторической топонимии Средней Азии. Топонимы. Топоформанты. Этимологии. Saarbrücken^ Verlag /Издатель LAP Lambert Academic Publishing, 2013. – С. 88.
16. Qorayev S. Geografik nomlar ma’nosi. – Toshkent: O‘zbekiston, 1978.

AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING GLOBALLASHUVI SHAROITIDA YOSHLARDA OZOD SHAXS KO‘NIKMALARINI TARBIYALASH

**Tilayev.E.R. - Toshkent davlat pedagogika universiteti Shahrisabz filiali
Pedagogika fakulteti dekani, tarix fanlari nomzodi**

Annotatsiya. Ushbu maqolada hozirgi globallashuv sharoitida kishilar ongiga ko‘rsatilayotgan turli axboriy ta’sirlar, yoshlarni har xil destruktiv g‘oyalar ta’siridan himoyalash, yoshlar tarbiyasi borasida amalga oshirilishi zarur bo‘lgan vazifalar xususida so‘z yuritiladi. Shuningdek, hududimizda jamoa, mahalla bo‘lib, bir-biriga mehr-oqibatli bo‘lib yashaydigan xalqimiz davr qanchalik o‘zgarmasin, tarix sinovidan o‘tgan o‘z qadriyatlariga sodiq bo‘lib yashashi, bu hodisani zamonaviy fikrlaydigan, dunyoga teran nazar tashlaydigan odam to‘g‘ri tushunishi, tan olishi va uni hurmat bilan qabul qilishi haqida ayrim ma’lumotlar taqdim etilgan.

Kalit so‘zlar: globallashuv, ommaviy axborot vositalari, shaxs, ta’lim, tarbiya, ma’naviyat, mafkuraviy bo‘shliq “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar”, internet xalqaro axborot tarmog‘i, murakkab geosiyosat, g‘oyaviy-mafkura.

ВОСПИТАНИЕ НАВЫКОВ СВОБОДНОЙ ЛИЧНОСТИ У МОЛОДЕЖИ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Тилаев.Э.Р - декан педагогического факультета Шахрисабзского филиала Ташкентского государственного педагогического университета, кандидат исторических наук

Аннотация. В статье рассматриваются различные информационные воздействия на сознание людей в современных условиях глобализации, защита молодежи от влияния различных деструктивных идей, задачи, которые необходимо решать в воспитании молодежи. Также важно, чтобы наши люди, которые живут в нашем регионе как сообщество, в гармонии друг с другом, были верны своим проверенным временем ценностям, понимали, признавали и уважали это явление.

Ключевые слова: глобализация, СМИ, личность, образование, воспитание, духовность, идеологическое пространство «Духовно-просветительская работа», международная информационная сеть Интернет, сложная геополитика, ояви-идеология.

EDUCATION OF FREE PERSONAL SKILLS IN YOUNG PEOPLE IN THE CONNECTION OF GLOBALIZATION OF INFORMATION TECHNOLOGIES

Tilayev.E.R. - Dean of the Faculty of Pedagogy, Shahrissabz branch of Tashkent State Pedagogical University, Candidate of Historical Sciences

Annotation. The article discusses the various information's huge impact on the thoughts of people in the current globalization, the protection of young people from the influence of various destructive ideas, the tasks that need to live faithfully to their long traditional values, understand, acknowledge and respect this phenomenon. At the same time, the most dangerous information threats hinder the implementation of state policy in the field of spirituality and enlightenment, according to information security experts, one of the best ways to combat information threats is to provide the population with the necessary information.

Key words: globalization, mass media, personality, education, upbringing, spirituality, ideological space "Spiritual and enlightenment work", internet international information network, complex geopolitics, oyavi-ideology.

Yangi ming yillikka kelib insoniyat erishgan ilm-fan va texnika taraqqiyoti insoniyat va jamiyat moddiy ehtiyojlarini qondirish uchun ulkan imkoniyatlar yaratdi. Ijtimoiy hayotining qator sohalarida zamonaviy texnologiyalar jamiyat a'zolari turmushini keng mahsulotlar bilan ta'minlashga va xizmat ko'rsatish sohasini jadal

rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratishga imkoniyat beradi. Shuningdek, axborot yaratish va tarqatish sohasida ham mislsiz yutuqlarga erishildi.

Uzoq yillik hayotiy tajriba shuni ko'rsatadiki, har qanday taraqqiyot mahsulidan ikki xil maqsadda – ezgulik va yovuzlik yo'lida foydalanish mumkin. Agarki bashariyat tarixi, uning tafakkur rivojini tadrijiy ravishda ko'zdan kechiradigan bo'lsak, hayotda insonni kamolotga, yuksak marralarga chorlaydigan ezgu g'oya va ta'limotlar bilan yovuz va zararli g'oyalar o'rtasida azaldan kurash mavjud bo'lib kelganini va bu kurash bugun ham davom etayotganini ko'ramiz.

Globalashuv jarayonining yana bir o'ziga xos jihati shundan iboratki, hozirgi sharoitda u mafkuraviy ta'sir o'tkazishning nihoyatda ta'sirchan quroliga aylanib, har xil siyosiy kuchlar va markazlarning manfaatlariga xizmat qilayotgani sir emas. Qolaversa insonning axborotga bo'lgan ehtiyoji har qachongidan yuqori sur'atlar bilan o'smoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Mafkura sohasida bo'shliq degan narsaning o'zi hech qachon bo'lmaydi. Chunki insonning qalbi, miyasi, ongu tafakkuri hech qachon axborot olishdan, fikrlashdan, ta'sirlanishdan to'xtamaydi.

Demak, unga doimo ma'naviy oziq kerak. Agar shu oziqni o'zi yashayotgan muhitdan olmasa yoki bu muhit uni qoniqtirmasa, nima bo'ladi, aytinglar? Bunday oziqni u asta-sekin boshqa yoqdan izlaydi. Shunga yo'l bermasligimiz kerak. Mana, gap nima haqida ketyapti" [1:484].

Demak, hozirgi yoshlarni qanday axborot bilan ta'minlashda, ular nima yaxshi yoki nima yomon ekanligini ajrata bilsin. Ya'ni, axborotni tanlash va undan unumli, to'g'ri foydalanish, axborot olish, axborot bilan ishlash madaniyatini shakllanitirish muhim ahamiyatga ega. Hozirgi paytda yoshlarning internetdan to'g'ri foydalana olish madaniyatini tarbiyalashga erishmog'imiz lozim. Mamlakatimizda Internet xalqaro axborot tarmog'ini zarur milliy ma'lumotlar bilan to'ldirish ham bugungi kunning eng dolzarb vazifasidir. Agar biz yoshlarda internetdan axborot olish madaniyatini shakllantirsak, axborot xurujiga qarshi immunitetni kuchaytirgan bo'lamiz.

Hududimizda jamoa, mahalla bo'lib, bir-biriga mehr-oqibatli bo'lib yashaydigan xalqimiz davr qanchalik o'zgarmasin, tarix sinovidan o'tgan o'z qadriyatlariga sodiq bo'lib yashashni ma'qul ko'radi. Bu hodisani zamonaviy fikrlaydigan, dunyoga teran nazar tashlaydigan odam to'g'ri tushunishi, tan olishi va uni hurmat bilan qabul qilishi lozim.

Ushbu tarixiy haqiqatni anglamaydigan yoki anglashni istamaydigan chet eldagi ba'zi siyosiy kuchlar va markazlar nafaqat siyosat yoki iqtisodiyot, balki ma'naviyat bobida ham bizga aql o'rgatishga, azaliy hayot tarzimiz, ruhiy dunyomizga yot bo'lgan qarashlarni majburan joriy etishga urinmoqda. Bunday kuchlarning g'arazli munosabati, uning tagida yotgan manfaatlarini, bu manfaatlarini

amalga oshirish uchun turli usul va vositalar bilan zo‘r berib urinayotgani barchamizni tashvishlantirmasdan qolmaydi. Bu masala xususida O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov shunday yozadi: «Nega deganda, insoniyatning ko‘p ming yillik tajribasi shundan dalolat beradiki, dunyodagi zo‘ravon va tajovuzkor kuchlar qaysi bir xalq yoki mamlakatni o‘ziga tobe qilib, bo‘ysundirmoqchi, uning boyliklarini egallamoqchi bo‘lsa, avvalambor, uni qurolsizlantirishga, ya’ni eng buyuk boyligi bo‘lmish milliy qadriyatlari, tarixi va ma’naviyatidan judo qilishga urinadi [2:11]. Binobarin, ma’naviyatga qarshi qaratilgan har qanday tahdid o‘z-o‘zidan mamlakat xavfsizligi, uning milliy manfaatlari, sog‘lom avlod kelajagini ta’minlash yo‘lidagi jiddiy xatarlardan biriga aylanishi va oxir-oqibatda jamiyatni inqirozga olib kelishi muqarrar. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-iyundagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida” gi Qarorida dunyoda yuz berayotgan murakkab geosiyosiy va g‘oyaviy-mafkuraviy jarayonlarning mazmun-mohiyatini har tomonlama chuqur yoritib borish, terrorizm, diniy ekstremizm, aqidaparastlik, separatizm, odam savdosi, “ommaviy madaniyat”, narkobiznes va boshqa tahdidlarga qarshi samarali g‘oyaviy kurash olib borish, jamiyatimizning barqaror rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotgan ichki tahdidlar – el-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug‘-aymoqchilik, oilaviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasiga e’tiborsizlik kabi holatlarga barham berishga qaratilgan kompleks tadbirlar tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish kabi ustuvor vazifalar yechimi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda [3].

«Kimki axborotga ega bo‘lsa, u dunyoga egalik qiladi» degan fikr ustuvorlik qilayotgan hozirgi dunyoda insonning tom ma’nodagi erkin inson bo‘lib yashashiga qarshi qaratilgan, uning aynan ruhiy dunyosini izdan chiqarish maqsadini ko‘zda tutadigan g‘oyaviy va informatsion xurujlar quyidagicha namoyon bo‘lmoqda: demokratiya, demokratik qadriyatlar eksporti; halifalikni qayta tiklashga urinishlar; axloqsizlik g‘oyalarini targ‘ib qilish; “ommaviy madaniyat” hodisasi; kosmopolitizm; axloqiy degradatssiya va shu kabilar.

Axborot tahdidlari xususida gap ketganda uning universalligi, barcha boshqa sohalarga jiddiy salbiy ta’sir qilish imkoniyatini ta’kidlash lozim. Salbiy jihatlar natijasi shaxs dunyoqarashi, jamiyat barqarorligi, davlat tinchligi, jamoatchilik fikrini chalg‘itish va oxir-oqibatda har bir mamlakatning ma’naviy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy yuksalishiga bo‘lgan ta’sirlarda ifodalanadi. Ijobiy va salbiy axborotni farqlash, yaxshi ma’lumotni o‘zlashtirish va zararlisini rad etish uchun inson ongi rivojlangan, uning o‘zida esa mustahkam iroda, axborot iste’moli madaniyati, mafkuraviy immunitet, oqni-qoradan, yaxshini-yomondan ajrata olish qobiliyati rivojlangan bo‘lishi zarur. Mamlakat aholisining barchasi bunday imkoniyatga ega, deyish qiyin.

Axboriy tahdidlarning eng xavflisi – ma’naviy-ma’rifiy sohadagi davlat siyosatini ta’minlashga xalaqit berayotganlaridir. Chunki agar shaxsga salbiy ta’sir tor doiradagi odamlarni qamrab olsa, davlat va jamiyatga tahdid butun bir mamlakat, xalq tinchligini xavf ostiga qo’yadi. Bu juda katta va jiddiy muammodir.

Axborot xavfsizligi sohasi mutaxassislarining fikrlariga ko’ra, axborot tahdidlariga qarshi kurashning eng maqbul yo’llaridan biri mamlakat o’z aholisini zarur axborot bilan ta’minlashi hisoblanadi. Albatta, bunday axborot to’liq, sifatli va haqqoniy bo’lishi shart, aks holda jamiyat a’zolari boshqa manbalarga murojaat etadilar. Chunki inson psixologiyasining shunday bir xususiyati borki, agar u biror bir voqea bo’yicha uch-to’rt soat ichida ma’lumot (jumladan, rasmiy) ololmasa, paydo bo’lgan axborot bo’shlig’ini har xil uydirma va mish-mishlar to’ldiradi.

Mamlakatimiz ijtimoiy hayotining turli sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlar, ijtimoiy munosabatlar va tuzilmalardagi ijobiy o’zgarishlar, demokratlashuv jarayonlari shaxsga o’z yo’lini o’zi tanlashi, belgilashi uchun qulay imkoniyatlar yaratdi. Shunday sharoitda ommaviy axborot vositalari oldiga juda katta strategik masalalarni hal etishga ko’maklashish vazifasi qo’yilgandir. Zero, Ommaviy axborot vositalarining ijtimoiy ongni maqsadga muvofiq shakllantirish, aholining stereotiplari hamda ustanovkalarini tarkib toptirish borasidagi imkoniyatlari juda kengdir.

Harakatlar strategiyasida ko’rsatib o’tilgan ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotning ustuvor yo’nalishlari bevosita jamiyat ma’naviy-axloqiy negizlarining rivojlanishi bilan bog’liq. Bu negizlar umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, xalqimizning ma’naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish, insonning o’z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi, vatanparvarlikdan iborat. Mazkur ma’naviy-axloqiy negizlar zamirida umuminsoniy va milliy qadriyatlar mushtarakligiga, fuqarolarimizning ma’naviyatini shakllantirishga erishish yotadi.

Darhaqiqat, inson bolaligidanoq jamiyatda o’z o’rniga ega bo’lishi uchun o’zining jamiyat bilan munosabatiga oydinlik kiritib olishi, jamiyat qonuniyatlarini anglashi, undagi o’zgarishlar va yangiliklardan o’z vaqtida boxabar bo’lib turishi lozim. Demak, bunda shubhasiz ommaviy axborot vositalarining o’rni beqiyos. ommaviy axborot vositalari shaxs tafakkuri, estetik didini shakllantirish orqali jamiyat taraqqiyotiga kuchli ta’sir etuvchi vosita ekanligi va bunda matbuotning o’rni va rolini o’rganish eng dolzarb masalalardan biri ekanligi ayon bo’ladi.

Ommaviy axborot vositalarilar bugungi kunda erkin fikr maydoniga aylanib bormoqda. Matbuot mustaqillik g’oyasini yurtdoshlarimiz qalbi va ongiga singdirishda beqiyos xizmat qilmoqda. O’lmas madaniy merosimiz, milliy istiqloq mafkurasi bunyodkor xalqimizning boy ma’naviy qadriyatlarini targ’ib qilmoqda. Zero, bugungi kunda matbuot insonning o’zini-o’zi, kimligini idrok etishga, hayotning ma’no-mohiyati nimadan iborat ekanligini teran tushunishga, yoshlarni

ma'naviy tarbiyalashga xizmat qilmoqda. Bu, ayniqsa, ijtimoiy-siyosiy gazeta-jurnallar, televideniye va radio faoliyatida yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Ayrim tele va radiokanallardagi reklamalar, bukletlar, turli xorij matbuot nashrlaridagi maqolalar – bularning hammasi axboriy manipulyatsiya ta'siriga tushmaslik maqsadida shakllantiriladigan ko'nikmalarni tarkib toptirishda asosiy manba, «ko'rgazmali qurol» bo'lishi mumkin. Shu bilan birga turli ommaviy axborot vositalarilarning kishi ongiga ta'siri masalasidan tashqari, turli destruktiv guruhlar, kult va sektalarning shaxs, davlat, jamiyat xavfsizligiga ko'rsatayotgan tahdidi ko'lami ham hozirgi vaqtda oshib bormoqda. Bunday guruhlariga a'zolari jalb qilish va ongni nazorat qilish modeli, guruhiy bosim ko'rsatish usullari va «aqlni peshlash» vositalari to'g'risida nafaqat talabalar, balki o'qituvchilar ham yetarli ma'lumotga ega emaslar. Shu tariqa, kishi ongiga destruktiv ta'sir ko'rsatilish ehtimoli xavfi yuqori darajada qolmoqda. Shuning uchun ta'lim-tarbiya jarayonida, turli vositalar orqali berib boriladigan axborotlar yoshlarning psixologik qaramlik sirtmog'iga tushib qolish xavfini imkon qadar pasaytirishga yo'naltirilgan bo'lishi zarur.

Albatta, bu borada mamlakatimizda talaygina ishlar amalga oshirilgan va bu jarayon davom etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-iyundagi «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida»gi PQ-3160-sonli qarorining qabul qilinganligi, 2017-yil 18-iyundagi "O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini takomillashtirishga doir kompleks chora-tadbirlar to'g'risida" gi qarorning qabul qilinishi yoshlar siyosatining O'zbekistonda kun tartibidagi asosiy masalalardan biri ekanligidan dalolat beradi.

Biroq shu bilan birga yoshlar ongiga salbiy ta'sir o'tkazayotgan destruktiv g'oyalarga qarshi kurashish, bu boradagi profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirishda ilmiy asoslangan yaxlit ijtimoiy-psixologik, pedagogik, ijtimoiy-madaniy tizimni yaratish zaruriyati yuzaga kelganligini ham ta'kidlash joiz.

Bugungi globallashuv jarayonlarida axborotlashuvning kengayishi ma'naviy tahdidlarning yanada kuchayishiga olib kelmoqda. Bu esa ma'naviyatni yoshlar ongiga singdirish, inson qalbiga yo'l topishni har tomonlama puxta o'ylagan tizimli ravishda olib borish bu sohadagi faoliyatni yanada kuchaytirishni talab etmoqda. Yoshlar tarbiyasida ma'naviy xavfsizlik masalasi haqida gapirganimizda shuni aytish joizki, tadqiqot mavzusining muhim qirralaridan biri bo'lmish milliy ma'naviy xavfsizlik omillari roli masalasini tadqiq etish muammosi yanada dolzarblashib boraveradi. Yoshlarimizda intellektual salohiyatni yuksaltirish, ulardagi milliy o'zlikni anglashni kuchaytirish, millatparvarlik va vatanparvarlik tuyg'ularini oshirish masalalariga alohida to'xtalish zarur bo'ladi.

Birinchiidan, yoshlarga hozirgi davrning mafkuraviy manzarasi, sodir bo'layotgan mafkuraviy tahdidlar va undan ko'zlangan maqsadlarning asl mohiyatini yoritib berishga erishish zarur.

Ikkinchidan, yoshlarga mustaqillik har doim xalqimizning azaliy orzusi bo‘lib kelganligi, turli zamonlarda unga qanday erishilganligini milliy davlatchiligimiz tarixidan yorqin misollar bilan tushuntirish orqali ularning mustaqilligimizning fidoiylari bo‘lib tarbiyalanishlariga erishish zarur.

Uchinchidan, tarbiya masalasida yurt tinchligi, uning farovonligi, ozodligi uchun jonini ham fido etgan milliy qahramonlarimiz hayotidan namunalar keltirish orqali yoshlardagi vatanparvarlik tuyg‘ularini mustahkamlash borish talab etiladi.

To‘rtinchidan, yoshlarni milliy-ma’naviy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, xalqimizning tarixiy merosi, urf-odatlar va milliy tarbiya an’analarini asrab-avaylash, keng aholi qatlamlari, ayniqsa, yoshlarimiz o‘rtasida dinlararo bag‘rikenglik, millatlararo totuvlik va o‘zaro mehr-oqibat muhitini mustahkamlash, ularda milliy o‘zlikni anglashning yuksak darajada bo‘lishiga erishish.

Beshinchidan, o‘rta maxsus ta’lim tizimida internet bilan ishlash madaniyatini yo‘lga qo‘yishga doir o‘quv kursini yo‘lga qo‘yish zarur. Bu kurs davomida yoshlarimizda internet bilan ishlashga doir amaliy ko‘nikmalar shakllangan bo‘lishi lozim.

Adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. –Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU ,2017. -484-b.
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: “Ma’naviyat”, 2008. –11-b.
3. Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, № PQ-3160, 28-iyul 2017-yil
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 28 iyundagi «Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida»gi PQ-3160-sonli qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-iyuldagi «O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini takomillashtirishga doir kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-3180-sonli qarori.
6. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. Toshkent:“O‘zbekiston”NMIU,2017. 484-b.
7. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. –Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU,2018.
8. Jumaniyozov X., Globallashuv asoslari. Monografiy. – T.: 2015.
9. Qodirov B., Jumaniyozov X., Qodirov B. Globallashuv sharoitida yoshlarda vatanparvarlik va daxldorlik tuyg‘usini tarbiyalash masalalari. – T., 2015.

DRAMALARDA QAHRAMONLIK MODUSINING TRANSFORMATSIYASI

Ahmedova V.A.- Toshkent davlat pedagogika universiteti izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada mustaqillik davri o‘zbek dramaturgiyasida qahramonlik modusining transformatsiyasi hodisasi E.A’zamning “Suv yoqalab” dramasi tahlili asosida yoritilgan. Qahramonlik modusining transformatsiyasi atamasi o‘zbek dramaturgiyasida yangilik ekanligi, mazkur hodisa jahon dramaturgiyasida mavjudligi, lekin o‘zbek adabiyotida aynan mustaqillik yillaridan so‘ng shakllanayotganligi “Suv yoqalab” dramasi tahlili misolida tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: drama, melodrama, tragediya, transformatsiya, komediya, roman, modus, lirizm, tragizm, komizm, konflikt, kulminatsiya, remarka, replika, monolog, dialog.

ТРАНСФОРМАЦИЯ ГЕРОИЧЕСКОГО МОДУСА В ДРАМАТУРГИИ

Ахмедова В.А. - исследователь Ташкентского государственного педагогического университета

Аннотация. В данной статье был освещен феномен трансформации героического образа в узбекской драматургии в период независимости на основе анализа драмы Э. Аъзама “Сув ёқалаб” (“У воды”). Термин трансформация героического модуса изучался на примере анализа драмы “Сув ёқалаб” (“У воды”), который является новшеством в узбекской драматургии. Это явление существовало в мировой литературе, но в узбекской драматургии оно появилась в период независимости.

Ключевые слова: драма, мелодрама, трагедия, трансформация, комедия, роман, модус, лиризм, трагизм, комизм, конфликт, кульминация, ремарка, реплика, монолог, диалог.

TRANSFORMATION OF THE HEROIC MODE IN DRAMA

Ahmedova V.A. – Researcher of Tashkent State Pedagogical University

Annotation. In this article, based on the analysis of E. Azam’s drama “Suv yoqalab” (“By the water”), the phenomena of the transformation of the heroic image in the Uzbek drama of the period of independence was highlighted. The concept

transformation of the heroic mode was studied on the example of the analysis of the drama “Suv yoqalab” (“By the water”), which is an innovation in Uzbek drama.

Key words: drama, melodrama, tragedy, transformation comedy, novel, mode, lyricism, tragic, comedy, conflict, culmination, remark, replica, monologue, dialog.

E.A'zamning aksariyat dramalarida insonning suvga bo'lgan munosabati u yoxud bu darajada o'z aksini topgan. Jumladan, “Suv yoqalab” asarida Bolta Mardonning ko'ngil hollari bevosita tashnalikni qondirish istagi yo'lidagi o'y-mulohazalar, xatti-harakatlar fonida ochiladi. “Zabarjad” asarida esa, bosh qahramon otasidan ayrilib qolishidan tortib, sho'rlik qizning butun g'urbatli hayoti-yu, kutilmaganda chorbog'ida shifobaxsh buloq paydo bo'lishigacha bo'lgan barcha jarayonlar aynan suv badiiy detaliga bog'lanishini kuzatish mumkin. Binobarin, zohiran unchalik ahamiyatsizday tuyulgan suv detaliga daxldor barcha tafsilotlar o'ziga xos g'oyaviy-badiiy yuk tashiydi. Hissiy idrok qilish mumkin bo'lgan darajada predmetlashib, xarakterlarning uzviy bo'lagiga aylanadi. Demak, badiiy voqelik yaratish vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

Darhaqiqat, “Suv yoqalab” asarida ifodalangan suv bog'-rog'larning tashnaligini qondiruvchi jo'n detal bo'lmay, polifunksional tabiatga ega ekani bilan e'tiborimizni tortadi. Uning ortida zamondoshimiz maishiy turmush tarzi – badiiy realiya mavjud. Yozuvchi detalni birinchidan, badiiy harakat, portret, peyzaj tasviri, hayotiy vaziyat-holatlarni jonlantirish, ruhiy holatlarni ishonchli dalillash maqsadida qo'llaydi. Bu o'rinda badiiy detalning psixologik funksiyasi yorqin namoyon bo'ladi. Ikkinchidan, detal voqelikni to'laqonli tasvirlash, fikr-tuyg'uni to'ldirish, ekspressivlikni kuchaytirishga xizmat qildirilgan o'rinlarda uning umumlashtiruvchilik funksiyasidan foydalaniladi. Uchinchidan, adib kitobxon diqqatini suv detaliga yo'naltirish orqali uning retseptiv ustanovka berish funksiyasiga murojaat qiladi va asarning ishontirish kuchini yanada orttiradi.

“Suv yoqalab” asarida zohir ko'zi ojiz, yuzlari chechak kasali asoratidan bujir tortgan, ammo ko'ngil nigohi tiyran mo'ysafid obrazi e'tiborimizni tortadi. Chunki mazkur qahramon asardan-asarga ko'chib yuradi. Jumladan, biz uni “Erkak” filmida ham uchratamiz. Keksa donishmand, e'tiqodi butun, e'tiborli zot – Hamro bobo Bolta Mardonning ota qadrdoni. Uni asarning ikki o'rnidagina uchratamiz. Birinchisida, Bolta Mardon o'g'illari bilan suv yoqalab quloqboshiga borarkan, uning yo'li muroqaba holatida o'tirgan Hamro boboning supasi yonidan o'tadi. Chunki tunda noxush tush ko'rgan va marhumlar ruhini shod etish istagida bo'lgan raisni ichki sezgilar shu manzil tomon boshlab keladi. Rais kenja o'g'li orqali Hamro boboga pul berganida uning yuzlarida jilmayishga o'xshash bepisand va istehzoli ifoda zohir

bo‘ladi. Albatta, rais bu yuz ifodasining ma‘nosini ilg‘amay qolmaydi. Ikki o‘rtada shunday suhbat bo‘lib o‘tadi:

Hamro bobo: – Buni nima qilay, rais?

Bolta Mardon: – Xo‘rozqand olib yeysiz, Hamro bobo! Kecha deng, rahmatli otam, oshnangiz, tushimga kiribdi. Bir tilovat qilib qo‘yarsiz. Irimi-da.

Hamro bobo: – Tilovat irimiga emas, chin ixlos bilan qilinadi, rais!

Bolta Mardon: – Bilaman, bilaman. Biz sizga ishonamiz-da, Hamro bobo. [10, 12-13]

Biz obrazlarga bo‘lib keltirgan yuqoridagi dialogda necha yillar qishloqda dovuq solib, davron surgan, yoshi oltmish beshga yetganiga qaramay, hamon ona zamin va tashnalikdan o‘rtanayotgan dov-daraxtlar bilan tillashib, Xudoning shu yaratilishiga joni achiganidan suv yoqalashni o‘ziga or bilmay, yo‘lga chiqqan Bolta Mardon va Hamro bobo e‘tiqod darajasi qiyoslanganday bo‘ladi. Anglashiladiki, u raislik va firqalik nuqsi urgani uchun cholning kesatliklariga “Xo‘rozqand olib yeysiz” deya bir oz zarda bilan javob beradi. Uning siz ham yuzingga solyapsizmi?-qabilidagi bu nolishi Hamro boboning ko‘nglini yumshatmaydi. Shuning uchun ham u ixlosning samimiy va dildan bo‘lishidan so‘z ochadi.

Bolta Mardonning Hamro boboga ixlosi esa bir jihatdan, avliyosifat bu mo‘ysafidning o‘ta qadr don ekani, qolaversa cholning ko‘ngli, so‘zi va amali o‘zaro uyg‘unligi havas qilishi bilan izohlanadi. Bu hol, ayni muammoning ijtimoiy-ma‘naviy ildizlarini taftish etish, xususan sho‘roning ishiga aralashmaganida, uning xudosizlik siyosati zalvari ostida muttasil tahlika bilan yashamaganida Bolta Mardon ham ehtimol Hamro bobo singari taqvodor odam bo‘lishi mumkin edi, -degan gipotetik to‘xtamga kelishga imkon beradi.

Albatta, bu ehtimoliy talqinga ergashish drama badiiy matniga zug‘um o‘tkazish bo‘lardi. Chunki Bolta Mardon o‘zi to‘g‘ri deb bilganlarini hamisha ham ochiq-oydin aytolmadi. Sho‘roning g‘azabidan qo‘rqib, buyurilgan ishlarni so‘zsiz bajardi. Garchi uning qalbidagi nur so‘nmagan, hech qachon vijdoniga qarshi bormagan bo‘lsa ham, pirovardida ayrim kishilarning malomatlaridan ham qochib qutula olmadi. Ammo bir mo‘min sifatida hamisha o‘z xatolarini tan oldi. Mag‘firatli va rahmli zotni eslab nadomat chekdi, istig‘for aytdi – umidini zinhor so‘ndirmadi.

Demak, dramada psixoanalitik talqin unsurlari kuzatiladi. Bu hol Bolta Mardonning o‘z ruhi va vijdoni o‘rtasidagi kurashdan keladigan ruhiy musaffolikni his qilishida bo‘y ko‘rsatadi. E.A’zam asarda Hamro bobo va Bolta Mardonning quyidagi muloqotini keltiradi:

Hamro bobo: “ – Xizr alayhissalom bilan Muso alayhissalom bir yoqqa ketayotib edilar. Xizr alayhissalomning qo‘llarida qorni yorib tozalangan, tuzlangan bir baliq bor ekan. Shu nimarsa ariqdagi suvga tushib ketibdi-yu baliq jonlanib, ko‘zlari shartta ochilibdi! Xo‘sh, bunisiga nima deysiz?

Bolta Mardon: – Xudoning qudrati-da.

Hamro bobo: – Shunday, shunday. Suv keltirganu suvni ko‘rganning yo‘li oydin bo‘ladi, rais. Suv – yorug‘lik. Huv naqldagi “Yaxshilik qilginu suvga ot – baliq bilar, baliq bilmasa – xoliq bilar” degan gaplar qofiyasi uchungina aytilmagan!

Bolta Mardon: – Bo‘ldi, bo‘ldi, endi tushundim, - deydi Bolta Mardon.

Chol qo‘lidagi qog‘ozni bepisandgina yonboshiga tashlab, duoga qo‘l ochadi:

Hamro bobo: – Umringizga baraka bersin, Boltaboy, omin!” [10,13]

Rivoyat va naqlar bilan ziynatlangan samimiy suhbat-muloqtning lirik harorati, donishmandona ruhi, ilohiy mazmuni dramaning ta’sir kuchini oshirgan. Ayni paytda, undan dunyo moliga zinhor mehr bermagan Hamro bobo (remarkadagi: “Chol qo‘lidagi qog‘ozni bepisandgina yonboshiga tashlab, duoga qo‘l ochadi” degan izohni eslang. V.A.) ichki bir tuyg‘u bilan kechagi noxush tushning ishoraviy mazmunidan tashvishda ekanini ham ilg‘ash mumkin. Uning fotiha asnosida Bolta Mardonga: “Umringizga baraka bersin, Boltaboy, omin!” tarzida uzoq umr tilashi bejiz bo‘lmay, mo‘ysafid inson umrining yelday kelib, selday ketishi, foniyl dunyoning barcha g‘avg‘osi o‘tkinchi ekanini yaxshi biladi.

Darhaqiqat, moddiyunchilik falsafasi insoniyatning qalbidagi odob, axloq, iymon, e’tiqod, qadriyat singari pok tushunchalarni ifloslantirdi. Butun e’tiborning moddiy dunyoga qaratilishi, faqat zohiriy olamni maqsad deb bilish zamin va zamoni halokat yoqasiga keltirib qo‘ydi. O‘z e’tiqod-maslagiga ega shaxslik tuyg‘usining qayta tirilishi millat ruhining ma’nan uyg‘onishi edi. Chunki: “Ruh insondagi eng oliy narsadir va o‘zining oliy manbasi bilan bog‘liq ekanini doimo sezib turadi. Ruh insonda axloq qonunini vujudga keltiradi... Ruh insonni insoniy zaiflikdan oliy bir darajalarga ko‘tara olishi bilan o‘zining borligini bildirib turadi... Moddani harakatga keltiruvchi narsa ham ruhdur.” [9. 176-177]

Anglashiladiki, E.A’zam jamiyat tarixining yaqin yetmish uch yillik davriga nazar solar ekan, yo‘l qo‘yilgan eng katta illatlardan biri bu xilma-xil ko‘rinishdagi shaxsga sig‘inish va unga mutelik odati – butun-butun xalqlarni temir iskanjasida tutib, umumtaraqqiyotni izdan chiqargan ulkan to‘g‘anoq bo‘lganini ko‘rsatishga intilgan. Adib Hamro boboning Qur’oni karim oyat-belgilarida keluvchi hayot sirlari haqidagi ilohiy haqiqatlarni unutgan, tafakkur ko‘zi ojiz qavm ko‘payib borayotganidan ozurda bo‘layotgan ko‘nglini ochishi bejiz emas. Dramada nafs bandasi bo‘lish ham Allohga shirk keltirish turlaridan biri ekani, mansab va molidun dunyoga mehr qo‘yib, Allohning zikridan chalg‘igan Samar rais, Bolta Mardonning to‘ng‘ich o‘g‘li Amirboy va uning xo‘jayini Alisher kabi gumrohlar misolida ochiladi.

Hamro bobo o‘z suhbatdoshi Bolta Mardonning ishonch va iymonini mustahkamlashda islomdagi aql va naqlni ishga solish uslubini qo‘llaydi. Dunyoviy hayotdan qoniqmagan iymonli mo‘ysafid qalbida tabiiy ravishda qiyomat kunining

haqligi, qayta tirilish hamda hisob-kitob muqarrarligi haqidagi naqliy va aqliy dalillar bo‘y ko‘rsatadi. Foniyl dunyoda qilingan ezgu amallari samarasidan bahramandlikni anglashi natijasida, undagi qoniqmaslik hissi teran qoniqish tuyg‘usi bilan almashinadi. Xullas, yuqoridagi nutqiy muloqotlar taroziga solinadigan bo‘lsa, Hamro bobo pallasini tomon og‘ishi, bu qahramon qarashlari ortida esa, noplastik obraz – E.A’zam turganini e’tirof etishga to‘g‘ri keladi.

Biz Bolta Mardonni asarning boshidayoq devqomat va vajohatli, ammo egnida uzun oq yaktak va qo‘lida mis obdasta tutgan qiyofada uchramiz. Dramani o‘qishga kirishar ekanmiz, bosh qahramon tushida ota ruhi bilan yuzlashishi va farzandi qilmishlaridan norizo qiyofada namoyon bo‘lgan otaning Bolta Mardonni insofsizlikda ayblashi qandaydir noxushlikka ishora ekanini ilg‘aganday bo‘lamiz. Qizig‘i, bu tanbeh bosh qahramonning yigitlik davriga qaratiladi. Shunga qaramasdan, ota ruhi ginaxonlik qilishiga arziydigan jo‘yali dalilni dabdurustdan topa olmaymiz. Lekin, atrofida ismi jismiga monand Musallam aya mudom parvona, o‘zi esa tahorat olishu namoz o‘qishni odat qilgan iymon-e’tiqodli, saranjom-sarishta kishi qanday noinsoflik sodir etganini bilishga bo‘lgan qiziqishimiz ortadi.

Ayni paytda, Musallam ayaning tush ta’biridan yuragi orqaga tortib, qo‘lidagi obdastani tushirib yuborishi, idishning qopqog‘i sharaqlab ochilib, ichidagi so‘nggi tomchilar to‘kilishi, suvsizlikdan o‘rtangan yerning tars-tars yorilishi, bog‘dagi ayrim daraxtlar xususan, o‘z umrini yashab qarigan bahaybat tut barg tashlab, tepa shoxlari quvrab-qovjirab qolgani singari insoniy xatti-harakat va peyzaj manzaralari ishora qiluvchi noxush belgilar ham kitobxonni ancha sergak torttiradi. Boz ustiga, Toshkentda aspiranturada o‘qiydigan kenja o‘g‘il Botir ham ammasi Mayram bevaning qiziga uylantirish niyatida chaqirtirilgan. To‘ng‘ich o‘g‘il Amir zamon taqazosiga ko‘ra vrachlik kasbini tashlab benzinfurushlikka o‘tib ketgan. Qishloq odamlarini turmush tashvishlari va ishsizlik qiynaydi. Aksariyat yoshu qari bekorchilikdan chorpoyada hangamalashib o‘tiradi, bolalar esa koptok tepish bilan ovora.

Ichimlik suv ham guzardagi yagona quvurdan tashib kelinadi. E.A’zam ta’kidlaganiday: “Bunday manzil har qishloq, har guzarda topiladi” [10.17] Anglashiladiki, suv tanqisligi qishloq odamlari moddiy-maishiy turmushi va iqtisodiy ahvoliga sezilarli ta’sir etgan. Ular suv undirish masalasida amaldagi rais va uning uch marta qamalib chiqqan tog‘asi taqsimotchi-mirob O‘rin Jagadan qo‘rqishadi. Xullas, qishloqda fuqaro arzu dodini eshitadigan quloq ham, arbob ham yo‘q. Bolta Mardonning esa “davri o‘tgan”.

Xo‘sh, u o‘z davrida qanday ezgu ishlar qilishga ulgurgan? Bu savolning javobi yo‘l xronotopi orqali ochiladi. Jumladan, quloqboshining xo‘jayini suv uchun o‘zgalar bilan otishib-chopishishga hozir turgan O‘rin Jaggaday odam Bolta Mardonga suv bermaslikni ko‘rnamaklik deb biladi.

“O‘rin Jagga kutilmaganda belkurakni bir yonga uloqtiradi-da, Bolta Mardonni quchoqlab oladi:

– Sizga yo‘q deb bo‘ladimi, rais bobojon! Ko‘r bo‘laman-a! Oxirgi safar siz oraga tushmaganingizda, turmada chirib ketardim.” [10.17]

O‘rinboy bu ishni Bolta Mardon hadyalari uchun emas, balki Samar raisning ish tutumini ma‘qullamasligi, insoniy fayzdan mosuvo jiyani hurmat qilishga munosib emasligi uchun ham qiladi. Chunki Samar rais butun suvni adir etagidagi o‘g‘rincha ekinzoriga oqizib qo‘ygani, binobarin davlatni ham, xalqni ham aldayotgan o‘g‘ri – “mishiqli”, “jipiriqli” ekanini yaxshi biladi. Bolta Mardonning o‘rtancha o‘g‘li Qodir va shirakayf O‘rin Jagga o‘rtasidagi dialog fikrimizni dalillaydi:

O‘rinboy: “ – Qolgan suvniyam ag‘darib beraymi? – deydi O‘rin Jagga mardlikdan jo‘shib.

Qodir: – Yo‘g‘-e, rais kepqolsa!... Makkazorga ketayotgan ekan o‘zi...

O‘rinboy: – Makka emish! Davlat emish! O‘zining huv adir etagidagi o‘g‘rincha ekinzoriga oqib yotibdi, bilding! Boboylarning davri boshqacha edi, bratan, boshqacha! Senlar bilmaysan – salagasanlar-da. Bolta Mardon deb qo‘yibdilar. Bolta Mardon! Damida osh pishardi-ya! Suv-ku suv, kerak bo‘lsa, jonimni ham berishga tayyorman men bu odamga!...” [10.20]

Ko‘rinadiki, O‘rinboy nohaqlik, xiyonat va o‘g‘irlikni zinhor hazm qila olmaydi. Bunday noxush holni ko‘rganida qo‘liga erk beradi va shunga yarasha jazosini oladi. Bolta Mardon raislik qilgan kezlari uni mardona himoya qilgan, muammoni ijobiy hal qilishga harakat qilgan ekan, aslida haqiqat va adolatni barqaror etgan, insofli va diyonatli inson ekan -degan xulosaga kelish mumkin. Suvning o‘zigacha yetib boradigan miqdoriga ko‘nganidayoq bu fazilatining bir uchi ko‘ringan edi. Sobiqlik rais hovli-tomorqa, bog‘-bog‘ot oralab, suv yoqalab borishi asnosida bu fikr yanada quvvatlanadi. Jumladan, Bolta Mardon suvni egatiga so‘roqsiz burgan gunohkor yigitni kechiribgina qolmay, qaqrab yotgan yeriga suv bermaslikni ham gunoh deb biladi.

Ta‘ziyagirlardan biri rais “otda yurgan” kezlari suv muammosini hal qilolmaganini yuziga solganida ham, Bolta Mardon indamay sekin “u”h tortib qo‘yadi. Shubhasiz, kengfe‘llik bilan ichga yutilgan o‘sha dard nainki Bolta Mardon, balki shu tipdagi sobiqlik rahbarlarni iztirobga soluvchi ulkan armon edi. Zotan, o‘sha kezlari yuqoridan beso‘roqlik hech ish qilolmasligi, o‘zicha biror yumushning etagidan tutgan rahbar xodim kechirilmasligini har bir kasga birma-bir izohlab, o‘zini oqlashni Bolta Mardonning vijdoni qabul qilmaydi. Shuning uchun bu xususda so‘z ketganida o‘g‘ir xo‘rsinib, vazmingina bosh irg‘ab qo‘yadi. Bolta Mardon yuzida aks etgan siniqlik kulgu va befarosat suhbatdoshiga qarata: “– Xalq qiynalsin, xalqqa yomon bo‘lsin, keyin bir kuni bizni la‘natlasin deganmiz shekilli-da” tarzidagi zaxarxanda va

kesatig'i ma'nosini ta'ziyadagi hamma ham anglab yetolmaydi. [10.26] Vaholanki, o'sha malomat va ta'na toshlari Bolta Mardon uchun ayni damda o'limdan-da og'ir edi. Chunki o'rni kelganida o'g'lini ayamaydigan rais, xalq ichida o'z o'tmishi haqida shunday noraso gaplar yurganidan xijolatda, qismat savdosiga chora topolmaganidan ojiz va betadbir edi. Binobarin, turli tomondan bemavrid otilgan ta'na, afsus, nadomat paykonlari uning shashtini susaytiribgina qolmay, qazosini ham yaqinlashtiradi.

Bolta Mardon ruhan va jismonan behad charchagan bo'lishiga qaramay, qizi Zulfiyaning hovlisini chetlab o'tolmaydi. Chunki otaning bezovta ko'ngli uni shu manzilga boshlab boradi. Garchi qizi o'z turmushidan zarracha nolimasa ham, uni ko'ngli tilamagan kishiga uzatib, bebaxt qilgan ota qalbini og'ir aybdorlik hissi ezaveradi. Shuning uchun Zulfiya ta'biri bilan aytganda: "murtini bolta kesmas aka-ukalar" emas, jigarbandini sog'ingan mehribon va g'amxo'r ota uning holidan xabar oladi, ro'zg'orining kam-ko'stini butlaydi. Ota-bolaning bir-biriga mehr-shafqat nazari bilan qarashlari, Zulfiyaning achchiq qismatiga ko'nib, shukrona bilan yashashiyu, ota bezovta qalbining iztiroblari nainki milliy bo'yoqlari, balki umuminsoniy mohiyati bilan ham kitobxonda chuqur hamdardlik uyg'otadi. Yuragini hapriqtirib, o'pkasini to'liqtiradi.

Professor Hamidulla Boltaboyev: "Struktural poetikada model' tushunchasi bor. Model yozuvchining hayot haqidagi taxayyuli, tasavvuri, u katta hayot mohiyatini kichik parchada ko'radi, ko'rsatadi. Yozuvchi talqinidagi hayotning bir parchasi bizga katta hayot haqida tasavvur beradi, uni anglatishga xizmat qiladi,"-deb yozadi. [4. 212]

"Suv yoqalab" dramasida kichik-kichik manzillar bo'ylab kechuvchi yo'l xronotopi ham tiriklik sinoati va makon haqidagi tasavvurlarimizni to'ldiradi. Kompozitsiyada davr va shaxs fojiasining ko'lamini kengaytirib, mohiyatini yanada chuqurlashtiradi. Bolta Mardon ruhiyati poetik tahlili jarayonida uning ko'ngli tubidagi armonlar birin-ketin bo'y ko'rsatadi. Ularning botinga cho'ktirilishi tug'dirgan asoratlar esa, qahramon ruhiy va jismoniy hayotini intiho sari yetaklaydi.

Odatda, yoshlar istiqbol umidlari bilan olg'a intilsalar, keksalar hayotiy tajribalariga tayanib, xotiralar ummoniga sho'ng'ib, o'z-o'zini taftish etib, abadiy makon safariga hozirlanib, tazarru og'ushida yashashadi. Ana shu motivlar yo'l xronotopini ham xususiy, ham umumiy jihatdan farqlashni taqozo etadi. Bu esa, alohida odam qismati bilan bog'liq, insoniyat tarixi hamda tamadduniga daxldor mega tasvirlarni yuzaga keltiradi. Ayni masalaga munosabat yubildirgan adabiyotshunos olimi Umida Rasulova: "Kishi zohiridagi yo'l, tutum, maslak, qarorni his qilmog'i, anglamog'i asar ta'sir quvvatini mustahkamlaydi. Qismlar jamlanib butunni hosil qilar ekan, yo'l xronotopi baqodan fanoga qadar idrok etiladigan adabiy tushuncha bo'lib qolaveradi" [7.182],-deb yozadi.

Binobarin, yo‘l xronotopi Bolta Mardon intellektual salohiyati, iymon-e‘tiqodi, sabr-qanoati, tavba-tazarrusi, tafakkurini band etgan fikr-o‘ylari va hayotiy maslagini yagona fokusga jamlaydi. Dramaning mahzun va sokin ritmi esa, bizni g‘oyat murakkab davrda yashagan bir insonning hayot saboqlari misolida ijtimoiy muhit, yanada kengroq ma‘noda, fano va baqo haqidagi falsafiy mushohadalar sari yetaklaydi. Chunki E.A‘zam Bolta Mardonning umr yo‘li tasviriga diniy hukmlar va dunyoviy tasavvurlarni singdirib yuborgan. Shuning uchun, yo‘l xronotopi ishoraviy, ramziy-majoziy mazmun, falsafiy-estetik ma‘no tashib asarning milliy va umuminsoniy darajasini yuksaltiradi. Personajlararo munosabatlar va bosh qahramon zohiriy hamda botiniy harakatlarining dinamikasini ta‘minlaydi.

Bolta Mardon suvda oqib kelgan maktub o‘rtancha o‘g‘li Botirga tegishli ekanini ichki tuyg‘u bilan ilg‘asa ham, rashkchi xotinni tinchitish va bir oila tinchligini saqlash uchun: “Men yozganman buni!” -deya “aybi”ga iqror bo‘ladi:

– Ibi, rais bobo, rostdanmi?- deydi badrashk xotin birdan bo‘shashib. – Siz?... Uyat bo‘lmaydimi?

– Yaxshi ko‘rish uyat ekanmi? Nima, men odam emasmanmi?”-deydi sobiq rais. Shu tariqa qahramon – ODAMning ichki, o‘ta shaxsiy dunyosiga ko‘z tashlash uchun ham yo‘l ochiladi. E.A‘zam Bolta Mardon qalbining muhabbat tuyg‘usi bilan bog‘liq baland-pastliklari, orzu-armonlarini taftish qilib, odam bolasining bu qadar murakkab yaratiq ekani, olam esa shunchalar go‘zal va hayotiy hikmatlarga to‘la ekanini kashf etadi. Muhimi, asar muqaddimasida Bolta Mardon ko‘rgan tushning mohiyati ham xuddi shu nuqtada ochiladi. Zotan, stsensarist badiiy-estetik kontseptsiyasiga ko‘ra inson nuqul ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga bog‘liq hodisa emas. Aniqroq aytganda, ijtimoiy mavjudot bo‘lmish odamning qalbi muhabbat tufayli tozaradi va ma‘nan yuksaladi.

Aslida, voqeaband syujet tugunidayoq tush motivi vositasida muhabbat liniyasi uchun urug‘ qadalgan, syujet ichki harakat dinamikasiga asoslangani uchun unchalik bo‘rtib ko‘rinmayotgan edi. Albatta, Bolta Mardon ko‘ngli intim muhabbat bilan limmo-lim to‘lgan edi, deyish qiyin. Lekin odam va olam muammolarini taftish etayotgan qalb bu nafis va boqiy tuyg‘udan begona ham emasdi. Bunga ishonch hosil qilish uchun yoshi o‘tinqiraganiga qaramay, hanuz navjuvonday xipchabel Sharofat ayaning devorlari yemirilib nuray boshlagan g‘arib hovlisiga bir qur nazar tashlash kifoya. Bolta Mardon bukri behiga otini bog‘lab, hovli-chorboqqa eshikdan emas, balki yoshiga yarashmagan bir chaqqonlik bilan devor kemtigidan oshib o‘tadi. Beva ayol uni ko‘rganida o‘zini yo‘qotib qo‘yadi. Uning qo‘lidagi ko‘zasi tushib ketgani yetmaganday, butun jismi-joni seskanib, ancha shoshib qoladi. Shunga qaramasdan, begona erkak oldida ro‘molining uchi bilan og‘zini to‘sib olishni unutmaydi. Dramada narsa-hodisalar bejizga yemirilish, nurash, g‘ariblik, bukrlik, kemtiklik, yolg‘izlik kabi belgi-sifatlari bilan ta‘riflanmagan. Zotan yuqoridagi an‘anaviy

epitetlarning aksariyati zamirida ikki o'rtadagi munosabatlarga aniqlik kirituvchi metaforik ishoralar, tasvir jonli, estetik ta'sirchan bo'lishini ta'minlovchi mental xarakterdagi izohlar mujassam.

Darhaqiqat, xarob ahvoldagi bog' majoziy mohiyatda befarzand va benavo bevaning qalbini tamsil qilib keladi. Mo'min-qobilgina eridan ajralganiga deyarli besh yil bo'lgan Sharofat aya ham, Bolta Mardon ham umr suvday tez oqib o'tib, vaqt allaqachon boy berilganini yaxshi bilishadi. Lekin o'rtada ikki ko'ngil tubiga cho'kkan ulug' armonlar bor. E.A'zam taqdir bir-birining diydoridan ayirgan ikki qalb armonli umri va ko'ngil hollarini loysupaning qoq o'rtasida unib-o'sib, ko'kka bo'y cho'zgan bahaybat tut va uning g'or og'ziday ochiq kavagi, ikkiga ayrilgan tanasi misolida ramzlar yordamida ifoda etadi. Yosh san'atshunos Shohrux Abdurasulov aytganidek: "... ramzlar, tagmatndagi falsafa fikrlovchi insonni ruhan yuksaltiradi, hayotning ko'z ilg'amas haqiqatlari, teran mohiyatini anglashga, tafakkur qilishga chorlaydi."

Bolta Mardon e'tiqodiy tiyqlik, axloqiy sarishtalik, ma'naviy ulug'lik sabab bir umr qismatidan qochib, ko'ngil istaklarini jilovlab yashagan va bu hovliga mutlaqo qadam qo'ymagan edi. Zotan ko'ngilda armon bilan yashash mumkin bo'lgani holda, bu yuk bilan zinhor o'lib bo'lmasligi ham qismat daftariga bitilgan:

“ – Shu qishloqda men kirmagan, men ko'rmagan hovli-joy yo'q deb yurardim. Ajabki, bu uyga biror marta bo'lsin qadam bosmagan ekanman. Xuddi balosi borday, qochib o'tardim-a...

– Janozasiga keldi deb eshitib edim-ku?

– Kelganman, kelganman. Darvozaxonadan qaytib ketib edim.

– Buning ustiga, xudoyim bizni tirnoqdan ham qisdi deng. El-ulusga bunday bir to'y-ma'raka ham qilolmadik... – hasratlari eskib bitganmi, ayol birdan chehrasi yorishib, orzumandlik bilan so'raydi:

– Kenjangizni uylantirdingizmi, aka? Boya ko'rib edim, suv yoqalab yurgan ekan. Bir yigit bo'ptiki!...

Bolta Mardon unga o'qdek tikiladi:

– Shu bola seniki bo'lardi, Sharofat...

Ayol titragudek bo'lib o'rnidan turadi.

– Gapirmang, aka, gapirmang!

– Tuzingga rozi bo'l, Sharofat. Mana endi armonim qolmadi.”[10.34-35]

Ajabki, shuncha yil elga bosh bo'lgan, uchta navqiron o'g'il va bitta qiz farzand ko'rgan, vaqtida to'ylar to'ylagan, keksayganida ham birovdan kam joyi yo'q Bolta Mardonday odamning ham qalbi kemtik ekan. Sharofat aya esa, xudo tirnoqdan qisganiga qaramay, mo'min-qobil bir erkak bilan ahil-inoq umrguzaronlik qilgan. Rahmatlining muqaddas ruhini chirqillatmay, hanuz shu tabarruk xonadon chirog'ini yoqib kelyapti. Lekin, ko'ngil tubiga cho'kkan hasratlar shu qadar chuqurki, u aqlga

bo'sunmas darajadagi sarkashliklar sari yetaklashga qodir. Aks holda, besh yil muqaddam Bolta Mardon rahmatlining ta'ziasiga kelganidan tortib, ayni kunlarda kenjasini uylash taraddudida yurganiyu Botir ko'zni quvnontiradigan yigit bo'lib ulg'ayganigacha Sharofat ayaning ko'z ostida, ko'ngil ardog'ida bo'lmas edi.

“Suv yoqalab” asarini sinchkovlik bilan kuzatgan professor Umarali Normatov to'g'ri ta'kidlaganidek dramada: “Bolta Mardonning tushda va o'ngda Sharofat bilan muloqotlariga oid lavhalar latif bir lirik tarzda ta'sirchan ifodalangan... U dunyodan armon bilan o'tayotir. Umrining poyonida shu armonini, ko'ngil asrorini eng yaqin kishisi – o'z zurriyotiga ochadi, zurriyoti, qolaversa, avlodlar uchun bu chigal qismat bir saboq bo'lishini istaydi... “ [6. 143] Bizningcha, Bolta Mardonning tushida, ota ruhi aynan Sharofat aya xonadonidagi tut daraxtiga ishora qilib, uni “noinsof”likda ayblashi bejiz emas. Chunki ota ruhi o'g'lining ko'ngliga qaramay uni uylab qo'yganidan bezovta, Bolta Mardon esa, yigitlik kezlarida otasiga ko'ngli tilagan qiz borligini aytmagani, aytolmaganidan ozurda ko'rinadi. Buni chuqur anglagan Bolta Mardon shu xatoni takrorlamaslik, demak baqo olamida ruhi xotirjam bo'lishini istaydi:

“ – Botir, gap bunday: shu ammingning qiziga ko'ngling bo'lmasa, ochiq aytaver, to'y qoladi! Biron karmi, ko'rmi topilar ungayam. Ko'ngligga qara, bolam! Lekin uylansang, shunday birovini topib xotin qilginki, sira-sira joningga tegmasin! Necha yil o'tsa ham! Bunisi endi har kimgayam nasib etavermaydi, albatta. Bo'lmasa, bu savdo – bir umrlik azob. Shu gapim esingdan chiqmasin, Botirboy!

Kenja Botir taajjubda qolgan. Ota xomush, so'zida davom etadi:

– Tag'in bir gap, o'g'lim. Ertaga bir kun orqamda qolmasin-da. Sen endi yosh bola emassan, bilib qo'yganing ma'qul. Noligan – noshukur deydilar. Enangni aytaman-da, yaxshi xotin. Yuvosh. Mana, senlarni tug'ib berdi, katta qildi. O'zim ham undan biror yomonlik ko'rmadim. Lekin ko'ngil qurg'ur he-ech... Bilmadim – nimaga...”[10.35]

Anglashiladiki, Bolta Mardonning qalbi noshukurlikdan xoli. Ayni paytda, u hayot tajribasidan shuni anglaydiki: qovushadigan juftlikning ko'ngli bir biriga esh bo'lishida hikmat ko'p. Agar xotin kishi aqlli, yuvosh, muloyim, serfarzand, itoatkor va boshqa allaqancha fazilatlarga ega bo'lsa, albatta, bu yaxshi hol. Ammo u ruhing qanoat hissini tuyadigan yor bo'lmas ekan, ko'ngil xotirjam bo'lolmaydi. E.A'zam Bolta Mardonni so'nggi damda qorong'ida bog' oralagan, munkib ketib, qo'llari havoda muallaq qolgan, titrab jon taslim qilgan ayanchli bir holda tasvirleydi. Bu hol adashgan bandaning umr shomida o'zini behad yolg'iz sezgani, istaganini topolmaganiga ishoradir. Aslida, Bolta Mardon risoladagiday o'g'illar tarbiyalash, ularga o'rnak bo'lishni ham uddalay olmadi. To'ng'ichini dunyo moliga xarislikdan asray olmaganidek, o'rtanchasining ko'ngil talpinishlari bilan qiziqmadi. Uni o'z bilganicha uylab qo'yadi. Shuning uchun katta umid tikkan kenjasi – Botir qismatida

bu xatoni takrorlamaslikka intildi. Biroq unga ham gunoh va savob amallaridan yetarli saboq berolmadi. Gap uqmas o'g'il otasini dafn etiboq, uning o'gitlarini unutdi. Umrning o'ynab-kulish, hayotdan zavq olish lozim bo'lgan pallasida iqtisodiy nochorlik sabab yolg'iz qoldirilgan, o'z jismining instinktiv istaklarini qondirish uchun navqiron bir erkak quchog'iga talpina turib, hatto zino yo'liga kirganini tuzukroq anglamagan besabr juvon kulbasiga yo'l oldi. Binobarin, bo'lg'usi umr yo'ldoshi Nigoraning samimiy muhabbatiga munosib emasligini isbotladi.

Bolta Mardon vafotini falsafiy idrok etgan san'atshunos Shohrux Abdurasulov: "Shu kuni qishloqning vijdoni yerga qo'yiladi, - deb yozadi. Bu haqiqatni tobutkashlar ichida hammadan ko'proq kuyungan bir kishi – O'rin Jagga anglaydi. Chunki u turmush mushtlarini yeb, hayot chig'irig'idan omon chiqqan, yaxshilikni qadrlaydigan kishi edi. Ulkan yo'qotishni yurak-yurakdan his qiladigan ikkinchi bir vujud ham bor ediki, u ko'k kiyib, aza ochadi. Jamiyatda mutlaqo o'ziga tegishli bo'lmagan erkak uchun aza ochishni Sharofat ayaning ichida bir umr nihon bo'lgan muhabbat va ardoq hislariga xos kenglik va balandlik asosidagina tushunish mumkin. Baxti qaro kampirning shijoatini ijtimoiy-maishiy me'yorlar, jamiyatning axloq normalari bilan izohlab bo'lmaydi. Chunki jisman erishilmagan, ammo ruhan behad ardoqli zot xotirasiga bildirilgan chuqur ehtirom motamsaro ayol armonlari va qiyomat kunida diydorlashmoq umidiga limmo-lim islomiy mujda edi.

Zohiran xato va ayb ish, hatto marhum erining xotirasiga xiyonatday bo'lib tuyuluvchi bu holni tushunish uchun dramada tragik qahramonga xos "men - olamda" konsepsiyasi amal qilishi, Sharofat ayaning jamiyat belgilab bergan chegaralarga sig'masligiga iqror bo'lishi, bartaraf qilib bo'lmaydigan ikkilanishlar og'ushida unga zid borib, mavjudligini ham o'zi, ham tashqi olam uchun tasdiqlatib olishiga e'tibor qaratish lozim. Tragik qahramon Sharofat aya o'z "men"ligidan kecholmagani, mavjud chegaralarni kengaytirish istagini namoyon etolgan uchun individul xarakterdir. U olam tartibotiga itoat etib, biror mardumning ko'ziga tashlanmay yashagan ijtimoiy-axloqiy menligini inkor etadi. Mohiyatan asl menligini tasdiqlaydi.

Jahon adabiyotida yaratilgan tragik qahramonlar tabiatida isyon: o'zini shafqatsiz jazolash yoxud jonidan kechish kabi hollar kuzatiladi. Sharofat aya esa, o'z ko'ngil tilaklarini qurbon qilgan bu foniy dunyoga qarshi isyon qilmaydi. Shu ma'noda, nainki zamonaviy o'zbek dramaturgiyasi, balki jahon sahna asarlari silsilasida ham Sharofat aya kabi qalbi umidga to'la tragik qahramonni uchratish qiyin. Bizningcha, bu hol o'q ildizi bilan milliy zaminga, istiqloq davri bergan e'tiqodiy tayanch – islom falsafasiga qaytish bilan chambarchas tutashadi.

Adabiyotlar

1. Abdurasulov Sh. "Tanho qayiq" hayratlari. – <http://notiq.uz/ru>
2. Adabiyot nazariyasi. Ikki tomlik, 1-t. – T.: Fan,1978.

3. Аникст А. История учений о драме. – М.: Наука, 1988
4. Boltaboyev H. Teranlik. Adabiyotimiz faxri. –Т.: O‘zbekiston, 2007. – В.212.
5. Лессинг Г.Э. “Гамбургская драматургия”. – М.: Художественная литература, 1953.
6. Normatov U. Nafosat gurunglari. –Т.: Muharrir, 2010.
7. Rasulova U. XX asr o‘zbek qissachiligi (poetik izlanishlar va taraqqiyot tamoyillari) Filol.fan.doktori..diss. – Т.:2020. – В. 182.
8. Soliyev A. Hayot va inson talqini. – Т.: Turon zamin ziyo, 2015.
9. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Iymon. Sharq NMAK Bosh tahririyati, – Т.2006. – В.176-177
10. Erkin A‘zam. Tanho qayiq. Sharq NMAK Bosh tahririyati, – Т. 2017. – В. 9-42.
11. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Т.: Akademnashr, 2018.
12. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M . Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Т.: Akademnashr, 2010

HISTORY AND DEVELOPMENT OF THE TERMINOLOGY SYSTEM OF THE UZBEK AGRARIAN SECTOR AND PROBLEM OF LEXICOGRAPHICAL INTERPRETATION

**Allayarova Z.B. - teacher of Shahrisabz branch of Tashkent State
Pedagogical University**

**Elboyeva M.B. - teacher of Shahrisabz branch of Tashkent State
Pedagogical University**

Annotation. The linguistic expression of the concepts of the agrarian sector in the Uzbek language has different formal-structural, semantic, genetic, derivational features and forms a separate semantic field. This semantic field is very complex from an empirical point of view, theoretically divided in relation, and is characterized by having a very solid and fairly simple cognitive essence and structure

Key words: lexical content, terminological system, comparative-historical linguistics, terminological lexicon, terminological theory, linguistic unity, encyclopedia, scientific perception of being, terminological perfection, a national linguistic image of the world

**ИСТОРИЯ И РАЗВИТИЕ ТЕРМИНОЛОГИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ
АГРАРНОГО СЕКТОРА УЗБЕКИСТАНА И ПРОБЛЕМА
ЛЕКСИКОГРАФИЧЕСКОЙ ИНТЕРПРЕТАЦИИ**

**Аллаярова З. Б. - преподаватель Шахрисабзского филиала
Ташкентского государственного педагогического университета
Элбоева М. Б. - преподаватель Шахрисабзского филиала
Ташкентского государственного педагогического университета**

Аннотация. В узбекском языке понятия аграрный сектор имеют различные формально-структурные, семантические, генетические, производные особенности, и их особое содержание – поле. С точки зрения эмпирика, эта область содержания очень сложна, теоретически основана на отношениях и характеризуется сильными и простыми знаниями.

Ключевые слова: лексическое содержание, терминологическая система, сравнительно-историческое языкознание, терминологическая лексика, терминологическая теория, языковое единство, энциклопедия, научное восприятие бытия, терминологическое совершенство, национальный языковой образ мира.

**O‘ZBEK TILIDAGI AGRAR SOHA TERMINLARINING TARIXI,
RIVOJLANISHI VA LEKSIKOGRAFIK TALQINI MUAMMOSI**

**Allayarova Z. B. - Toshkent davlat pedagogika universiteti Shahrisabz
filiali o‘qituvchisi
Elboyeva M.B. - Toshkent davlat pedagogika universiteti Shahrisabz
filiali o‘qituvchisi**

Annotatsiya. O‘zbek tilida agrar sohani bildiruvchi tushunchalarning lisoniy ifodasi turli shakliy-struktur, semantik, genetik, derivatsion xususiyatlarga ega bo‘lib, alohida mazmuniy maydonni tashkil etadi. Bu mazmuniy maydon empirik nuqtai nazardan juda murakkab, nazariy asosda munosabatda bo‘linsa, juda mustahkam va anchayin sodda kognitiv mohiyat va strukturaga egaligi bilan xarakterlanadi

Kalit so‘zlar: leksik tarkib, terminologik tizim, qiyosiy-tarixiy tilshunoslik, terminologik leksika, terminologik nazariya, til birligi, qomus, borliqni ilmiy idrok etish, terminologik mukammallik, olamning milliy lisoniy tasviri

During the years of independence, the structure of the terminology of the agrarian sector of the Uzbek language has undergone serious changes. Here are two important points:

Firstly, the content - meaning of the word, terms, and word-terms has changed. This is the result of new achievements in the study of natural phenomena, the changing of social consciousness and outlook, the deepening of the conceptual essence of things and phenomena, entering a new stage of human and nature relations, as well as the rise of the agrarian economy in the country, which is marked by significant changes.

Secondly, there are new words, terminology, and word terms in the language.

Thirdly, due to the intensification of international integration in the field of Uzbek agriculture and the radical reform of the agro-economics, and continual exploration of the world experience, we see new agro-terms input into our language.

First of all, in the semantic structure of the word, the division and word division occurs when new meanings are made. This, in many cases, allows for words to be used in new sem-boards or semicircles, as well as expanding the range of linguistic-spiritual groups, to see the emergence of new micro groups. For example, in the agroterminology of the Uzbek language, there was no term for drip irrigation, which means the process until recently. Drip irrigation is a complicated process, which involves a series of events, tools, and results, or words that express them, either new or existing, have a new meaning in this linguistic-moral system. Any new expression that appears in the language has the inherent systemic nature of the system as a spontaneous and evolving system.

The term hydroponic [1] in Uzbek is one such unit. This terminology was introduced in the traditional agricultural terminology system of Uzbekistan in the fourth quarter of the last century. It was mentioned in the 2-volume dictionary of the Uzbek language. Nowadays, the phenomenon representing this term has a dominant position in the Uzbek agricultural sector and becomes a popular type of farming. Hydroponics is a term used to describe grape /sand, nutrient, nitrogen, phosphorus, potassium, calcium, magnesium, sulfur, iron, manganese, boron, copper, zinc, molybdenum, cobalt, and artificial environments. But in the past century, the term had only one sememe: "Raising plants without soil, feeding through a nutritious solution" [2].

At the present times, due to the wide-ranging hydroponic agriculture, the term hydroponic has two sememes:

1. Raising the plants using soil-free, nutritious solutions.
2. An environment that uses this method for plant growth [3].

The Russian dictionaries are reflecting this. It is noteworthy in the Uzbek-language dictionaries. Speaking about the spiritual and thematic development of the

terminology of the agrarian sphere in Russian, linguist T.D. Dankova speaks about the features of the term monoculture. As the linguist mentions, the term in Russian in the dictionary of the last century, " It is said that cultivation of only one crop in one square for many years [4]. This dictionary was published in 1965. The linguist said that the terminology was included in LMG "Agro-technical" LMG "Agricultural processing" LMG. The only crop /plant specialization " [5]. Thus, the term "monoculture" is now part of the LMG "Cultural Plants". This comment is found in the 2001 Glossary [6]. From the point of view of term, monoculture can be seen in the Uzbek dictionaries. The term is not contained in the 2-word dictionary of the Uzbek language published in 1981. However, in the 5-volume dictionary of the Uzbek language we have the following description **MONOKULTURA** [mono . + Cultura; cultivation of only the same crop in the field, without taking into account the transplant. Cotton monoculture" [7]. The National Encyclopedia of Uzbekistan "also observed the following: **MONOKULTURA** (mono ... and lot. Culture - planting, cultivation) is the cultivation of only one crop in the field itself without compromising the cultivation of crops" [8]. Today's monoculture has a new meaning in the world, without waiting for his updated version of the Uzbek dictionary of dictionaries and vocabulary.

The use of terminology in the development of the terminology in other spheres is often used to express other meanings in the industry itself [9]. The meaning of these terms is seen as an enlargement of meaning. The fact that the word "virus" in Uzbek language is expanding this meaning is the evidence. Today is the term virus. However, traditional sources of the last century have been preserved in the Uzbek sources: **VIRUSES** [Lot. virus - herbal juice; poison] It grows in living cells, only human, animal, microorganisms that cause infectious diseases in the plant. Today, however, the meaning of the term has expanded and new types of computer viruses, media viruses have emerged and are widely used in speech. [10] indicates that the traditional content of the terminology has expanded. The term was launched in 1981 with the creation of the first software virus (Virus 1, 2, 3, and Elk Slonen). Nowadays, everyone is not dealing with viruses in living organisms and does not have problems every day. However, anyone working with a computer can face a problem with software viruses. Therefore, the meaning of the term viruses has become the basic meaning of today. And also, it is time to record it as a meaningful extension of the term of the virus and to describe it in the appropriate dictionaries.

The 2-word explanatory dictionary of the Uzbek language, published in 1981, has 10 terminology agro-component (Agrobiology, Agro-Agronomy, Agronomy, Agrotechnical, Agrotechnical, Agro-technical, Agrochemistry), 5 volumes contain 14 terminologies Agrobiology, Agrobiology, Agrochemistry, Agromelioration, Agrometeorology, Agronomy, Agronomy, Agronomy, Agronomy, Agronomy, Agro-Industrial,

Agrotechnical, Agro-Engineering, Agro-Physics). However, many new terms such as agro-industry, agribusiness, agrobiocenosis, agrogidrology, and agro-economics are used in our speech to provide them with commentary notes in relevant dictionaries.

Changes in property and economic relations, both in the agrarian sphere and in other areas, have removed "ideological dye" from the linguistic value of many words. The word "business" in the former regime was described as "in capitalist countries: a work of personal gain (e.g., speculative, commercial, profitable enterprise)." Thus, the agro-business term of the agrarian sector was not explained. Today, any ideological stance that is derived from the word business is "any form of income, profit-making, or any other organizational, economic activity that is not law-abiding. commerce; business ". Accordingly, the term agribusiness is also one of the elements in the modern dictionary.

The main producer of the modern agrarian industry is a farmer, whose linguistic expression has its status and place as an individual in our explanatory dictionaries: "FERM [ingl. farmer] Owner of a small or average agricultural enterprise, engaged in the production of agricultural, livestock, and poultry in the area of long-term occupation or lease. " This word-term also reveals that it has been liberated from its following ideological pattern: "in capitalist countries: a farmer or a farmer." In this definition, the essence of the lexeme is broken and does not require proof of misinterpretation.

The term "agro firm" is also considered to be one of the new lexical units in the Uzbek language. Agro-firm is one of the key components of agrarian infrastructure and this is the consequence of its conceptual nature. The cognitive learning of language phenomena is the sharp contrast of meaning, concept, and conceptual category. This distinction and distinction has led to the differentiation of meaning and concept categories, which ultimately becomes a necessary category for traditional and modern linguistic interpretations.

The set of the meaning of the language units is the semantic area of the language. The meaning that is formed after the concept is, to a certain extent, its category. It is a conceptual language that is characterized by its broad, comprehensive, evolutionary, nutritional, and intense affinity with objective reality, and reflects the common and private relationship with the meaning of the conceptual semantic area of the concept. The concept, concept, and meaning of members are, to some extent, direct or indirect cognitive nature. The concept is a dynamic phenomenon, where the meaning is an instrument of perception without recycling. The essence of the concept is based on the concept. The concept of "consciousness", which is regarded as a unit of thought, is closely related to the phonetic shell of the word and has specific relative independence from the concept of the indirect specification for the communicative task. The word "communicates" with everything

in a communicative task, while the concept of knowledge is formed. Therefore, framing frames can be systematically orchestrated by all aspects of the concept, which is characterized by the relative independence of the frames. We try to define our ideas based on of the frame structure of the concept 3agrofirm:

"Agrofirm - is a tool that provides a solid consumer relationship in the agrarian sector". Agrofirm is not a raw material, but in most cases, the finished product is marketed and is direct "face to face" with the buyer. It relies on the combination of responsibilities, responsibility, and interest categories. "Agro firm - agro-industrial enterprise". The agro company is a complex enterprise of this conceptual system, combining agricultural production, processing, and sales of agricultural products, and unification of service points on a single management basis.

"Agrofirm - complex structure". Agrofirm is a complex of aggregate processes, from production to consumer. Timely coordination of all work in the production, processing and delivery of products through a single system.

"Agro-firm - a means of labor productivity and productivity". Increase of labor productivity, reduction of wasteful waste, as well as large investments from the received profit, and rational distribution of profits among internal enterprises of the agro firm.

"Agrofirm - open system". Agro-firms provide access to local resources but may include subsidiary networks and small businesses.

It is clear from the mentioned that the essence of the category of agro firm consists of syllables such as "agricultural production", "complexity", "industrialization", "direct interest", "producer and consumer".

References

1. National Encyclopedia of Uzbekistan. 12 tom. TABLE 2 - Tashkent: National Scientific Encyclopedia of Uzbekistan, 2001. - B
2. Definition of the Uzbek language. 5 volumes. Volume 1
3. Большой толковый словарь русского языка / podred. S.A. Kuznetsova. - SPb. :Norint, 2001. - 1535 p. - S.203.
4. Словарь современного русского литературного языка: в 17 т. - М., 1948-1965. - Т. 1-17. т. 6. - S. 1231.
5. Данкова Т.Н. изменения в содержании русских аграрных терминов на рубеже XX-XXI веков (на материале терминологии растениеводства) // Известия VGPU. Gumanitarnyenuki. Filologicheskienauki № 2 (267), 2015.
6. Большой толковый словарь русского языка / podred. S.A. Kuznetsova. - SPb. :Norint, 2001. - 1535 p. - S555.
7. Definition of the Uzbek language. 5 volumes. Volume 2.

8. National Encyclopedia of Uzbekistan. 12 tom. TABLE 6 - Tashkent: National Scientific Encyclopedia of Uzbekistan, 2003. - B.
9. Leychik V.M. Terminovedenie: predmet, metody, structure / V.M. Leychik. - Look. 3-e. - M. :Izd-vo LKI, 2007. (- 256 pp.) - P.47;
10. Vasileva N.V. Termin / N.V. Vasileva // Русский язык: the encyclopedia. - M. :BolshayaRos. et al., 2003. (- S. 556-557) - P.556.
11. Компьютерные вирусы // www.wikipedia.ru

XVIII-XIX ASRLARDA QO‘QON XONLIGINING SHARQIY TURKISTON VA TOSHKENT BILAN SAVDO ALOQALARI

Berdiyev A.A. - Toshkent davlat pedagogika universiteti Shahrisabz filiali o‘qituvchisi

Аннотация. Ushbu maqolada Qo‘qon xonligining XVIII-XIX asrlarda Sharqiy Turkiston va Toshkent bilan savdo aloqalari haqida ayrim ma’lumotlar o‘z aksini topgan. Xitoy tovarlari Qo‘qon xonligi orqali Buxoro va Xiva xonliklariga, ular orqali esa Sharq davlatlariga kirib borgan. Toshkentning xonlik tasarrufiga kiritilishi bilan Rossiyaning Qo‘qon xonligiga kirib borishi ancha jadallashgan va tashqi iqtisodiy aloqalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar orqali to‘liq tasavvur qilishga imkon beradi.

Калит so‘zlar: Sharqiy Turkiston, Daraut-Qo‘rg‘on, Qizil-Qo‘rg‘on, Sufi-Qo‘rg‘on, Pekin, Muxdmmad Alixon, Choy, Paxta, Ipak, Buz, Gilam, Qoshg‘ar, Toshkent, Yunusxo‘ja, Ch.Valixonov, Badaxshonlik, A.G.Rotchev, Shayxontohur, Beshyog‘och, Ko‘kcha va Sebzor.

ТОРГОВЫЕ ОТНОШЕНИЯ КОКАНДСКОГО ХАНСТВА С ВОСТОЧНЫМ ТУРКЕСТАНОМ И ТАШКЕНТОМ В XVIII-XIX ВЕКАХ

**Абдували А.Б. - преподаватель Шахрисабзского филиала
Ташкентского государственного педагогического университета**

Аннотация. В данной статье собраны сведения о торговых отношениях Кокандского ханства с Восточным Туркестаном и Ташкентом в XVIII-XIX веках. Китайские товары попадали в Бухарское и Хивинское ханства через Кокандское ханство, а через них - в страны Востока. С присоединением Ташкента к ханству вхождение России в Кокандское ханство ускорило, и его можно полностью представить с помощью информации о внешнеэкономических связях.

Ключевые слова: Восточный Туркестан, Дароут-Курган, Кызыл-Курган, Суфий-Курган, Пекин, Мухаммад Алихан, Чай, Хлопок, Шелк, Лед, Ковер, Кашгар, Ташкент, Юнусходжа, Ч.Валиханов, Бадахшанлык, А.Г.Рочев, Шайхантахур, Бешягач, Кукча и Себзар.

TRADE RELATIONS BETWEEN KOKAND KHANATE AND EASTERN TURKESTAN AND TASHKENT IN XVIII-XIX CENTURIES

Abduvali B. A. - teacher of Shahrizabz branch of Tashkent State Pedagogical University

Annotation. This article contains some information about the trade relations of the Kokand Khanate with East Turkestan and Tashkent in the XVIII-XIX centuries. Chinese goods entered the Bukhara and Khiva khanates through the Kokand khanate, and through them to the Eastern countries. With the annexation of Tashkent to the khanate, Russia's entry into the Kokand khanate was accelerated and can be fully imagined through information on foreign economic relations.

Key words: East Turkestan, Daraut-Kurgan, Kyzyl-Kurgan, Sufi-Kurgan, Beijing, Muhammad Alikhan, Tea, Cotton, Silk, Ice, Carpet, Kashgar, Tashkent, Yunuskhodja, Ch.Valikhanov, Badakhshanlik, AGRotchev, Shayhantahur, Beshyogoch, Kokcha, and Sebzor.

Qo‘qon xonligining Sharqiy Turkiston bilan savdo munosabatlari jadal rivojlangan. Ular o‘rtasidagi savdo Qashg‘ar orqali amalga oshirilgan. Qo‘qon bilan Qashg‘ar o‘rtasidagi savdo aloqalari Muhammad Alixon (1822-1842) davrida Qo‘qon xonligining Sharqiy Turkiston bilan chegarasida bir nechta qo‘rg‘onlar (Daraut-qo‘rg‘on, Qizil-qo‘rg‘on, Sufi-qo‘rg‘on) Qurilganidan so‘ng juda keng rivojlangan. 1831-yili Qo‘qon bilan Xitoy o‘rtasida tinchlik sulhi imzolangan. Pekinning 1828-yildagi Qo‘qonga qarshi iqtisodiy sanksiyasi va savdoni taqiqlash to‘g‘risidagi hujjat bekor qilinadi va 1832-yil 13-yanvardagi imperatorning maxsus farmoni bilan Qashg‘ardan nafaqat choy va ravoch olib kitishga ruxsat berildi, hattoki Qashg‘arda Qo‘qon savdogarlariga bojsiz savdo qilishga ijozat berishgan [1:93-b]. Qashg‘arning oltita shaharlari - Oqsu, Qashg‘ar, Uchturfan, Xutan, Yorqand va Yangi hisorda Qo‘qon savdogarlaridan boj yigish uchun Qo‘qon xoni maxsus oqsoqollarini tayinlagan. Shunday qilib, shu davrdan boshlab, Qo‘qonliklar Qashg‘ar bilan savdoda monopol mavqega ega bo‘lganlar.

1838-yil ma‘lumotlariga ko‘ra, Buxorodan Qobulga juda ko‘p tovarlar jo‘natilgan. Ular orasida Qo‘qonning kumush tangalari va kumush yombilari, xitoy shoyi ro‘mollari va chinnisi, Qo‘qon kanop losi xam bo‘lgan. Buxoro Qo‘qondan

xom ipak va kanop losi olgan, bu tovarlar soʻng Afgʻonistonga sotilgan, Qoʻqon va Xoʻjanddan guruch ham keltirilgan. Bu maʼlumotlar birinchidan, Qoʻqonning Buxoro amirligi bilan savdo munosabatlari haqida, qolaversa, Buxoro orqali xonlikning Afgʻoniston bilan savdo aloqalariga kirishganligi toʻgʻrisida daliliy ashyolar hisoblanadi [2:426-b].

Qoʻqon xonligi va Sharqiy Turkiston oʻrtasidagi savdo aloqalarini oʻrganishda Choʻqon Valixonov asarlari juda qoʻl keladi. Ch.Valixonov XIX asr sharqshunos olimlaridan biri hisoblanadi. Uning Markaziy Osiyo tarixi, geografiyasi, iqtisodiy hayotiga oid asarlari hozirgi kunda ham oʻz ahamiyatini saqlab kelmoqda. U 1858-1859-yillarda sharqiy Turkiston ekspeditsiyasida ishtirok etib Markaziy Osiyo davlatlarining siyosiy tarixi, etnografiyasi, Qoʻqon xonligining davlat tuzumi, sharqiy Turkiston va Qoʻqon xonligi oʻrtasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy munosabatlarni oʻrgandi va oʻzidan juda katta ilmiy meros qoldirdi. Uning “Qashgʻar safarini tashkil qilish haqida xotiralar”, “Qashgʻar kundaligi”, “Olti shaharining yoki Xitoyning Nan ly (kichik Buxoro) viloyatiga kiruvchi olti sharqiy shaharning umumiy ahvoli”, “Qashgʻarga qilingan sayohat”, “Qoʻqon xonligi toʻgʻrisida” va boshqa asarlarida Qoʻqon xonligi bilan sharqiy Turkiston shaharlari oʻrtasidagi iqtisodiy-savdo munosabatlariga doir maʼlumotlari eʼtiborga loyiqdir.

Ch.Valixonov Qoʻqon xonligi va Sharqiy Turkiston oʻrtasidagi savdo aloqalariga toʻxtalar ekan, hattoki sharqiy Turkistondagi hunarmand va savdogarlarning faoliyati bilan bogʻliq muhim maʼlumotlarni ham keltiradi. Uning maʼlumotlariga koʻra, umumiy soni va ahamiyati jihatidan birinchi oʻrinda qoʻqonliklar, keyin buxoroliklar, soʻngra badaxshonliklar, kashmirliklar va balxliklar turgan. Badaxshonliklar, kashmirliklar va balxliklar asosan Yorkand va Xutanda istiqomat qilgan. Bundan tashqari mazkur shaharlarda koʻplab afgʻonlar, buxoro yaxudiyolari, hindlar, forslar, shirvonliklar va tatarlar istiqomat qilgan [2:46-b]

Sharqiy Turkistonda oʻrta osiyolik savdogarlarni «andijonliklar» deb atashgan [2:53-b]. Qashgʻarda maxsus «Andijon-koʻcha» degan koʻcha boʻlib, unda chetdan kelgan savdogarlar yashashgan. Sharqiy Turkistonga Qoʻqon, Samarqand, Buxoro savdogarlari qatorida toshkentlik savdogarlar ham borib savdo qilishgan. Qashgʻar tovarlari toshkentlik savdogarlar orqali Sibirga va Irbit yarmarkasiga olib borilgan. Ularning hammalari Qoʻqon xonligi va Xitoy oʻrtasidagi 1831-yili tuzilgan shartnomaga asosan Qashgʻarda istiqomat qiluvchi, rezident va konsul huquqiga ega boʻlgan qoʻqonlik oqsoqolga buysunganlar [2-54-b]. Sharqiy Turkistonda turuvchi chet elliklar soni toʻgʻrisida Ch.Valixonov keltirgan maʼlumotlar ham diqqatga sazavordir. Uning maʼlumotlariga koʻra muhojirlarning aksariyati Qashgʻarda istiqomat qiladilar, u yerdagi andijonliklarning oʻzi taxminan olti mingga borardi. Chet elliklar koʻp istiqomat qilib turgan shahar - bu Qashgʻardan keyin Xutan, soʻngra Yorqand hisoblanadi. Oqsu va Uchturfonda esa chet elliklar ancha kam.

Qashg'ardagi chet elliklar mahalliy xalqning to'rtidan bir qismini tashkil etib, 145 ming kishiga yetgan edi. Ch.Valixonovning O'rta Osiyo va Qashg'ar o'rtasidagi savdo munosabatlarida savdoga qo'yilgan asosiy tovarlar haqidagi ma'lumotlari ham ahamiyatga ega. Bu ma'lumotlarga ko'ra, O'rta Osiyodan Sharqiy Turkistonga olib borib sotiladigan tovarlarning asosiy qismini doroyi, parcha, indigo, ipak gazlamalar, mayda yo'l-yo'l yoki guldor shoyi, gulbara deb ataluvchi yupqa gazlama, podshoi va beqasam, tiniq rangli yarim ipak va ip gazlamalar, hamda alacha deb ataluvchi ip matolar, teri, qo'y va qoramol, afyun, tamaki va O'rta Osiyoda ishlangan boshqa hunarmandchilik buyumlarini tashkil etgan. Sharqiy Turkistondan O'rta Osiyoga esa choy, paxta, ipak, bo'z, gilam, billur idishlar va kumush keltirib sotilgan. O'rta osiyolik savdogarlar sharqiy Turkiston bozorlarida G'arbiy Ovropondan kelgan tovarlar bilan ham savdo qilganlar. Shveysariyada, Fransiyada va Angliyada ishlab chiqarilgan yorqin qizil rangdagi chitlar, ingliz amerika karton qog'ozlari, qizil tUSDagi ingliz Kashmir, oq muslin (xarir va yupqa gazlama) va boshqalar shular jumlasidandir [2:197-216-b].

O'rta Osiyolik, ayniqsa, qo'qonlik va toshkentlik savdogarlar Rossiyadan Sharqiy Turkistonga rus tovarlarini keltirib sotishda vositachilik ham qilgan. Ch.Valixonov "rus tovarlarining Qashg'arga Qo'qon va Fulja orqali keltirilib sotilishi haqida ham xabar beradi. Qashg'arga qo'yidagi rus tovarlari: movut, turli-tuman matolar, salla uchun ishlatiladigan xarir mato, ipak gazlamalar, parchalar; Rigada ishlangan duxobalar; oynalar, qalampirmunchoq, novshadil, simob, qizil tUSDagi buyoq, turli-tuman metallar (temir, miss, qalayi) va metall buyumlar (samovar, choynak, likopcha, tog'oralar, qozonlar, patnislar, shamdonlar, tugmalar, ko'zoynaklar, cho'michlar, qulf-kalitlar, qalamtaroshlar) va boshqalar olib borilgan [2:197-216-b]. Darhaqiqat, sharqiy Turkiston savdosi qo'qonlik va buxorolik savdogarlar qo'lida to'plangan.

CH.Valixanovning O'rta Osiyodan Qashg'arga olib kelib sotilgan tovarlarning narx-navolari to'g'risidagi ma'lumotlari diqqatga sazovordir. Masalan: 20 tup shoyi (1-nav) 24 zolotix [3:205-206-b], 40 tup podshoyi 11 zolotix, 40 tup beqasam 8-8.5 zolotix, 20 tup gulbara 12-13 zolotix, 40 tup parcha 16 zolotix, Xutan shoyisining bir pudi Qo'qonda 12-14 zolotix turgan [4]. P.I.Nebolsin XIX asr o'rtalarida Xivaga Qo'qondan Qashg'ar choylari keltirilganligini ma'lum qiladi. P.Nebolsining ma'lumotlari avvalo, Qo'qon bilan Qashg'ar o'rtasidagi savdo munosabatlari juda tez rivojlangan, ikkinchidan, Qo'qon Qashg'arning Buxoro, Eron, Hindiston va Rossiya bilan savdo aloqalarida vositachilik rolini bajargan, uchinchidan Qo'qon-Qashg'ar yo'li Buxoro-Eron yoki, Xiva-Eron yo'llariga nisbatan anchagina mashaqqatli va shu bilan birga bexavotir bo'lgan, deyishga asos bo'ladi.

Qo'qon va Qashg'ar oralig'idagi savdo yo'llari noqulay tog' yo'llari orqali o'tilganligini V.Velyaminov-Zernov ham ta'kidlaydi. Uning ma'lumotlariga ko'ra,

XIX asrning birinchi yarmida Qashg‘ardan Qo‘qonga 300 otda ko‘k va qora choy, 200 otda oq; kiygiz, otda xitoy idishlari va 50 otda baqqollik buyumlari keltirilgan [5:128-b].

Qo‘qon Qashg‘ar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri savdo qilibgina qolmasdan, Qashg‘arning Rossiya bilan Xitoy o‘rtasidagi savdosi munosabatlarida Qo‘qon vositachi vazifasini ham o‘tagan. Qashg‘ar Qo‘qon xonligi chegaralari orqali tranzit yo‘li bilan Xitoy va Rossiyaga choy, chinni, chorva va chorvachilik mahsulotlari, ipak matolar va boshqa tovarlar junatgan. Bu tovarlar evaziga Qo‘qondan matolar, teri, ipak, qo‘zi terisi, muyna, qimmatbaho toshlar, bezak buyumlari va ko‘plab rus tovarlari olib borilgan.

XIX asr o‘rtalarida Qo‘qon bilan Qashg‘ar o‘rtasidagi savdoda mol ayirboshlash har yiliga 5 mln rub.gacha yetgan. Qashg‘ardan Qo‘qonga faqat choyni o‘zi har yili 30 ming pud keltiriladigan bo‘lgan [6:147-b].

1862-yilda “Русский Вестник” jurnalida e‘lon qilingan maqola ma‘lumotlariga ko‘ra, O‘rta Osiyo xonliklariga Xitoy o‘lkasidan Fulja, Chuguchak va Qashg‘ar orqali ko‘proq choy, xitoy chinni idishlari keltirilgan. Hindistondan qand, indigo, ip gazlama, Kashmir sholi, Erondan yevropa tovarlari olib kelingan [7:707-708-b]

Qo‘qonning Qashg‘ar, Buxoro va Toshkent bilan savdo aloqalari XIX asrning 70-yillarida ham davom etgan bo‘lib, bu haqidagi ma‘lumotlarni A.P.Xoroshinning asarida ham uchratish mumkin. Unda yozilishicha, Qo‘qondan Toshkentga paxta, mevalar, jun, teri, ipak, Qo‘qon va Marg‘ilon fabrikalarining ipak matolari, Qo‘qonga Avliyo ota orqali qirgiz dashtlaridan o‘n minglab qo‘y, Toshkentdan rus manufaktura buyumlari, qand, temir va boshqalar, Buxorodan hind choylari, indigo, mal-mal, opium, buxoro ipak matolari Qashgardan opium, chinni idishlar, kumush yombi holida, kimxan deb ataluvchi xitoy ipak matosi, har xil kiygiz va gilamlar keltirilgan [8:43-b].

1862-yilda G‘arbiy Xitoyda dunganlar qo‘zg‘oloni sodir bo‘lgan. Dunganlar qo‘zg‘oloni Markaziy Osiyo davlatlari hayotida faqat siyosiy jarayon bo‘lib qolmay, balki iqtisodiy hayotga ham salbiy ta‘sir ko‘rsatgan edi. A.G.Rotchev qalamiga mansub asarda dungan qo‘zg‘oloniga qadar Xitoy Qo‘qon, Buxoro, Xiva va boshqa davlatlar bilan qizg‘in savdo aloqalarida bo‘lganligini, lekin bu qo‘zg‘olon mazkur davlatlar o‘rtasidagi savdo aloqalari rivojlanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatganligi e‘tirof qilingan. Ayniqsa, bu holat choy savdosida aniq namayon bo‘lgan.

O‘rta Osiyoga mo‘ljallangan choy karvonlari avval Urumchida yig‘ilib, so‘ng u yerdan yo‘l ikkiga bo‘lingan. Birinchi yo‘l, Urumchidan Fulja orqali Verniy, Avliyoota va Chimkentga, ikkinchi yo‘l, Urumchidan Qashg‘ar orqali Qashg‘ar-Dovon yo‘lidan O‘shga kelgan. O‘shdan karvon yo‘li ikkiga bo‘linadi, biri O‘sh Xo‘jand-Samarqand-Buxoro, ikkinchisi esa, O‘sh-Qo‘qon-Namangandan Toshkentga

borgan.

Muallif Fuljadan keltirilgan choyni miqdori va narxlariga haqida ham ma'lumot bergan. Bundan tashqari, 1868-1869-yil ma'lumotlarida, inglizlar tomonidan Hindistondan O'rta Osiyoga keltiriladigan choyni aksariyati ko'k choy ekanligi ham eslatiladi [9:20-b]. Hindiston choylari Fulja va Qashg'ardan keltiriladigan choylarga nisbatan sifati ancha pastroq bo'lgan. Lekin Xitoy bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqalar uzilgach, choy Hindiston va Rossiyadan keltiriladigan bo'lgan. Albatta, dunganlar g'alayonlari kengaygan sari, ingliz choylari ko'proq Hindistondan keltirila boshlangan. Toshkent aholisining og'zaki ko'rsatmalariga ko'ra, 1868-yili Peshavordan 10.000 tuya (160900 pud) choy O'rta Osiyoga keltirilgan. Bu choylarning ta'mi o'rta osiyoliklarning tabiga mos kelgan, lekin qora choy Hindistondan keltirilmagan. Peshavordan keltirilayotgan ko'k choyni mazasi aynan Fulja va Qashg'ardan keltirilgan choylarning o'zginasi bo'lgan. Ost-Indiya choylarining hamma navlari Peshavordan Buxoro va Samarqandga jo'natilgan. Choy tuyalarda tashilgan. Tuya narxi quyidagicha bo'lgan; bir tuya choy uchun $8\frac{1}{2}$ tillo, ya'ni har pudi uchun 2r.25k. dan pul to'langan. Karvon hududlardan o'tayotganda tovar narxining $2\frac{1}{2}$ % miqdorida boj solig'i to'langan. Qobul, Sargosim, Bamian, Xulumda 5 %, kerkida $2\frac{1}{5}$ % solik; to'langan. Muallif Peshavordan kelayotgan karvonlarning yo'lda qaroqchilar tomonidan talanayotganligi sababli bu savdo juda ham rivojlanib ketmayotganligini ta'kidlaydi. A.G.Rotchev rus savdogarlarining O'rta Osiyoga kerakli choy navlarini ehtiyoj darajasida yetkazib bermayotganligini, Rossiyadan keltirilayotgan choylar o'rta osiyoliklarning talabini qoniqtirmayotganini achinib gapirgan. U hattoki, rus hukumatining dunganlar qo'zg'olonidan foydalanib, choy savdosidan keladigan foydani ruslarning tezroq o'z qo'llariga olishlari kerak, degan fikrini qo'llab-qo'vvatlaganligini ko'rishimiz mumkin [9:22-b].

Toshkent Qo'qon xonligi tarkibida bo'lgan. XVIII asrning uchinchi choragida Toshkentda mustaqil davlat yuzaga kelib, u bilan Qo'qon o'rtasida to'qnashuvlar ro'y beradi.

Qo'qonning asosiy savdo sheriklaridan biri Toshkent hisoblangan. O'rta Osiyoning sharq davlatlari bilan tashqi iqtisodiy aloqalarida Toshkent shahri azaldan alohida mavqega ega bo'lgan. Tashkent shahri XVI asrda Rossiyada ham ma'lum bo'lib, Tashkura nomi bilan "Kniga Bolshogo Cherteja"ga ham kiritilgan. XVI asrning ikkinchi yarmida Tashkent Buxoro xonligiga qo'shib olingan.

O'rta asrlarda Toshkent o'z tovarlari bilan mashhur bo'lgan. Mahmud ibn Vali Toshkentdan olib ketiladigan tovarlar haqida yozib, dorivor o'simliklar, [10:57-b] jumladan, qon ketishini to'xtatishda qo'llaniladigan o'simliklar haqida, eslatadi. Bu dori Xitoyga ham eksport qilingan. Mahmud ibn Vali o'z asarida darmana deb

ataluvchi ko'p yillik yarim buta haqida ma'lumot berib, uning barglarida va gul to' dasida terpenoid santonin bo'lib, uning gijjani yo'qotadigan xususiyatga ega ekanligini bayon qilgan. Darmana Toshkentdan ko'plab Yevropa mamlakatlariga olib borilgan. Ma'lumotlarga ko'ra, asrning 30-yillarida savdogarlar Toshkentda o'sadigan darmana urug'ini Eron va Turkiyaga, Turkiyadan esa nemis davlatlariga olib borishgan [11:96-97-b].

Tarixdan ma'lumki, O'rta Osiyodagi shaharlar kabi Toshkent ham Sharq; bilan G'arbni bir-biriga bog'lab turuvchi Buyuk ipak yo'li ustida joylashgan. Karvon yo'li Qashg'ardan O'sh orqali Toshkentga kelgan. Toshkent O'rta Osiyoning muhim shaharlaridan biri hisoblanib, Qo'qonning Rossiya bilan savdo aloqalarida vositachilik rolini ham o'tagan. Shu bilan birga rus hukumati Toshkent orqali O'rta Osiyo xonliklari bilan va hattoki u orqali Xitoy bilan savdo qilishga harakat qilishgan.

Rossiya davlati Toshkent orqali Qo'qon xonligi bilan savdo va diplomatik aloqalar o'rnatishdan manfaatdor bo'lgan. Chunki Rossiya Toshkent va Qo'qon orqali Qashg'arga ham chiqishi mumkin edi. Rossiya Sharqiy Turkiston bilan bo'ladigan savdo aloqalarida toshkentlik savdogarlarning vositachilik rolini ko'ra bilgan edi. Ruslar toshkentliklarning Qashg'ar tovarlarini Qo'qon orqali Rossiyaga yetkazib berishlaridan katta foyda ko'rgan. Ma'lumotlarga ko'ra, XVIII asr oxirlarida Semipalatinsk bojxonasi hujjatlarida Rossiyaning Sharqiy Turkiston bilan aloqasida toshkentlik savdogarlar rolining ortib borganligini aks ettiruvchi ma'lumotlar uchraydi. Fikrimizning tasdig'i sifatida XVIII asr oxirlarida, ya'ni 1791-yil noyabr oyida Yamishevga quyidagi tovarlar olib borilgan: 612 rub. 50 kop.lik 19 pud 30 funt toshkent oq qog'ozi, 814 rub. 70 kop.lik 894 arshin guldor va yo'l-yo'l toshkent matosi, 9735 arshin toshkent pardasi, 799 dona toshkent chaponi, chaqmon, ko'k zenden.

1852-yil fevral-may oylarida Rostovlik savdogar S.Y.Klyucharev Toshkentda bo'lib, o'zi shohid bo'lgan voqealarni kundaligiga yozib borgan. V.V.Velyaminov-Zernov kundalikdan foydalanib, uni izohlar va qo'shimchalar bilan boyitib "Историческая известия о Кокандском ханстве, от Мухаммеда-Али до Худаяр-Хана" asarini yozgan [12:364-b]. Kundalikda keltirilgan dalillar ko'proq xonliklar o'rtasidagi siyosiy aloqalar va savdo munosabatlarini yoritishga yordam beradi. Jumladan: 3 va 29 aprelda Buxorodan Toshkentga savdo karvonlari kelgan. 3 aprelda kelgan karvondagi tovarlarning aksariyati opium bo'lgan. Kundalikda «savdogarlar, Fulja, Chuguchak, Qashg'ar va Xitoyning barcha chegara shaharlarida bu tovardan foyda ko'pligini bilganliklari uchun hamma opiumni o'sha zahotiyok naqd pulga sotib olishdi",- deb yozilgan edi [12:364-b].

Usha kezlarda Toshkentda qo'qonlik savdogarlar ham bo'lishgan. Toshkentga qozoqlar cho'ldan chorva mollari haydab kela boshlashgan va bir kunda 20.000 qo'y

sotilgan. 8-aprelda Toshkentdan Troitsk va Fuljaga karvon jo'nagan. Fuljaga ketgan karvonda oltin (qo'yma va pul hoida) va opiumdan boshqa tovar bo'lmagan ekan. 13-aprelda Toshkentdan Troitsk, Petropavlovsk, Buxoroga, 15-aprelda esa Petropavlovsk va Semipalatinskga karvon jo'nagan.

XVIII asrning ikkinchi yarmida Toshkent to'rt dahaga: Shayxontohur, Beshyog'och, Ko'kcha va Sebzorga bo'lingan, har bir daha o'zicha mustaqil davlat edi. 1784-yilda shahar aholisining yordamiga tayanib Yunusxo'ja hokimiyatni qo'lga oladi va Toshkentni mustaqil davla deb e'lon qiladi. Uning davrida shahar mustahkam mudofa devorlari bilan o'rab chiqiladi. 1800-yilgi ma'lumotlarga qaraganda Toshkent yirik shahar bo'lgan, devor quyi qismining qalinligi 1,8 metr, ustki qismi 0,9 metr atrofida bo'lib, aylanma uzunligi 18 chaqirimdan ortiq, shahar devorining balandligi esa 7,9 m ga teng bo'lgan [13:110-b].

Shaharning 12 ta oltin kaliti bo'lib hozir milliy bankda saqlanmoqda. Shaharda o'sha paytda 10 mingta xonadon 80 ming aholi yashagan. Yunusxo'ja tarixiy yozma manbalarga qaraganda olti ming kishilik qo'shin turgan. Uning askarlari asosan pilta miltiq, qilich nayza, qalqon va to'plar bilan qurollangan edilar. Qo'shin tarkibi asosan turli shahrlardan kelgan musofirlar va askarlardan iborat bo'lib,—”qoraqozon” deb atalgan. Rus tog' muhandislari (aslida Rossiyaning O'rta Osiyodagi ayg'oqchilari) A.S.Beznosikov va T.S Burnashevlarning qaydnomalarida quyidagilarni o'qiymiz.—”Toshkent hukmdori (Yunusxo'ja) o'z fuqarolari ustidan cheksiz hokimiyatga ega. Ammo u o'z atrofidagi eng yaxshi amaldorlar bilan maslahatlashgan holda hokimiyatni boshqaradi. Bu kengashda Yunusxo'ja eng sodiq va ishonchli xo'jalar qatnashadi”.

Hukumat amaldorlariga maosh berilmagan. Bosh xo'ja Yunusxo'jadan keyingi ikkinchi shaxs hisoblangan. Ular faoliyati Yunusxo'ja nazorati ostida bo'lgan. Toshkent hokimligining tartibiga ko'ra har bir jondan bir oyda daromadiga qarab 5 tangadan 10 tangagacha yerdan olinadigan hosilning 40 dan bir qismi undirib olingan. Qoraxonlar har qanday soliqlardan ozod qilinganlar. Yunusxo'ja davrida Toshkent, Qo'qon, Buxoro, Xo'jand, Chimkent, Turkiston, Samarqand, Andijon, va boshqa Turonzamin shaharlari Hindiston, Xitoy, Qashg'ar, Tibet, Rossiya va boshqa bir qator xorijiy mamlakatlar bilan tijorat-savdo aloqalari o'rnatilgan.

V.V.Velyaminov-Zernov asaridan shu narsa aniqlandiki, Toshkent O'rta Osiyo xonliklari o'rtasidagi, qolaversa, Rossiya bilan Qo'qon o'rtasidagi, Qo'qon xonligining Xitoy bilan savdo aloqalaridagi markaziy vositachi shahar hisoblangan. Ammo Toshkentdagi notinchlik oqibatida Toshkentga kelayotgan karvonlar kam tovar keltirib va aksincha ko'prok tovarlar olib ketishgan.

A.P.Teterevnikovning ma'lumotlariga ko'ra, XIX asrning 60-yillarida savdogarlar Toshkentdagi umumiy savdo mablag'ini 10.000.000 rub. bo'lishi mimkin deb taxmin qilganligini xabar bergan [14:56-b]. Bu esa yuqorida eslatilgan

keltiriladigan va olib ketiladigan tovarlar haqidagi ma'lumotlarni tasdiqlovchi dalil hisoblanadi.

XIX asr o'rtalariga talluqli ma'lumotlarga ko'ra, Qo'qondan va xonlikning boshqa shaharlaridan har yili Toshkentga 16 ming tuya mol kelgan. Shundan 4 ming tuya paxta, 200 tuya yigirilgan ip, 10 ming tuya ip gazlama, yarim ipak va ipak matolar, chopon, ko'rpa, chalvor (teridan tiqilgan) va boshqalar, qolgan 2 ming tuyada ho'l mevalar keltirilgan. Har yili chetdan mol kiritish 4580 ming rub.gacha etgan [15-313-b]. Qo'qonga va xonlikning boshqa shaharlariga Toshkentdan ko'proq rus tovarlari keltirilgan. Chunki Rossiya bilan savdo Toshkent orqali amalga oshirilgan. Qo'qon bilan Toshkent o'rtasidagi savdo aylanishi bir yilda taxminan 7 mln. rub.ni tashkil qilgan. Toshkent bilan Qo'qon oralig'idagi masofaning yaqinligi Toshkent savdogarlariga jo'shqin savdo qilishlariga katta imkoniyat bergan. Yillik tovar aylanishi hisobga olinsa, Toshkent savdogarlarining Qo'qon bilan aloqalari muhimroq bo'lgan.

Xulosa o'rnida O'rta Osiyo xalqlari Xitoy, Hindiston, Afg'oniston, Eron, Rossiya kabi mamlakatlar bilan XVI-XIX asrlarda uzviy iqtisodiy savdo aloqalari o'rnatib kelgan. Ma'lum bo'ldiki, Toshkent, Buxoro va Xiva shaharlari Rossiyani Sharq davlatlari bilan bog'laydigan eng qulay karvon yo'l o'tgan hudud bo'lgan. Rus hukumati Xiva va Buxoroni hamda u orqali Hindistonga chiqadigan savdo yo'lini qidirib, bir necha tadqiqot ekspeditsiyalari tashkil qilgan va rus sanoatchilari hamda savdogarlarining yo'lida anchagina ma'lumotlarni ham qo'lga kiritgan.

XVIII asrdan boshlab vujudga kelgan Qo'qon xonligi O'rta Osiyo xalqlarining Xitoy, shuningdek, Sharqiy Turkiston bilan savdo aloqalari o'rnatgan vositachi davlat bo'lib qolgan.

1. Xitoy, shu jumladan, Sharqiy Turkiston bilan savdo aloqalarida Qo'qon xonligi alohida mavqega ega bo'lgan.
2. Qo'qon O'rta Osiyo xonliklarini Xitoy tovarlari bilan ta'minlaydigan yagona xonlik hisoblangan.
3. O'rta Osiyo xonliklarining Sharq davlatlari bilan savdo aloqalarida xivalik, buxorolik va qo'qonlik savdogarlar muhim rol o'ynagan.
4. Rus tovarlarining Sharq davlatlariga kirib borishida o'rta osiyoliklar alohida mavqega ega bo'lgan.
5. Buxoro bilan Hindiston o'rtasidagi savdo munosabatlarida afg'on qabilalarining o'rni alohida e'tiborga molik.

Adabiyotlar

1. Кузнецов В.С. Экономическая политика цинского правительства в Синьцзяне. М. 1973. С.93.

2. Сведения о произведениях и торговли Бухарин. Выр. из журн. “Мануфактура и торговли”. 1840. Хмыр. кол. Средняя Азия. Т.1. С.42 -53-54-197-216 б.
3. Ч.Ч.Валиханов. Собрание сочинений. Т. 3. Алма-Ата. 1984. С. 205-206.
4. Золотник - рус улчов бирлиги, мискол (4,25 граммга тенг тилло улчов бирлиги).
5. Вельяминов-Зернов В.В. Сведения о Кокандском ханстве //Вестник ИРГО. Ч. ХУШ. СПб., 1856. С. 128.
6. Махкамов А. А. Торговля Коканда со среднеазиатскими владениями и сопредельными странами в первой половине XIX в. Позднефеодальный город Средней Азии. Т.: «Фан». 1990. С. 147.
7. Г(агамейстер Ю.А.). О торговом значении Средней Азии в отношении К России. «Русский Вестник».Т. 41. Кн. 10. М., 1862. с. 707-708.
8. Хорошхин А.П. Очерки Кокана ./Сборник статей касающихся до Туркестанского края. СПбД876. С.43
9. Ротчев А.Г. Очерки торговли Семиреченской области (1868-1869). “Русский Вестник”. 1870. № 5. Туркестанский сборник. Т. 33. . 20-22.
10. Махмуд ибн Вали.Море тайн относительно доблестей благородных (география). Введение, перевод, примечания, указатели Б.А.Ахмедова.Т, 1977. С.57
11. История Узбекистана в источниках. Т. 1988. с.96-97.
- 12.Вельяминов-Зернов В.В. Историческая известия о Кокандском ханстве, от Мухаммеда-Али до Худаяр- Хана”. СПб., 1856. 364.
13. R.Ramsuddinov, Sh. Karimov, O‘. Ubaydullayev. Vatan tarixi. T.—Sharq, 2010, 101-bet.
14. Тетеревников А.Н. Очерк внутренней торговли Киргизской степи. СПб., 1867. с.56.
15. Туркестанский сборник Т. 5 с. 313.

IDENTIKLIGINI NAMOYON ETISHDA TURIZM SOHASINING O‘ZIGA XOSLIGI

**Kadirova X.B. – Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti,
sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)**

Annotatsiya. Maqola dunyo mamlakatlari buyicha eng tez sur‘atlar bilan o‘sib borayotgan va jahon xo‘jaligi tarkibida ulushi tobora ortib borayotgan tarmoqlardan biri hisoblanadigan turizm sohasini rivojlantirishning ayrim jihatlari va

xalq identikligini namoyon etishda turizm sohasining o'ziga xosligini yoritishga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotira, xalq, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, madanit, manfaat, mahalliy va xorijiy sayyoxlar, ichki turizmni rivojlantirish.

СПЕЦИФИКА ТУРИЗМА В ВЫРАЖЕНИИ ЕГО ИДЕНТИЧНОСТИ

Кадырова Х.Б. - доцент Ташкентского государственного педагогического университета, доктор философских наук по социологии (PhD).

Аннотация. Статья посвящена освещению некоторых аспектов развития индустрии туризма, которая является одним из наиболее быстрорастущих секторов в мире и ее доли в мировой экономике, а также уникальности индустрии туризма в выражении национальной идентичности.

Ключевые слова: национальная идентичность, историческая память, люди, национальные и общечеловеческие ценности, культура, интересы, местные и иностранные туристы, развитие внутреннего туризма.

THE SPECIFICITY OF THE TOURISM IN EXPRESSING ITS IDENTITY

Kadirova X.B. - Associate Professor of Tashkent State Pedagogical University, Doctor of Philosophy in Sociology (Ph.D.)

Annotation. The article focuses on some aspects of the development of the tourism industry, which is one of the fastest-growing sectors in the world and its share in the world economy, and the uniqueness of the tourism industry is reflecting the identity of the people.

Key words: national identity, historical memory, people, national and universal values, culture, interests, domestic and foreign tourists, development of domestic tourism.

Insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida kishilarning jamiyatdagi, millatlar va davlatlarning jahondagi o'rni va mavqeyi qanday bo'lishida identiklik xususiyatlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Milliy o'zlikni anglash esa nafaqat tarixiy xotira, o'tmishni o'rganishdangina iborat bo'lib qolmay, balki millat, xalqning milliy va umuminsoniy qadriyatlar, madaniyati, o'tmish tarixi va milliy manfaatlarga emotsional kuyinishidir[1; 195-b.].

“Barchamizga ma'lumki, har bir suveren davlat o'zining betakror tarixi va madaniyatiga egadir. Bu tarix, bu madaniyatning haqiqiy ijodkori, yaratuvchisi esa haqli ravishda shu mamlakat xalqi hisoblanadi”[2;.132-b.].

Chunki identiklik bir vaqtning o'zida tarixiy-retrospektiv, zamonaviy – strategik xarakterga ega bo'lgan muommodir. “Uning tarixiy ildizlari har qanday identiklikning birlamchi asosida hududiy, iqtisodiy va etnologik omillar yotganida bo'lsa, uning zamonaviy –strategik xarakterga ega ekanligi identiklik sotsiomadaniy paradigmaning o'zgaruvchi va plyuralistik tabiati ta'sirida shakillanayotgani, globallashuv ta'sirida identiklik ko'p qatlamli tuzilma hosil qilayotgani, shuningdek, u kelajakda nafaqat individual yoki milliy, balki, gender, fuqaroviy identikliklarning asosini belgilab, davlatchilik identikligi va strategiyasiga tamal toshi qo'yishi bilan belgilanadi” [3;.16-b.].

Identiklikni yani o'ziga xoslikni urf-odat, an'analarsiz, milliy o'zligini anglashsiz tasavvur etish mumkin emas. Identiklikda har bir xalqning falsafasi, an'analar va qadriyatlarning ijtimoiy mohiyati, ularning inson ma'naviy dunyoqarashi, kishilarning turmush tarzi orzu-umidlari, qiziqishlari o'tmish tarixi, hududi, ekologyasi hamda tafakkur tarzida mujassam bo'lib ana shu uyg'unlikda xalqlarning o'tmishi, buguni va kelajagida namoyon bo'ladi. Shuni alohida takidlash joyizki, Qoraqalpoq identikligini namoyon etishda turizm sohasini rivojlantirishning ham o'ziga xos xarakterli jihatlari mavjuddir.

Chunki, turizm hozirgi boskdchda dunyo mamlakatlari buyicha eng tez sur'atlar bilan o'sib borayotgan va jahon xujaligi tarkibida ulushi tobora ortib borayotgan tarmoqlardan biri hisoblanadi. Qisqa davr mobaynida u ayrim mamlakatlarda milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlaridan biriga, milliy daromadni shakllantirishning asosiy manbaiga aylandi. E'tibor beradigan bo'lsak hozirgi kunda jahon savdo aylanmasining 7 foizi xalqaro turizm ulushiga to'g'ri keladi.

Hozirgi kunda turistik biznes Meksikada valyuta daromadlarining 44 foizi, Italiyada 41 foizini tashkil qiladi. Turistik xizmatlar bozorida peshqadamlik qilayotgan Fransiya, Italiya, Yaponiya, AQSh kabi mamlakatlarda turizm yalpi ichki maxsulotni ishlab chiqarishning yetakchi tarmoqlaridan biriga aylangan (15-20 foiz atrofida). Ayni paytda ulkan turistik salohiyatga ega bulgan O'zbekistonda esa ushbu ko'rsatkich 1,8 foizni tashkil etadi. Lekin O'zbekistonning turizm soxasidagi imkoniyatlari juda katta bo'lib bu imkoniyatlardan to'la foydalanishga erishilsa, tarmoqning yalpi ichki maxsulotdagi ulushi turizm yuqori rivojlangan va turistik bozorda peshqadamlik qilayotgan mamlakatlar safidan o'rin olish uchun barcha imkoniyatlar mavjud.

Manbalarga e'tibor beradigan bo'lsak 1987-yildan boshlab bugungi kunga qadar ushbu tarmoqning dunyo miqyosida rivojlanish darajasi o'rtacha 14,8 foizni tashkil etdi, vaholanki boshqa tarmoklarda tegishli davr oraligida ushbu ko'rsatkich 8,8 foiz darajasidan oshmadi [8]. Bugungi kunda xalqaro turizm tarmog'iga dunyo buylab yaratilayotgan har o'n ikkinchi yangi ish o'rni to'g'ri kelib, keyingi o'n yillikda dunyo miqyosida 120 million kishining (ishsiz aholining 3,5foizi) ushbu tarmoqda ish bilan ta'minlanishi tahmin qilinmokda [9].

Bugungi kunda O'zbekiston va Qoraqalpog'istonda ham turizmning rivojlanishiga katta e'tibor qaratilmokda. Sababi, hozirgi kunda mamlakatimizda turizm xizmatlarini rivojlantirish iqtisodiy taraqqiyotning ustuvor yunalishi sifatida davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Turizmni rivojlantirish uchun zarur huquqiy va iqtisodiy asoslar yaratilib, tegishli chora - tadbirlar, qonun va qarorlar qabul qilinmokda

Zero, O'zbekiston Respublikasi va uning tarkibiga kiruvchi Qoraqalpog'iston Respublikasi turistlarning diqqat-e'tiborini tortadigan tarixiy obida va yodgorliklarga, turli xil meroslarga, o'ziga xos an'ana va qadriyatlarga boy mamlakatdir. Hozirgi kunda O'zbekiston xududida taniqli tashkilot - YUNESKO tomonidan o'tmishdan qolgan madaniy va o'z tarixiga ega bulgan meros sifatida ruyhatga olingan to'rt mingdan ziyod madaniiy yodgorliklar, moddiy va ma'naviy qadriyatlar mavjud. Bulardan aksariyatining tarixi uzoq o'tmishga, yani 2000, 3000 yillar oldingi davrlarga borib takalishini e'tiborga olsak, dunyoning kamdan-kam mamlakatlari bu soxada O'zbekistonga tenglasha olishi mumkinligiga amin bulamiz. O'zbekistonning kurgina shaharlari, ayniqsa, Samarkand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Termez Sharq sivilizatsiyasining beshigi, ilmu-fan markazi bo'lganligi, uning nomi bilan dunyoga mashhur buyuk shaxslarning (A.Temur, M. Ulug'bek, Ibn Sino, A.Navoiy, Al Xorazmiy va boshqalar) xayoti va ijodi uzviy bog'likligi mamlakatni son-sanoqsiz turistlar uchun dilkash, jozibali, o'ziga tortuvchi, katta qiziqish uyg'otishga molik turistik maskan sifatida tan olinishiga asos bo'laoladi. Dunyoda O'zbekistonning olamda mashhur qadimiy shaharlarini bir ko'rish, buyuk insonlar qadamjoylarini va maqbaralarini bir marta ziyorat qilish ishtiyoqi bilan yashab yurgan insonlarning son-sanogi yuq. Bularning barchasi O'zbekistonda turizmni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar tug'dirishi bilan birga O'zbekiston Respublikasi tarkibidagi Qoraqalpoq xalqi milliy identikligi va madaniyatini butun dunyoga tanitishga ham zamin yaratadi. Madaniyat - bu har qanday davlatning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishining asosiy omillaridan biri bo'lib, hozirgi vaqtda madaniy turizm dunyo miqyosida iqtisodiyotning jadal rivojlanib borayotgan sektoriga aylanmoqda. Intellektual va moddiy xarakterdagi sarmoyalar iqtisodiyotni qayta tiklash va madaniy industriyani rivojlantirishning muhim omili bo'lib xizmat qilmoqda.

Prezidentning 2017-yil 28-fevraldagi “2017-2018-yillar davrida Qoraqalpog‘iston Respublikasining Mo‘ynoq tumanini iqtisodiy rivojlantirish va aholi bandligini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” [10] gi qaroriga muvofiq to‘qimachilik, farmasevtika va elektrotexnika mahsulotlari, tomchilab sug‘orish uskunalari, plastmassa quvurlar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi, baliqchilik va turizmni rivojlantirish bo‘yicha imkoniyatlar ishga solindi.

Bugun Mo‘ynoq turizm markaziga aylanib bormoqda. Yaqinda Mo‘ynoq tumanidagi “Mo‘ynoq – orzular oroli” MChJ tomonidan 2 ta turistik avtobuslar kredit hisobidan xarid qilinib, xorijiy va mahalliy turistlarning Mo‘ynoq tumaniga sayohatlari tashkil qilinmoqda keng foydalanilmoqda. 2018-yilda jami O‘zbekiston bo‘ylab turistik toifadagi avtotransportlar soni 133 taga yetdi. Bulardan 48 tasi – avtobus, 85 tasi – mikroavtobuslardir. Bundan ma‘lumki O‘zbekistonning barcha turistik joylariga va Qoraqalpoq xalqi identikligini milliy qadriyatlarini namoyon etishda o‘ziga hos vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Shuni alohida takidlash kerakki bugungi kunga kelib Mo‘ynoqqa sayohat qiluvchilar soni ham ortib bormoqda. Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasining yakuniy hisobotiga ko‘ra, 2018-yilda O‘zbekitonga 5,3 mln nafar sayyoh tashrif buyurgan. 2017- yilda ularning soni 2,69 mln nafarni qayd etgan, ya‘ni sayyohlar soni bir yilda 97 foizlik o‘shishni ko‘rsatib, ikki baravarga oshgan. 2016-yilda esa ularning soni 2,07 million nafarni qayd etgan [11].

Tumanda turistik salohiyatni ko‘tarish maqsadida qator loyihalar amalga oshirilmoqda. Eski kemalar yig‘ilgan joyni Kemalar muzeyi zamonaviy majmuasiga aylantirish va mukammal ta‘mirlash bo‘yicha ham ishlar qizg‘in olib borilmoqda

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi o‘rinbosari Baxtixon Xabubullaevning aytishicha, mintaqaning sayyohlik salohiyati katta, faqat undan unumli foydalanish zarur. Bugungi kunda 200 ga yaqin madaniy meros va ziyorat ob‘ektlari ro‘yxatdan o‘tkazilgan shundan dalolat beradi. Ulardan 131 tasi arxeologik, 25 tasi arxitektura ob‘ektlari bo‘lsa, qolganlari diqqatga sazovor joylardir. [4,b.195.].

Bular tarixiy - madaniy ekologik, arxeologik, etnografik turizm xizmatlarini tashkil etish uchun ayni muddao. Prezidentimiz tashabbusi bilan sohani rivojlantirish, mahalliy va xorijiy sayyoxlarni ko‘proq jalb etishga ustuvor ahamiyat qaratilayotganing boisi ham shunda. Ya‘ni Qoraqalpog‘istonning sayyohlik jozibadorligini oshirish, aholisi uchun yangi ish o‘rinlari, muhim daromad manbalarini shakillantirishdir.

Darhaqiqat, Qoraqalpoq hududining mehmonlarni ohanrabodek o‘ziga tortadigan manzillari ko‘p bo‘lib ma‘lumotlarga qarganda, o‘tgan yili Qoraqalpog‘istonga jami 43475 nafar turist tashrif buyurgan bo‘lsa, shundan 15274 nafari xorijlik ekanligi e‘tiborlidir. Ularning asosiy qismi Fransiya, AQSh, Italiya,

Rossiya, Germaniya, Janubiy Koreya, Buyuk Britaniya, Xitoy va Yaponiya davlatlari fuqarolarini tashkil etadi.

Bugungi kunda dunyoning ko'pgina davlatlari madaniy merosni shuningdek, madaniy idoralarni o'zining nufuzini oshirish, shaharlarni rivojlantirishni rag'batlantirish, sayohatchilarni va investitsiyalarni tarqatish masalalarida foydalanilmoqda. Qoraqalpog'iston Respublikasining bunday madaniy muassasalar o'rtasida hududda madaniy turizmni rivojlantirishdagi o'rni salmoqli bo'lib, bu borada muzeylarning olib boradigan xizmatlari o'ta ahamiyatlidir. Qadimiy yodgorliklar saqlanadigan, tadqiqot qilib o'rganadigan va aholiga ko'rsatiladigan ilmiy institut sifatida tan olingan muzeylar o'lkamizning ko'p asrlik tarixiy va madaniy merosni targ'ibot va tashviqot bo'yicha salmoqli ma'lumotlar daragi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2018-yil 3-fevraldagi PF-5326-son Farmoni ijrosini ta'minlash, shuningdek, hududlarni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim omillaridan biri sifatida ichki turizmni jadal rivojlantirish, fuqarolarni mamlakatimizning madaniy-tarixiy merosi hamda tabiiy boyliklari bilan tanishtirish maqsadida Nukus shahridagi I.V.Saviskiy nomidagi Qoraqalpoq san'at muzeyiga respublikamiz bo'ylab sayyohlarning tashrifini uyushtirish uchun dastur tasdiqlangan bo'lib, bugungi kun holatida mazkur dastur bo'yicha respublikamiz bo'ylab muzeyga 856 ta ichki sayyohlar tashrif buyurishgan [12]. Shulardan Qoraqalpog'iston Respublikasi shahar va tumanlaridan 364 ta, Horazm viloyatidan 187 ta, Toshkent shahridan 105 ta, Jizzax viloyatidan 89 ta, Buxoro viloyatidan 88 tani tashkil etadi.

2018-yilda O'zbekisonga tashrif buyurgan 5 346 219 nafar sayyohdan

5.020.392 nafari MDX mamlakatlaridan kelgan, uzoq xorijiy mamlakatlardan tashrif buyurganlar soni esa 325 827 nafarni tashkil qildi. O'zbekistonga kelgan sayyohlar orasida eng katta ko'rsatkich qo'shni Qozog'iston fuqarolari tomonidan qayd etilgan: 2 293 077 nafar. Undan keyingi o'rinda 1 095 505 fuqarosi bilan Tojikiston va 1055 688 fuqarosi bilan Qirg'iziston kelgan. Uzoq xorijiy mamlakatlardan tashrif buyurganlar orasida esa Turkiya fuqarolari yetakchilik qilmoqda 41299 nafar. Keyingi o'rinlarda 32 444 kishi bilan Xitoy va 27 269 sayyoh bilan Janubiy Koreya qayd etilgan.

Mahalliy va xorijiy sayyohlarni jalb qilish maqsadida I.V.Saviskiy nomidagi Qoraqalpoq san'at muzeyi xaqida mahalliy va respublika telekanallarida muzey xaqidagi hujjatli videofilmlar efirga uzatilib kelinmoqda. Shuningdek, ichki turizmni rivojlantirish maqsadida, mahalliy telekanallarda yangi ishga tushgan turistik

majmualar, mehmonxonalar, turizm sohasidagi o'zgarishlar to'g'risida ko'rsatuvlar olib borilmoqda.

Chet ellik mehmonlar Qoraqalpog'istonga kelishlari bilanoq "Sahrodagi Luvr" diya ta'riflanadigan mashhur I.Saviskiy nomidagi Qoraqalpog'iston davlat san'at muzeyini ko'rishga oshiqadilar. Chunki bu yerda qoraqalpoq identigligini ko'rsatib beruvchi o'ta qimmatli bebaho asarlar jamlangan bo'lib ularning kupchiligi dunyo bo'yicha nayob sanaladi. Bu yerda avangrad rossomlarining mashhur asarlarinig asil nusxalari, qoraqalpoq xotin – qizlarinig juda kam sonli qadimiy liboslari namunalari, bebaho har xil taqinchoqlar, qoraqalpoq kelinlari libosilari bu libosdan atiga beshtasi saqlanib qolingan bo'lib bugungi kunda muzeyning eng nayob eksponatlaridan biri hisoblanadi. I.Saviskiy kabi san'at va soha fidoyilarining ko'p yillik izlanishlari tufayli muzey bugungi kunda Qoraqalpog'istonning nayob turistik markazlaridan biriga aylanib, shu kabi sohaga qaratilayotgan etibor, uning ravnaqi yo'lida yaratib berilayotgan qulay shart-sharoitlar yana kuplab muassasalar vujudga kelishi, turizm industriyasining rivojlanishiga mustahkam poydevor bo'layabdi. 2018-yilda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan mamlakatda turizmni rivojlantirishga qaratilgan 11 hujjat, Vazirlar Mahkamasi tomonidan esa 25 normativ-huquqiy hujjat imzolangan edi.

Har bir mamlakat xalqlari hayotida milliy o'zlikni identiklikni anglash muhim o'rin tutadi. Chunki, bu bir tomondan shu mamlakatning o'ziga xos tomonlarini anglashga va bilib olishga yordam bersa, ikkinchidan, agar jamiyat o'z ma'naviy imkoniyatlarini, urf-odat va an'analarni hisobga olmasa "odamlar ongida ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi" [5; 5-b.].

Har qanday jamiyat o'ziga xos strukturaga ega bo'lib, uning hatti - harakatidagi shart-sharoitlarni ishlab chiqarish qurollari, aholining joylashuvi, iqlim, ekologik vaziyat, siyosiy-geografik omillar, madaniyat va tashqi ta'sir omillari belgilab beradi. Chunki, tabiiy va ijtimoiy jarayonlar qoraqalpoq hududida yashab kelgan xalqlarning o'ziga xos madaniyati va ma'naviy dunyosining tarkib topishiga asos bo'lgan. Bunday tabiiy tarixiy sharoitda shakillangan milliy qadriyatlar, diniy falsafiy qarashlar, ijtimoiy-siyosiy, moddiy-iqtisodiy turmushning mohiyati va xususiyatlarini identiklik doimo o'zida aks ettiradi. Qoraqalpoq xalqi qadriyatlarni ming yillar maboynida avloddan-avlodga o'tkazib, o'z tarixi, madaniyatining namunasi sifatida saqlab qolishga muvaffaq bo'lganlar. Zero, qoraqalpoq xalqi ajdodlarinig azaliy hatti - harakatlari, fikr-o'ylari, orzu va niyatlari, intilishlari, ona zamin e'zosi va Vatan g'ururi, iftixori, ruhiyoti, urf-odat, an'analari, milliy o'zligini anglashi va hayotning barcha sohalari bilan bog'liq bo'lib, qoraqalpoq xalqi bugungi kuni identikligi uchun ham muhim ahamiyatga egadir.

Hozirgi kunda 2017-2021- yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarning tizimli ro‘yobga chiqarilishi har bir soha rivojlanishida, odamlar turmush farovonligini yaxshilashda muhim ahamiyatga kasb etmoqda.

“O‘zbekistonda jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiyalash borasidagi islohotlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning konseptual g‘oyalarida o‘z ifodasini topgan: “Bu olijanob maqsad – izchil va barqaror rivojlanayotgan, erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini barpo etishdan iboratdir”[1;134-b.].

O‘zbekiston, bugungi kunda dunyo e‘tibor markazida bo‘lib, bir vaqtlar rivojlangan Yevropaning borib ko‘rish orzusida bo‘lgan bo‘lsa, hozirda jahon zamon bilan hamnafas tarzda bunyodkorlik va iqtisodiy rivojlanish yo‘lidan borayotgan yurtimizni ko‘rishga intilmoqda. “Faqatgina xalqimizning azmu shijoati va qudrati, bukilmas irodasi va qat‘iyati, eng muhimi, mustaqil taraqqiyotga bo‘lgan mustahkam ishonchi buyuk maqsadlarimizga erishishning birdan-bir kafolatidir”[1,b.94] deb fikrini bildirdi Shavkat Mirziyoev.

Prezident Sh. M. Mirziyoevning Qoraqalpog‘istonga tashrifi chog‘ida Orol tufayli yuzaga kelgan ekologik muammolarga “bo‘yin egmay yashayotgan” bu el aholisini azmu-shijoati yangi-yangi zafarlarni quchishga undovini taakidlab, bu borada “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturining hayotga samarali tadbiri, birinchilardan bo‘lib, Qoraqalpog‘iston Respublikasida boshlanishi ham bejis emas. Prezidentimiz Sh.Mirziyoevning Qoraqalpog‘iston xalqiga bo‘lgan cheksiz e‘tibori va mehri, ishonchi bu hududni yanada obod, yanada farovon qilish uchun olib borilayotgan keng ko‘lamli ishlarda o‘z aksini topmoqda.

Prezidentning bevosita tashabbusi va e‘tibori tufayli Qoraqalpog‘istonda Orol dengizi qurishi oqibatlarini yumshatish dengizning sho‘rlangan yerlarida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, ekotizimni yaxshilash Orolning qurigan qismida o‘rmonlar barpo qilish, chorvachilikni rivojlantirish bo‘yicha ham Qoraqalpog‘istonda katta loyihalar asosida amaliy ishlar olib borilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Orolbo‘yi mintaqasida ekologik vaziyatni barqarorlashtirish, aholining turmush darajasini yaxshilash bo‘yicha keng miqiyosli loyhalarni amalga oshirdi. 350 ming gektar maydonga saksovul va sho‘rga chidamli o‘simliklar ekilib, butazorlar barpo etildi. Orol dengizi inqirozi oqibatlarini yumshatish va Orolbo‘yi hududini rivojlantirish bo‘yicha 2013-2017-yillarga mo‘ljallangan kompleks chora-tadbirlar doirasida 500 dan ortiq loyihalar amalga oshirildi. Ularning yarmidan ko‘pi milliy loyihalar hisoblanadi.

Prezident Sh.Mirziyoev tashabbusi bilan qabul qilingan 2018-2021 yillarda Orolbo‘yi hududini rivojlantirish bo‘yicha Davlat dasturi bu yerda ijtimoiy-iqtisodiy holatni yaxshilash, ekologik falokat oqibatlarini yumshatish bo‘yicha investitsiya

loyhalarini o'z vaqtida va samarali amalga oshirishga xizmat qilmoqda. Prezidentimiz Sh.Mirziyoev Orol halokatiga xalqaro hamjamiyat e'tiborini ham qaratib BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida dunyo hamjamiyatini ushbu ekologik inqiroz oqibatlarini bartaraf etish va undan jabr chekayotgan aholiga amaliy yordam ko'rsatish bo'yicha xalqaro miqiyosdagi sa'y-harakatlarni birlashtirishga chaqirdi. Va O'zbekiston tashabbusi bilan BMT shafeligida Orol dengizi va Orolbo'yi hududbo'yicha maxsus Trans jamg'armasi tuzildi.

Prezident "Orol fojeasidan eng ko'p zarar ko'rgan asli shu – Mo'ynoq aholisi deb ta'kidladi va ularning tashabbusi bilan O'zbekistonning Xitoy, Janubiy Koreya, Yaponiya, Quvaytdagi elchilari tomonidan Qoraqalpog'istonda yirik loyihalar asosida amalga oshiriladigan investitsiyalar hisobiga sement, lak-bo'yoq, alyumin folgasi, ishlab chiqaradigan zavodlar ishga tushiriladi.

Prezidentimiz Oliy Majlisga Murojaatnomasida ekologik xavfsizlik masalasiga alohida to'xtalib, suv va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, Orol dengizining suvsiz hududlarida 500 ming gektar o'rmonzor barpo etish yuzasidan aniq chora-tadbirlar belgilab berildi. Shu bilan birga, Mo'ynoq tumanida barcha zarur infratuzilmaga ega zamonaviy shaharcha bunyod etish vazifasi ilgari surilgan edi [6,b.2].

Shu bilan birga bu joyda turizmni rivojlantirish chora tadbirlariga ham olohida etibor qaratildi.

Buning natijada Mo'ynoq tumani aholisi toza ichimlik suvi bilan ta'minlandi, markaziy ko'chalar ta'mirlandi, ko'p xonali turar joylar tubdan rekonstruksiya qilindi, kichik sanoat zonasi tashkil etilib 13 ta loyhani ro'yobga chiqarish rejalashtirilgan bo'lib, umumiy qiymati 6 milliard 282 million so'mlik 8ta loyha ish boshladi. Umuman olganda, olib borilayotgan izchil islohatlardan ko'zlangan asosiy maqsad aholi turmush farovonligini yanada oshirish orqali qoraqalpog'istonni rivojlantirish ularning ertangi kunga ishonchini mustahkamlashdan iborat bo'lib, amalga oshirilayotgan tub islohotlar natijasida hozirgi zamon taraqqiyoti talablariga mos keladigan va yuksak madaniyatga asoslangan yangicha umuminsoniy yashash milliy identikligi tamoyillarini shakillantirishdan iborat.

Mamlakatimizda turizmni rivojlantirishga qaratilayotgan chora-tadbirlar xorijlik sayyohlarni jalb qilishning eng muhim omillaridan. Qoraqalpog'iston Respublikasida ham soha ravnaqiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Maqsad bu yerda zamonaviy turizm tizimini yo'lga qo'yib, yurtimiz va xorijlik sayyohlarga namunali xizmat ko'rsatishdir. 2018-2019-yillarda ko'zda tutilgan 42 loyiha aynan shunday ezgu niyatlarga qaratilgan edi. Ayni paytda Qoraqalpog'istonda 34 turistik tashkilot faoliyat yuritmoqda. Bu esa hududimizning sayyohlik imkoniyatlaridan dalolat beradi. Hozirgi kunda sohani rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlarga monand yana bir loyihani rejalashtiryabmiz. deydi O'zbekiston Respublikasi turizmni

rivojlantirish davlat qo‘mitasining Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududiy boshqarmasi boshlig‘i Bayram Qusekeev. Bu Quvayt davlatining mahalliy televideniylarida Qoraqalpog‘iston Respublikasining turistik salohiyatini faol targ‘ib qilishdir. Bu loyiha amalga oshirilsa, hududimizga keluvchi xorijlik sayyohlarning soni yanada ko‘payadi [13].

Prezidentning 2017-yil yanvar va dekabr oylarida Qoraqalpog‘iston Respublikasiga tashrifi chog‘ida Qoraqalpog‘iston Respublikasini rivojlantirishga qaratilgan iqtisodiy loyihalar taqdimoti o‘tkazildi. Qoraqalpog‘iston Respublikasida ip-kalava eksportini kamaytirish, jensi matosi, momiq sochiq va boshqa tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, ekin maydonlarini hosildorlik va rentabellik darajasini oshirish haqida so‘z bordi. Qizilmiya va boshqa dorivor o‘simliklar yetishtirish va qayta ishlash tashkilotlari uyushmasining amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari, jumladan, noyabr oyida faoliyat boshlagan “Lanko Miya” MChJ qo‘shma korxonasida qizilmiya ekstraktidan Yevropa bozori uchun mo‘ljallangan qandolat mahsulotlari, shokolad uchun ingredientlar ishlab chiqarish loyihasi davlatimiz rahbarida katta qiziqish uyg‘otdi.

Qoraqalpog‘istonda qizilmiya plantatsiyalarini ko‘paytirish, xorijiy sheriklar bilan vodorod-peroksid zavodini ishga tushirish, investorlar uchun bojxona to‘lovi, mahsulotni standartlashtirishni yengillashtirish, “Nukus-farm” EIZda investitsiya loyihalarini amalga oshirish yuzasidan tavsiyalar berildi. O‘zbekistonning Xitoy, Janubiy Koreya, Yaponiya, Kuvaytdagi elchixonalari tomonidan ushbu davlatlar bilan amalga oshirilayotgan loyihalar taqdimotning e‘tiborli jihati bo‘ldi. Prezidentimiz topshirig‘i asosida elchilarimiz tomonidan ushbu mamlakatlar bilan Qoraqalpog‘istonda yirik loyihalarni amalga oshirishga kirishilgani, jumladan, jalb qilinayotgan investitsiyalar hisobiga zamonaviy avtomatlashgan sement va lok-buyoq zavodlari ishga tushirilishi va boshqa katta hajmli loyihalarni tatbiq etishga kirishilgani qayd etildi.

Tarix sabog‘idan to‘g‘ri xulosa chiqarish, milliy identiklik, milliy o‘zlikni anglashdan kelajakni to‘g‘ri tashkil qilish orqali kelgusi avlodlarga yetkazish bosh maqsad bo‘lib shakillanadi.

Xulosa qilib aytganda, madaniy identiklik istiqloq davrida yangi xususiyat, iqtisodiyot, siyosat bilan birga yangi hayot tarzini qaytadan boshlagan davlatlar faqatgina milliy nuqtai nazardan davlat qiziqishlarini ifoda etish emas, balki odatdan tashqari jarayonlarga moslashish va saqlanib qolish uchun kurash vaziyatida butun tarixiy, moddiy va ma‘naviy qadriyatlar nuqtai nazaridan o‘z ildizlarini, o‘zligini anglash, barcha progressiv va iqtisodiy siljishlarga to‘sqin bo‘layotgan, an‘anaviy dunyoqarashga asoslangan milliy tafakkur tarkibidagi kamchiliklarni qaytadan mushohada qilish evaziga zamonaviy dunyo taraqqiyotiga integratsiyalashuvdir [7,6;.14-b]. Zero har bir xalq hayotida “Milliy ma‘naviy o‘zlikka ega bo‘lish,

madaniy merosni o'zlashtirish uchun kurash yalpi ijtimoiy harakatga aylanadi"[8,7; 32-b].

Qoraqalpoq jamiyat taraqqiyotida mazkur identiklikning namoyon bo'lish darajasi, omillari va shart-sharoitlari qoraqalpoq mamlakati ijtimoiy-ma'naviy jihatdan turizm rivojiga bevosita ta'sir etadi

Xozirgi kunda mamlakatimizda turistik xizmatlar bozorini imkoniyatlar darajasida kengaytirishni tarmoqda innovatsion faoliyatni jadal rivojlantirishdan ajralgan holda tasavvur qilib bo'lmaydi. Qoraqalpog'iston turistik salohiyatining, unda mujassamlashgan imkoniyatlarning alohida o'рни bor. Bu ulkan salohiyatni ruyobga chiqarish, kelajakda uni mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishining eng muhim omillaridan biriga aylantirish, turizm sohasining yalpi ichki mahsulot va aholi bandligidagi ulushini bu sohada peshqadamlik qilayotgan mamlakatlar ko'rsatkichlariga yaqinlashtirish vazifalari bugungi kunning eng dolzarb makroiqtisodiy muammolari darajasiga ko'tarildi.

Adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. –T.: O'zbekiston, 2017. B-132., B-134., B-94.
2. Атамуратов С. Национальная культура и национальное самосознание в процессе обновления общества. – Т.: “Ўзбекистон” 1992. С.–195
3. Мадаева Ш. Идентиклик антропологияси Тошкент “NOSHIR” 2015. – Б.25
4. Rahmonov S. “Sayyohlarni chorlayotgan sirli maskanlar”// “Xalq so'zi” gazetasi, 2019 yil 16 mart, № 52 (7282)
5. Каримов.И. Маънавий юксалиш йўлида.-Т.: Ўзбекистон,1998.Б.5
6. Rahmonov S. “Halq so'zi” muxbiri. Mo'ynoqqa qaynoq hayot
7. Madayeva Sh.O. Milliy mentalitet va demokratik tafakkur.- Toshkent:Falsafa va huquq instituti nashriyoti, 2007. B.14
8. Bekmurodov M., Quronboyev Q., L.Tangriyev Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. –B.32
8. Лапицкая Л.В., Стрелец Е.В. Маркетинговые исследования тенденций развития регионального туристического рынка. Выпуск 17. Проблемы региональной экономики
9. <http://www2.unwto.org/ru>
10. <http://mahalladosh.uz/post?id=5173>
11. <https://kun.uz/uz/news/2019/01/30/>
12. <https://t.me/kruzuz>
13. <http://uza.uz>

ABJAD HISOBINI ANIQLASH AMALIYOTI

**Muhammadiyev A.M. – Toshkent davlat pedagogika universiteti
Shahrisabz filiali o‘qituvchisi filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Mahmudov A.A. – Toshkent davlat pedagogika universiteti Shahrisabz
filiali talabasi**

Annotatsiya. Maqolada arab alifbosidagi harflar vositasi bilan ifodalangan sonlar asosidagi hisob – abjad haqida so‘z boradi. Mualliflar tomonidan abjad hisobi aks ettirilgan jadval keltirilgan. Shuningdek, matndagi abjad hisobini aniqlash yo‘llari Muhyi va Kamiy ijodiga mansub misollar yordamida tushuntirilgan.

Tayanch so‘zlar: Abjad, havvaz, hutti, kalaman, sa’fas, qorashat, saxxaz, zazag‘, abjad hisobi, hisaab al-jummal, ilm al-jafir, Majmu’oti ash’ori Muhyi, Kamiy...

ПРАКТИКА ОПРЕДЕЛЕНИЯ УЧЕТНОЙ ЗАПИСИ АВJAD

**Мухаммадиев А.М. - преподаватель Шахрисабзского филиала
Ташкентского государственного педагогического университета, кандидат
филологических наук, доцент
Махмудов А.А. - Студент Шахрисабзского филиала Ташкентского
государственного педагогического университета**

Аннотации. В статье рассматривается арифметика на основе чисел, представленных буквами арабского алфавита. Автор приводит таблицу с алфавитным исчислением. Также способы определения алфавита в тексте объясняются на примерах из произведений Мухи и Ками.

Ключевые слова: Абджад, хавваз, хутти, каламан, сафас, корашат, саксаз, зазаг, счет абджад, хисаб аль-джуммал, ильм аль-джафр, Маджмуати ашъари Мухи, Ками ...

ABJAD ACCOUNT DETERMINATION PRACTICE

**Muhammadiyev A.M. - Teacher of Shahrisabz branch of Tashkent State
Pedagogical University, Candidate of Philological Sciences, Associate Professor
Mahmudov A.A. - Student of the Shahrisabz branch of the Tashkent
State Pedagogical University**

Annotation. The article deals with arithmetic based on numbers represented by letters in the Arabic alphabet. The author provides a table showing the

alphabetical calculation. Also, the ways to determine the abjad count in the text are explained using examples from the works of Muhyi and Kami.

Key words: Abjad, havvaz, hutti, kalaman, safas, qorashat, saxxaz, zazag, abjad account, hisaab al-jummal, ilm al-jafr, Majmu’ati ash’ari Muhyi, Kami ...

Abjad hisobi qadimdan, hatto islomdan avval ham ijodkorning mahorat mayog’i hisoblangan. U orqali adabiyot sahni ta’rix she’riy san’atiga ega bo’ldi. Bu san’at nafaqat badiiy adabiyotning, balki qurilish jarayonining ham bir qismiga aylanib ulgurgan. Bilamizki, ajdodlarimiz binolarning qurilishida arab yozuvlaridan bezak sifatida foydalanishgan. Abjad hisobidan esa, asosan, binolarda chizilgan naqshinkor yozuvlar tarkibida muayyan sanalarni jumla tarkibida yashirib ifodalashda foydalanilgan.

Abjad – arab alifbosidagi harflar vositasi bilan ifodalangan sonlar asosidagi hisobdir. Arab alifbosi tarkibidagi harflar o’zining asl vazifasidan tashqari raqamlar kabi sonlarni ham ifodalab keladi. Arab yozuvidagi huruf muqobalasida muayyanlashgan qiymatni yodda saqlash lozim. Demak, arab alifbosidagi har bir harf ma’lum raqamli qiymatga teng. Boshqacha qilib aytganda, arab yozuvidagi har bir harf biror raqamni anglatadi. Bir qator hisoblash amallari shu asosda bajarilishi mumkin. Bunday hisoblash turi raqamli hisoblar (abjad) yoki “hisaab al-jummal” deb atalgan.

Arab alifbosi tarkibidagi harflarning abjad hisobi bo’yicha raqamli qiymatlari aks ettirilgan jadvalni quyidagicha ifodalaymiz:

Arab alifbosi harflarining abjad hisobidagi qiymatlari							
T/R	1	2	3	4	5	6	7
Arabcha harflar	ا	ب	ج	د	ه	و	ز
Harflarning o‘zbekcha o‘qilishi	alif	be	jim	dal	he	vav	ze
Harflarning raqamli qiymati	1	2	3	4	5	6	7
t/r	8	9	10	11	12	13	14
Arabcha harflar	ح	ط	ي	ك	ل	م	ن
Harflarning o‘zbekcha o‘qilishi							

	he	to	yo	kaf	lam	mim	nun
Harflarning raqamli qiymati	8	9	10	20	30	40	50
t/r	15	16	17	18	19	20	21
Arabcha harflar	س	ع	ف	ص	ق	ر	ش
Harflarning o‘zbekcha o‘qilishi	sin	ayn	fe	sod	qof	re	shin
Harflarning raqamli qiymati	60	70	80	90	100	200	300
t/r	22	23	24	25	26	27	28
Arabcha harflar	ت	ث	خ	ذ	ض	ظ	غ
Harflarning o‘zbekcha o‘qilishi	te	se	xo	zal	zod	zo	g‘oyn
Harflarning raqamli qiymati	400	500	600	700	800	900	1000

Guvoh bo‘lganingizdek, arab alifbosi tarkibidagi har bir harf ma’lum tartibga solingan va ularning har biri ma’lum qiymatlarga ega. Bu tartibni osonroq eslab qolish maqsadida **abjad, havvaz, hutti, kalamani, sa’fas, qorashat, saxxaz, zazag’** kabi so‘zlar ketma-ketligi o‘ylab topilgan.

Ta’kidlaganimizdek, abjad badiiy adabiyotda islomdan oldin ham mavjud edi. Qolaversa, bu hasob ta’rix san’atini vujudga kelishiga omil bo‘ldi. Mazkur maqolamizda ana shu san’at asosidagi misollarni o‘rganishda davom etamiz.

Birinchi misol. Muhyining “Majmu’oti ash’ori Muhyi” nomli asarida janob **Ma’sumxon to‘ra** nomli kishining vafoti munosabati bilan bitilgan 53 baytdan iborat ta’rix-marsiya mavjud. Uning vafoti sanasi haqida shoir shunday yozadi:

Bud ravshan az vuchudash sham’i ahli din mudom,

Z-in sabab shud soli favti o‘: charog‘i ahli din [Муҳйи, 1305x: 52].

Tarjiması: Uning (Ma’sumxon to‘raning) vujudidan din ahli (qalbi) doimo ravshan edi. Shu boisdan ham uning vafoti sanasiga غرچ لھا نید (charog‘i ahli din) ta’rix bo‘ldi.

Ma'lumki, abjad hisobi bo'yicha, charog'i ahli din (غ - 3, ر - 200, غ - 1000, ا - 1, ه - 5, ل - 30, د - 4, ی - 10, ن - 50) 1303 hijriy yilga to'g'ri keladi. Demak, Ma'sumxon To'ra 1303 hijriy yilda, marsiya so'z boshida ta'kidlanishicha, ramazon oyida vafot etgan.

Ikkinchi misol. Muhyiga bevosita zamondosh bo'lgan Po'lotxon Qayumov shoir Muhyining tug'ilgan yili haqida ma'lumot bermasa-da, uning Hirot shahrida tavallud topgani hamda 1911-yilda Andijonda vafot etganini ta'kidlab, shunday deydi: "...Yoz oylari edi. Toshkandli shoir Abdukarim Kamiy Xo'qandga kelib, men shoir Muhyining Andijonda o'zim tefada turib ko'mdirib keldim, deb afsusli xabarni berdi. Taxtaga o'zi degan vafot tarixini yozib ko'rsatdi:

Murd vah shohi shoiron Muhyi" [Қайюмов, 1998: 554].

Nazarimizda, P.Qayumovning Kamiy ta'rix misrasi to'g'risidagi fikrlarida bir oz chalkashlik bor. Misradagi harflarni abjad bo'yicha hisoblab chiqilsa, (م - 40, و - 6, ر - 200, د - 4, و - 6, ح - 8, ش - 300, ا - 1, ه - 5, ش - 300, ا - 1, ع - 70, ر - 200, ا - 1, ن - 50, م - 40, ح - 8, ی - 10) 1250 hijriy yil hisobi hosil bo'ladi. Bu milodiy 1836 yilga, ya'ni shoir tug'ilgan yiliga to'g'ri keladi. Demak, Abdukarim Kamiyning ushbu مورد و ح شاه شاعران محی ta'rix misrasi shoir Muhyining vafot etgan yiliga emas, balki tug'ilgan yiliga bag'ishlab yozilgan deb xulosa qilish joiz.

Muhyi haqida e'lon qilingan maqolalarda uning tug'ilgan yili 1835, vafoti esa 1911-yil ekani ko'rsatib o'tilgan [Юсупов, 2002: 46]. Bu manbalar Muhyining tug'ilgan va vafot etgan yilini shunday tarzda isbotlaydi. Kamiyning marsiyasi esa Muhyining tug'ilgan sanasiga to'liq aniqlik kiritadi:

Vodariq'o jumodul avval,

Bo'ldi betobu notavon Muhyi.

«Irji'iy» Haq nidosin eshitib,

Bo'ldi «labbayk» deb ravon Muhyi.

Chorumi moh ro'zi seshanba –

Haqqa taslim qildi jon Muhyi.

Yetmish besh yil ko'ribon umr

Oxiri ketdi-da qayon Muhyi [Камий, 1329 х: 52].

Mazkur marsiyada Muhyining yetmish besh yil umr ko'rgani, uning 1835-yilda emas, balki 1836-yilda tug'ilgani yaqqol aks etib turibdi (Adibni 1836-yilda tug'ilgan degan fikrning to'g'ri ekanligini Sh. Yusupovning Muhyi haqida e'lon qilgan keyingi ma'lumotlariga tayangan holda ham e'tirof etishimiz mumkin [1].

Marsiyada Muhyining jumodul avval oyi (islomiy oylarning beshinchisi)da betob bo'lgani, robi'ul – axir (to'rtinchi oy)ning seshanba kunida vafot etgani bildiriladi (Bu esa shoirning hayoti so'ngida bir yildan ortiq xasta yotganligini anglatadi [2]).

Bu dalillar umumlashtirilsa, shoirning 1836-yilda G'azna shahrida tavallud topgani ma'lum bo'ladi.

Uchinchi misol. Binobarin, Muhyining hikmatomuz va go'zal asarlari davrning elitar she'riyat ixlosmandlari diqqatini tortgan, mo'jizakor asarlar darajasida ular tomonidan olqishlangan. Shu sabab ta'sirida Andijon hokimi Nasriddinbek Muhyini “Tojush-shu'aro” unvoni bilan taqdirlagan. Ushbu voqeaga bag'ishlab Jozibxo'ja Rindiy Andijoniy 9 baytdan iborat tarix aytgan. Jumladan, tarixda shunday deyiladi:

Бул ажаб омад аз он Риндийки дар он замон

“Тоҷи сари шоирон” ҳам шуда тарихи он [Зоҳидов, 1994: 47].

Tarjimasi: Rindiyning ajoyibligi shundaki, (تاج سر شاعران) “Тоҷи сари шоирон” she'r aytilgan yilga moddai ta'rix bo'ldi.

Abjad hisobiga ko'ra “Тоҷи сари шоирон” (تاج سر شاعران)dan (1 - 1, 1 - 400, 1 - 3, 3 - 60, 60 - 200, 200 - 300, 300 - 1, 1 - 70, 70 - 200, 200 - 1, 1 - 50) **1286 hijriy yil** hosil bo'ladi.

Xulasomiz shuki, abjad hisobi qadimdan, hatto islomdan avval ham ijodkorlarning mahorat mayog'i hisoblangan. Arab alifbosidagi har bir harf ma'lum raqamli qiymatga teng. Shoirlar o'z she'rlarida mazkur holatdan foydalanib, tarixiy voqealar hisobini, yoxud asarlarining yozilgan sanasini abjad asosida aks ettirishgan.

Qolaversa, alifboning har bir harfi biror raqamni anglatishini bilgan musulmonlar undan ko'plab sohalarda foydalanishgan. Shunday sohalardan biri – “Ilm al-jafir”dir («Jafr» kelajakda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan narsalarni bashorat qilish ilmidir. Bunga ko'ra, ramziy shakllar va harflarning raqamli qiymatlarini taqqoslash bu soha bilan mashg'ul bo'lgan kimsalar tomonidan ishlatiladigan usullardan biridir) [3].

Mazkur hisob usulidan arablar juda unumli foydalanganlar. Jumladan, arab tarixida sodir bo'lgan har bir hodisa harflarning raqamli qiymatlari muqobalasida joylashtirilgan holda yozilgan va shu tariqa har bir voqeaning sanasi qayd yetib borilgan. Nihoyat hosila harflarning abjad asosida anglatuvchi qiymatlarini bir-biriga qo'shish orqali chiqarilgan.

Maqolamiz jarayonida sharhlangan misollardan yana shu narsa ayonlashadiki, ijodkor o'z asarida abjad hisobini chiqarish mumkin bo'lgan so'z, yoki jumlaning ayrim hollarda aniq bildirib ifodalasa, ba'zan bu jumlaning aniqlash biroz murakkab qiyinchiliklarni yuzaga keltirishi mumkin. Xullas, tadqiqotchi shoirning qaysi so'z yoki jumlasidan ta'rix sanasini topish mumkinligini teran anglamog'i lozim.

Yana bir muhim xulosa shuki, yil, oy, kun yoxud tarixiy voqealar hisobining oddiy raqamlarda emas, balki murakkab abjad usulida ifoda etilishi qadimdan ajdodlarimizning ijodiy mahoratlari yuksakligining nishonasidir.

Adabiyotlar

Bayozi Yangi. Abdulkarim Kamiy, Tipo.-lit. – Toshkent: G.Y.Yakovleva, 1329/h. O‘zFASHIning toshbosma asarlar fondida №2080 inventar raqami bilan saqlanayotgan nusxa.

1. Zohidov N. Muhyiddin Muhammad Rizo oxund o‘g‘li Muhyi // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1994. №3. B. 46 – 48.

2. Zohidov N. Muhyiddin Muhammad Rizo oxund o‘g‘li Muhyi // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1994. №3. B. 46.

3. Muhyiddin Muhyi. Majmu‘oti ash‘ori Muhyi. Qo‘lyozma. O‘zFASHI qo‘lyozma asarlar bo‘limida №11126 inventar raqami bilan saqlanayotgan nusxa. 69 varaqdan iborat. O‘zbek va fors-tojik tillaridagi ushbu asar 1305-yilda Qo‘qonda Muhyi tomonidan nasta‘liq xatida ko‘chirilgan. O‘lchami: 11x17 sm.

4. Yusupov Sh. Muhyi Xo‘qandiy // Sharq yulduzi. – Toshkent, 2002. № 1. B. 111.

5. Qayyumov P. Tazkirai Qayyumiy. III jildlik, 3-jild. Toshkent – 1998. 554-bet.

CROSSLINGUISTIC INFLUENCE, CONTRASTIVE ANALYSIS OF TURKISH AND ENGLISH IN TURKISH EFL LEARNERS

Niyazova F.S. - teacher of Shahrizabz branch of Tashkent State Pedagogical University

Toshtemirova A.S. – teacher of Shahrizabz branch of Tashkent State Pedagogical University

Annotation. This article highlights the differences and similarities of English and Turkish languages. Some Linguists have investigated scientific works about bilingualism in their research works. With the help of their works, you can be aware of grammatical structure and the meaning of the context in both languages respectively.

Key words: bilingualism, cross-linguistic, phonological, orthographic, lexical, semantic, morphological, syntactic, discursive, pragmatic, socio-linguistic, interlingual and intralingual.

**KROSSLINGVISTIKA TA'SIRI, TURKIY VA ENGLIZ
TILLARINING ZIDDIYATLI TAHLILI**

**Niyozova F.S.- Toshkent davlat pedagogika universiteti Shahrizabz filiali
o'qituvchisi**

**Toshtemirova A.S. - Toshkent davlat pedagogika universiteti Shahrizabz
filiali o'qituvchisi ingliz tili**

Annotatsiya. - Ushbu maqolada ingliz va turkiy tillar o'rtasidagi o'xshashlik va farqli jihatlar tadqiq etiladi. Ayrim tilshunos olimlar bilingvalizm haqida o'zlarining tadqiqot ishlarida izlanish olib borishgan. Ularning ko'magida ikki tilning grammatik va ma'no jihatini farqlash imkoniga ega bo'lishingiz mumkin.

Kalit so'zlar: ikki tillilik, lingvistika, fonologiya, ortografiya, semantika, morfologiya, sintaktika, diskurs, pragmatika, sotsiolingvistika, inter til va intra til

**КРОССЛИНГВИСТИЧЕСКОЕ ВЛИЯНИЕ, КОНТРАСТИВНЫЙ
АНАЛИЗ ТУРЕЦКОГО И АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА У ИЗУЧАЮЩИХ
ТУРЕЦКИЙ EFL**

**Ниязова Ф.С.- преподаватель Шахризабзского филиала
Ташкентского государственного педагогического университета**

**Тоштемирова А.С. - преподаватель Шахризабзского филиала
Ташкентского государственного педагогического университета**

Аннотация. В этой статье освещаются различия и сходства английского и турецкого языков. Некоторые лингвисты исследовали научные работы о двуязычии в своих исследованиях. С помощью их работ вы можете узнать о грамматической структуре и значении контекста на обоих языках соответственно.

Ключевые слова: двуязычие, кросс-лингвистический, фонологический, орфографический, лексический, семантический, морфологический, синтаксический, дискурсивный, прагматический, социолингвистический, межъязыковой и интралингвистический.

With the influence of globalization, the importance of bilingualism is increasing day by day. When acquiring and teaching an additional language, which is supposed to carry career and educational advantages, a lot of difficulties and problems can be encountered. SLA deals with these problematic issues from a theoretical point of view, that the learners are mainly expected to put the theories into

practice in their future careers. One of the problematic issues is "cross-linguistic influences" or can be defined as "transfer" which contains beneficial sides as well as drawbacks for the acquisition of a foreign language. The interlanguage affects the process of second language acquisition giving rise to the inaccurate usage and ill-formed production of English. Jarvis and Pavlenko classify a large variety of cross-linguistic influences under the term 'linguistic transfer', which includes various subtypes: phonological, orthographic, lexical, semantic, morphological, syntactic, discursive, pragmatic, and socio-linguistic. The present study is directly associated with linguistic transfer by investigating lexical, grammatical, and prepositional errors originated from L1 interference.

Coming to the object of the case study, a Korean university student is chosen for observation the specific features of CLI as she comes from a bilingual family who has Turkish speaking atmosphere in the family and using Uzbek in her social life at the same time. It is supposed to be interesting what kind of difficulties a bilingual student encounter in the process of language acquisition. Identifying the variations and the potential obstacles stemming from the mother tongue that cause the language errors, is the focus of the research. Moreover, a bilingual student is expected to be suitable for the concept of the topic.

During the academic research, many writing, grammar, and speaking activities were conducted as the student claim that she can face some misunderstanding for comprehending the academic texts. To ascertain if there was any kind of improvement in the language skills of the learner during the period of observation pre and post-tests were extremely useful.

The resemblance and distinctiveness between the target and native language is an admittedly complex issue that mostly bilingual people suffer from during the process of learning a language. When a multilingual person can take advantage of his/her first language belongs to the same branch of a language family that comprise similar grammatical and semantic features, otherwise, it can be intricate to acquire a second language that belongs extremely to a different branch of the language family. Francis and Hunston claim that the use of patterns by second language learners is to indicate a state of native likeness of those learners [1]. When both approaches were taken into consideration with the results given in the study, supposedly it is claimed that Turkish EFL learners do not resemble native-like status in their use of communication verbs. It evident from the fact that Turkish bilinguals mostly struggle with accurate use of English academically. According to Ianthi Maria Tsimpli "CLI is an effect of bilingualism that need not be cumulative and can change throughout the lifespan depending on the context, exposure, proficiency and crucially, linguistic domains" [2].

Identifying the lexical, grammatical, and propositional mistakes stemming from the learners' first language and producing the strategies of improvement, and allowing diminishing them is the focal issue of this study [3]. Errors which is made in the language learning process are defined as mirrors of the learners' language competence and usually derive from lack of linguistic competence. Gass and Selinker emphasized two different kinds of error types; i.e. 'interlingual' and 'intralingual' errors. As learners' native language causes interlingual errors, intralingual errors stem from the second language [4].

Brown also identifies a type of error source - Overgeneralization-which originated from the negative and incorrect use of the rules of the target language. Overgeneralization is a kind of establishing one's own language rules and put them into practice even in exceptional situations. It may give rise to incorrect use of articles, conjunctions, and prepositions and it is a kind of process developing the new language system [5].

The quantity of errors is associated with the efficiency of language learners' competence, as individuals who have a high level of English tend to make fewer language mistakes. The errors based on first language influence are distinguished as misuse of a noun, prepositions, confusion of certain verbs, direct translation from learners' mother tongue, and use of demonstrative adjectives. Inappropriate selection of words to the context, confusing singular and plural noun agreements, inaccurate use of articles. Kırkgöz concludes that beginner-level learners are more likely to experience the negative effect of transfer from their native languages while producing the target language forms.

As mentioned above, due to the belonging to different language families, English and Turkish possess distinct grammatical features, which give rise to transferring grammatical errors during the writing and speaking skills. English has a unique grammatical feature that Turkish learners are not familiar with and it is a problematic issue for them. Pluralization of uncountable nouns and indefinite articles are complex issues that don't exist in the grammatical structure in English and cause difficulties in the writing and speaking process. For instance: To be a doctor

(English)- to be a doctor (Turkish); Friendship is the vital issue (Turkish) - Friendship is a vital issue (English)

Additionally, the absence of the prepositions in Turkish is another focal issue that causes underusing and overusing prepositions in different situations which exists as a separate item in the grammatical system in English. However, in Turkish grammar prepositions are used with affixes or suffixes as a combination with the word rather than showing them as an independent item. Occasionally, as a result of misinterpreting, students cause prepositional mistakes making a direct and incorrect translation. As an example: Marry with a girl (Turkish) - Marry

a girl (English), Spending time studying (Turkish) Spending time studying (English).

In terms of lexical interference, the problem originating from Turkish semantic structure derives from the inappropriate and incorrect selection of words which mainly alters the meaning of the sentences. The incorrect usage of words and translating the patterns with a more Turkish style exactly affect the learners' speaking and writing performance. Dual language learners are always observed making lexical mistakes confusing in a bilingual atmosphere in daily social life. For example: to be a child doctor (Turkish) to be a pediatrician-pediatrist; open my own business (Turkish) to start my own business(English).

Erkaya concludes that lexical (wrong word preference), grammatical (misuse of indefinite articles), and prepositional interference are the three most frequent error types in descending frequency. However, it cannot be denied that there is a strong relationship between the language proficiency level and the number of errors.

Analyzing the difference between Turkish and English by the syntactical point of view, Turkish follow the Subject-Object Modifier Predicator (SOMP) while English follow another syntactical structure Subject Predicate Object Modifier (SPOM) which can be seen as another error-providing reason causing unsatisfactory results in the production of SLL's speech and writing. Nevertheless, there are always useful methods to avoid such crosslinguistic errors depending on the practicality of the instructor [6]. For the content of the investigation, a bilingual subject was selected to gain real discoveries of the benefits and drawbacks of multilingualism. According to my study, the effects of bilingualism range in terms of its advantages and disadvantages to acquiring L3, depending on the capability and aptitude of a language learner. According to Sanz, "The need to examine L3 acquisition in bilingual contexts from multiple perspectives is determined by the number of variables involved and their multiple interactions, making L3 acquisition a highly complex phenomenon" [7].

Teachers should always take into consideration the students' specific learning characteristics and linguistic capacity to apply the proper methodology. Instructing the learners to reach language advancement doesn't just mean to be proficient and knowledgeable in the field of the subject, the instructors should explore the methodologies and findings in conformity with the learners' special needs. More specifically, the mistakes of the students don't just indicate their weak points, instead, they show the tutors what kind of aspects they should mostly focus on. According to Kroll and Schafer , "errors help the teacher identify the cognitive strategies that the learner is using to process information" [8]. Motivating the students by creating a more sociable and friendly atmosphere will upgrade their self-esteem and self-confidence rather than punishing or decreasing their grades. The approach of the

learners' towards the lesson is directly linked with the attitude and talents for the procedures of the teaching process.

References

1. Hunston, S., & Francis, G. (2000). Pattern Grammar: A Corpus-Driven Approach to the Lexical Grammar of English. Computational Linguistics, 27(2).
2. Ianthi Maria Tsimpli (2017) " Crosslinguistic influence is not necessarily attrition" Linguistic Approaches to Bilingualism 7:6 , 760.
3. Maria Tsimpli (2017) " Crosslinguistic influence is not necessarily attrition" Linguistic Approaches to Bilingualism 7:6 , 759–762.
4. Gass, S. M. & Selinker, L. (2008). Second Language Acquisition: An Introductory Course. New York, NY: Routledge
5. Brown, H. D. (2007). Principles of Language Learning and Teaching. New York, NY: Longman.
6. Erkaya, O. R. (2012). Vocabulary and L1 interference-Error analysis of Turkish students' English Essays. Mextesol Journal, 36(2), 1–11.
7. Sanz, C. (2000). Bilingual education enhances third language acquisition: Evidence from Catalonia. Applied Psycholinguistics, 21, 23-44
8. Kroll, B. M. & Schafer, J. C. (1978). Error-analysis and the teaching of composition. College Composition and Communication, 29(3), 242–248

ALISHER NAVOIYNING TARBIYA MASALASIGA YONDASHUVI

Nurbayeva M.T.- Toshkent davlat pedagogika universiteti Shahrisabz filiali o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada o'zbek mumtoz adabiyotining atoqli namoyondasi, "So'z mulking sultoni" - Alisher Navoiy ijodining o'ziga xos jihatlari, xususan, shoir asarlarida farzand tarbiyasi to'g'risidagi mulohazalari, foydali maslahatlari, o'gitlari o'z ifodasini topgan.

Kalit so'zlar: inson, tarbiya, ajdod, avlod, olam, zamon, zakovat, aql-idrok, o'qituvchi, odob-axloq, oila, ota-ona, farzand, ilm, adabiyot.

ПОДХОДЫ АЛИШЕРА НАВАИ К ВОПРОСУ ВОСПИТАНИЯ

Нурбаева М.Т. - преподаватель Шахрисабзского филиала Ташкентского государственного педагогического университета

Аннотация. В статье отражены особенности творчества Алишера Навои, известного представителя узбекской классической литературы, «Султана Словесной собственности», в частности, произведения поэта размышляют о воспитании детей, полезные советы и советы.

Ключевые слова: человек, воспитание, родословная, поколение, вселенная, время, интеллект, мораль, семья, родители, дети, наука, литература

ALISHER NAVOI'S APPROACH TO EDUCATION

Nurbayeva M.T. - Teacher of Shahrizabz branch of Tashkent State Pedagogical University

Annotation. The article reflects the peculiarities of the work of Alisher Navoi, a well-known representative of Uzbek classical literature, “Sultan of the Word Property”, in particular, in the works of the poet his comments on child-rearing, useful advice, advice .

Key words: man, upbringing, ancestry, generation, universe, time, intelligence, intellect, morality, family, parents, children, science, literature.

O‘zining yuksak ijodi va o‘lmas asarlari bilan o‘zbek adabiy tiliga asos solgan buyuk tafakkur sohibi – mutafakkir shoir, olim va davlat arbobi, madaniyat va san’at homiysi Alisher Navoiy bir millat va bir xalq qalbidan emas, balki bashariyat qalbidan joy olishga musharraf (muyassar) bo‘lgan yetuk siymodir.

Alisher Navoiy asarlarini o‘qish, uqish, o‘rganish, anglash bugungi o‘zbek ziyolisining ma’naviy ehtiyojiga aylandi. Boshqacha qilib aytganda, Respublikamizda Navoiy ijodini to‘laqonli o‘rganish uchun barcha imkoniytlar yaratildi. Chunonchi, muqaddas ilohiy kitob Qur’onni o‘qish, Hadislarni o‘rganish, islom ta’limotini yoritgan olimlar, pirlar, aziz-avliyolar hayoti va faoliyatiga doir manbalardan xabardor bo‘lish sharoitlari muhayyo qilindi. Bir necha jildli lug‘atlar taqdim etildi.

Alisher Navoiy ta’biri bilan aytganda, “Inson – tabiat gultoji”. Shunday ekan, inson o‘z aql-idroki, fahm-farosati, bilim va tajribasi, ong-u shuuri, teran tafakkuri, musaffo tuyg‘usi, pokiza qalbi kasb-kori, hunari, fidoiyligi, vatanga sadoqati, insonlarga mehr-muhabbati, oilasiga hurmat-ehtiromi, ota-onasiga qadr-qimmatini va samimiy munosabatlari bilan tabiat gultoji bo‘la oladi, demoqchi Alisher Navoiy.

Olam sirlaridan voqif bo‘lish maftunkor tabiat go‘zalliklaridan zavq-shavq olgan hamda bu go‘zallikni o‘z davri va avlodlar zamonasiga yetkazish uchun uni asrab-avaylagan, yer osti va yer usti boyliklarini tejab foydalangan va kelajak avlod nasibasini ham to‘la-to‘kis ularga yetkazishni bilgan, olam go‘zalligini saqlagan

holda uni yanada ko'rkam va obod qilib, kelajak avlodlarga taqdim etishni qat'iy maqsad qilgan insonlargina xilqat toji bo'la oladi, deydi Navoiy. Bunday ulug' vazifalar va maqsadlarni amalga oshirish uchun inson butun umri davomida ta'lim va tarbiyaga ehtiyoj sezadi. Dunyoga kelgan har bir inson u agar yetarli ta'lim va tarbiyaga ega bo'lsa, aql-zakovat bilan ixtirolar, kashfiyotlar yaratadi. O'zidan yaxshi nom qoldirishga intiladi. U dunyoda shunchaki yashab, qup-quruq o'tib ketishni istamaydi.

Alisher Navoiy mashhur ruboiysida aytganidek:

Kamol et kasbkim, olam uyidin,
Senga farz o'lmag'ay g'amnok chiqmoq.
Jahondin notamom o'tmak biaynih
Erur hammomdin nopok chiqmoq. [1; 13-b.]

Yuqorida farzandlar tarbiyasining tayanch nuqtasi va asl poydevori oilada tarkib topishini esladik. Navoiy farzand tarbiyasida ota-onalarning mas'uliyati naqadar salmoqli ekanligi borasida barcha asarlarida alohida ahamiyat beradi hamda farzandlarning ota-onalar oldidagi burchi haqida o'ta jiddiy fikr yuritadi va ular zimmasiga quyidagicha mas'uliyat yuklaydi:

Boshni fido ayla ato qoshig'a,
Jismni qil sadqa ano boshig'a.
Tun-kuningga aylagali nur fosh,
Birisin oy angla, birisin quyosh. [1; 3-b.]

Darhaqiqat, ota-ona farzandining voyaga yetib, mustaqil qadam tashlaguniga qadar tun-u kun uning hayot yo'lini yoritib turuvchi (ta'bir joiz bo'lsa) bir mayoq vazifasini o'taydi. Ota-onalarning farzand tarbiyasi, uning kamolga yetishi yo'lidagi mashaqqatli mehnati, xizmatlari shunchalar beminnat, shunchalar beg'uborki, buni faqat anglab yetadigan, qadrlay oladigan o'g'il-qizlar kerak.

Alisher Navoiy "Xamsa"sidagi barcha dostonlarda tasvirlangan ijobiy timsollar ota-onalarining xizmatlari, orzu-havaslarini bilan amalga oshirilgan ta'lim-tarbiya ko'rgan kishilardir. Shuning uchun ham ular shoh oilasidan, o'ziga to'q boshqa oilaga mansubligidan qat'iy nazar chin insoniy fazilatlarini bilan tahsinga loyiq insonlardir.

Farhod yoshlikdan egallagan ilm-hunarini odamlardan ayamaydi:

Hunarni asrabon netkumdur oxir,
Olib tufroqqamu ketkumdur oxir?! [1; 173-b.]

deya o'zini xokisor tutib, elga naf keltiradi. Shuningdek, Shirin, Layli, Majnun, Shopur, Bahrom, Mehinbonu kabi timsollarning har biri o'ziga xos ta'lim-tarbiyasi bilan elparvar, yurtparvar, sadoqatli insonlar sifatida namoyon bo'ladilar.

Alisher Navoiy umrining oxirgi yillarida yozgan "Mahbub ul-qulub" asarining birinchi qismida bayon etilgan "Mudarrislar to'g'risida" degan bobida

mudarrisning ilm toliblariga ular istagancha ta'lim-tarbiya berishlarini, o'zi bilmaydigan ilmdan dars berishga urinmasligi, mudarrislar tarbiya beruvchi, oliy himmat ko'rsatuvchi, nutqida va qiyofasida ilm istovchi yoshlarga ibrat va namuna ifodasini aks ettiruvchi kishi bo'lmog'i lozimligini uqtiradi. El ichida o'z so'zini va o'z o'rnini topib yurmog'i, o'zini olim va bilarmon deb ko'rsatmasligi lozim, deydi shoir. Navoiy: "Agar shunday nojo'ya ishlarni qilsa, bu mudarris emas, bid'atchi – behuda odatlarni tarqatuvchidir.

Mudarris – olim, taqvodor bo'lmog'i, ya'ni hamma zararli ishlardan saqlanmog'i, halol ish tutmog'i lozim", - deb ta'kidlaydi. [2; 25-b.] Yoki shu qismning yana bir "Maktab ahli to'g'risida" bobida Navoiy maktab muallimlarining kasbiga yarashmagan qattiqqo'l, bag'ritosh bo'lmasliklari, gunohsiz bolalarga zaharxandalik qilmasliklari, ularni o'ziga rom qilib olish o'rniga, o'zidan bezdirishi, turli xil do'q-po'pisalari bilan o'zidan sovutishi, darsda bolalarning zerikib qolishlari kabi zararli jihatlarini qattiq qoralaydi. Ammo shu bilan birga Navoiy: "Lekin insof bilan aytganda, har qanday irodali odamni ham birgina bola tarbiyasi charchatadi. Maktabdor domla esa bir to'da bolalarga ilm-adab o'rgatadi. Bunga nima yetsin! Lekin shunisi ham borki, bolalar o'rtasida fahmi, idroki ozlari bo'ladi. Muallim bu kabi hollarda yuzlab mashaqqat chekadi. Shu jihatdan olganda, bolalarda uning haqi ko'p; agar shogird ulg'aygach, podshohlik martabasiga erishsa ham o'z muallimiga qulluq qilsa arziydi. Binobarin, shogird shayx ul-islom va qozilik darajasiga ko'tarilganda ham ustozni undan rozi bo'lsa, Tangri ham rozi bo'ladi", - deya ta'kidlaydi. [2; 29-b.]

Ko'rinib turibdiki, shoir ayrim muallimlarning fe'l-atvoridagi kamchiliklarni tanqid qilish bilan birga muallimlarning mashaqqatli mehnatini, ustozlik qadr-qimmatini yuqori qo'yadi. Shogirdning ustozga hurmat-izzat ko'rsatishini quyidagi baytda alohida e'tirof etadi.

Haq yo'lida kim senga bir harf o'qitmish ranj ila,
Aylamak bo'lmas ado oning haqin yuz ganj ila. [1; 209-b.]

Biz Alisher Navoiy asarlarini o'qiganimiz, o'rganganimiz sayin farzand tarbiyasiga doir bir-biridan go'zal, bir-biridan a'lo manbalarga duch kelaveramiz. Har bir inson, deydi Navoiy, o'z ota-onasini, jigarlarini, qarindoshlarini va boshqa yaqinlarini qanchalik hurmat qilsa, o'z do'st-u birodarlari, mahalladoshlari, jamoadoshlariga ham shuncha ehtirom ko'rsatib yurishi lozim. Inson inson bilan tirik, degan aqidani mustahkamlab shoir shunday deydi:

Kimki bir ko'ngli buzug'ning xotirin shod aylagay,
Oncha borkim, Ka'ba vayron bo'lsa obod aylagay. [1; 123-b.]

Ma'lumki, qadim-qadimdan shikorga, ya'ni ovga chiqish, yovvoyi hayvon va parrandalarni ovlash, ov qilishning o'zgacha zavqi-shavqi bo'lgan. Buning uchun maxsus tayyorgarlik ko'rilgan. Vaqt-soati belgilangan. Xavfsizlik chora-tadbirlari

ko‘rilgan. Hayvonlarni ovlashdan tashqari yana bir ov borki, buni ko‘ngil ovi deydlar. Keksami, yoshmi birovning ko‘nglini olish, unga hamdard bo‘lish, hayotga, yashashga bo‘lgan umidini ko‘tarish, qalbiga taskinlik berish ham insoniy fazilatlardandir.

Muxtasar qilib aytganda, zamonlar o‘tishi, davrlar o‘zgarishi bilan yoshlarni tarbiyalashda keng qamrovli talablar qo‘yila boshlandi. Axloqiy tarbiya, g‘oyaviy tarbiya, siyosiy tarbiya, ma’naviy tarbiya, jismoniy tarbiya, iqtisodiy tarbiya, huquqiy tarbiya; madaniy qiyofa, xodimlar salohiyati, komil inson, barkamol avlod; vatanparvar, elparvar, insonparvar; haqiqatgo‘ylik, rostgo‘ylik; tashkilotchilik, tashabbuskorlik, sadoqat, yuksak e‘tiqodlilik kabi ta‘lim-tarbiyaga, xususan, farzand tarbiyasiga doir barcha manbalar buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning ilmiy, adabiy-badiiy, ijodiy merosidan istagancha topishi va o‘rganishi mumkin.

Adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. “Hikmatlar”. Toshkent. “O‘zbekiston” 2015-yil. 3, 13, 123, 173, 209-betlar.
2. Alisher Navoiy. “Mahbub ul-qulub”. Toshkent. G‘afur G‘ulom nashriyoti. 1983-yil. 25, 29-bet.
3. Abdulla Avloniy “Tanlangan asarlar” Toshkent. “Ma’naviyat”. 1998-y.
4. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Toshkent.: 2000-y.
5. Pedagogika. Ensiklopediya Toshkent. Davlat ilmiy nashriyoti. 2015-y.

OLIY TA’LIM MUASSASALARI TALABALARIDA MUSIQIY-RITMIK KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH

Ibragimova X.S. - Toshkent davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada musiqa san’ati ham antik davrning tarkibiy qismi ekanligi, Shvetsariyalik olim, musiqashunos kompozitor E.Jak-Dalkrozning ritmikaga oid qarashlari va oliy ta’lim muassasalari talabalarida musiqiy - ritmik kompetensiyalarni rivojlantirishdagi eng muhim omillar va ularning ahamiyati haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: musiqa, talaba, musiqiy - ritmik kompetensiyalar, estetik did, ritmika.

ФОРМИРОВАНИЕ МУЗЫКАЛЬНО-РИТМИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ У СТУДЕНТОВ ВЫСШИХ УЧРЕЖДЕНИЙ

Ибрагимова Х.С. – преподаватель Ташкентского государственного педагогического университета

Аннотация. В статье обсуждается тот факт, что музыкальное искусство также является неотъемлемой частью античности, взгляды швейцарского музыковеда и композитора Э. Жака-Далькроя на ритм и важнейшие факторы развития музыкально-ритмических компетенций у студентов вузов.

Ключевые слова: музыка, студент, музыкально-ритмические компетенции, эстетический вкус, ритмика.

FORMATION OF MUSIC-RHYTHMIC COMPETENCIES IN STUDENTS OF HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Ibragimova H.S. - Teacher of Tashkent State Pedagogical University

Annotation. This article discusses the fact that the art of music is also an integral part of antiquity, the views of the Swiss musicologist and composer E. Jacques-Dalcroij on rhythm, and the most important factors in the development of musical-rhythmic competencies in university students.

Key words: music, student, musical-rhythmic competencies, aesthetic taste, rhythmic.

Eng qadimgi zamonlardan buyon insoniyatning mavjudligi musiqa bilan chambarchasdir. Matematika va astronomiya fanlari qatorida musiqa san'ati ham antik davrning tarkibiy qismidir. Musiqa azal-azaldan xalqlarni, millat va elatlarni, dillarni bir-biriga bog'lovchi mustahkam ko'prikdir. Musiqa nafaqat qalblarga orom beradi, balki estetik didni oshiradi, ruhni tarbiyalaydi, ma'naviy kamolotga yetkazadi va madaniy saviyani oshiradi. Musiqa inson tafakkurini va ongini rivojlantiradi [1].

Bola musiqaga layoqat bilan tug'ilishi mumkin, lekin uning musiqiy xususiyatlari shakllanishi uchun qulay muhit yaratilmasa, musiqaga bo'lgan layoqati rivojlanmay qoladi. Insonning shaxs sifatida shakllanishida yetakchi omillardan biri muhitdir. Muhit deganda, kishiga ta'sir etadigan tashqi voqealar yig'indisi tushuniladi. Muhit o'z navbatida - tabiiy muhit, ijtimoiy muhit, oila muhiti va boshqalarga bo'linadi. Insondagi musiqiy qobiliyatning rivojlanishi va shakllanishi uchun ijtimoiy va oila muhiti muhimdir. Inson bolasi, agar insoniy muhitga tushmay, hayvonlar muhitiga tushib qolsa, unda irsiy belgilarning ayrim biologik ko'rinishlari saqlanadi, lekin insoniy fikr, faoliyat, xatti - harakat shakllanmaydi. Odob, axloq, fe'l-atvor shaxsning barcha ruhiy sifatlari faqat muhit va tarbiyaning o'zaro ta'siri asosida vujudga keladi.

Oliy ta'lim muassasalari talabalarida musiqiy-ritmik kompetensiyalarni rivojlantirishda, ularda musiqa savodining ahamiyati va vazifalari maktabgacha ta'lim muassasasida va oilada olib boriladigan barcha tarbiyaviy ishlar, bu oliyjanob fazilatlarni yosh avlodda bog'cha yoshidan boshlab shakllantirishga bog'liq [2].

Darhaqiqat, musiqa savodini o'rganish bog'cha yoshidan boshlanadi. Ko'pgina bolalar maktabgacha tarbiya davrida bog'chaga qatnab, bog'chadagi musiqa mashg'ulotlarida dastlabki musiqaviy malakalarni hosil qiladilar. Ko'pgina qo'shiqlar va o'yinlarni o'rganib olgan hamda ritm va raqs harakatlari bilan tanishgan bo'ladilar. Uyda tarbiyalangan bolalar ham muayyan musiqaviy tasavvurga ega bo'ladilar: radio va televideniya orqali eshittiriladigan bir qancha musiqa asarlari ularga tanish bo'ladi. Garchi ana shu bilimlar sistemaga solinmagan bo'lsa-da, musiqa o'qituvchisi bolalarda musiqadan nazariy tushunchalar hosil qilishda o'sha bilimlarga ma'lum darajada suyanib ish ko'rishi mumkin. Bu jarayon oliy ta'lim muassasalari talabalarida jiddiy tusda mukammal darajaga yetkaziladi.

Oliy ta'lim muassasalari talabalarida musiqiy-ritmik kompetensiyalarni rivojlantirishda musiqa rahbari ayniqsa, o'qitish metodikasini yaxshi bilishi, talabalarning yosh va individual xususiyatlarini, ularning musiqa va qo'shiqchilik imkoniyatlarini chuqur anglashi zarur.

Bundan tashqari, oliy ta'lim muassasalari talabalarida musiqiy-ritmik kompetensiyalarni rivojlantirishda musiqa ta'limini shartli ravishda ikki bosqichga bo'lish maqsadga muvofiq.

Birinchisi, tayyorlov bosqichi. Bundan ko'zlanadigan asosiy maqsad – talabalarning musiqa uquvini o'stirishdir. Shu vaqt mobaynida talabalar musiqa tovushlarining baland-pastligi va cho'zimi kabi o'ziga xos xususiyatlarni ajrata bilishga o'rganishlari va nota yozuvini o'rganishga tayyorlanishlari kerak.

Ikkinchi bosqichda esa, nota savodi, ya'ni bevosita musiqa tovushlarining grafik usulda ifodalanishi – nota yozuvini o'rganishga kirishiladi.

Musiqa mashg'ulotlari jarayonida talaba hayotiy voqelikni musiqiy obrazlar orqali idrok etib boradi. Talabalar saviyasiga mos musiqa asarlari ularda unutilmas taassurot qoldiradi, ularning ruhiy dunyosini boyitadi.

Oliy ta'lim muassasalari talabalarida musiqiy-ritmik kompetensiyalarni rivojlantirishda musiqaviy tarbiya ham katta ahamiyatga ega va u badiiy adabiyot hamda tasviriy san'at bilan uzviy bog'langan holda amalga oshiriladi. Ashula aytish usuli, janrdagi musiqa asarlari, xususan, syujetli cholg'u pyesalarini tinglash, musiqaviy o'yinlar bilan shug'ullanish va raqsga tushish jarayonida musiqiy ritmikani his qilishni boshlaydilar.

Shuni ham esdan chiqarmaslik kerakki, talaba badiiy obrazlarni yorqin tasavvur etishi va chuqur idrok qila olishi uchun tasviriy san'at asarlaridan unumli foydalaniladi. Turli metodlardan foydalanib o'tkaziladigan har bir musiqa

mashg'ulotlari talabalarda badiiy estetik zavq uyg'otadi, ularning his-tuyg'ularini rivojlantiradi, ijodiy fikri va nutqini o'stiradi. Bundan tashqari, musiqaviy o'yin va postanovkalar, raqslar talabalarda ritm tuyg'usi, chaqqonlik va harakatchanlik malakalarini rivojlantiradi hamda qomatning to'g'ri o'sishiga yordam beradi.

Oliy ta'lim muassasalari talabalarida musiqiy-ritmik kompetensiyalarni rivojlantirishda musiqa uquv qobiliyati juda kerak bo'ladi. U asosan quyidagi musiqa uquv turlaridan iboradir:

- a) musiqaviy uquvi, musiqaviy tovushlarning baland-pastligini his etish qobiliyati,
- b) tembr uquvi (musiqa tovushlarining bir-biridan farq qiladigan, o'ziga xos jihatlarini ajrata bilish qobiliyati),
- c) ritm tuyg'usi va musiqa xotirasi.

Oliy ta'lim muassasalari talabalarida musiqiy-ritmik kompetensiyalarni rivojlantirishda musiqa tarbiyasiga alohida to'xtaladigan bo'lsak, uning asosiy maqsad va vazifalarini quyidagicha belgilash mumkin:

1. Talabalarining musiqaga qiziqishini oshirish va uni sevrishga o'rgatish.
2. Musiqa asarlari bilan tanishtirish jarayonida talabalarda emotsional his-tuyg'ularini hosil etish yo'li bilan ularning musiqa haqidagi tasavvurlarini boyitib borish.
3. Talabalarni oddiy musiqa tushunchalari bilan tanishtirish, musiqa tinglash, ashula aytish, musiqa bilan harakat qilish, kerak bo'lsa, raqsga tushish va talabalarining oddiy musiqa asboblari kuy chalish ko'nikmalarini shakllantirish va ijodiy qobiliyatini o'stirib borish.
4. Talabalar ovozini asrab tarbiyalash, ashula aytishning dastlabki ko'nikmalarini hosil etish, qo'shiqlarni sodda, ravon, erkin, tabiiy va ifodali kuylashga o'rgatish.
5. Musiqa asarlaridan ta'sirlanish, shu asosda talabalarda musiqaviy did va badiiy muhokama yuritish malakalarini rivojlantirish.
6. Turli musiqa mashg'ulotlari jarayonida improvizatsiya qilish musiqadagi badiiy obrazni o'yin va xor ovozlar vositasida ifoda etish, ma'lum musiqaviy mavzuga yangi o'yin o'ylab topish.
7. Musiqaviy tarbiya mashg'ulotlarini oliy ta'lim muassasalari hayoti bilan bog'lash, oliy ta'lim muassasalarida o'tkaziladigan turli mashg'ulotlarda va tadbirlarda o'rganilgan kuy va qo'shiqlardan keng foydalanish, turli ertaliklar, konsertlar uyishtirish vositasida musiqa kundalik hayotimizning ajralmas yo'ldoshi ekanligi haqida talabalarda tushuncha hosil qilish [3].

Shundan kelib chiqqan holda oliy ta'lim muassasalari talabalarida musiqiy - ritmik kompetensiyalarni rivojlantirishdagi eng muhim shartlardan biri - ularning musiqiy qobiliyatlarini shakllantirishdir. Chunki, musiqiy qobiliyatlar - musiqani ritmik his qilish, ladni his qilish, musiqiy eshitish, musiqiy xotira, musiqaga

emotsional ta'sirchanlik talabalarda musiqiy malakalarini rivojlantirish omili hisoblanadi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, oliy ta'lim muassasalari talabalarida musiqiy-ritmik kompetensiyalarni shakllantirishda avvalambor, ular quyidagilarni puxta o'zlashtirishlari zarur:

1. Musiqiy tovushlar va ularning xususiyatlari. Tovushqator registr va ularning vazifalari. Bu - musiqa ijrochiligi uchun belgilangan musiqaviy sistema o'zaro munosabatda bo'lgan muayyan balandlikdagi tovushlar tizilmasidan (qatoridan) iboratdir. Tovushlarning o'z balandligiga qarab joylashishi sistemasiga tovushqator deyiladi. Musiqaviy sistemaning to'liq tovushqatorlarida 88 ta xilma-xil tovushlar bor.

2. Musiqa savodi musiqaning ifoda vositalari musiqa tovushlarining yozish usullari va musiqa nazariyasi bo'yicha dastlabki ma'lumotlar bilan tanishtiriladi hamda shu bilan -bir qatorda, notaga qarab ashula aytish bo'yicha amaliy mashg'ulotlarni ham o'z ichiga oladi. Nota yozuvi haqidagi tushunchalarni ifodalaydigan va musiqa savodi bilan yuritiladigan maxsus bilimni nota savodi deyiladi. Tovushlar joylashgan besh chiziq nota chiziqlari deb ataladi. Besh chiziqni birlashtirib turgan bir chiziq takt chizig'i deyiladi. Nota yozuvi boshi sol kaliti deyiladi.

3. Musiqiy tovushlarning yozilishi. Kalitlar haqida tushuncha (Nota)lar [4]. Bu - notalar chiziq'larga, chiziq'lar orasiga, chiziq'larning ustiga va ostiga yozilishini, asosiy chiziq'lar yetishmay qolganda esa notalar qo'shimcha, qisqa chiziq'larga yozilishi uq'tiriladi. Nota chiziq boshida maxsus belgi – skripka kaliti bo'lmaguncha yozilgan notalardan birontasini ham atay olmaymiz, bu kalit notalar nomini ochib beradi. Kalitning ikkinchi nomi bo'lgan «Sol» kaliti bilan ham tanishtiriladi, o'z gajagi bilan nota yo'lining ikkinchi chizig'ini qamrab oladigan kalit sol notasining o'rnini ko'rsatishini, shu sababdan uning sol kaliti deb atalishini tushuntirib beradi. Sol notasining qayerda turganligini bilib olgan bola boshqa notalarni ham topishi mumkin. Bolalar notaning o'rnini qanday topish kerakligini juda tez tushunib oladilar; bu narsa maroqli o'yinga aylanib ketadi; o'yin paytida bolalar qayerda qanday nota yozilishini esda qoldiradilar.

1. Notaning nota chizig'ida qanday yozilishi. Bu - tovushlarning ma'lum bir balandligi, nota yo'lidagi chiziq'lar ustiga va oralig'iga qo'yiladigan maxsus belgi bilan ifodalanadi. Bunga kalit belgisi deyiladi. Kalit belgisi nota yo'lining boshida, asosiy chiziq'lardan biriga qo'yiladi va u nota yo'lidagi biron-bir chiziq markazini kesib o'tgan bo'ladi. Bundan tashqari, kalit belgisi bironta chiziqda turgan notaning ma'lum balandlikdagi tovush nomini belgilaydi. Nota yo'lidagi qolgan tovushlar balandligi mana shu notaga moslanadi.

2. Musiqaning ifoda vositalari. Bu - tersiya bo'yicha joylashgan yoki joylashishi mumkin bo'lgan ayni vaqtda qo'shib eshitiladigan uch va undan ortiq tovushlar qo'shilmasiga akkord deyiladi. Uchta tovushdan iborat tersiya bo'yicha joylashgan akkord uch tovushlik bo'ladi.

Uch tovushlikda eng pastki, eng asosiy tovush prima, ikkinchi yoki o'rta tovush tersiya, uchinchi yoki yuqori tovushi kvinta deb ataladi.

3. Musiqada dinamik iboralarning qo'llanilishi. Bunda asosan kuy – ohang qo'shiqlar ijrosi yoqimli bo'lishi yoki biror musiqiy obrazni yanada boyitib tinglovchilarga eshittirish uchun musiqada dinamik belgilar qo'llaniladi. Tovush qanday kengaytirilishini ko'rsatuvchi, italyanchadan olingan bu belgilar nomlanishini va www.ziyouz.com kutubxonasi 14 ma'nosini butun dunyo xalqlari bir xil tushunadilar.

4. Intervallar va intervallarning aylanmasi. «Interval» – bu lotinchadan olingan so'z bo'lib, oraliq yoki masofa ma'nosini anglatadi. Musiqada esa ikki tovush oralig'ini bildiradi. Birin-ketin yoki bir vaqtda eshitilgan ikki tovush qo'shilmasi interval deyiladi. Intervallar melodik hamda garmonik shaklda bo'ladi. Melodik intervalda tovushlar birin-ketin eshitiladi. Har bir interval ikki miqdor son va sifat miqdori bilan aniqlanadi. Miqdori bosqichlar soni bilan ifodalanadigan intervallar son miqdorli intervallar deyiladi. Miqdori ton va yarim tonlar bilan ifodalangan intervallar sifat intervallar deyiladi. Barcha garmonik intervallar va melodik intervallar asosan eng pastki tovushidan yuqoriga qarab o'qiladi. Intervalning pastki tovushi interval asosi, yuqori tovushi esa intervalning cho'qqisi deyiladi.

5. Intervallarning bosqichlari va ularning turlari. Musiqada 8 ta asosiy interval bor. Bular – prima, sekunda, tersiya, kvarta, kvinta, seksta, septema va oktavalardir. Har bir asosiy intervalning aniq ton o'lchovi bor. Prima – 0,1 sekunda-1 ton, tersiya-2 ton, kvarta-2.5 ton, kvinta-3.5 ton, seksta 4.5 ton, septema-5.5 ton, oktava-6 ton.

6. Notaga qarab, nota bilan kuylash. Bu - har bir talabalardagi musiqa qobiliyatini rivojlantirishga hamda ularning musiqiy ritmikani yaxshi his qilishga yordam beradi.

7. Lad va tonliklar. Musiqa savodining ushbu muhim bo'limlaridan birida asosiy lad (parda) bog'lanishlarini o'rganish hamda parda turlari va ularning tuzulishi (major va minor) bilan, tonlik (ohangdoshliklar) va intervallar haqidagi tushunchalarni, aniq – sof talaffuzga erishish uchun talabalarda ladni bilish tuyg'usini o'stirib borish zarur.

8. Major, minor va uchtovushliklar hamda ularning yozilishi. Bunda talabalar tonika va alteratsiya tushunchalarini bilib olgandan keyin, Yevropa musiqasida keng yoyilgan asosiy ladlar: major va minor bilan bevosita tanishishga o'tish mumkin. Dastlab lad tovushini ko'rib chiqish va esda qoldirish shart emas, talabalarni eshitib olib, major va minor ladlarini ajrata bilishga o'rgatish mumkindir. Odatda, majorni

shodiyona, xushchaqchaq lad sifatida, minorni esa xazin, mungli lad sifatida bir muncha soddalashtirilib aniqlanadi. Major va minorning barcha bosqichlaridan uchtovushlik tuzish mumkin.

9. Akkordlar haqida tushunchalar. Bunda - akkord tovushlari tersiya bo'yicha joylashgan bo'lsa, unga akkordning asosiy ko'rinishi deyiladi. Akkordning har bir ko'rinishi mustaqil nomga ega. Tovushlarning asosiy ko'rinishidagi akkordning pastdan yuqoriga tomon joylashgan tovushlari hosil qilgan intervallar tomonidan kelib chiqadi.

10. Musiqa asboblari ijro etish va uning vazifalarini bilishlari shart.

Bundan tashqari, oliy ta'lim muassasalari talabalarida musiqiy-ritmik kompetensiyalarni shakllantirishda ularning musiqiy savodxonliklariga ham alohida e'tiborni qaratmoq lozim. Ana o'shanda, musiqiy-ritmik kompetensiyalar o'z-o'zidan shakllana boshlaydi va quyidagicha namoyon bo'ladi:

1. Talaba musiqa san'at turlaridan biri ekanligini ajrata oladi;
2. U milliy musiqa merosi haqida tushunchaga ega bo'ladi;
3. Ongli ravishda oddiy musiqaga oid atamalarni bir-biridan ajrata oladi;
4. Mustaqil tarzda musiqaning ifoda vositalaridan (o'lchov-usullar, dinamik belgilar, repriza va boshqalardan) foydalana oladi.

5. Talaba musiqaning badiiy tavsifini (quvnoq, sho'x, g'amgin va boshqalarni) bila oladi.

Bundan tashqari, talabalarda quyidagi kompetensiyalar ham yuqoridagilarga bog'liq holda shakllanadi:

➤ Talaba musiqa san'atning qadimiy turi ekanligi, o'zbek xalq musiqasi asrlar davomida sayqal topib, rivojlanganligi, u xalqimizning boy madaniyati, milliy qadriyatlarini o'zida aks ettirishi va umumbashariy jahon musiqa madaniyatining ajralmas bir bo'lagi ekanligini tasavvur qila oladi;

➤ O'zbekiston hududida mumtoz musiqaning mahalliy an'analarga ega ekanligi, ularning o'xshashligi va o'ziga xosligini farqlay oladi;

➤ Har bir mahalliy uslubda o'ziga xos ijrochilik uslublari va cholg'u asboblari farqlay oladi;

➤ Farg'ona - Toshkent, Samarqand - Buxoro, Surxondaryo - Qashqadaryo, Xorazm ijrochilik uslublari xususiyatlari, mashhur musiqa janrlarini (maqom, doston, katta ashula, folklor musiqasini) va ularning mashhur ijrochilarini bila oladi;

➤ O'zbek musiqasida sahnaviy musiqa asarlari, estrada janri, kino musiqasi va ularning o'ziga xos xususiyatlarini farqlay oladi;

➤ Jahon va sharq xalqlari mumtoz musiqa namunalarini bir-biridan farqlay oladi;

➤ Orkestr, ansambl va xorga oid oddiy atamalarni farqlay oladi.

Oliy ta'lim muassasalari talabalarida musiqiy-ritmik kompetensiyalarni shakllantirishda raqsning ham ahamiyati kattadir. Sababi u talabalarda ritmikani his qilishni o'rgatadi.

Ritmikaning asoschisi Shvetsariyalik olim musiqashunos kompozitor E.Jak-Dolkros shunday degan edi: «Ritmik harakatlar asosida yashamoq kerak».

Musiqiy o'yin va mashg'ulotlardan oliy ta'lim muassasalarida ham keng foydalaniladi. Ritmik harakatlar raqs to'garaklarida va oliy ta'lim muassasalari larning aynan raqs yo'nalishida yanada chuqurroq o'rgatilishi mumkin. Oliy ta'lim muassasalarida katta yoshdagi insonlarga xos bo'lgan kuy va qo'shiq turlari, bir oz murakkab bo'lgan musiqalardan foydalaniladi va ularning ritmlariga moslashishlari mumkin.

Talabalarning aqliy, nafosat va jismoniy rivojida raqs, musiqali o'yinlar va musiqaga mos harakatlar bajarish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda musiqa madaniyati darslarida, oliy ta'lim muassasalari talabalarining ritmikani his qilishlarida musiqaga mos harakatlar bajarish quyidagi vazifalardan iborat [6]:

– talabalarning musiqiy uquvi, ayniqsa, xotirasi, ritm tuyg'usi musiqaga mos harakatlar yordamida yaxshi rivojlanadi. Har qanday harakat turi musiqiy asarning sur'ati va ritmi ostida bajariladi, harakat bilan bog'liq bo'lgan musiqiy ohanglar talaba xotirasida turg'un saqlanadi;

– raqs va musiqiy harakatlar talabalarda harakatchanlik, chaqqonlikni rivojlantirib, qomatining to'g'ri o'sishiga va badanini chiniqtirishga katta yordam beradi;

– musiqiy asarlar talabalarlarda turlicha emotsional hislar uyg'otib, turlicha kayfiyatlar hosil etib, ularning ongida o'ziga xos obrazlar yaratadiki, talabalar asar mazmunini turli harakatlar va ishoralar bilan ifodalashga harakat qiladilar.

Demak, musiqaga mos harakatlar talabalarning aqliy va nafosat qobiliyatini rivojlantirish bilan birgalikda ularning musiqiy – ritmik kompetensiyalarini ham rivojlantiradi.

Ritmika talabalarda musiqiy harakatlarni, estetik tarbiyani oshirishda katta ro'l o'ynaydi [5].

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki, oliy ta'lim muassasalari talabalarini musiqa bilan tanishtirish, tarbiyalash yaxshi, albatta. Ammo har bir yoshga oid tinglanadigan musiqalar kategoriyasi bor. Misol uchun, hali musiqaning mohiyatini to'liq anglab yetmaydigan yosh talabaga mumtoz yoki o'ta sho'x musiqa eshittirilsa, uni tushunmasligi tabiiy.

Bundan tashqari, o'ta baland tovushlar, jazavali musiqalar, ma'nosini o'zi bilmaydigan chet el musiqa va qo'shiqlari talabaning (hatto har bir yetuk kishining) faqat eshitish qobiliyatiga ta'sir etibgina qolmay, ruhiy buzilish va zo'riqishga olib keladi. Shu bois har bir yoshga mos musiqa tinglash maqsadga muvofiq. Ayniqsa,

endigina shakllanayotgan bolaning miyasini jazavali musiqalar bilan zararlamaslik lozim. Buning uchun qilinadigan eng muhim ish talabada musiqiy didni, tanlov qobiliyatini shakllantirish hisoblanadi.

Shuni aytish mumkinki, oliy ta'lim muassasalari talabalarida musiqiy - ritmik kompetensiyalarni rivojlantirishda ularning musiqiy bilim va savodxonliklariga, musiqiy did va nafosatlariga, qolaversa, ularning raqsdagi harakatlariga ham e'tibor berish kerak. Ularning musiqiy - ritmik kompetensiyalarini rivojlantirishda oliy ta'lim muassasalari pedagoglarining asosiy vazifalaridan biri, talabalarning ichki his-tuyg'ularini musiqa olami bilan bog'lashlikdir.

Adabiyotlar

1. S.I.Musabekova. «Musiqqa tarbiyasi», Toshkent, 1973 - y.
2. Bolalarni maktabga tayyorlashda noan'anaviy o'yinlardan foydalanish. Metodik qo'llanma. – T.: 2004.
3. А.Луговская. «Ритмическиэ упражнения игри и пляски», Москва, 1991.
4. Boltayev B. Maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqa tarbiyasi.- "SamDU" nashriyoti. (o'quv qo'llanma) -2019 y.
5. Nafisa Yusupova "Musiqqa savodi, metodikasi va ritmika" «Musiqqa» nashriyoti Toshkent - 2017
6. Soipova D. Musiqqa o'qitish nazariyasi va metodikasi.- T.; 2009-y.

AMIR XUDOYBERDI SHE'RIYATIDA MUHABBAT MAVZUSINING IFODASI

Namozova M.U. - Toshkent davlat pedagogika universiteti Shahrisabz filiali o'qituvchisi

Annotatsiya. Adabiyotda ijodkor o'z o'y-fikrlari, orzu va intilishlari, his-tuyg'ulari, insoniy va ilohiy muhabbati-yu, e'tiqodini badiiy tasviriy vositalar orqali ifodalaydi. Har qanday zamon va makonning muhabbat mavzusini tarannum etuvchi o'zining yozuvchi va shoirlari bo'lgan. Mustaqillik davri adabiyoti namoyondasi Amir Xudoyberdi she'rlarida muhabbat va yor tasviriga o'zgacha yondashuvlar bo'lganligi uchun, maqolada Amir Xudoyberdi she'rlariga murojaat qildik.

Kalit so'zlar: ayol obrazi, muhabbat timsoli, talmeh, qochirimli muhabbat ifodalari, ramz, ramziylik, milliylik, ijodkor fenomeni, badiiy tafakkur.

ВЫРАЖЕНИЕ ЛЮБВИ В ПОЭЗИИ АМИРА ХУДОЙБЕРДИ

**Намозова М.У. - преподаватель Шахрисабзского филиала
Ташкентского государственного педагогического университета**

Аннотация. В литературе художник посредством слов выражает свои мысли, мечты и стремления, чувства, человеческую и божественную любовь и убеждения. У него были свои писатели и поэты, воспевающие любовь во все времена и в любом месте. Поскольку стихи Амира Худойберди, представителя литературы периода независимости, обладают своеобразным подходом к образу любви и товарищества, в статье мы сослались на стихи Амира Худойберди.

Ключевые слова: образ женщины, символ любви, талме, выражения безусловной любви, символ, символизм, национализм, творческий феномен, художественное мышление.

EXPRESSION OF LOVE IN THE POETRY OF AMIR KHUDOYBERDI

**Namozova M.U. - Teacher of Shahrissabz branch of Tashkent State
Pedagogical University**

Annotation. In literature, the artist expresses his thoughts, dreams and aspirations, feelings, human and divine love, and beliefs through words. He had his writers and poets who sang love in every age and place. Since the poems of Amir Khudoiberdi, a representative of the literature of the independence period, have a unique approach to the image of love and companionship, we referred to the poems of Amir Khudoiberdi in the article.

Key words: an image of woman, symbol of love, talmeh, expressions of unconditional love, symbol, symbolism, nationalism, creative phenomenon, artistic thinking.

Boshqa she'riyat vakillari kabi Amir Xudoyberdi she'riyatida ham muhabbat timsoli sifatida ayol obaziga murojaatni ko'proq uchratish mumkin. Zero, ayolni e'zozlash insoniyatning oliy qadriyatlaridandir. Amir Xudoyberdi "Bu qiz...", "Ishvalaring yolg'on", "Ko'zing daryosida", "Xiyonat", "Men uchun o'lgansan...", "Begoyim", "Oh, biram nozanin" kabi she'rlarida ana shu ulug' va muqaddas mavzuni qalamga oladi. Shoirning butun she'riyati singari muhabbat lirikasi ham o'ziga xos bo'lib, hissiyotlar ifodasining teranligi, tuyg'ularning tabiiyligi, hayotiyligi, real voqelikka monandligi bilan ajralib turadi. Javobsiz muhabbat iztirobi, alami, chuqur insoniy kechinmalar, chinakam sevgi orzumandi bo'lgan katta qalb egasining dard-u dunyosi, hasratlari, yonish-o'rtanishlari shoir muhabbat lirikasining mazmunini tashkil etadi.

Muhabbat Xudosi seni qarg'agan,

Mehru sadoqatni qilmassan xayol.

Asli yalmog‘iz ham sendan tarqagan,

Farishta niqobin yopingan ayol.

Shoir aksariyat ash‘orlarida ayoldagi aql-zakovatni, nafosat va nazokatni, bardosh va matonatni, poklikni ulug‘laydi [2; 276-b.].

AMMO SIZGA...

Yulduzlarga qo‘l yetsa bo‘lar,

Uzib olsa bo‘ladi Oyni.

Ammo Sizga yetish qayoqda,

Gadosi ko‘p sizning chiroyni.

Siz bariga beparvo, bu on

Xayol qurgan koshonalarda

Tentiraysiz: go‘zal bir o‘g‘lon

Chiqib kelar afsonalardan.

Siz qoshiga chopasiz darhol,

Sochib mushkni, anbariy isni.

U-chi loqayd boqar, ehtimol,

Ertaklarda ko‘rmagan Sizni.

Vido aytib so‘ng bor umidga,

Tong paytlari yig‘laysiz to‘lib.

Kunlar o‘tib oddiy yigitga

Tegajaksiz oddiy qiz bo‘lib.

(1985-yil)

Agar mumtoz adabiyot bilan XX asr adabiyotini solishtiradigan bo‘lsak, mumtoz adabiyotda qochirimli muhabbat ifodalarni ko‘rish mumkin. Amir Xudoyberdi ijodida esa ko‘rinib turibdi yor jamoli va unga bo‘lgan muhabbat izhori to‘gridan to‘g‘ri yozilgan. Misralarda shoir oy va yulduzga yetishish mumkin, ammo suyuqliki ulardanda qo‘li yetmas darajada, yor vasli oydanda balandda deb yozadi.

SEVAMAN

Men seni sevaman, g‘uncha labida

O‘pichday titragan shabnam misoli.

Men seni sevaman, hijron shabida

Erib ado bo‘lgan bir sham misoli.

Men seni sevaman, cho‘qqini quchib

Jarlikka osilib turgan qoyaday.

Men seni sevaman, o‘zidan qochib

O‘ziga ergashib yurgan soyaday.

Men seni sevaman...

O, bundan ortiq

Sevishimni talab qilmagin, gulim.
Bundan ortig‘ini etolmam tortiq,
Bundan ortiq sevgi bo‘ladi o‘lim!
(1985-yil)

Shabnam ma‘lumki, faqatgina tongda tushadi va quyosh chiqishi bilan shabnam yo‘q bo‘ladi, ya‘ni shoir ham o‘z muhabbatini yorini yo‘qotib qo‘yishdan qo‘rqadigan g‘unchaga oshiq bo‘lgan shabnamga qiyoslaydi. Shuningdek, misralarda o‘z muhabbatini ochib berish uchun yozuvchi badiiy ramzlardan foydalangan. Shabnam – o‘z yorini kutib tundan ruhlanadigan yor, sham – hijron azobida qiynalayotgan yor. Cho‘qqi – balanddagi yetishib bo‘lmaydigan yor timsoli, jarlik esa hozirgina ayriladigandek o‘zini his qilishi, shoir o‘zini qoyaga qiyoslashi ham shundan, ya‘ni qoya cho‘qqiga yeta olmaydi.

SIZGA YARASHADI

Sizga yarashadi barnolik,
Bizga esa Sizga shaydolik.
Yarashadi bir juft xurmodek
Ko‘zingizga nisbat – shahlolik.
Yarashadi bizning ko‘ngulga
Ro‘yingizdan topmoq ro‘shnolik.
Qadimiy Ahdda ham bitilmish
Ikkimiz aro bul oshnolik.
Biz gado qismatin tanladik,
Sizning ilkingizda poshsholik.
Biz sulh tuzmoqni istaymiz,
Sizning istagingiz – yag‘molik.
Sizni deb kunlarim qoraydi,
Siz esa doim tongsiymolik.
Sizni deb savdoyi jon bo‘ldik,
Falak ishi asli savdolik.
Siz – poklik arshining murshidi,
Bizning sulukimiz – rasvolik.
Gohida porsosiz, gohida
Taqvongiz ters – tavqi tarsolik.
Siz hanuz balanddan tushmaysiz,
Jonga tegmadimi tanholik?
Amirning sevgisi o‘lsa-da,
O‘chmaydi, chun ikki dunyolik.
(2001-yil)

“Sizga yarashadi” she’rida esa falsafiy qarashlar va meditatif nazm elementlari mavjud. She’rda talmeh san’ati ham keltirilgan: Qadimgi Ahd - Bibliyaning bir qismi. Iudaizm ham, xristianlikda ham muqaddas yozuv deb e’tirof etiladi. Uning tarkibiga 39 ta kitob kiradi. Xristianlikda Qadimgi Ahd nomi Bibliyaning qadimiy kitoblarini ifodalash uchun xristian cherkovi tomonidan qo‘llangan. Qadimgi Ahd miloddan avvalgi IX asrdan miloddan avvalgi II asrning 60-yillari ichida vujudga kelgan. Qadimgi Ahd asarlarining asosiy originali qadimiy yahudiy tilida, faqat ayrim parchalari oromiy tilida yozilgan. Miloddan avvalgi II asr davomida Qadimgi Ahd yunon tiliga tarjima qilingan. Milodiy IV asrning oxiri – V asr boshlarida lotin tiliga o‘girilgan. Qadimgi Ahdning dastlabki asosiy qismi Tavrotdir. Qadimgi Ahdda qadimgi xalq rivoyatlari, turli afsonalar, solnoma, jangnomalar, she’r, shuningdek, duolar, turli diniy marosimlar bayoni va boshqalar ifoda etilgan [4].

Filologik tadqiqotlarda, xususan, she’r tahlilida bir jihatni e’tiborga olish zarurati bor. Shoirning an’anaviy mavzu, obraz va tasvir vositalarni qo‘llashi tabiiy. Haqiqiy iste’dod egalari esa an’ana ta’sirida yangi badiiy kashfiyotlar yaratadilar. Xo’sh, Amir Xudoyberdining o‘ziga xos kashfiyotlari bormi?! Bor, albatta.

Mumtoz adabiyotimizda qoshni “hilol” va “kamon”ga qiyoslash an’anasi bor. Amir Xudoyberdi qoshni hilolga ham, kamonga ham o‘xshatmaydi:

To‘nkarilgan qo‘sh qayiqdek ikki qoshing emranur,
Sohila chiqmoqlik ilinji emdi armonim manim.

Qoshni to‘nkarilgan qayiqqa o‘xshatilishi faqat Amir Xudoyberdi ijodigagina xos, deyish mumkin. Bu bir. Ikkinchi, ma’shuqaning beli an’anaviy poetikada chumolining beliga qiyoslanadi. Amir Xudoyberdi esa buning ham yangicha tasviriga erishgan:

Yuzingdagi har baytga yuz ming Bedil sadqa,
Yuz ming Bedil na, jonu har dil sadqa.
Tor belingni tor qilay ki bag‘rim rubobiga,
Belingni qil sadaqa, belingga qil sadqa.

Oshiq o‘zining bag‘ir rubobiga ma’shuqa belini “tor” qilib bog‘lamoqchi. Demak, ma’shuqa belini tor qadar ingichkaligini tasvirlash litotaning yangi ko‘rinishidir. Boz ustiga mazkur to‘rtlikda iyhom degan she’riy san’at ham haddi a’losida qo‘llangan.

Iyhomda bir so‘zga ikki ma’no yuklanadi. Yuqoridagi “belingga qil sadqa”da xuddi shunday xususiyat bor. Qil sadqa – belni sadqa qilmoq va “qil”ning belga sadqa bo‘lishi mahorat bilan tasvirlangan. Shoir shu o‘rinda tajnis san’atidan mahorat bilan foydalangan. Shuningdek, ko‘zning “ohu”, “chashma” yoki “ko‘zgu”ga o‘xshatilishi an’anaviy. Uning Amir Xudoyberdi tomonidan idishga (ko‘zlarim kosasi) o‘xshatilishi o‘ziga xos tashbehdir:

Ey soqiy! Yana bir bor uzat, ichayin qona,
Qirq birinchi jom ila to'lsa to'lar paymona.
Bir lahza qo'nib o'tdim jahon otli ayvona,
Ko'zlarim kosasida keturman turob lim-lim.

Shoir g'azallari orasida "Dildor ko'ziga jodu surmasini surmasin" deb boshlanuvchi bir g'azal bor. Uning matla' va maqta'sida tajnis (shakli bir xil, ma'nosi esa turlicha) deb atalgan she'riy san'at turi bor. Surma – ko'z (kiprik) bo'yog'i, ot so'z turkumiga mansub va surma – fe'l, ya'ni bo'yoqni qoshiga surmasin, degan ma'noda ishlatilgan. Maqta'da esa "tovon" bundan ham aniq va yorqin ifoda etilgan:

Tovoniga yiqilib o'lar bo'lsang, ey, Amir,
Ul dildor tovoningga yana qolib yurmasin.

Birinchi misradagi tovon – oyoq, ikkinchi misradagi tovon – uvol ma'nosida qo'llangan. Ular shunchaki so'z o'yini, san'at pardoqlik emas, balki shoirning chin vafodorlik va sadoqat xususidagi g'oyasini yuzaga chiqaruvchi vositalardir [1; 75-b.].

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, muhabbat ilohiy tuyg'udir. Uni lirik janrlarda aks ettirish uchun har bir shoir davr adabiy muhitidan, individual hissiy kechinmalaridan ta'sirchan foydalanadi. O'z muhabbatini muayyan obrazlarda tasvirlaydi, yor vasli va jamolini ramziylashtiradi, qiyoslaydi, badiiy jihatdan mukammalshtiradi.

Adabiyotlar

1. Abdurahmon Primqulov. Iztriob inkishofi yoxud shoir Amir Xudoyberdi portretiga chizgilar. Ikkinchi nashr. – T.: "Musiqqa", 2015.- 75-b.
2. Damin To'rayev. "Yoshlik" adabiy-ijtimoiy jurnali [4-son, 2014. 276-b.] ning "Tadqiqot" ruknida chop etilgan maqolasi (Amir Xudoyberdi ijodi xususida)
3. Nargiza Boymuratova. "Yoshlik" jurnali. Toshkent: 2013-yil, 9-son
4. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
5. Quronov D. Yo'l esdaligi. Toshkent: Sharq yulduzi. 1998. 1-son. B. 162.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA MEHR-SAXOVAT TUYG'USINI SHAKLLANTIRISH IMKONIYATLARI

**G'oyimov U.E. - Toshkent davlat pedagogika universiteti Shahrisabz
filiali o'qituvchisi**

Annotatsiya: Maqolada yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantirishda milliy umuminsoniy qadriyatlarga alohida e'tibor beriliyotgani, Respublikamizda umuminsoniy qadriyatlar va milliy madaniyatimizni asoslarini e'tiborga olib, ta'lim-tarbiya mazmunini va milliy mafkurani shakllantirib borish

imkoniyatlari yaratilayotgani, ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarida mehr-saxovat tuyg'usini shakllantirishda yangi pedagogik texnologiyalaridan foydalanilayotgani, va unda ko'zlangan maqsadga tez va sifatli erishilayotgani ta'kidlab o'tilgan.

Kalit so'zlar: "Vatan", "Ona", "Istiqlol", "ustoz", "mehr oqibat", "sadoqat", "insoniylik", "orzu", "kelajak" metod, yangi pedagogik texnologiyalar.

ВОЗМОЖНОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ЧУВСТВА МИЛОСЕРДИЯ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ

**Гойимов У.Э.- преподаватель Шахрисабзского филиала
Ташкентского государственного педагогического университета**

Аннотация: В статье уделяется особое внимание формированию духовно-нравственного воспитания подрастающего поколения, отмечалось, что в формировании у учащихся чувства сострадания используются новые педагогические технологии, а поставленная цель достигается быстро и эффективно.

Ключевые слова: «Родная страна», «Мать», «Maternat», «Mercy», «Здоровье», «Мечта», новые педагогические технологии.

POSSIBILITIES OF FORMATION OF A SENSE OF KINDNESS IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS

**Goyimov U.E. - Teacher of Shakhrisabz branch of Tashkent State
Pedagogical University**

Annotation: The article pays special attention to the formation of spiritual and moral education of the younger generation, the creation of opportunities for the formation of educational content and national ideology, taking into account the universal values and the foundations of our national culture. It was noted that new pedagogical technologies are used in the formation of a sense of compassion in students and that the intended purpose is achieved quickly and efficiently.

Key words: "Homeland", "Mother", "Maternat", "Mercy", "Health", "Dream", new pedagogical technologies.

“Kelajak bugundan boshlanadi”- deydi dono xalqimiz. Yosh avlodni kelgusi hayoti uni inson qilib ko'rsatuvchi ruhiy va ma'naviy jarayonning mezonini belgilaydi. Bu borada ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish va dunyo talablari darajasiga olib chiqish ta'limni ilg'or tajribalar asosida boyitib borish, yangi

pedagogik tajribalar asosida olib borish, ayniqsa muhimdir. Ma'naviy yetuk millat qadriyatlarini to'g'ri baholashga va uni yanada rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Sharq mutafakkirlari o'z asarlarida bilish hamda inson aqliy tafakkuri masalalariga alohida to'xtaladi. Abu Nasr Forobiy inson tomonidan borliqni va tabiat sirlarini anglanishida ilm-fanning rolini hal qiluvchi omil sifatida baholaydi. Allomaning fikricha, inson tanasi, miyasi, sezgi organlari u tug'ilganda mavjud bo'lgan bo'lsa, aqliy bilimi, ma'naviyati, ruhiyati, intellektual va axloqiy sifatlari, xarakteri, dini, urf-odatlarini, ma'lumoti tashqi olam, ijtimoiy muhit ta'sirida, odamlar bilan tashkil etayotgan munosabatlari jarayonida shakllanadi.

Abu Nasr Forobiyning e'tiroficha, inson aqli, fikri uning ruhiy jihatdan yuksalishining mahsulidir. Inson bilimlarni o'zlashtirar ekan, borliqda tirik mavjudotning yaratilish tarixigacha bo'lgan ma'lumotlarni o'zlashtira oladi, ularni yaratadi, ilmiy jihatdan asoslaydi. Allomaning mazkur fikrlarini davom ettirgan holda Abu Rayhon Beruniy quyidagilarni ilgari suradi: "Inson narsa va hodisalarning faqat tashqi sifati hamda xususiyatlari haqida bilim olmay, balki tafakkuri, aqli tufayli narsa va hodisalarni taqqoslaydi, bir-biri-bilan solishtirib ko'radi, o'z intellektual bilimlarining chinligini aniqlaydi" [2; 125-b].

Darvoqe, Alisher Navoiyning talqinicha, saxiylik, saxovat odamlarning mushkulini oson qilish maqsadida ularga beriladigan minnatsiz yordamdir. Alloma insonlarni bir-birlariga nisbatan saxovat ko'rsatishga da'vat etadi. Himmatlilik, muruvvat, karam kabi xislatlar esa saxovatning tarkibiy qismlari hisoblanadi [3; 206-b]. Ushbu fazilatlarga ta'rif berar ekan, mutafakkir quyidagi fikrlarni qayd etadi: "Saxiylik (qo'li ochiqlik) kishilik bog'ining hosildor daraxtidir, balki u daraxtning shirin mevasidir, odamgarchilik o'lkasining to'lqinli daryosi, balki u to'lqin daryosining asl gavharidir. Yaxshilik, karam – bir jabrlanganning qattiqchilik yukini ko'tarmoq va uni o'sha qiyinchiliklardan qutqarmoqdir. Karam birovning mashaqqat tikani og'irligini ko'tarmoq va tikan uchidan guldek ochilmoq va o'sha qilingan ishni qaytib tilga keltirmaslik, og'ziga olmaslik, kishiga minnat qilmaslik va uning yuziga solmaslik". "Muruvvat karamning urug'-avlodi, egizak qarindoshi, kimki bu xislatlarga ega bo'lsa izzat va hurmatga sazovor bo'ladi" [3; 207-b.] kabi fikrlar asosida esa muruvvat deb ataluvchi xislatga ta'rif beriladi. Alisher Navoiy karam va muruvvat sifatlarini ota-onaga qiyoslasa, vafo va hayoni esa egizak farzandlardir deya ta'kidlaydi [3. 300-b.].

Yana bir mashoyiqlarimizdan biri Davoniy esa, o'z asarida insonni ijtimoiy mavjudot sifatida qaraydi, inson faqat jamiyatda, kishilar orasida, ular bilan munosabatda shakllanadi, degan fikrni ilgari suradi. U o'tmish olimlarining ta'lim-tarbiyaga oid asarlaridagi an'analarni rivojlantirgan holda o'z qarashlarini o'tkir ruhshunos olim sifatida ham talqin etadi, uning fikricha bola yaxshi fazilatlarni ta'lim-tarbiya natijasida egallashi mumkin. Chunki, bolada his-tuyg'u juda erta

shakllana boradi, u ulg'aya borgan sari ayrim juz'iy narsalarni ham ajrata boshlaydi, tana a'zolari mustahkamlanadi, narsa va hodisalarni bir-biridan farqini bila boshlaydi, yaxshilik va yomonlik to'g'risida tasavvurga ega bo'la boshlaydi, aqli to'lishib, ongi o'sadi, deydi olim. Ana shu paydo bo'lgan sezgi va aql orqali tashqi dunyoni bilishi mumkin deydi [4; 137-b.].

Shaxsda dunyoqarash izchil, tizimli, uzluksiz hamda maqsadga muvofiq tashkil etilayotgan ta'lim-tarbiyaning yo'lga qo'yilishi, uning turli yo'nalish va mazmundagi ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishi, shuningdek, o'z-o'zini tarbiyalab borishi natijasida shakllanadi. Yosh avlod dunyoqarashining shakllanishida ta'lim muassasalarida o'qitilishi yo'lga qo'yilgan tabiiy, ijtimoiy va gumanitar fanlar asoslarining ular tomonidan puxta o'zlashtirilishi muhim o'rin tutadi.

Ma'lumki, ta'lim-tarbiya uzluksiz, muayyan maqsadga yo'naltirilgan jarayon bo'lib, unda barkamol shaxsni shakllantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Demak, pedagogik jarayonning asosiy maqsadi barkamol inson shaxsini tarbiyalab voyaga etkazishdan iboratdir. Bu borada o'quvchilarga ta'lim va tarbiya berishning asosiy vositasi bo'lgan dars jarayonining ahamiyati katta. Dars jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilari "Vatan", "Ona", "istiqlol", "ustoz", "mehr -oqibat", "sadoqat", "insoniylik", "orzu", "kelajak" kabi tushunchalarning mazmunini anglab, Vatanga sadoqat, ota-onaga hurmat, kelajakka umid, orzuga intilish, ustozlarga ehtirom, chin insoniylik kabi ruhda tarbiyalanib boradilar.

Boshlang'ich sinflarda aqliy tarbiyani shakllantirishda quyidagi metodlardan foydalanish zarur deb hisoblaymiz. Kuzatish va nazorat qilish, suhat va hikoya, tushuntirish, rag'batlantirish va tanbeh berish, ma'qullash, ko'rgazmalilik, namuna ko'rsatish, ishontirish, bahs, munozara kabilar. Bu esa o'quvchilarning aqliy tafakkurining shakllanishida muhim o'rin egallaydi. Kuzatishlar shundan dalolat beradiki, boshlang'ich sinf o'qituvchilari dars jarayonida yozma ishlardan faqat ona tili darslarida foydalanishadi. Bunday mashg'ulotlar aksariyat hollarda, o'quvchilarning yozma savodxonligini tekshirishga qaratilgan bo'ladi (insho, diktant). Vaholanki, "o'qish", boshqa darslarda ham yozma ish turlaridan foydalanish yaxshi natijalarga olib keladi. Yozma ishlar bolalarni mustaqil fikrlashga, dunyoqarashini o'stirishga hizmat qilishi bilan birga, barcha o'quvchilarning mavzu yuzasidan olgan intellektual bilimlarini tekshirib ko'rishga imkon beradi. Bo'lim yoki mavzu yakunida yozma ishlar tashkil etilganda o'quvchilar darsda olgan intellektual bilimlarini mustahkamlaydilar, mavzuga qayta murojaat etish orqali asar haqidagi tasavvurlari yanada teranlashadi, xotirasidan mustahkam joy oladi. Yozma ishlarni bajarish jarayonida o'quvchilarda Vatanga nisbatan g'urur, muhabbat tuyg'ulari tarbiyalanadi. Mehr-saxovat kabi insoniylik hislatlari oshadi. Demak, dars jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozma, ijodiy ishlaridan samarali foydalanish

aqliy tafakkurning shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Yozma ishlar “O‘qish” darsida amalga oshiriladigan ishlarning rejasida ko‘rsatilishi, uning maqsadi, ularga qo‘yiladigan talablar aniq belgilangan bo‘lishi lozim.

Yuqoridagi fandan yozma ishlarni uyushtirishdan oldin, o‘quvchilar mavzu yuzasidan bilim, ko‘nikma va malakaga ega bo‘lishlari shart.

1. Yozma ishlarni tashkil qilishda o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari, talablari hisobga olinishi lozim.

2. Yozma ishlarni erkin mavzuda tanlash qoidasiga amal etish zarurki, bunda bola o‘z imkoniyatlarini o‘zi hisobga oladi.

3. Yozma ish mavzusi o‘quvchini o‘ziga jalb qila oladigan darajada jarangdor bo‘lishi lozim.

Mazkur ishlarni amalga oshirishda har bir o‘qituvchi, eng avvalo, tashkil qilinadigan darsning mazmunini chuqur o‘rganishi, uning natijalariga jiddiy e‘tibor berishi va bu bilan o‘quvchi shaxsiga ijobiy ta‘sir etishga intilmog‘i, Vatanga muhabbat, milliy g‘urur, Vatan ravnaqi uchun xizmat qilish, qolaversa, ona tabiatni asrash kabi sifatlarni yanada rivojlantirish yo‘llarini izlamog‘i lozim. Boshlang‘ch sinflarda musiqa, rasm, texnologiya fanlari borki, o‘quvchi ular orqali estetik nafosat ilmini egallash bilan birga insoniy xislatlar mehr-muhabbatni ham teran his qilishadi. Jumladan, musiqada mehr-muhabbat, do‘stlik, vatan, ota-ona, aka-uka mavzularidagi qo‘shiq kuylari borki, o‘quvchi uni qalban his qilib ijro etadi.

Tasviriy san‘at, rasm darslarida esa yuqoridagi mavzularni mo‘yqalamda aks ettirib o‘z tasavvurlarini boyitishadi. Bunda ayniqsa biror sana munosabati bilan, aytaylik 3-dekabr “Xalqaro imkoniyati cheklanganlar” kuni munosabati bilan qalamga olingan suratlar (unda aravachadagi qizaloq qo‘lida ayiqchasi bilan) yoki “Butunjahon silga qarshi kurashish” kunida tasvirlangan surati (bemor qizaloqqa qorbobo sovg‘asi berilmoqda) va yana butunjahon ichkilik va kashandalikka qarshi kurashish kuni (aroq shishasi yoki tamaki donalarini uloqtirayotgan otani bo‘ynidan quchoqlayotgan qiz) ham voyaga yetayotgan o‘quvchilar qalbini zabt etishga qaratiladi.

Texnologiya fanlarida esa o‘quvchilar jamoa bo‘lib tabiat qo‘riqchilari mavzusi asosida qushlarga uyalar yasab sovuqdan himoya sifatida shahar ko‘chalarida o‘rnatishadi. Bunda ham o‘quvchilarning tabiatga bo‘lgan mehr-saxovatlari sinovdan o‘tkaziladi. Bundan tashqari, dars jadvalida qo‘yilgan tarbiya fani hamda darsligi ham o‘quvchining mehr-saxovat tuyg‘ularini yanada oshirishga qaratilgan yangi pedagogik dars sifatida tan olindi. Darslikning har betida ana shunday insoniylik tuyg‘ulariga urg‘u berilib, mavzular yangi pedagogik texnologiyalar, o‘yin, krassvord kabi usullarda oson va tez hazm qilish darajasida joylashtirilgan.

Adabiyotlar

1. Alisher Navoiy, “Mahbub-ul-qulub”. Asarlar. 15 tomlik. 13-tom. – Toshkent, Adabiyot va san'at nashriyoti, 1966, 206-207-300-betlar. www.ziyounet.uz
2. Abu Rayhon Beruniy Tanlangan asarlar. II jild. – Toshkent, Davlat nashriyoti, 1965. – 125-bet.
3. Abu Rayhon Beruniy Tanlangan asarlar. III jild. – Toshkent, Davlat nashriyoti, 1966. – 7-bet.
4. Hoshimov K., Safo Ochil. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi.– Toshkent, “O‘qituvchi”- 1995. – 137-bet.

YOSHLAR MA’NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHDA ISLOM DINI MANBALARINING O‘RNI

**Mamatov M. - Toshkent davlat pedagogika universiteti Shahrisabz filiali
dotsenti vazifasini bajaruvchi, falsafa fanlari nomzodi**

Annotatsiya. Ushbu maqolada yoshlarning tarbiyasida islom dini manbalarining o‘rni haqida buyuk allomalarimizning ilmiy me’roslari orqali yondoshish mumkinligi aytiladi. Shuningdek, islom dini va uning muqaddas kitobi, Qur’oni Karim, hadis-shariflarning o‘rni va ahamiyatiga e’tibor qaratiladi. Ularni tavsiflash uchun ma’naviyat, din, hadis, milliy qadriyat tushunchasi qo‘llaniladi. Doimo olimlarning diqqatini yoshlarning ma’naviyatini milliy qadriyatlar, diniy manbalar, hadislar asosida shakllantirishga targ‘ib, tashviq etishdan iborat bo‘lganligi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: ma’naviyat, milliy qadriyat, din, hadis, Qur’oni Karim, insof, poklik, to‘g‘rilik, adolat, korrupsiya, yoshlar, jinoyatchilik, yoshlar ma’naviyatini rivojlantirish.

РОЛЬ ИСТОЧНИКОВ ИСЛАМСКОЙ РЕЛИГИИ В ФОРМИРОВАНИИ МОЛОДЕЖИ

**Маматова М. - кандидат философских наук, и/о доцента
Шахрисабзского филиала Ташкентского государственного педагогического
университета**

Аннотация. В этой статье обсуждается роль исламских источников в обучении молодежи через научное наследие наших великих ученых. В нем также уделяется внимание роли и важности ислама и его священной книги Корана и хадисов. Для их описания используются понятия духовности, религии, хадисов и

национальных ценностей. Ученые всегда уделяли особое внимание продвижению духовности молодежи на основе национальных ценностей, религиозных источников и хадисов.

Ключевые слова: духовность, национальное, достоинство, исламская религия, хадис, Коран, совесть, честь, справедливость, коррупция, молодежь, преступность, развитие духовности молодежи.

THE ROLE OF ISLAMIC SOURCES IN SHAPING THE SPIRITUALITY OF YOUNG PEOPLE

Mamatov M.- Candidate of Philosophical Sciences, Associate Professor of the Department of Humanities, Shahrizabz branch of Tashkent State Pedagogical University

Annotation. This article discusses the role of Islamic sources in educating young people through the scientific heritage of our great scholars. It also focuses on Islam and its holy book, the Koran, and the role and importance of hadiths. The concepts of spirituality, religion, hadith, and national values are used to describe them. It has always been the focus of scholars to promote the spirituality of young people based on national values, religious sources, and hadiths.

Key words: Spirituality, national values, religion, hadith, Koran, honesty, purity, correctness, justice, corruption, youth, crime, youth spirituality development.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning nutq va ma’ruzalarida Yangilanayotgan O‘zbekistonda xalqimiz, millatimiz va dinimizga, tilimizga va tariximizga, zaminimiz va boylikka kon tabiatimizga, ma’naviyatimiz va madaniyatimizga, qadriyatlarimiz va o‘zligimizga bo‘lgan munosabat o‘zgargani, yoshlarni ta’lim-tarbiya tizimini yangi bosqichga ko‘tarish, pedagogik kadrlar tayyorlash sifatini ilg‘or xalqaro standartlar asosida takomillashtirish va oliy pedagogik ta’lim bilan qamrov darajasini oshirish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. Ijtimoiy-ma’naviy muhitni yaxshilash, yoshlarni turli diniy ekstremistik oqimlar ta’siridan asrash masalasi barchamiz uchun eng asosiy vazifa bo‘lib, insonlarning ma’naviyatini shakillantirishga xizmat qiladi. Mamlakatlarda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish mexanizmlari va normalarining implementatsiyasini yanada samarali tatbiq etish bo‘yicha ilgari surilgan yangicha qarash va takliflar, shuningdek, xalqaro tajribaning o‘rni yoshlar manfaatlarini mustahkamlash hamda o‘zaro tajriba almashishda muhim omil sifatida xizmat qiladi. Bizga yosh avlodni tarbiyalash, ularning huquq va manfaatlarini himoyalashdek muhim masalalar yuzasidan xorijiy hamkorlar bilan ishlash juda

zarurdir. Global tendensiyalar yosh avlodning hayotiy qadriyatlariga va axloqiy qoidalariga ta'sir ko'rsatadi. Doimo olimlarning diqqati yoshlarning ma'naviyatini milliy qadriyatlar, diniy manbalar, hadislar, Qur'oni Karim asosida shakllantirishga qaratilgan. Ma'naviyat va islomshunoslikka oid muhim asarlarni yozganlardan: V.V.Bartold, YE.E.Bertels, A.Krimskiy, I.P.Petrushevskiy, L.Klimovich, YE.A.Belyayev, I.Goldsiyer, G.M.Kerimov, R.G.Baltanov, S.Dorjenov, R.Mavlyutov, I.A.Makatov, T.Saidboyev [1] kabi islomshunoslarni ko'rsatish mumkin. Ularning ba'zi fikrlaridan yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda tarixiy manbalar sifatida foydalansa bo'ladi. O'zbekiston olimlar imonografiya, risola, maqolalar yozib, islom qadriyatlarining tahlili bo'yicha dissertatsiyalar yoqladilar. Bular qatoriga A. Abdusamedov, J.Bozorboyev, A.Bozorov, I.Jabborov, A.Ortitov, M.Usmonov va boshqalarning ilmiy asarlarini kiritish mumkin. Masalan, M.Imomnazarov „Milliy ma'naviyatimizning takomil bosqichlari“ nomli monografiyasida bu takomil uch bosqichni bosib o'tgan deb hisoblagan:

1. Islomgacha bo'lgan bosqich ma'naviyati; 2. Islom bosqichi; 3. Yangi bosqich jahon madaniyati va milliy ma'naviyatimiz takomilini o'z ichiga oladi. Har bir bosqich o'ziga xos ma'naviyatning rivojlanishiga o'z hissasini qo'shgan. X.Karomatov “Qur'on va o'zbek adabiyoti” nomli monografiyasida islom manbalarining, Qur'on ko'rsatmalarining o'zbek adabiyotiga ta'siri, buyuk alloma va sarkardalar - Amir Temur, Yusuf Xos Hojib, Hoja Axmad Yassaviy, Abduraxmon Jomiy, Alisher Navoiy, Zahridin Muhammad Bobur, Mashrab, Sufii Olloyor va boshqalarning ijodi va faoliyatida katta ijobiy rol o'ynaganligi va ma'naviyatimizning yuksalishiga qo'shgan hissalarini bayon etilgan (2).

Dunyo shiddat bilan o'zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga raxna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo'layotgan bugungi kunda ma'naviyat va ma'rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e'tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir. Aynan ta'lim va ma'rifat bashariyat faravonligining asosiy omilaridan hisoblanadi, insonlarni ezgulikka da'vat etadi. Islom hamkorlik tashkilotining “Ta'lim va ma'rifat-tinchlik va bunyodkorlik sari yo'l” shiori ostida respublikamizda o'tkazilgan tadbirning kun mavzusi etib belgilanganligi ham bejiz emas. Imom Buxoriy, Burhoniddin Marg'inoniy, Hakim Termiziylar, Maxmud Zamaxshariy, Muhammad Qaffol Shoshiy, Bahouddin Naqshband, Xoja Ahror Valiy, Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy va boshqa ko'plab daholar nomi nafaqat islom, ayni vaqtda jahon sivilizatsiyasi tarixida haqli ravishda oltin harflar bilan bitilgan. Islom olamida hadislar to'plamining ishochli manbai deb e'tirof etilgan. “Al-jome' as-sahih” to'plami “barcha muhaddislar ustozlari” bo'lmish Imom Buxoriyning ko'p yillik merosi ham xalqimiz uchun sharaflidir. Jamiyatimizning ajralmas qismi hisoblangan yoshlar

hamma faylasuf, siyosatshunos, huquqshunos, tarixshunos, pedagog, psixolog, yozuvchi shoirlar kabi turli soha sohiblarini qiziqtirib kelgan. Pedagoglar yoshlarga ta'lim-tarbiya berish masalalarini, siyosatshunoslar esa yoshlarning siyosiy hayotdagi rolini va o'rnini o'rganib kelishgan. Yoshlar masalasiga bunchalik e'tibor berib kelinayotgani sababi shundaki, ular o'z g'ayrati, shijoati, istiqboli, bilim-ma'rifatga intiluvchanligi, izlanuvchanligi va boshqa fazilatlari bilan kattalardan farqlanib turadi. O'tmish tarixni varaqlar ekanmiz, yoshlar ma'naviyatini shakllantirishga, dunyoqarashiga, axloq-odobini tarbiyalashga bag'ishlab o'lmas asarlar qoldirgan donishmandlarni alohida eslatib o'tishimiz lozim. Jumladan, Nizomul-Mulkning "Siyosatnoma", "Rushnoinoma", Yusuf Xos Xojibning "Qutadg'u bilik", Maxmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'atit turk", Kaykovusning "Qobusnoma", Axmad Yugnakiyning "Xibbat ul-xaqoyiq", Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub", "Vaqfiya" kabi qimmatli, sermazmun asarlari bu o'rinda haligacha o'z qimmatini yo'qotmagan. Mumtoz shoirlarimiz Abdulqosim Firdavsiy, Abdulla Rudakiy, Nosir Xisrav, Yusuf Xos Xojib, Ahmad Yugnakiy, Sakkokiy, Alisher Navoiy, Abduraxmon Jomiy, Mahtumquli, Ogahiy, Zahiriddin Bobur kabi daholarimiz o'zlarining bebaho badiiy asarlarida jamiyat hayotiga, yoshlar ma'naviyati va dunyoqarashiga, tarbiyasiga oid qimmatbaho fikrlar qoldirganlar. Vatan mehri, milliy g'urur ma'naviyatini tarannum etganlar [3].

Har bir jamiyat o'z sharoiti, xususiyati, ijtimoiy mazmuniga tayanib yoshlarni tarbiyalaydi, ma'naviyatini boyitadi, dunyo qarashini shakllantiradi. O'z navbatida yoshlar kattalardan orttirgan tajribalarini amaliyotda qo'llab, o'zlariga ma'qul bo'lgan qarashlarga asoslanib ish yuritadilar. Islomning Qur'oni Karimdan tashqari yana bir muqaddas manbai hadislardir. Ularning to'plami – sunnatdir. Yuzlab arab muhaddislari to'plagan, dunyodagi eng yirik xalqlar tillariga tarjima qilingan hadislar islomning g'oyat boy, ko'p qirrali manbai hisoblanadi. Respublikamizda eng ko'p tarqalgan va o'zbek tiliga tarjima qilingan Ismoil Buxoriyning 4 jildli "Sahihi al-Buxoriy" to'plamlari, Iso Termiziyning "Sahihi Termiziy"-degan majmuasidir (4). Yana Alovuddin Mansurning "Muhammad payg'ambarning qissasi. Hadislar"- nomli kitobi ham shular jumlasidandir. Islom manbalari bo'yicha diniy va ilmiy asarlar yaratgan alloma – olimlar, ulamolarning fikrlarini tahlil qilishimizning sababi shundaki, yoshlar o'z ma'naviyatlari, ilmiy-falsafiy dunyoqarashlari uchun kerakli xulosalarni bu manbalardan mustaqil chiqara olsinlar. Zero, demokratik va huquqiy davlat qurishga kirishgan O'zbekistonda yoshlarning qanday dunyoqarashga ega bo'lishlariga aslo befarq qaray olmaymiz.

SH. Boboxonov, A.Irisovning "Hadis ilmining peshvolari" risolasida islom dunyosining atoqli ulamolari Nasomiy, Dovud Sulaymon, Ismoil Buxoriy, Imom Termiziy, Ibn Mojja, Kazviniy, Hakim Termiziy va boshqa muhaddislar, ularning hadis to'plash bo'yicha olib borgan izlanishlari haqida qimmatli ma'lumotlar

berilgan. Respublikamizning ko‘zga ko‘ringan taniqli sharqshunos, tarixchi, faylasuf, adabiyotshunos, tilshunos olimlari ishtirokida tayyorlangan “Buyuk siymolar, allomalar” kitobida Markaziy Osiyoning IX-XII asrlardagi madaniyati va uning eng yirik hamda mashhur vakillari, olim va ulamolar haqida qimmatli ma’lumotlar berilgan.

Mualliflar ushbu kitobining qimmatini shundaki, shu vaqtgacha keng xalq ommasiga yaxshi tanish bo‘lmagan yoki sho‘rolar mafkurasiga to‘g‘ri kelmagan uchun o‘rganilmay qolgan mutafakkirlar, ilohiyotchi va muhaddislar – Marg‘iloniy, Buxoriy, Termiziy, Zamaxshariy, Yassaviy, Kubro, Naqshband hayoti va ijodi haqida ma’lumotlar berilgan. Islom va uning tarixiga oid tadqiqotlar olib borgan Xuzuriyning “Nur ul-yaqin” asari payg‘ambarning hayoti haqida to‘liq ma’lumotlar bergan. Mazkur asar islom oliy bilim maskanida islom tarixini o‘rganishga eng mo‘tabar darslik sifatida foydalanilmoqda.

Rabg‘o‘ziyning “Qissasi Rabg‘uziy” asarida payg‘ambarlar haqida turli qissalar keltirilgan. Shuningdek, Iso Termiziy “Sahihi Termiziy” va “Shamoili Muhammadiya” asarlari payg‘ambarning qilgan ishlari, hulq-odoblari va yurish-turishlariga oid hadislarni o‘z ichiga olgan. Ushbu hadislar kishilarni gunohlardan yomon odatlardan saqlanishga va o‘zida yaxshi fazilatlarni shakllantirishga da’vat etadi.

Islom allomalari Imom Buxoriy ijodi ham yoshlarda ma’naviy barkamollikni shakllantirishda alohida o‘rin egallaydi. Yirik ilohiyotchi, muhaddis al-Buxoriy hadislari va tartibiga solishda juda katta ishlarni bajargan. 600 mingga yaqin hadis to‘plab, undan 7250 tasini sahih, ya’ni ishonchli deb topgan. Islom allomalari yozgan asar, esdalik va ko‘rsatmalar yoshlar ma’naviyatini shakllantirishda, ularning ilmi, axloq-odob, imon-etiqodli, vatanga sadoqatli, ota-onaga hurmatli, kamtarin va aqlli, bir so‘z bilan aytganda komil inson bo‘lishga undaydi. Yoshlar ma’naviyatini rivojlantirishda ularga islom manbaalari haqida qisqacha ma’lumot berish bilan birga, asosan axloq-odob jamiyatda o‘zini tutish tartib qoidalari, ma’naviyatiga tegishli tomonlari bilan tanishtirish maqsadiga muvofiqdir.

Imom Termiziyning “Shamoili Muhammadiya” kitobida Nabiyning qilgan ishlari, xulq-odoblari va yurish-turishlariga oid hadislar to‘plangan. Ushbu hadislar kishilarni yomon odatlardan saqlanishga, o‘zida eng yaxshi insoniy fazilatlarni shakllantirishga undaydi. Mustaqillik sharoitida islom va muqaddas yozuvchilari haqida yaratilgan adabiyotlar qatorida yana bir guruh islomshunos olimlar asarlarini qayd etish mumkin. Ularda islomning jamiyatda tutgan o‘rniga xolisona baho berilgan, ayniqsa unga tegishli manbaalarning tarbiyaviy, axloqiy ahamiyatiga katta e’tibor berilgan.

Akademik Bo‘riboy Axmedov Qur‘onning o‘zbek tiliga tarjima qilinishi munosabati bilan bunday deb yozgan edi: “mamlakatimiz ijtimoiy – siyosiy

hayoti”da tub burilish boshlandi. Ko‘pdan orzo‘ qilganimiz yaxshi zamonlar keldi. Yo‘qotib qo‘ygan qadriyatlarimizni birin ketin qaytarib olayapmiz. Shular qatorida jahondagi barcha musulmonlarning, umuman yaxshi niyatli odamlarning ixlos qo‘ygan kitobi Qur‘on ham qaytarilayapti. Qaytarilganda ham o‘z ona tilimizga o‘girilgan holda qaytarilayapti. Adlu insof, poklik va to‘g‘rilik g‘oyalarini targ‘ib etuvchi bu ulug‘ kitobning o‘zbek tiliga tarjima qilinishi ko‘p adolatli savobli ish bo‘ldi. Ushbu xayrli yumush tepasida turgan yozuvchilar uyushmasi, “Sharq yulduzi” jurnaliga, tahrir hay‘atiga chuqur minnatdorchilik bildiraman (5). Necha ming yillar ota bobolarimiz e‘tiqod qilib kelgan islomning muqaddas yozuvida ko‘rsatilgan adolat dasturlariga, avlod-ajdodlar me‘rosiga yuksak hurmat bilan qarayotgan O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ma‘ruzalarida quyidagi fikrlar aks etgan: “jinoatchilik va korrupsiya jamiyatning ma‘naviy va axloqiy asoslarini yemiradi. Jamiyat a‘zolarining fuqarolik mavqeni yo‘qqa chiqaradi. Amalga oshirilayotgan o‘zgarishlarga salbiy munosabat vujudga kelishi uchun sharoit yaratadi (6). Qur‘on, hadis va boshqa islom manbalarida fitna, ichkilik ichish, qimor o‘ynash, birov ustidan tuhmat va g‘iybat qilishning yoshlar uchun g‘oyat zarali ekanligi haqida fikrlar bor. Masalan, Qur‘onda bunday oyatlar keltirilgan: “Fitna, aldash–o‘ldirishdan–da kattaroq gunohdir” (2-217) ; “Aroq, qimor...shayton amalidan bo‘lgan harom narsalardir” (2-219); “Olloh sizlarning tillaringizdagi behuda qasamlaringiz bilan jazolamaydi. Balki dillaringiz bilan narsangiz qasamingiz bilan jazolaydi..” (2-225); “Kimki biron xato yoki gunohni qilib qo‘yib, so‘ng uni bir pok odamga tuhmat qilib otsa, muhaqqaqki, u bo‘hton va ochiq gunohni o‘z zimmasiga olibdi” (4-12) va boshqalar. Yuqorida keltirilgan da‘vat yoshlar ma‘naviyatini shakllantirishda katta foyda keltirishi turgan gap. Shunisi ma‘lumki, yosh avlod dunyoqarashini, ma‘naviyatini shakllantirish oiladan boshlanadi. Uning keyingi bosqichida o‘quv va mehnat maskanlari, jamoatchilik, ya‘ni ijtimoiy fikrning ta‘siri kuchli bo‘ladi. Shuning uchun oila, maktab, mahallalarning birgalikda ijtimoiy masalalarini hal qilish bilan yoshlarni tarbiyalashga va ma‘naviyatini shakllantirishga alohida e‘tibor berilmoqda. Bolalikda nimaniki o‘zlashtirilsa, u uzoq vaqt ular xotirasidan o‘chmaydi. Binobarin, islom manbalaridagi ana shunday ijobiy ahloq-odob va insoniy munosabatlarga oid ko‘rsatma va qadriyatlardan hozirgi davrda keng va samarali foydalanishimiz mumkin degan fikr o‘z asosiga egadir. Islomning Markaziy Osiyoga, shu jumladan O‘zbekiston hududiga kirib kelishi, xalqlar hayoti va ma‘naviyatining rivojlanishidagi o‘rni, Qur‘on va shariat dasturlarining ijtimoiy hayotdagi roli, ulardagi axloqiy meyorlarning yoshlarni tarbiyalashga va ma‘naviyatini shakllantirishga ta‘siri masalalari A. Abdusamedov tahriri ostida nashr qilingan «Dinshunoslik asoslari» o‘quv qo‘llanmasida tahlil etilgan. Muallifning asarlaridagi ilmiy mulohaza, fikr, xususan ma‘naviyatga oid g‘oya va mulohazalar yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashimizga imkon yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda, tarbiyalashda islom manbalaridan hozirda oqilona foydalanish mumkin va zarur. Yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda diniy manbalar bilan, dunyoviy fanlar, umumbashariy qadriyatlar asosida tarbiyaviy, mafkuraviy ishlarni birgalikda amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Hozirgi fan-texnika taraqqiyoti davrida jamiyatimiz hayotiga radio, video, audio-texnika qurilmalari kirib kelayaptiki, natijada yoshlarda turli videofilmlar ko'rish imkoniyati kengaymoqda. Ayniqsa, sharqona hayotga mos kelmaydigan g'arb mamlakatlarining jangari tasma va yozuvlari, behayollik, zino kirdikorlarini aks ettiruvchi videofilmlarni ko'rishga yoshlar yashirincha jalb qilinish hollari uchrab turadi. Islom manbalarida esa halolni haromdan, yaxshini yomondan farqlashni talab etuvchi fikrlar bor, jumladan "Kim biror chiroyni amal qilsa, unga o'n barobar qilib (qaytarilur)", "Kim biror yomon ish qilsa, faqat o'shaning barobarida jazolanur" [6-7;160-b.] kabi nasihatlar ularni yomon yo'ldan saqlashga qo'l keladi. Din, uning shakllari va namoyon bo'lish xususiyatlari, dinning inson va jamiyat hayotidagi o'rni va roli, vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar faoliyati kabilar bilan bog'liq bilim shakli. Din bilimining asosiy vazifasi-inson hayoti, tabiat va jamiyat borlig'ining mazmunini aniqlashdan iborat (8). Hozirgi kunda globallasuv sharoitida ajdodlarimiz, buyuk qomusiy allomalarimiz qoldirgan boy ma'naviy merosini o'rganish, tadqiq etish, yurtimizda amalga oshirilayotgan islohatlar uchun prezidentimiz ta'kidlaganidek, uchunchi Renessansning muhim poydevori bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar.

- 1 .Qaralsin: Islom. Spravochnik. T., Bosh ensiklopediya nashriyoti, 1989,1993 yy.
2. Karomatov X. Qur'on va o'zbek adabiyoti. T.,Fan,1993; Maxkamov Ulfat. Axloq-odob saboqlari.T. Fan, 1994;
3. Siyar-ul muluk .-T. "Yangi asr avlodi".2008. Sh.Vohidov. Fors tilidan tarjima. 252-bet
- 4 . Mansur A. Qur'oni Karim manolar tarjimasi.-T. 2013.483-bet
5. Qutadg'u bilik. –Toshkent.: "Yangi asr avlodi". 2011.145-bet
6. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasidan
7. A.Mansur. Qur'oni Karim manolar tarjimasi.-T. 2013.[2-17,2-19,2-25,4-12,6-160] oyatlar.
8. Nazarov Q. va boshqalar .Jahon falsafasi qomusi. "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti. , "Ma'naviyat" nashriyoti. Toshkent - 2019.

**MUHANDISLIK VA KOMPYUTER GRAFIKASINI O‘QITISHNING.
O‘ZIGA XOSLIGI**

Azimov T.D. – Toshkent davlat texnika universiteti professori
Muminova D.S. – Toshkent davlat texnika universiteti assistenti
Aripova K.A. – Toshkent davlat texnika universiteti assistenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada geometro-grafik o‘quv fanlarini o‘zlashtirishi, ularni mazmuniga turli yondashuvlar, an’anaviy va zamonaviy o‘qitilishi tahlil qilingan. Ular o‘qituvchilar orasida turli fikrlar tug‘dirmoqda. Texnika yo‘nalishidagi talabalar grafik tayyorgarligi muhandis ta’limini asosini tashkil qiladi. Ko‘p o‘quv fanlarni professional kompetentligi talabalarni kompyuter grafika jihozlarini o‘zlashtirishlarini taqozo etadi.

Kalit so‘zlar: muhandislik va kompyuter grafikasi, chizma, geometriya, muhandislik grafikasi, kompyuter grafika, o‘quv fan tuzilishiga yondashuv, o‘qitish metodikasi AutoCAD, muhandislik ta’limi, an’anaviy o‘qitish, zamonaviy o‘qitish.

**ОСОБЕННОСТИ ПРЕПОДАВАНИЯ ИНЖЕНЕРНОЙ И
КОМПЬЮТЕРНОЙ ГРАФИКИ**

**Азимов Т.Д. – профессор Ташкентского государственного
технического университета**
**Муминова Д.С. – ассистент Ташкентского государственного
технического университета**
**Арипова К.А. – ассистент Ташкентского государственного
технического университета**

Аннотация. В статье проанализированы различные подходы к содержанию и изучению геометро – графических дисциплин традиционной и современной школы преподавания, которые вызывают различные мнения среди преподавателей. Графическая подготовка студентов технических направлений образования составляет основу инженерного образования. Профессиональные компетенции многих дисциплин предполагают освоение студентами средств компьютерной графики.

Ключевые слова: инженерная и компьютерная графика, начертательная геометрия, инженерная графика, компьютерная графика, подходы к содержанию дисциплины, методика преподавания, AutoCAD, инженерное образование, традиционное преподавание, современное преподавание.

FEATURES OF TEACHING ENGINEERING AND COMPUTER GRAPHICS

Azimov T.D. – Professor of Tashkent State Technical University
Muminova D.S. – Assistant, Tashkent State Technical University
Aripova K.A. – Assistant, Tashkent State Technical University

Annotation. The article analyzes various approaches to the content and study of geometric - graphic disciplines of traditional and modern scales of teaching, which cause different opinions among teachers. Graphic preparation of technical students' education forms the basis of engineering education. Professional competence in many disciplines involves the development of computer graphics by students.

Key words: engineering and computer graphics, descriptive geometry, engineering graphics, computer graphics, approaches to the content of the discipline, teaching methods, AutoCAD, engineering education, traditional teaching, modern teaching.

Jamiyatimizni hozirgi bosqichdagi rivojlanishi muhandislik faoliyat masalasini yechimi elektron-hisoblash texnikasi bazasida avtomatik loyihalash tizimini (ALT) qo'llash bilan bog'liq. Muhandislik va kompyuter grafikasi muhandislik tizimining asosini tashkil qiladi va mutaxassislik fanlarini o'qish uchun zarur bazaviy bilimlarni shakllantiradi. Avvalgi asrning 60-yillarida muhandislik grafikasida yangi bo'lim kompyuter (mashina grafika) grafikasi, u chizma geometriya nazariyasi va muhandislik grafikasi asoslariga tayangan. Talabalarga kompyuter grafikasini o'qitish muammo va metodikasi bilan O'zbekiston va chet el olimlari shug'ullanganlar.

Davlat ta'lim standarti oliy professional ta'limini yangi avlodini o'qitishga kompetent yondashuv, u talabalarni bilish va tajriba olishlarini, kelajakda ulardan professional faoliyatda foydalanish nazarda tutiladi.

“Muhandislik va kompyuter grafika” fani professional siklga kerakli bo'lib va o'quv rejaning texnika ta'lim yo'nalishida tayyorlanadigan bakalavrlarni baza (umumprofessional) qismiga kiritilgan. Talaba o'quv fanini o'zlashtirgandan so'ng quyidagilarni bilish kerak: KXYAT Davlat standartlarini, ishlab chiqish va taxt qilish uchun zarur konstruktorlik grafik hujjatlarni (chizmalar va sxemalar), shuningdek, avtomatik usullarni, detal chizmalarini bajarish qoidalarini, yig'ma birlik, standart buyumlarni, zamonaviy grafika avtomatik loyihalash tizimida (ALT) geometrik shakllarni modellashtirish metodlarini. Buyum shaklini hayolan ko'z o'ngiga keltirish va ularni fazoda o'zaro joylashuvini, chizmalarni bajarish va o'qishni turli masalalarni yechishda avtomatik loyihalash tizimlaridan foydalanishni bilishlari zarur.

Texnika ta'limi yo'nalishidagi talabalarni grafik tayyorgarligi an'anaviy chizma geometriya, fundamental fanni o'qitishdan boshlanadi, keyin muhandislik grafika, u o'z ichiga proyeksion va texnikaviy chizmachilik chizmalarni taxt qilish standartlarini oladi va faqat keyin kompyuter grafika o'qitiladi.

Geometriya - grafika fanni mazmuniga yondashuv turlicha va professor – o'qituvchilar muhitida bahslashuvga olib kelmoqda. An'anaviy ta'lim tomonidagilar chizma geometriyani kelajak mutaxassislarni tayyorlashda zaruriy geometrik tayyorgarlik deb, u fazoviy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi. Ularni fikricha, talabalar chizma geometriya metodlarini o'zlashtirgandan so'ng kompyuter texnologiyalarda chizmalarni hosil qilishni o'rganishlari kerak emish. Avval o'lchovli va vaziyatga oid masalarni echish, so'ng chizmalarni zamonaviy texnologiyalariga o'tish kerak. Kompyuter 2D – modelini hosil qilish uchun elektron kulman sifatida qaraladi.

Eski maktabga qarshilar chizma geometriyani oldingi kun ilmi deb hisoblab, uni metodlari dolzarb emas deydi. Professor A.P.Tunakovni o'z maqolasida "O'lgan fanni talabalarga o'qitish kerak emas" degan fikri [1] tortishuvlarga sabab bo'lgan va chizma geometriyaning umri o'tgan fan, oliy ta'lim dasturida kerak bo'lmagan ilm deb hisoblaydi. Aytilgan gaplar an'anaviy maktab tomonidan tanqidga uchrasa ham, progressiv grafika o'qituvchilari tomonidan qo'llab quvvatlangan. Ular chizma geometriya fani o'rniga yangi alternativ nazariy kurs: "3D – kompyuterda geometrik modellashtirish nazariy asoslari" kiritishni tavsiya etmoqdalar [2].

Kompyuter texnologiyalari asrida kompyuter grafikani muhandislik grafikasi bilan bir butun deb hisoblash kerak deydi ba'zi olimlar [3,4]. Hozirda o'rta maktab chizmachiligi zaruriy fan emas, faqatgina fakultativ kurs deb o'z fikrlarini tasdiqlashmoqda. Har o'quv guruhlarida 80% gacha talabalar o'quv fanni o'rganishni noldan boshlaydilar. Ular fazoviy tasavvurga ega bo'lmaydilar. O'quv fanni o'qitishdan oldin mualliflar [5] birinchi bosqich talabalaridan anketalash va testlar o'tkazdilar. Ular tomonidan olingan ba'zi natijalarni keltiramiz. Birinchi bosqich talabalarida chizmada tasvirlangan obyekt to'g'risida amaliy jihatdan tasavvur qilish deyarli kam. Parallelepipedni ikki ortogonal proyeksiyasi orqali birorta talaba bila olmadi, to'g'ri doiraviy konusni – 14% talaba ko'ra oldi. O'tqazilgan tadqiqotlarni natijasi o'rta maktablarda chizmachilik darslarini o'tkazilish darajasi pastligini ko'rsatadi. Bundan kelib chiqib, o'qitish jarayoni shunday tashkil qilinishi kerakki, fanni qo'lda va kompyuterda chizish orqali ko'rsatilishi lozim.

Muhandislik va kompyuter grafikasini o'qitilishda AutoCAD dasturini qo'llab avtomatik loyihalash tizimida 2D va 3D modellari bajarilishi kerak. O'quv fani uch moduldan tuzilgan: "Chizma geometriya", "Muhandislik grafika", "Kompyuter grafika". "Chizma geometriya" moduli bo'yicha ishlar talabalar tomonidan grafik redaktorlardan foydalanmasdan chizmachilik qurollari yordamida chizma qog'oziga

bajariladi. Muhandislik grafikasi modulidagi masalalar an'anaviy usulda echilishi nazarda tutilgan bo'lib, keyin esa grafik redaktordan foydalaniladi. "Kompyuter grafika" moduli talabalarni ALT tizimini zamonaviy imkoniyatlari bilan AutoCAD grafik redaktori misolida foydalanishni tanishtiradi.

O'quv fanini asosiy bo'limlari ma'ruzasi multimediyali auditoriyalarda o'qitiladi. Power Point dasturida bajarilgan materiallar slayd ko'rinishida taqdim etiladi. Ma'ruza darslarini oxirida mustaqil ishlab chiqish uchun topshiriqlar beriladi. Mustaqil ishni bajarish uchun talabalarga maslahat soatlari ajratilgan, ular kompyuterli auditoriyalarda darsdan tashqari vaqtda o'tkaziladi. Ular uchun tipovoy masalalarni yechishda qiyinchilik tug'dirgan savollarga javob berishga o'qituvchi ajratiladi, shuningdek ular ishlarni qabul qiladilar.

Amaliy mashg'ulotlar maxsus jihozlangan o'quv xonalarida o'tkaziladi. Kompyuter va qo'lda chizish uchun chizma taxtasi o'rnatilgan. Ish vaqtida mavzu yuzasidan prezentatsiyadan foydalanib 15-20 daqiqa tushuntirish beriladi. Ushbu material kompyuter auditoriyasi serveri diskida joylashtiriladi, u esa talabalarga topshiriqni bajarish uchun shaxsiy ritmlariga imkon beradi. Har bir talaba o'z shaxsiy topshirig'ini oladi.

Birinchi amaliy mashg'ulotda "Chizmalarni bajarishni umumiy qoidalari" mavzusida talabalar ishchi fazani sozlash va A4 formatni tayyorlash AutoCAD dasturini interfeysi tanishadilar. Chizma geometriya moduli yuzasidan keyingi amaliy mashg'ulotlarda masalalarni chizma qog'ozida bajaradilar. Chizmalarni yaqqolligi uchun rangli qalamlardan foydalanishga ruxsat beriladi. Bu esa o'z navbatida mavzuni yodda qolishiga va yaxshi qabul qilishga yordam beradi. Shuning uchun talabalarga grafik topshiriqlarni avval qog'ozga ishlab, so'ng hisobot yozish, unda ishni bajarilish rejasi mukammal ko'rsatiladi, keyinchalik chizma kompyuterda bajarilishi tavsiya etiladi.

"Ko'rinishlar", "Oddiy qirqim bajarish", "Murakkab qirqimlarni va qiya kesimlarni bajarish" mavzular bo'yicha topshiriqlarni bajarishda chizmalarni hosil qilish metodlari va chizmalarni davlat standartlari talabida KXYaT da bajarishga e'tibor beradilar [6]. Birinchi bosqichda talabalar berilgan ikki proyeksiya orqali uchinchisini chizadilar, zarur qirqim va kesimlar bajaradilar, o'lchamlarni qo'yadilar. Ikkinchi bosqichda AutoCAD dasturi tizimi yordamida topshiriqni uch o'lchovli modeli bajariladi. Topshiriqni kompyuterda modellashtirilganda nigoh nuqtasini tez-tez o'zgartirishga to'g'ri keladi, masishtablashtirish va bir ko'rinishdan ikkinchisiga o'tish [7], bu fazoviy fikrlashni rivojlantirishga va ijodiy qodirlikka imkon beradi. Uchinchi bosqichda bajarilgan proyeksion chizma uch o'lchovli modelga qayta quriladi.

O'quv fanini o'rganishda talabalar mavzularni mustaqil o'zlashtirishlarida metodik adabiyotlardan [8,9] va internet manbalaridan foydalanadilar. Kompyuter

grafikasini o'rganishga bunday yondashuv faqat tanishuv bilan chegaralanmaydi, balki AutoCAD dasturini to'liq o'rganishga imkon beradi. Kompyuterda ishlash bu oddiy grafik paketni o'rganish emas, muhandislik grafikasini o'rganishni davom ettirishdir. Har qanday texnika ta'lim yo'nalishidagi bakalavr geometrio-grafika fanni o'rganishda chizma qurollaridan foydalanishni va an'anaviy usulda chizma bajarishni, bilishi shuning uchun chizmachilik qo'l mexnatizsiz bo'lmaydi deyiladi. Biz an'anaviy va innovatsiya usullari bilan muhandislik chizmalari tayyorlash talabalarni professional tayyorgarlik umumiy darajalarini ko'tarishga imkon beradi deb hisoblaymiz.

Adabiyotlar

1. Тунаков А. П. Зачем преподавать студентам умирающие дисциплины // Поиск. - 2007. - № 11 (929). С. 6.
2. Хейфец А. Л. Учебный курс теоретических основ 3d-компьютерного геометрического моделирования и его перспективы // Информатизация инженерного образования. Москва, 10 – 11 апр. 2012 г.: Труды Международной научно-методич. конференции.
3. Ярошевич О. В. О. В. Ярошевич, Н. А. Амельченко, Н. Ф. Кулащик Проблемы информатизации графической подготовки // Формирование творческой личности инженера в процессе графической подготовки: материалы респ. науч.-метод. конф., Витебск, 5 декабря 2008 г.
4. Свичкарева Г. Н., Андрюшина Т. В., Ковалев В. А. Оптимизация структуры и содержания графических дисциплин с позиции модульно-компетентностного подхода // Геометрия и графика. 2013. Т. 1. № 1. С. 77 – 79.
5. Вольхин К. А., Пак Н. И. О состоянии графической подготовки учащихся в школе с позиции информационного подхода // Вестник Красноярск. гос. пед. ун-та им. В.П. Астафьева. Т. 1. Психолого-педагогические науки. 2011. № 3 (17) / Красноярск. гос. пед. ун-т им. В.П. Астафьева. Красноярск, 2011. С. 74-78.
6. ГОСТ 2.305—68. ЕСКД. Изображения – виды, разрезы, сечения. М. : Изд-во стандартов. 2000. 15 с.
7. Марченко М. Н. Технология обучения технической и компьютерной графике. М. : МПГУ. Кубанский гос. ун-т. 2001. 142 с.
8. Ёлкин В. В., Тозик В. Т. Инженерная графика: учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений / 2-е изд., стер. М.: Издательский центр «Академия», 2009. 304 с.
9. Уваров А.С. Инженерная графика для конструкторов в AutoCAD. М. : ДМК Пресс. 2010. 400 с., ил.

**CHIZMA GEOMETRIYA VA MUHANDISLIK GRAFIKASI
FANIDAN INTERNET – NAZORAT TASHKIL QILISHGA YONDASHUV**

**Kuchkarova D.F. – Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini
mexanizatsiyalash muhandislari instituti texnika fanlari doktori, professor
Samatova K.M. – Toshkent davlat texnika universiteti assistenti**

Annotatsiya. Ushbu maqolada chizma geometriya va muhandislik grafikasi fanini o‘qitishda oliy texnika o‘quv yurtlarida talabalarni bilimni masofaviy nazorat qilishni zamonaviy metodlari ko‘rilmoqda. Ta’lim sifatini boshqarishda turli texnologiyalardan foydalanishga to‘g‘ri keladi. Talabalar bilimni oraliq va yakuniy nazorat orqali bilishini tashkil qilishda ulardagi bilimni shakllanish darajasini, kompetensiyasini aniqlash professional tayyorgarlik darajasini aniqlovchi eng muhim ko‘rsatkichdir.

Kalit so‘zlar: kundalik nazorat, yakuniy nazorat, o‘quv jarayoni, ta’lim bosqichlari, diagnostik funksiya, an’anaviy shakllar, nazorat metodikasi, kompyuterda testlash, obyektiv nazorat, test texnologiyasi.

**О ПОДХОДАХ К ОРГАНИЗАЦИИ ИНТЕРНЕТ-КОНТРОЛЯ ПО
ДИСЦИПЛИНЕ НАЧЕРТАТЕЛЬНАЯ ГЕОМЕТРИЯ И ИНЖЕНЕРНАЯ
ГРАФИКА**

**Кучкарова Д.Ф. – Ташкентский институт инженеров ирригации и
механизации сельского хозяйства, доктор технических наук, профессор
Саматова К.М. – Ассистент Ташкентского государственного
технического университета**

Аннотация. В данной статье рассматриваются современные методы контроля знаний студентов высших технических учебных заведений по предмету начертательной геометрии и инженерной графики. Управление качеством образования предполагает использование разнообразных технологий, при организации познания знаний студентов посредством промежуточного и итогового контроля знаний является важным показателем определения уровня формирования знаний, уровня профессиональной подготовки выявления компетенции.

Ключевые слова: промежуточный контроль, итоговый контроль, учебный процесс, этапы образования, диагностическая функция, традиционные формы, методика контроля, компьютерное тестирование, объективный контроль, тестовая технология.

**ON APPROACHES TO THE ORGANIZATION OF INTERNET
CONTROL FOR THE DISCIPLINE DRAWING GEOMETRY AND
ENGINEERING GRAPHICS**

**Kuchkarova D.F. – Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural
Mechanization Engineers, Doctor of Technical Sciences, Professor
Samatova K.M. – Assistant, Tashkent State Technical University**

Annotation. This article examines modern methods of controlling the knowledge of students of distance higher technical educational institutions on the subject of descriptive geometry and engineering graphics. Management of the quality of education involves the use of a variety of technologies in the organization of midterm and final control of knowledge and skills of students as an indicator of the level of professional training.

Key words: Current control, final control, educational process, stages of education, diagnostic function, traditional forms, control methodology, computer testing, objective control, test technology.

O'qituvchi doim o'z talabalarini bilimni kundalik nazorat qilib boradi. Yakuniy nazoratdagi ta'limning samarasi kundalik nazorat bog'liq. Kundalik nazoratda tashxis va korreksiyalovchi funksiyani bilish mumkin bo'ladi. Tashxis funksiyasi talabalarni va butun guruhni o'zlashtirish darajasini aniqlashga imkon beradi.

Kundalik nazoratni doimiyliigi va tizimliliigi talaba rivojlanishini kuzatib borish, fan bo'yicha o'zlashtirishni yaxshilinishi, o'quv jarayonini takomillashtirish choralarni belgilab olishga imkon beradi. Korreksiyalovchi funksiya ta'lim yo'nalishini qisman o'zlashtirish maqsadiga ega, o'qitilayotgan fandan talabaning o'zlashtirishini yaxshilash uchun muhim hisoblanadi.

Yakuniy nazorat o'quv jarayonida muhim o'ringa ega, uning natijalaridan talabaning ta'limning keyingi bosqichdagi mavqega bog'liq. O'qish vaqtida talaba nimani o'rganganini aniqlash uchun yakuniy nazorat tashxis funksiyasiga ega. An'anaviy shakllar va nazorat usullari bir qator kamchiliklarga ega, ulardan baholashning subyektivligini ajratish mumkin. Kompyuterda test o'tkazish usuli subyektiv baholashni nolga olib keladi va nazorat tizimini boshliqlar, talaba va o'qituvchilar uchun ham shaffof qiladi.

Hozirgi vaqtda test texnologiyalar asosida oliy o'quv yurtlarida o'quv materiallarini talabalar o'zlashtirishlarini obyektiv nazorat qilish tizimini joriy etilishi, shuningdek ta'limda internet-nazorat o'tkazilishi uslubiy materiallarni,

baholashga ma'nosi mosligi darajasi va talabalarni tayyorgarlik sifati davlat ta'lim standarti talablariga mosligi dolzarbdir.

Talabalarni internet-testdan o'tkazish texnologiyasini paydo bo'lishi ta'lim tizimi sifatini rivojlantiruvchi yo'nalish bo'lib, juda perspektiv hisoblanadi. Bunda talabalarni tayyorgarlik darajasi davlat ta'lim standartlariga mosligi va obyektiv baholash imkoniyati paydo bo'ladi. Bundan tashqari internet-baholash talabalar o'qish natijalarini boshqa ta'lim muassasalari ta'lim dasturlarini amalga oshirilayotgan natijalarini internet-nazorat qatnashchilari bilan taqqoslashga imkon beradi.

Chizma geometriya va muhandislik grafikasi o'qituvchilarini internet-nazoratda faol qatnashishlari qator sabablarga asoslanadi:

- nazorat o'tkazishni tayyorgarlik bosqichini tashkil qilish aniqligi (informatsiya olish tezkorligi, attestatsiya materiallarni namoyish versiyalariga kirish);

- nazoratni o'tkazishni tashkil qilish aniqligi (yuzaga keladigan texnik savollarni zudlik bilan hal qilish, internetni ishida uzilish bo'lishi, online rejimida ishlash qulayliklari);

- pedagogik o'lchovlar natijalari informatsion-analitik kartalari tezkor usulda tayyorlanishi (unda har bir fan uchun ta'lim standartida ko'rsatilgan, pedagogik o'lchovlar materiallari aniq ochiqligi, asosiy didaktik birliklarni ajratilishi);

- pedagogik o'lchovlar natijalari batafsil qilinishi;

- internet-nazorat tashkilotchilarini test sifati savollari bo'yicha kafedra o'qituvchilari bilan ishlashga tayyorgarligi (internet-nazoratga tayyorgarlik vaqtida attestatsiyalovchi pedagogik o'lchovli materiallar yuzasidan ko'rsatilgan kamchiliklar ko'rib chiqishga qabul qilindi).

Internet-nazoratda bizning qatnashishimizni ijobiy qismi sifatida, biz o'qituvchilarni shuningdek, attestatsiyalovchi pedagogik o'lchovli materiallarni yaratish va ular bilan tanishishni nazarda tutmoqdamiz. Taqdim etilgan pedagogik o'lchovlar natijalarini tahlili internet-nazorat natijalari o'qituvchilarga talabalarni oraliq nazorat bosqichida bilim va ko'nikmalarini baholashda asos sifatida foydalanish imkonini beradi. Taqdim etilgan natijalarni tahlil qilib, topshiriqlarni yechish koeffisienti o'qituvchi talabalar tomonidan bajarilgan topshiriq darajasini aniqlashi va o'shalar asosida kelgusida ta'lim faoliyatiga o'zgarishlar kirishi mumkin.

Internet-nazoratga material tayyorlash maqsadida kafedra bir qator o'qituvchilari vaqtincha mehnat jamoasiga kiritildi. Shu munosabat bilan grafik tayyorgarlikni ta'minlovchi har xil nomli o'quv fanlari DTS (davlat ta'lim standarti) tuzilishini tahlildan o'tkazish zaruriyati paydo bo'ldi. Ularni umumiy qismini ajratish, umumiy pedagogik o'lchov yaratish maqsadida standartlarni farqlanishini tahlil

qilish, internet-nazorat o'tkazish uchun test topshiriqlar bazasini yaratish, internet-nazorat yakunlarini tahlil qilish lozim.

Davlat ta'lim standarti tahlili o'zlarini tarkibida "Chizma geometriya", "Muhandislik grafikasi", "Kompyuter grafikasi" terminlar bilan nomlangan asosiy ta'lim dasturlarini (ATD) ko'rib chiqish asosida o'tkaziladi. Umuman 400ga yaqin dastur tahlil qilingan.

Tahlilning birinchi bosqichida ATD ro'yxatidan, o'zlarini tarkibida va ro'yxatida tor mutaxassislik elementi bo'lgan bo'limlarni o'qituvchi dasturlar chiqarib tashlandi (masalan, topografik chizmachilik, kartografiya va boshqalar) keyinchalik ATD tuzilishi tahlil qilindi, natijada quyidagi 14 ta kattaroq bo'lgan o'qitiluvchi bo'limlar ajratib olindi:

1. Chizmalarda geometrik figuralarni berilishi (GF);
2. Pozitsion masalalar (PM);
3. Metrik masalalar, chizmalarni qayta qurish usullari (MM);
4. Ortogonal proektsiyalarda perspektiv va s.....(P va S);
5. Sirtlar va egri chiziqlar (SECh);
6. Aksonometrik proyeksiyalar (AP);
7. Sonlar bilan belgilangan proyeksiyalar (SB);
8. KXYaT bo'yicha konstruktorlik hujjatlar va chizmalarni taxt qilish (KXYaT);
9. Ko'rinishlar, qirqimlar, kesimlar (KQK);
10. Detallarni biriktirish. Rezbalar tasvirlash va belgilash (DB.RB);
11. Detallarni ish chizmalari va eskizlar. Yig'ma birliklarni tasvirlash, buyumlarni yig'ish chizmalari (ChEICH);
12. Arxitektura qurilish chizmalari (AQCh);
13. Elektrosxema chizmalari, radiotexnik sxemalar (Sx);
14. Kompyuter grafikasi (KG).

Tuzilishiga ko'ra asosiy ta'lim dasturlari (ATD) farqlanadi va yuqorida keltirilgan ro'yxatdan turli variantlarda davlat ta'lim standarti (DTS) tuzilishiga bog'liq holda didaktik birliklar kiritilishi mumkin (u yoki bu didaktik birliklari mavjudligida). Tahlil asosida 15ta guruh asosiy ta'lim dasturlari (ATD) ajratib olindi, ular har biri konkret attestatsion pedagogik o'lchovli materialidan (APO'M), bir nechta didaktik birlikdan tuzilgan. Bu guruhlarga har biri oltitadan to o'ntagacha didaktik birlik kiradi.

Asosiy ta'lim dasturlari shuningdek, fanni o'zlashtirish uchun ajratilgan soatlar soni bilan ham farqlanadi.

Soatlarni turli bo'lishi attestatsion pedagogik o'lchovli materiallarni (APO'M) ikki bosqichli murakkablikda loyixalash vaqtida hisobga olinadi: ta'lim dasturini birinchi guruhi uchun juda oson va ikkinchi guruh dasturi uchun juda murakkab.

Internet-nazorat o'tkazish uchun quyidagi shartlar qabul qilingan:

1. Internet-nazorat maqsadi talabalar bilimini grafik fanni o'qib tugatgandan so'ng yakuniy nazoratga o'tkazishga qaratilgan;
2. Internet-nazoratni o'lchov meyorlari fanni bazaviy bosqichini o'zlashtirishini aniqlashdan iborat.

Internet-nazoratni o'tkazishda, u yoki bu o'quv fani hamma talabalarni konkret o'quv dasturida tahsil olayotganligi baholanadi. Baholash sifat kriteriyasi 50% kam bo'lmagan o'quvchilar 100% didaktik birlikni o'zlashtirish kerakligi qabul qilingan.

Hozirgi vaqtda test o'tkazish amaliyoti kengaymoqda, Chizma geometriya va muhandislik grafikasi fanidan topshiriqlar banki yangi topshiriqlar bilan to'ldirilmoqda, ular statistik nazoratga jalb qilinmoqda. Internet-nazorat grafik fanlarni o'quv jarayonini yakunlash bosqichining ajralmas qismi bo'lmoqda.

Adabiyotlar

1. Т.Д.Азимов, Д.У.Сабирова “Сборник тестов по начертательной геометрии на тему “Точка”- ТашГТУ, 2007, 42с.
2. Т.Д.Азимов, В.Т.Мирзараимова Сборник тестов по курсу “Инженерная графика”, 1-часть – Т. ТашГТУ, 2007, 32с.
3. А.Х.Вахидов, Д.А.Абдуллаева. Автоматиканинг техник vositalari.: Toshkent - 2011-у.
4. Ю.А. Ibragimov, Z.S. Yakubova. CHizmalarni o'qish va elektronik sxemalar.: T.2016-у.
5. <http://ziyonet.uz/>

ABU NASR FOROBIYNING INSON RUHI VA TANASINING O'ZARO MUNOSABATI TO'G'RISIDAGI QARASHLARI

Baygaziyev T.N.- Toshkent davlat pedagogika universiteti Shahrisabz filiali o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada inson ruhi va tanasining o'zaro aloqasi masalasi maxsus va jiddiy tadqiq qilingan. Mutafakkir tananing o'limi, ruhning o'lmasligi to'g'risidagi fikrlarni qabul qilgani, lekin uni ratsional jihatdan talqin qilishga uringani, xususan, ruhning ilohiy boshqaruvga munosabati, uning intellektual (aqliy) quvvat sifatida mangu yashashini asoslagani manbaviy materiallarga tayanib tahlil qilgan.

Kalit so'zlar: Alloh, inson, ruh, tana, borliq, aql

ВЗГЛЯДЫ АБУ НАСРА ФАРАБИ НА ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО ДУХА И ТЕЛА

**Байгазиев Т.Н. - преподаватель Шахрисабзского филиала
Ташкентского государственного педагогического университета**

Аннотация. В этой статье исследуются отношения между человеческим духом и телом. Мыслитель анализировал смерть тела, принимая идею о бессмертии души, но пытаясь ее рационально истолковать, в частности, отношение души к божественному правлению, основанное на ее вечном существовании как интеллектуальной силы.

Ключевые слова: Бог, человек, дух, тело, бытие, ум

ABU NASR FARABI'S VIEWS ON THE INTERACTION OF THE HUMAN SPIRIT AND BODY

**Baygaziyeu T.N. - teacher of Shahrisabz branch of Tashkent State
Pedagogical University**

Annotation. This article examines the relationship between the human spirit and the body especially and seriously. The thinker analyzed the death of the body based on the source material, accepting the idea that the soul is immortal, but trying to interpret it rationally, in particular, the attitude of the soul to divine rule, justifying its eternal existence as an intellectual force.

Key words: God, man, spirit, body, being, mind

Hozirgi kunda ruh va jismning an'anaviy antinomiysi sezilarli darajada to'ldirishlar va o'zgarishlarga duch kelgan. Insonning ruhiy va jismoniy jihatlarini o'rganuvchi fanlar nuqtai-nazaridan ular to'g'risidagi masala alohida dolzarb muammoga aylanib bormoqda. Bu masalaning dolzarbligini akademik E. Galimov hamda S. Xaytunning tadqiqotlarida ko'tarilgan masalalar, ilgari surilgan gipotezalar va g'oyalar tasdiqlaydi [1].

Hozirda, birinchidan ruh va tana orasidagi o'tib bo'lmas chegara borligi haqida tezisga chek qo'yildi. Ya'ni, ularning bir-biri bilan chambarchas bog'liqligi masalasida shubha qolmadi. Ayni shu sababli, ruh insonning universal va integral qobiliyati sifatida o'zining sohibi— tirik organizm, ya'ni tana bilan uzviy aloqadorlikda olib qaralmoqda. O'z navbatida, inson tanasining ham yuqori darajada differentsiallashgan ma'naviy-ruhiy imkoniyatlarga egaligini yodda tutish zarur. Ikkinchidan, shu narsa ma'lum bo'ldiki, tanaga nopisand va dogmatik qarashni

ratsionalizmning falsafiy ideallari bilan ham oqlab bo‘lmas ekan. Ayni paytda ruh tushunchasini uning mexanistik tasavvuri singari har qanday vulgarlashtirishlarni ham qabul qilib bo‘lmaydi. Ruh ma’naviy borliq mohiyatining uch yuksak va uzviy jihatini – soflik, oliy bilim va ezgu tuyg‘u birligini o‘zida jo etish qobiliyatidir. U diniy va idealistik konsepsiyalarda ontologik jihatidan asoslanadi, xaotik materialni tashkillashtirib, tartiblashtirib kosmosni shakllantirgan qudratli ilohiy nur sifatida talqin etiladi.

Yana shuni ham aytib o‘tish joizki, ruh, tana, ratsionallik haqidagi tasavvurlar inson haqidagi umumiy tushunchaning ma’no- mag‘zini hosil qilsa-da, uning barcha boyligini yetarlicha darajada va kenglikda qamrab olishga qodir emas. Shu bois ruh va tana munosabati masalasini falsafiy tadqiq etishda turli xil yondashishlarning bo‘lishi tabiiy holdir.

Falsafaning butun tarixi davomida ruh (jon) tushunchasi inson tabiatining aqliylik yoki onglilik asosi sinonimi tarzida tushunib kelindi. Inson haqidagi har qanday konsepsiya uning tanasi va ruhi masalasiga duch keladi. Bu masalani tushunishdagi farq insonni o‘rganishning falsafiy – gumanitar, tabiiy – ilmiy, biologik prinsiplarining o‘ziga xosligi bilan belgilanadi. Mazkur masalani to‘g‘ri qo‘yish va hal etishda falsafiy merosga murojaat qilish muhim ijobiy natijalarga olib kelishi tabiiydir. Inson jismi va ruhi uning mavjudligi va kamolotining muhim omillari bo‘lib hisoblanadi. Shu o‘rinda Forobiyning inson ruhi va tanasi munosabati to‘g‘risidagi qarashlarini o‘rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Xususan, buning ahamiyatli tomoni shundaki, Abu Nasr Forobiyning inson haqidagi ta’limotida boshidan oxirigacha mavjud bo‘lgan mavzulardan biri ruh va tana (jon)ning munosabati masalasidir. Bu ta’limotda ruh va tananing turli asoslarga ko‘ra bog‘liqligi inson tabiatining qanchalik yuqori darajada tashkillashganligini belgilaydi, deb uqtiriladi. Tana ruhning zindoni sifatida olib qaraladi. Ruh esa ahamiyati xuddi inson uchun hayot, havo, nafas olish kabi muhim deb baholanadi.

Forobiy fikricha, ruhning o‘lmasligi va boshidanoq jismiy emasligi uni his – tuyg‘udan yuqori bo‘lgan olamga vujudi vojibga yaqinlashtiradi. Alloma o‘zining bu fikri bilan tanaga asira bo‘lgan ruhni tanaga nisbatan yuqori qo‘yadi. Forobiy bu borada qadimgi yunon faylasufi Aflotun fikriga suyanadi va bu haqida, “Aflotun, ruh eng ezgu olam bo‘lgani uchun, inson avvalo o‘zining ruhini kamol toptirishi zarurligi haqida gapiradi”,-[2] deb yozadi.

Ruh faqat inson o‘lgandagina tana zindonidan qutuladi va uning chegaralaridan tashqariga chiqadi. O‘lim inson tanasini tabiatning bir turli o‘zgarishlarni metamorfozalarni boshdan kechiradi va olam bo‘ylab cheksiz sayohatlarga kirishib ketadi. Forobiy bu yerda organizm bilan muhitning o‘zaro

aloqasiga, insonning ruhiy va jismoniy holatining tashqi omillariga, atrof-muhit ta'siriga bog'liqligiga alohida e'tibor beradi.

Forobiy tana va ruhning o'zaro ta'siriga ham alohida e'tibor beradi. Ular, olim fikricha, o'zaro shakl va materiya, akt va potentsiya nisbatida bo'ladilar, shu bilan birga, insonning faqat intellektual (aqliy quvvat) ruhigina o'lmaslik, abadiylikka ega bo'ladi. Ruh moddiy tanani yengib o'tib, abadiy hayotga yetishi mumkin. Shuning uchun ham Forobiy, "Ruhning kasalligi ilohiy boshqaruv odobini rad etadi" – deb yozadi.

Forobiy fikriga ko'ra, inson tanasi moddiy buyum singari yasalgan, uning ruxi esa emanatsiya ta'siri shakllangan. Shuning uchun ham inson ruhi xudo bilan muloqot qila oladi. O'zining Alloh tomonidan uning obraziga mos, o'xshatib yaratilganini bilganidan so'ng, uning nasihatlariga amal qilishi ham, ularga quloq solmay, o'zining unga o'xshash jihatlarini yo'qotishi ham mumkin. Inson tanasi ruh xossalariga yo'g'rilgan va ruhlangan jismga aylanish ananasiga ega. O'zining tanasiga oid xohishlarini bartaraf eta borib, inson poklanishga erishadi. To'g'ri, bunda Allohning insonga muhabbati bilan inson kechiradigan jabru – jafolarni qanday kelishtirish mumkin degan masala ochiq qoladi. Axir insonni sevguvchi Alloh o'zi bandasini jabru – jafolarga duchor qiladimi, deb savol qo'yadi buyuk alloma va unga javob izlaydi. Uningcha, inson tortgan jabru – jafolari orqali o'z ruhini borliqda hozir o'zi yashayotgan dunyodan batamom farq qiluvchi yangi, asl dunyoga tayyorlaydi. Uning kundalik hayoti – o'zining jismoniy huzur – halovati uchun uzluksiz jafo chekishdir. Ruhni qutqarish yo'li jafolar orqali o'tadi, bu jafolarni Alloh yengillatishga intiladi. Shuning uchun ham "Inson va uning ruhiyati orasidagi holatni tadqiq etishda, - deb yozadi. Forobiy, - inson o'z qobiliyatidan juda ehtiyotkorlik va nazokat bilan foydalanadi, chunki odam o'zi va ruhiyati orasidagi tadqiq etayotgan chog'ida uni xuddi birov kuzatayotganiga, tekshirayotganiga o'xshaydi, aqlning nazokatini va tahsinga sazovor ehtiyotkorlikni namoyon etadi".

Ma'lumki, ruh pok, boy, qashshoq, yuksak, tuban va boshqa so'zlarda sifatlanadi. Unga biz tushungan ma'nodagi xastalik, tanaga xos kasalliklar begonadir.

Forobiy kasallikni inson jismoniy vujudi bilan bog'liq deb hisoblab, bu vujudning sohibi, egasi, boshqaruvchisi bo'lgan ruhni, qalbni uning davolovchisi sifatida talqin etadi.

Forobiy borliq va uning shakllari, jonli va jonsiz tabiat, ularning xususiyatlari, moddiy va ruhiy monosabatlarining o'zaro aloqasini islom falsafasi nuqtai-nazaridan kelib chiqqan holda tahlil qiladi. Alloma o'z asarlarida dunyoni ikkiga, ya'ni zaruriy vujud – vojib ul-vujud (xudo) va mumkin ul-vujud (moddiy olam) ga ajratadi. U butun olamni ruh va tananing o'zaro sababiy bog'lanishidan tashkil topgan yagona tanaga qiyoslaydi.

Forobiy ruhiy borliqning chin mohiyati deb Haqni (xudoni) tan oladi va uni bilishning metafizika (falsafa) bilan bog‘liq ekanligiga alohida e‘tibor qaratadi. Allomaning fikricha, metafizika “barcha ilmlarning yakuni va oxiridir. Undan so‘ng biror narsani tekshirishning zarurati qolmaydi, bu har qanday tadqiqotning maqsadidirki, bunday tadqiqot kishini osoyishtalik holatiga keltiradi”. Shuning uchun ham Forobiy falsafaning maqsadini ruhiy osoyishtalikka erishuvda deb biladi va falsafaga quyidagicha ta‘rif beradi: “Mavjudot haqidagi bilim qo‘lga kiritilsa, shu haqda ta‘lim berilsa, mavjudotdan bo‘lgan narsaning zoti bilinsa, narsaning ma‘nosi tushunilsa, ishonchli dalil-hujjatlar asosida shu narsa haqida miyada bir turli ishonch va tasavvur paydo bo‘lsa, mana shu ma‘lumotga doir fanni falsafa deymiz”.

Forobiy o‘z qarashlarini butun borliqning Birinchi Sababi (Sabablar yaratuvchisi) bo‘lgan, borliqning mohiyatini tashkil etgan Birinchi mavjudlik, Ilk borliq, Tangri taolo ekanini yoritishdan boshlaydi. Borliqdagi qolgan barcha mavjudlik shu Ilk borliqdan fayzlanib toshib chiqqan. Buyuk alloma Ilk mohiyatning, Allohning musaffolik sifati uning “ta‘rifi yo‘q”ligining sababi ekanini uqtiradi.

Qomusiy olim ruhiy borliqning tubi, dastlabki asosida eng mukammal bilim, haqiqat yotadi, deb ta‘kidlaydi. Uning (Xudoning) o‘z zotiga bo‘lgan idroki butunlay nihoyasiga yetgan, mukammal - deb yozadi Forobiy, -Uning o‘z javhari (substansiyasi) bilan egallagan o‘sha bilimi esa mutlaqo eng afzal ilmlardan hisoblanadi.

Forobiy ruhning o‘zgaruvchanligi haqida fikr bildirarkan, “Jismning o‘zgaruvchanligi cheksiz bo‘lgani kabi ruhlarning o‘zgaruvchanligi ham cheksizdir. Ammo bir qancha o‘xshash ruhlar bir-biri bilan qo‘shilganlarida har qancha kabir (ulkan) bo‘lsalar ham (jimsizligi tufayli), makonda bir-birini siqib chiqarmaydilar. Chunki, ular hech qachon makonni egallamaydilar va ruhlarining qo‘shiluvlari tanalarining qo‘shiluvlariday yuz bermaydi”, - deb yozadi.

Mutafakkir fikricha, o‘zaro yaqin ruhlarning qanchalik ko‘pchiligi bir-biri bilan qo‘shilsa, uyg‘un holatda harakat qilsa, ular shuncha ko‘p huzur halovatga erishadilar. Har bir yangi ruh, o‘ziga o‘xshash avvalgi ruh bilan qo‘shilganidan keyin, huzur-halovati yanada ortadi. Shuningdek, keyin kelgan (o‘xshash) ruhlar qo‘shilganida avvalgi ruhlarning huzur-xalovati yanada ortadi. Chunki, o‘z mohiyatini topgan avvalgi ruhning keyin kelgan ruhlarning mohiyatlarini qayta-qayta topishidan rohat-farog‘ati yana ham ortadi. “Ruhlarning sifatlarining bunday o‘zaro qo‘shilishi oqibatida ularning aqliy quvvatlari ham tobora ortadi. Ba‘zan avval (bu dunyodan) ketgan avlod-ajdodlarimizning ruhlarining ahvoloti ham xuddi shundaydir” [3]– deb yozadi alloma.

Shunday qilib, Forobiy ta‘limoticha, inson ruhi va tanasi turli-tuman omilarining bevosita ta‘sirida shakllanadi. Shuning uchun buyuk qomusiy olim ta‘limotida inson tushunchasi uning ruhiy va jismiy sifatlarini yanada

ravshanlashtirish davomida oydinlashib boradi. Bunda inson uni tashkil etuvchi uch asosiy jihat - vujud, aql va ruh – uyg'unlashuvining mezoni sifatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham insonning tanasi va ruhining qarama - qarshilishini bartaraf etish komillik nishonalaridan dalolat beradi, degan xulosaga keladi.

Adabiyotlar

1. Галимов Э.М. Феномен жизни: между равновесием и нелинейностью. Происхождений и принципы эволюции. -М.: Едиториал УРСС, 2006. -256 с., Хайтун С.Д. Феномен человека на фоне универсальной эволюции. -М.: Комкгина, 2005. -536 с.
2. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. -Toshkent: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. -35 bet.
3. O'sha asar: -165 -bet.
4. <http://library.ziyonet.uz/ru/book/download/6651>

OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARIDA LEKSIK KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH

Pardayeva D. T. – Toshkent davlat pedagogika universiteti izlanuvchisi

Annotatsiya Ushbu maqola Oliy ta'lim muassasalarida xorijiy tillarni o'qitishda leksik kompetensiyani shakllantirish va uning bosqichma-bosqich rivojlanish darajalari zarurat sifatida tahlil qilindi. Xorijiy til leksik kompetensiyasining tarkibiy qismi sifatida fanlararo munosabatlar sharoitida leksik ko'nikmalarning ahamiyati ta'kidlangan, ularning o'ziga xosligi va shakllanish shartlari tavsiflangan va chet tili leksik kompetensiyalarini fanlararo asosda tuzilishining afzalligi asoslangan. Bu talabalarning lingvistik xususiyatlarini, shuningdek, ta'lim va bilim faoliyatini hisobga olishni nazarda tutadi.

Kalit so'zlar: leksik kompetensiya, leksik ko'nikmalar, so'z boyligi, dinamik birlik, professional jarayon, nutqiy vaziyat.

РАЗВИТИЕ ЛЕКСИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У СТУДЕНТОВ ВУЗОВ

Пардаева Д.Т. - научный сотрудник Ташкентского государственного педагогического университета

Аннотации. В статье анализируется формирование лексической компетентности при обучении иностранному языку в вузе и этапы его

постепенного развития как необходимости. Подчеркивается важность лексических умений в контексте междисциплинарных отношений как неотъемлемой части лексической компетенции иностранного языка, описывается их специфика и условия формирования, исходя из преимущества структурированных лексических компетенций иностранного языка над междисциплинарным. основанием. Это включает в себя учет языковых характеристик учащихся, а также учебной и познавательной деятельности.

Ключевые слова: лексическая компетентность, лексические навыки, лексика, динамическое единство, профессиональный процесс, речевая ситуация.

DEVELOPMENT OF LEXICAL COMPETENCE IN STUDENTS OF HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Pardayeva D.T. - Researcher of Tashkent State Pedagogical University

Annotation. This article analyzes the formation of lexical competence in foreign language teaching in higher education institutions and its stages of gradual development as a necessity. The importance of lexical skills in the context of interdisciplinary relations as an integral part of the lexical competence of a foreign language is emphasized, their specificity and conditions of formation are described, based on the advantage of structured lexical competencies of a foreign language on an interdisciplinary basis. This involves taking into account the linguistic characteristics of the students as well as the educational and cognitive activities.

Key words: lexical competence, lexical skills, vocabulary, dynamic unity, professional process, speech situation.

Ma'lumki, zamonaviy oliy ta'lim konsepsiyasi o'quv madaniyatini umumiy madaniy va kasbiy xarakterga ega bo'lgan va tegishli faoliyat yo'nalishlarida zarur bo'lgan asosiy vakolatlar majmuiga asoslangan holda tashkil etishni nazarda tutadi. Zamonaviy sharoitda talabalar oldida turgan vazifalar kasbiy lug'at asosida nutq faoliyatining barcha turlarini o'zlashtirish, shuningdek, professional muloqot ko'nikmalarini o'zlashtirish sifatida shakllantirilgan.

Chet tili leksik kompetensiyasi kasbiy va kommunikativ kompetensiyaning lingvistik asosidir. Ularni dinamik birlik deb hisoblash mumkin: leksik kompetensiya talabalarning kommunikativ faoliyati jarayonida shakllanadi va leksik kompetensiya rivojlanib borishi bilan takomillashadi, ya'ni ularning shakllanishi bir-biriga bog'liqdir.

Professional leksik kompetensiya - bu talabalar kelgusidagi kasbiy faoliyati bilan bogʻliq turli xil holatlarda tegishli soʻz boyligini, uning asosida shakllangan koʻnikma va malakalarni, bilim nutq tajribasini qoʻllash qobiliyatini ifodalovchi yaxlit tushuncha.

Tadqiqot metodlari: Oʻzbekiston Respublikasida taʼlimning barcha bosqichlarida chet tilini oʻqitishning asosiy maqsadi – oʻquvchilarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishdan iborat. Kommunikativ kompetensiya– bu oʻrganilayotgan chet tili boʻyicha egallagan bilim, koʻnikma va malakalarni muloqot jarayonida qoʻllay olish layoqatidir [2;98-b].

Biz ushbu maqola kengroq toʻxtalib oʻtadigan leksik kompetensiyaning lingvistik komponenti tarkibiga tabiiy integratsiyasini hisobga olgan holda, dialogda chet tili ishtirokchisini tushunish va nutq xulq-atvorining oʻziga xos modelini yaratish uchun zarur boʻlgan bilim, koʻnikma va malakalarni nazarda tutadi. Buning uchun tilshunoslikning asosiy tushunchalari (uslublari, turlari, matndagi jummalarni bogʻlash usullari va boshqalar) matnni tahlil qilib, koʻnikma va aloqa qobiliyatini toʻgʻri bilish kerak, yaʼni muloqotning turli sohalari va vaziyatlariga nisbatan ogʻzaki muloqot qobiliyatlarini asta sekinlik bilan shakllantirish kerak.

Kommunikativ kompetensiya - bu nutqning oʻzaro taʼsirining turli sharoitlarida lingvistik kompetensiyani ijtimoiy xulq-atvor meʼyorlarini va ifoda etishning kommunikativ maqsadga muvofiqligini hisobga olgan holda amalga oshirish qobiliyatidir. Kommunikativ kompetensiyani shakllantirish jarayonida yetakchi tarkibiy qism nutq (kommunikatsiya) koʻnikmalari va qobiliyatlari boʻlib, ular oʻz navbatida nutq faoliyatining barcha turlarida ifodani va koʻnikmalarni oʻz ichiga oladi [3; 210-b].

Leksika deganda vazifasi jihatidan ularga oʻxshash leksik birliklarning soʻzlari va birlashmalari majmui tushuniladi. Ikkinchisi - narsalar, hodisalar, ularning belgilarini nomlashga qodir soʻzlar, barqaror iboralar yoki boshqa til birliklari, shuning uchun “leksik birlik” va “soʻz” tushunchalari sinonimlardir va bu yerda bir-birining oʻrnini bosadigan narsadir. Mutaxassislik boʻyicha adabiyotlar professional lugʻat uchun asos boʻlib xizmat qiladi va biz talabalar tomonidan maʼlum bir soʻz boyluklarini kasbiy sohada, ularning ixtisoslashuvi sohasida, asosan, atamalardan iborat boʻlgan soʻz birikmasini oʻzlashtirish haqida gapirishimiz mumkin.

Ushbu maqola doirasida “terminologik lugʻat” tushunchasini izohlash muhim ahamiyatga ega, bu kontekstdan qatʼiy nazar aniq tushunchalarni beradigan, qoida tariqasida yagona maʼno va kasbiy faoliyat sohasida qoʻllaniladi .

Kommunikativ kompetensiyaning lisoniy asosining leksik tarkibiy qismiga berilgan taʼriflar va taʼkidlashlar fonida “til kompetensiyasi” va “leksik kompetensiya” tushunchalarini oʻzaro bogʻliqligi va ularni hisobga olgan holda semantik jihatdan farqlash zarur [1;176-b].

An'anaviy talqinda lingvistik kompetensiyaning mohiyati o'zaro bog'liq bo'lgan ma'lum elementlarning to'plamidir. Til kompetensiyasi faoliyat (aloqa) jarayonida amalga oshiriladigan bilim, ko'nikma va malakalar to'plami, shaxsiy aloqa vazifalariga muvofiq ma'lumotlarni o'zgartirish qobiliyati, tilni tahlil qilish va sintez qilish qoidalari to'plami sifatida aniqlanadi. Gaplar tuzish va tahlil qilish, til tizimidan aloqa maqsadida foydalanish imkoniyatini beradigan birliklar. Til kompetensiyasidan farqli o'laroq, leksik kompetensiya - bu o'quvchilarning so'zning kontekstual ma'nosini topish, uning ma'no hajmini ikki tilda taqqoslash va so'zni tegishli kontekstda ishlatish qobiliyatini belgilaydigan leksik bilim, ko'nikma va malakalar to'plamidir. Boshqacha qilib aytganda, bu o'quvchilarning so'z boyligini o'zlashtirishga qaratilgan harakatlarni leksik birliklar bilan tashkil etish va o'zaro bog'liqligi; bu leksik birlik ma'nosini, uning grafik tuzilishi va talaffuzini, so'zning grammatik shakllarini va boshqa leksik birliklar bilan birikish qoidalarini bilishdir.

Taqdim etilgan ta'riflarga qaramay, "leksik kompetensiya" tushunchasi to'liq emas edi, agar u faqat leksik bilim va ko'nikmalarni qamrab oladigan bo'lsa, shuning uchun murakkab, tarkibiy shakllanish sifatida leksik kompetensiya talabalarning lisoniy, nutq tajribasi va shaxsiy sifatini ham o'z ichiga oladi

.Chet tili leksik kompetensiyasini shakllantirishda ba'zi tadqiqotchilar (A.E.Sizemina, A.N.Shamov) shartli ravishda bir necha darajalarni ajratib o'tganlar. Ular asosida talabalarning chet tili lug'atidan amaliy foydalanish bilan bog'liq kommunikativ muammolarni hal qilish qobiliyatini shakllantirish jarayoni ko'rib chiqiladi, egallagan bilim, ko'nikma va malakalar asosida nutq faoliyatidan foydalaniladi.

Tilshinos V.D. Chernyak ona tilida so'zlashuvchining leksik vakolatini tavsiflab, uning rivojlanish darajasini aniqlash mumkin bo'lgan quyidagi belgilar haqida gapiradi: aloqa jarayonida namoyon bo'ladigan so'z bilan ishlash erkinligi darajasini, ushbu tavsifni talabalarning chet tili leksik kompetensiyasiga bog'lash mumkin [8,100-b]. Kommunikativ kompetensiyaning rivojlanish darajasi va umuman olganda talabalarning kommunikativ imkoniyatlari asosan leksik zaxiraning imkoniyatlari bilan belgilanadi. Aynan u kommunikativ xatti-harakatlarning erkinligi va samaradorligini, keladigan ma'lumotlarni to'liq idrok etish va faollashtirish qobiliyatini ta'minlaydi.

Tilshunos olim Shamov A.N. ning so'zlariga ko'ra, leksik kompetensiyani shakllantirish birinchi navbatda empirik bilimlarni to'plashdan boshlanadi. Turli xil kommunikativ sharoitlarda (og'zaki va yozma) leksik birliklarning ishlashini kuzatishdir [9,46-51-b]. Ushbu bosqichda yangi lug'atning taqdimoti va semantizatsiyasi tashkil etiladi - talabalar leksik birlikning ovozli va grafik tasviri haqida tasavvurga ega bo'ladilar, chet tilidagi so'z va uning ma'nosi o'rtasida

aloqalar hosil bo‘ladi. Talabalar taqdim etilgan kommunikativ vaziyatlarda leksik birliklarni aniqlash ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar.

Leksikaviy kompetensiyani shakllantirishning uchinchi darajasi maqsadli tilning leksik tizimi to‘g‘risida nazariy bilimlarni egallash bilan bog‘liq, ya‘ni talabalarning lingvistik tajribasini kengaytirish. Ushbu daraja talabalar tomonidan so‘zning shakli, tuzilishi va ma‘no xususiyatlarini aniqlash, yanada kuchli og‘zaki-semantik aloqalarni yaratishga hissa qo‘shish ko‘nikmalarini shakllantirishni nazarda tutadi. Ushbu progressiv darajada o‘rganilayotgan tilning rasmiy tomonlarini o‘zlashtirish amalga oshiriladi, bu esa o‘quvchilarning filologik dunyoqarashini rivojlantirishga yordam beradi.

Leksikaviy kompetensiyani shakllantirishning yakuniy, to‘rtinchi darajasi, turli xil aloqa vazifalarini hal qilish uchun leksik birliklardan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi, ya‘ni. vazifalar, ularning yechimi talabalardan ilgari o‘rganilgan yoki o‘rganilgan til vositalari va individual nutq tajribasidan foydalanishni talab qiladi. Ushbu malakaviy daraja chet tilidagi lug‘at bilan amaliy harakatlarni amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lib, zarur bo‘lgan til bilimlari, nutq ko‘nikmalari va qobiliyatlaridan foydalanishni o‘z zimmasiga olib, aloqa sharoitlariga mos ravishda turli xil aloqa vazifalarini hal qilishga qaratilgan.

Natijalar va muhokama: Leksikaviy kompetensiya - bu bilim va tilning leksik va grammatik elementlaridan tashkil topgan so‘z boyligidan foydalanish qobiliyati. Tilga oid bo‘lmagan universitetda chet tilidagi leksik kompetensiyani shakllantirish jarayonida, tegishli kompetensiyani shakllantirish samaradorligi sharti sifatida fanlararo aloqalarga e‘tibor qaratiladi, bu esa o‘qitishni aks ettirish ma‘nosida o‘qitishni kasbiylashtirishni nazarda tutadi.

Fanlararo aloqalar omilini hisobga olgan holda, talabalarning chet tili professional leksik kompetensiyasi - bu og‘zaki nutqning o‘zaro ta‘sirida faol so‘z birikmalaridan mustaqil foydalanish qobiliyati sifatida ta‘lim jarayonida shakllangan bilim, ko‘nikma va malakalar to‘plamidir. Vaqtinchalik aspektidagi assotsiativ-aqliy faoliyat natijasi bo‘lgan barqaror og‘zaki-semantik aloqalarni shakllantirishga yordam beradigan ba‘zi intizomiy jihatlar bo‘yicha bilim va ko‘nikmalar mavjudligida ifodalangan oldingi aqliy faoliyat (mnemonik ish natijalari) [4; 97-b].

Chet tili professional leksik kompetensiyasini o‘quv-bilish faoliyati subyekti, egallagan ma‘lum bilimlarni talqin qilishda, ushbu kompetensiyani talabalar bilimlari va tajribalarini tashkil etishning maxsus turini ta‘minlovchi resurs sifati tariqasida aniqlash mumkin. Kasbiy kommunikativ kompetensiyani izchil shakllantirishda kasbga yo‘naltirilgan aql-idrokda, kasbiy lingvistik bilimlarni jalb qilish va o‘zaro bog‘lash qobiliyatida, og‘zaki nutqning o‘zaro ta‘siri jarayonida og‘zaki tuzilmalarni tarkibini to‘ldirishni amalga oshirish uchun tegishli ko‘nikma va uni qo‘llash qobiliyatida namoyon bo‘ladi. Shu munosabat bilan, fanlararo aloqalar sharoitida

tegishli ta'sirning shartli omili sifatida, leksik ko'nikma va malakalarning to'liq asosi sifatini chet tillari leksik kompetensiyasining yaxlit tarkibiy qismlari sifatida ta'kidlash zarur. Tegishli ko'nikma va malakalarning muhim xususiyati va ustun xususiyati sifatida fanlararo aloqadordir [11; 46-b].

Maqolaning yangiligi: Leksik ko'nikmalarning murakkab ilmiy sifati talabalarning nutqida ham, bilim tajribasida ham mavjud bo'lgan, semantik uyushmalarning ushbu o'quv va bilim faoliyatining shartlariga o'tkazilishiga asoslanadi va fanlararo asosda shakllangan leksik ko'nikmalarning o'ziga xos xususiyati hisoblanadi. Murakkab xususiyat sifatida leksik ko'nikmalarning onglik kabi xususiyatlarini mustahkamlashda samarali namoyon bo'ladi, bu talabalar ongida qoidaning yashirin mavjudligini va qiyin vaziyatda ushbu qoidaga murojaat qilish imkoniyatini bajarishda barqarorlikni anglatadi. Nutq-tafakkur faoliyati asosida yotadigan va og'zaki ogohlantirishlarga (lisoniy birliklarga) psixofiziologik qorishmalar amalga oshiriladigan murakkab jarayonli tuzilmalar sifatida, leksik bog'lanishlar kuchi bilan belgilanadigan kerakli nutqiy amaliyotlar bajariladi.

Bunday ko'nikmalarni shakllantirishning sharti o'xshashlik va taqqoslash mexanizmidan foydalanish, beixtiyor yodlash, talabalarning miyasiga tushadigan namunaning muntazamligi, o'zlashtirishning murakkabligi (eshitish, ko'rish va motorli tasvirlarning kombinatsiyasi) mazmunli taqliddan iborat. Chet tilining professional leksik kompetensiyasini shakllantirish talabalarning tilga tayyorgarligi sifatini oshirishning muhim yo'nalishlaridan biridir. Nofilologik bo'lgan universitet talabalari leksik kompetensiyani yuqori darajada shakllantirishga erishish uchun, o'quv jarayonida uni shakllantirishning tegishli bosqichlari ketma-ketligini ta'minlash va o'zlashtirishni tashkil etish bo'yicha ishlarni amalga oshirish zarur bo'lib tuyuladi. Lingvistik xususiyatlarni hisobga olgan holda qo'llaniladigan fanlararo aloqalar asosida, leksik materialning til materiali, shuningdek talabalarning bilim, nutq-fikrlash va ta'lim faoliyatida namoyon bo'ladi [10,74-b].

Nominativ funksiyani bajarish va nutqini mazmunli material bilan ta'minlash, so'z boyligi bajariladigan funksiyalar doirasi bo'yicha noyob hodisa bo'lib ko'rinadi. Lug'at boyligini o'zlashtirish talabalarning lingvistik dunyoqarashini rivojlantirishga yordam beradi. Leksik birlikning ma'nosi boshqa mamlakat madaniyatini, uning tarixi va hayotning o'ziga xos xususiyatlarini ochib beradi. Shunday ekan kommunikativ faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv – ta'limni rivojlantiruvchi, umumiy va kommunikativ xususiyatlariga ega bo'lib, ta'lim jarayonida bilish faolligini oshirishga ko'maklashadi.

Leksikaviy kompetensiyani rivojlanishining yuqori darajasiga erishish insonning bevosita leksik zaxiradan bevosita va bilvosita muloqotda osonlikcha foydalanishida, ona tilida so'zlashuvchilarning nutqiga xos bo'lgan frazeologik iboralar, maqollar, so'zlardan yetarlicha foydalanishda namoyon bo'ladi.

Vitol A.B shunday deb yozgan edi: "... siz g'ishtsiz uy qurolmaganingiz kabi, kerakli miqdordagi so'zlarni o'zlashtirmasdan ham tilni o'zlashtira olmaysiz." Mazmuni shundan iboratki, o'quv-bilish kompetensiyasi ta'lim oluvchining mustaqil bilim olish faoliyatida chet tillar va madaniyatlarni o'rganishning kompetensiyalar yig'indisi bo'lib, zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan mantiqiy, metodologik va umumta'lim vazifalarni o'z ichiga oladi. Chet tilini o'qitish didaktik, metodik, lingvistik tamoyillarni hamda zamonaviy ta'lim texnologiyalarini qo'llash asosida amalga oshiriladi.

Xalqaro imtihonlarning barcha shakllarida nutq faoliyatining har xil turlarida so'z boyliklaridan foydalanish ko'nikmalarini baholashga qaratilgan maxsus vazifalarning mavjudligi ham leksik materialni o'zlashtirishning alohida ahamiyati tan olinganligidan dalolat beradi. Bu esa talabalarda yangi lug'at, ma'lum bir leksik birlikning tovush va grafik tasviri haqidagi g'oyalarni, chet tilidagi so'z va uning ma'nosi o'rtasidagi aloqalarni o'rgatadilar.

Adabiyotlar

1. Abdalina Ye.N. Nofilologik oily o'quv yurtlari talabalari uchun ingliz tili darsligi T.: 1996-y
2. Daniyarov.B Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quv fanlarini o'qitishda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish masalalari 2016-y.
3. Daniyarov B.X. Innovatsion texnologiyalar asosida ta'lim jarayonlari sifat va samaradorligini oshirish. Monografiya. – T.: Sano-standart, 2014-y.
5. Rapoport I.A., Sotter I. Maktabdagi chet tillari, 1977-y.
6. Ismoilov A.A., Sattarov TD .. Jalolov J.J., Ibragimxujayev. Ingliz tili amaliy kursidan o'quv-uslubiy majmua // Nofilologik yo'nalishda ingliz tilini xorijiy til bilan xamda filologik yo'nalishda ingliz tilini tashqi chet el tilida o'qitish uchun Threshold uchun. T.: O'zDJTU. 2011-y.
7. Ishmuxamedov R. Innovatsion tizimni rivojlantirish ta'limini rivojlantirishning yo'llari. T. 2005-y.
8. Muxitdinova G.Sh. Oliy o'quv yurtlari uchun // Ingliz tili darsligi. T.: O'zbekiston. 1997-y.
9. Cherevko Yu.A. Filologiya fanlari. Nazariya va amaliyot savollari, 2010-y.
10. Sizemina A.Ye. Talabalarning motivatsiyasini shakllantirish asosida talabalarning linguistic kompetensiyasini rivojlantirish texnikasi. Kand. Dis.: N. Novgorod, 2009-y.
11. Starodubtseva O.G. Universitet talabalari kasbiy va kommunikativ kompetensiyasining lingvistik asoslari sifatida. Sibir davlat tibbiyot universiteti, Tomsk 1997-y.

HOZIRGI SHE'RIYATDA MUMTOZ MOHIYAT

Ernazarova G. I. - Samarqand davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya. Sharq falsafiy tafakkurida muhim o'rin egallagan, ezgu g'oyalar va go'zal hikmatlar silsilasi hisoblangan tasavvuf murakkab ta'limot ekanligi ma'lum. Hozirgi she'riyatda tasavvuf an'alariga izdoshlik masalasida ayrim ilmiy maqolalarda, ba'zi monografiya va o'quv qo'llanmalarida bayon etilgan fikr-mulohazalardan tashqari jiddiy ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmagan. Ushbu maqolada bugungi she'riyatning tasavvufga izdoshligi hamda g'oyalar va timsollararo an'anaviylik masalalari tadqiq qilinadi.

Kalit so'zlar: tasavvuf, ta'limot, panteizm, sotsrealizm, g'oya, uslub, motiv, talqin, majoz va haqiqat.

КЛАССИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ В СОВРЕМЕННОЙ ПОЭЗИИ

Эрназарова Г.И. - научный сотрудник Самаркандского государственного университета

Аннотация: Хорошо известно, что мистицизм, занимающий важное место в философском мышлении Востока и представляющий собой серию благородных идей и прекрасных мудростей, представляет собой сложное учение. В современной поэзии не проводилось серьезных научных исследований по вопросу следования традициям мистицизма, за исключением взглядов, выраженных в некоторых научных статьях, некоторых монографиях и учебниках. В этой статье исследуются мистические поиски современной поэзии и проблемы идей и межсимвольной традиции.

Ключевые слова: суфизм, учение, пантеизм, соцреализм, идея, стиль, мотив, интерпретация, метафора и истина.

THE CLASSICAL ESSENCE IN MODERN POETRY

Ernazarova G.I. - Researcher of Samarkand State University

Annotatsion: It is well known that mysticism, which occupies an important place in the philosophical thinking of the East and is a series of noble ideas and beautiful wisdom, is complex teaching. In modern poetry, serious scientific research hasn't been carried out on the issue of following the traditions of mysticism, except for the views expressed in some scientific articles, some monographs, and textbooks.

This article deals with the mystical quest of modern poetry and the problem of ideas and the intersymbol tradition.

Key words: sufism, teachings, pantheism, socialist realism, mystical idea, style, motive, interpretation, metaphor, and truth.

Tasavvufshunoslikka oid ilmiy maqolalarda, monografik tadqiqotlarda tasavvuf dunyodagi turli xalqlarning ijtimoiy, falsafiy, badiiy tafakkuridan keng o‘rin egallagan va ko‘p tarmoqli murakkab ta‘limot ekanligi ta‘kidlanadi. Jumladan, professor Najmiddin Komilov shunday yozadi: “...tasavvuf biror-bir falsafiy tizim o‘rnini egallashga da‘vo qilgan emas. U bir tomondan diniy, ikkinchi tomondan, falsafiy-irfoniy qarashlardan oziqlangan o‘ziga xos ta‘limot va axloqiy ustavlar majmuidir”[4,9-b]. Chindan ham tasavvuf Sharq falsafiy tafakkurida muhim o‘rin egallaganligi, ma‘naviyatimizni boyitishga ulkan hissa bo‘lib qo‘shilgan ezgu g‘oyalar va go‘zal hikmatlar silsilasidir. Filologiya fanlari doktori Ibrohim Haqqul esa “Tasavvufning bir qanoti mistizm bo‘lsa, ikkinchi qanoti asketizm, deb yozadi. – Biroq uning markazida panteizm – vahdati vujud g‘oyasi turadi. Shuning uchun tasavvufni o‘rganishda tarixchi, dinshunos, faylasuf, adabiyotshunos va psixolog olimlarning hamkorliklari g‘oyatda muhimdir” [8, 3-b].

Adabiyotshunos Sayfiddin Sayfulloh esa mazkur ta‘limotning o‘ziga yarasha talab va xususiyatlarini quyidagilarda ko‘radi:

“1. Tasavvuf shariatga asoslangan, tajriba orqali his qilib, yashab, anglashiladigan hol ilmdir; 2. Tasavvuf amalda qo‘llanadigan bir ilm bo‘lganidan, murshid yoki shayx (yoki piri komil) deyiladigan ustoz huzurida va uning tarbiyasi ostida o‘rganiladi; 3. Tasavvuf ilmining mavzusi ma‘rifatullohdir; 4. Tasavvuf sirlarini o‘rgatgan murshid yoki shayx (yoki pir) degan kishining hazrati payg‘ambarimizga ulanadigan, uzilib qolmagan bir sahif silsilaga sohib bo‘lishi kerakdir; 5. Tasavvuf kitobiy bir ilm emas. Ya‘ni biror kishi tasavvufga doir yozilgan kitoblarni o‘qib, pirsiz shayx va so‘fiy bo‘lolmaydi; 6. Tasavvuf movaroi aql (aqldan ustun) bir ilmdir; 7. Tasavvuf biz ko‘z bilan ko‘radigan va ko‘rolmaydigan olamlardan tashqari, gohida g‘ayb olamidan bahs etadi; 8. Tasavvufga tariqat deb atalgan va Allohga etkazadigan o‘ziga xos yo‘l bilan kiriladi” [6, 7-b].

Keltirilgan misollardan ham anglashilib turibdiki, tasavvuf ta‘limoti turli xil irmoqlar va daryolar qo‘shiluvidan yuzaga kelgan katta bir ummon. Shu bois biz tadqiqotimizning mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan holda bugungi she‘riyatning tasavvufga izdoshligi hamda g‘oyalar va timsollararo an‘naviylik masalalariga to‘xtalib o‘tamiz. Bu borada ayrim ilmiy maqolalarda, ba‘zi monografiya va o‘quv qo‘llanmalarida bayon etilgan fikr-mulohazalardan tashqari jiddiy ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmagan.

Professor Najmiddin Komilov “Tasavvuf” asarida Attor falsafasi xususida fikr yuritib, Abdulla Oripovning “Tilla baliqcha” she’riga munosabat bildirib o’tadi. Ibrohim Haqqul G’afur G’ulom to’g’risidagi maqolasida uning ijodini Sharq she’riyati, jumladan, Bedil ijodi bilan qiyoslab o’rganish zarurligiga e’tibor qaratadi [9, 18-23-b].

Adabiyotshunos Shavkat Hasanovning “Doston tarkibi va tabiati” monografiyasida hozirgi she’riyatda, xususan, Asqar Mahkam va Abduvali Qutbiddin she’rlari hamda dostonlarida tasavvuf an’alariga izdoshlik kuzatilayotganligi masalasiga to’xtalgan [10, 84-b].

Filologiya fanlari doktori Mahfuza Davronovanning “Abduvali Qutbiddin she’riyatida tasavvufiy dunyoqarash” maqolasida Abduvali Qutbiddinning tasavvuf bilan yo’g’rilgan she’rlari tadqiq qilingan [1, 61-65-b].

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolani tayyorlashda qiyosiy-tipologik, biografik, psixologik, struktural, germeneytik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Salkam bir asrlik ateizm hukmronligi davrida asrlar davomida adabiyotga ilhom baxsh etgan tasavvuf g’oyalari, mavzularini kuylash imkonsiz edi. XX asr adabiyotida uchraydigan “ruh”, “nafs”, “ishq”, “ma’rifat”, “haqiqat”, “komillik” kalomlarini sovet voqeligi adabiy iste’molga kiritmagan, bu an’anaviy motivlar mumtoz she’riyatdan ko’chgan edi. Biroq zamonaviy adabiyotda ularning ma’no ko’lami torayganligi seziladi. Chunonchi, “ruh” tasavvufdagidek mutlaq ruh ma’nosida emas, balki muayyan insonning ruhi ma’nosida, “ishq” – ilohiy ishq ma’nosidamas, zaminiy, avom sevgisi ma’nosida, “komillik” barkamollik ma’nosida qo’llanadigan va talqin etiladigan bo’ldi. Boisi diniy e’tiqodu erkinlikni cheklab qo’ygan ateistik tuzumda tasavvuf va u bilan bog’liq tushunchalar haqida ham hech qanday gap bo’lishi mumkin emasdi. Buni yanada aniqroq va konkretroq tushunish uchun, eng avvalo, tasavvuf va sotsrealizm metodologiyasiga e’tibor qaratish zarur. Har ikki adabiy yo’nalishning adabiyot, umuman, san’at asari oldiga qo’ygan talablari masalaning mohiyatini aniqlashtiradi. Mumtoz adabiyotda asosiy masala nafsga qarshi jihad va shu jarayonda ruhni poklab borish, ruhiy kamolotga intilish bilan bog’liq bo’lsa, sotsrealizm adabiyoti sinflar kurashiga, “voqelik”ni revolyutsion taraqqiyotda ko’rsatishga asoslangan edi. Soddaroq qilib aytganda, tarozining ikki pallasiga idealizm va materializm qo’yilgan edi. Biri ilohiyotga intilsa, ikkinchisi shafaqatsiz realizmga intiladi.

Agar XX asr o’zbek she’riyatida tasavvuf an’alari masalasida hozirgi terminologiya bilan aytilganda, psixoanaliz kontsepsiyasi nuqtai nazaridan qaraganda, o’ziga xos alohida bir manzara namoyon bo’ladi. Karl Yungning talqiniga ko’ra inson shaxsi uch qatlamdan iborat: bu uch qatlam vaziyat va sharoitga qarab joy almashtirib turadi. Bularning birinchisi insonni jamiyatga muvofiqlashtirib turadigan ego, ya’ni idrokdir. Ikkinchisi shaxsiy ongosti qatlamlari. Bu qatlamda inson aqlu

hushini taniganidan boshlab boshidan kechirganlari xotirasi hamda go'yoki unutilib ketgandek bo'lib ko'rinsada, xotirasi arxivida saqlanadigan ma'lumotlar. Uchinchi qatlamda esa har bir odam ongining pastki qavatlarida qatlam-qatlam bo'lib nasldan naslga, avloddan ajdodga, otadan bolaga o'tib kelayotgan e'tiqod, ishonch, tasavvur, hissiyot, mayllar arosati yashaydi. Shaxsning psixik komplekslari aynan ana shu ongosti qatlamida yashirinib yotadi va idrokiga ta'sir o'tkazadi. Karl Yung buni ommaviy ongosti yoki ommaviy ongsizlik deb ataydi.

Shu nuqtai nazardan XX asr o'zbek shoirlari ijodini kuzatadigan bo'lsak, tasavvufiy g'oyalar, tushunchalar, talqinlar ba'zan anglangan, ba'zan anglanmagan, goh ongli, goh stixiyali ravishda o'zligini namoyon etib turdi. Shu o'rinda aytib o'tish joizki, she'rlarida tasavvufiy qarashlar aks etgan ijodkorlarning barchasi ham tariqat bosqichlarini bosib o'tishmagan.

Zamonaviy she'riyatda olam va odam munosabatlarini, voqelik jarayonlarini tasavvufona talqin qilishga intilish ayrim shoirlar ijodida ko'zga tashlanishini qayd etish lozim. Shuningdek, bu xildagi asarlar mazmun va shakl jihatidan mumtoz she'riyatdagi janr va shakllardan tamoman farqlanishini, qator o'zgarishlarga uchraganligini inobatga olish kerak. Bular quyidagilar:

- uslubiy o'ziga xoslik;
- vazndagi o'zgarishlar;
- motivlarning yangilanishi;
- shakliy kompozitsion rang-baranglik va boshqalardir.

1. Uslubiy o'zgarishlar.

Yoqubjon Ishoqovning "Navoiy she'riyati va o'zbek she'riyatida uslublar masalasi" maqolasida [3, 3-8-b] Alisher Navoiygacha va undan keyingi davr Xuroson hamda Movaraunnahr shoirlari ijodi misolida uslub masalasini tekshirar ekan, ushbu ijod namunalari g'oya va tasvir printsiplari nuqtai nazaridan uch katta bosqichga ajratadi; turkiy, klassik va oliy yoki Navoiyona uslubiy bosqichlardir.

Abduqodir Hayitmetov masalaga xalqchilik nuqtai nazaridan qarab, o'zbek adabiyoti tarixida XV asrdan boshlab shartli ravishda Ahmad Yassaviy boshlab bergan Turkiston uslubi va ikkinchisi Alisher Navoiy asos solgan Xuroson uslubi bo'lganligini qayd etadi [7,5-b]. Garchi ikki adabiyotshunosning uslub borasidagi tasniflarida muayyan tafovutlar bo'lsa-da, biroq umuman turkiy she'riyatdagi ikki yoki uch uslub turi xususida fikr yuritilmoqda. Aytmoqchi bo'lganimiz, mumtoz adabiyotda zamonaviy she'riyatdagidek individual uslub rang-barangligi to'g'risida so'z bormayapti. Mumtoz she'riyatda har bir shoirning individual uslub qirralarini yoritishning muammoligi shundaki, maxsus tasavvufiy tushunchalarni ifoda etadigan obrazlar, qiyoslar, timsollarni barcha birdek qabul qilgan va ishlatgan. Masalan, "Yor" deganda xudo, "Quduq" deganda dunyo tushunilgani, yuzning oyga, qomatning alif yo sarvga, qoshning hilolga qiyoslanishi kabi. Ko'pincha g'azalning

maqta qismini o'qimaguncha, uning muallifi kimligini aniqlash dushvor. Shu ma'noda mumtoz she'riyatda individual uslubdan ko'ra davr uslubi etakchilik qilgan. Albatta, bu romantizm ijodiy metodi bilan bog'liq hodisa. Realizm ijodiy metodi esa har bir ijodkorning o'z individual tasvir printsiptini taqazo etadi.

Uslub asli ijodkorning dunyoqarashi, u yaratgan asarlarning asosini tashkil qiluvchi g'oyalar, syujet va xarakterlar doirasi, badiiy tasvir vositalari hamda til xususiyatlarini ham qamrab oladi. Ma'lum adabiy oqimga nisbatan ham alohida shoir ijodiga nisbatan ham uslub atamasi qo'llaniladi. Tasavvuf oqimi uslubi va G'afur G'ulom poetik uslubi kabi. Aytish mumkinki, romantizm metodidan realizm metodiga o'tish uslubiy yaqinliklarni rang-baranglashtirdi. Shu ma'noda mumtoz she'riyatning ko'tarinki timsoliy tili real detallar, konkret obrazlar, realistik tushunchalar bilan almashdi. Shu bois zamonaviy she'riyatda tasavvufiy istilohlarni qo'llash muhim bo'lmay qoldi.

2. Vazndagi o'zgarishlar. Ma'lumki, mumtoz lirika, jumladan, tasavvuf she'riyati ham aruzga ixtisoslashgan edi. XX asr boshlaridagi ijtimoiy voqelik, romantizmdan realizmga o'tilishi, til sohasida olib borilgan islohotlar: arab yozuvidan lotin yozuviga, lotin yozuvidan krill yozuviga o'tilishi o'zbek she'riyatida aruz imkoniyatlarini deyarli cheklab qo'ydi. Xalq og'zaki ijodiga xos barmoq vaznining ustivorligi ta'minlanishi barobarida erkin vazndagi she'rlar ham ko'zga tashlana boshladi. Bu omillarning barchasi she'riyatni tasavvuf tili va uslubidan uzoqlashtirdi. Bu holatni Abdulla Oripov nuqtadonlik bilan shunday poetiklashtiradi:

Harf o'yin aylay desam, o'zga erur imlo bukun.

Zamonaviy o'zbek she'riyatida barmoqda bitilgan g'azal, ruboiylar ham uchraydi. Biroq aruzda yozilgan chinakam ma'nodagi g'azal, ruboiylarda tasavvufiy iboralar, tushunchalar, timsollar, an'analar o'zligini namoyon etib turadi.

Tun bilan yig'labti bulbul g'uncha hajri dog'ida,

Ko'z yoshi shabnam bo'lib qolmish uning yaprog'ida, kabi. Erkin Vohidov, Jamol Kamol g'azaliyotidan bunga ko'p misollar keltirish mumkin. Biroq bunday ijod namunalari adabiyotimiz miqyosida ham, alohida shoirlar ijodi miqyosida ham katta salmoqqa ega emas.

Ma'lumki, tasavvuf g'oyalari o'z vaqtida juda katta qamrov kasb etib, xalq orasida ham kuchli qiziqishga sabab bo'lganligi bois folklor namunalariga ham o'z ta'sirini o'tkazgan. "Qissai Ibrohim Adham", "Qissasi Mashrab" kabi asarlarni eslab o'tish mumkin. Shuning uchun barmoq vazniga ixtisoslashgan zamonaviy o'zbek she'riyatida tasavvufning ayrim an'alarini davom ettirgan Abdulla Oripovning bir qator she'rlari shundan darak beradi.

O'sardi u adirda durkun

Epkinlarga ochguncha quchoq.

Keldilaru odamlar bir kun

Tanasiga soldilar pichoq, – satrlari bilan boshlanuvchi mashhur she’ri Jaloliddin Rumiyning

Tingla, nay andoq rivoyatlar qilur,

Ayriliqlardan shikoyatlar qilur, – deb boshlanuvchi “Masnaviy”dagi lirikasini yodga soladi. Abdulla Oripov ushbu she’rida Jaloliddin Rumiyning hazratlari nazarda tutgan ayriliq – fano olamiga kelishni soddaroq, batafsilroq hamda tushunarliroq qilib ifoda etgan.

Shundan kelib chiqib, aytish mumkinki, vazndagi o‘zgarishlar zamonaviy she’riyatni tasavvufdan uzoqlashtirgan bo‘lsa-da, uning an‘analarini ramz va obrazlarini, tushunchalarini butunlay yo‘qotib yuborolmadi. Chunki ongostida saqlanayotgan tasavvufiy g‘oyalar, timsollar, tushunchalar ijod psixologiyasining qonuniyatlariga ko‘ra o‘zligidan darak berib turadi.

3. Mavzu va motivlardagi o‘zgarishlar. Tasavvuf she’riyatida asosiy mavzu va motivlar sifatida taqdim va talqin etib kelingan ruh, nafs, ishq, komillik, ma’rifat, haqiqat kabi tushunchalar zamonaviy she’riyatda ham ishlatilgan. Biroq bu tushunchalarning mohiyati zamonga muvofiqlashtirilgan, ya’ni ma’no ko‘lami toraygan. Ruh – ma’lum bir kishining joni, nafs – badnafslilik belgisi, ishq – zaminiy sevgi, komil inson – barkamol avlod tushunchasiga, ma’rifat – shunchaki o‘quv yurtini tugatish va diplomli bo‘lish, haqiqat – hayotiy voqealar girdobi va konfliktida tanlangan to‘g‘ri yo‘l ma’nolarini anglata boshladi. Yuqorida ko‘rib o‘tilgan mavzu va motivlar haqiqiy tasavvufiy istilohlar sifatida mustaqillik arafasi va undan keyingi davr she’riyatida namoyan bo‘la boshladi. Jumladan, Zebo Mirzoning “Nur kukunlari” nomli to‘lamiga kiritilgan quyidagi she’rida isbotini ko‘rish mumkin:

...Qalqib turgan sharpaman xolos,
O‘lganini tan olmas ko‘nglim.
Osmon bilmas, zamin anglamas,
Bu qanday dard,
Bu qanday o‘lim?

Olovlarda yoqiladurman,
Do‘zaxlardan o‘tmoqda yo‘lim.
Bir buyuk ishqni sog‘inadurman!
Bu qanday dard,
Bu qanday o‘lim?...[2, 31-b].

Tasavvuf asosida mistik qarashlar muhim o‘rin tutadi. Unga ko‘ra inson tashqi olamdan botiniy dunyosiga qarab yo‘l oladi. Bu yo‘l ruhiy yuksalishlar yo‘li, aniqrog‘i sezgi va hissiy qobiliyat sabab Haqqa yaqinlashish yo‘li. Ruhning, qalbning, axloqning o‘limi tasavvufda bor tushunchalar. Shoira “ko‘ngil o‘limi” deganda shuni nazarda tutayapti. Lekin buni lirik qahramon tasavvuf tariqatiga kirdi

deya tushunmaslik kerak. “Bir buyuk ishqni sog‘inadurman!” satri ham fikrimizni dalillaydi. Lirik qahramon ruhiy kechinmalarini ayrim tasavvufiy tushunchalar tiliga ko‘chirishga harakat qilgan.

4. Mumtoz mohiyatning modern shakli. O‘tgan asrning ikkinchi yarimi o‘zbek she‘riyatida tasavvufiy g‘oya, timsol, tushunchalar asosan barmoq vaznida ifoda etilgan bo‘lsa, Istiqlol arafasi va undan keyingi davr she‘riyatida bu komponentlar moderncha shaklga ko‘chdi. Bu xususiyat Asqar Mahkam, Abduvali Qutbiddin, Bahrom Ro‘zimuhammadlar ijodida aniqroq ko‘zga tashlanadi.

Hamisha ham tinish belgilarga amal qilmaslik, satrboshining ko‘pincha kichik harflar – belgilar bilan go‘yoki yuqoridagi misraning davomidek yozilishi, barmoqning qo‘shma vaznlarini qo‘llash, erkin vaznga xos zinapoya shaklini barmoq vazni bilan uyg‘unlashtirishga harakat, och qofiyaning takrorlanib turishi, ohangdorlikning intonatsiya asosida yuzaga keltirish kabi qator alomatlar an‘anaviy o‘zbek she‘riyati uchun yangilik edi.

Asqar Mahkamning “Ishq” dostonida bu alomatlarining deyarli barchasini ko‘rish barobarida mumtoz mohiyat o‘zining yaxshi poetik ifodasini topgan. Alohida qayd etish kerakki, ushbu asarda tasavvufning ilk davrlarida shakllangan zohidlarning nuqtai nazari ustivorligi seziladi. Lirik qahramon o‘zi yashab turgan real voqelikka zohidlar, darveshlar nigohi bilan qaraydi hamda qator ma‘naviy-ahloqiy muammolarni butun murakkabligu ziddiyatlari bilan qamrab olishga intiladi. Dostonning “Ishq” atalishi ham bejiz emas, asarda bu kalimaning ilohiy ishq bilan bog‘liq jihatlariga e‘tibor qaratiladi.

Dedi Gado – O‘lim bu – Ishq sarmoyasi
sarmoyasi
sarmoyasi

Dedi Gado – O‘lim bu – Ishq hamsoyasi
hamsoyasi hamsoyasi...

Ishq tushunchasini bunday talqin qilish zamonaviy adabiyotimizda yangilik edi, chunki tasavvufiy ishq, hajr tushinchalaridan yiroqlashgan edi. Zamonaviy she‘riyatimizning asl o‘zanlaridagi an‘ana va tushunchalarga qaytishi, muayyan masalalarni talqin etishdagi izdoshlik oson va silliq kechmagan.

Bugungi kunda e‘tibordan soqit bo‘lgan hech kim shug‘ullanmay qo‘ygan inson qalbi tarbiyasi tasavvuf ilmining tayanch masalasi bo‘lib kelgan. Ilmi hol vakillari yaralishdan inson tabiati uchun xoc bo‘lgan nafs, kibr, hasad, yolg‘on va g‘iybatga moyillik kabi qator salbiy illatlar insonni tanazzulga etaklaydigan mayda xoyu-havaslardan qutulish yo‘llarini axtarishgan. Tasavvuf ta‘limoti qoldirgan boy merosni o‘rganish, uning bugungi adabiyotdagi ta’siri va holatinin tadqiq etish dolzarb hamda muhimdir

Adabiyotlar

1. Davronova M. Abduvali Qutbiddin she'riyatida tasavvufiy dunyoqarash// SamDU ilmiy axborotnomasi. 2019, № 2. 61-65-betlar.
2. Zebo Mirzo. Nur kukunlari. Toshkent, "Yangi asr avlodi", 2004, 31-bet.
3. Ishoqov Y. Navoiy she'riyati va o'zbek she'riyatida uslublar masalasi // O'zbek tili va adabiyoti, 1990, 5-son, 3-8-betlar.
4. Komilov N. Tasavvuf. Ikkinchi kitob. – Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi nashriyoti, 1993. – B. 208.
5. Qodiriy A. Tanlangan asarlar. – Toshkent, Sharq, 2018. – B. 880.
6. Ulug' Avliyo Shayx Xudoydod Vali. – Toshkent, "O'zbekiston" NMIU, 2017. – B.272.
7. Hayitmetov A. O'zbek adabiyotida xalqchilik tendensiyasi // O'zbek tili va adabiyoti, 1993, 2-son, 5-bet.
8. Haqqul I. Tasavvuf va she'riyati – Toshkent, G'afur G'ulom nashriyoti, 1991. –B 184.
9. Ҳаққул И. Шарқ мумтоз адабиёти ва Ғафар Ғулум ижодиёти// ўзбек тили ва адабиёти. 2018, № 3. 18-23-бетлар.
10. Ҳасанов Ш. Достон таркиби ва табиати. Самарқанд: СамДУ нашри, 2011. – Б.230.

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA NAQSHBANDIYLIK G'OYALARIGA SADOQAT – HALOLLIK VA POKLIK

**Axatova M.S. - Toshkent davlat pedagogika universiteti Shahrisabz filiali
o'qituvchisi, filologiya fanlari nomzodi**

Annotatsiya. Ushbu maqolada Naqshbandiya yo'li va uning axloqiy qoidalariga yuksak ehtiromda bo'lgan A. Navoiyning diniy, falsafiy qarshlari o'rin olgan asarlaridan namunalar o'rin olgan. Navoiyning avliyolar ilmi yoritilgan asarlarida qalbi pok avliyolarning axloqiy, falsafiy, ilohiy tushunchalari keng yoritilgan

Kalit so'zlar: ilohiylik, ma'rifat, insoniy fazilat, ishq ilohiy, ilm-u irfon, najot yo'li, nafsga qarshi kurashish, luqmayi halol (yoki luqma hilliyati), Naqshbandiya tariqati, hadis, hikmat, naqshbandiylik ta'limoti, ijodiyot, jamiyatning axloqi.

ПРЕДАННОСТЬ ИДЕЯМ НАКШБАНДИ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ АЛИШЕРА НАВОИ - ЧЕСТНОСТЬ И ЧИСТОТА

**Ахатова М.С. - преподаватель Шахрисабзского филиала
Ташкентского государственного педагогического университета, кандидат
филологических наук**

Аннотация. В данной статье приведены образцы из произведений, отражающих религиозные, философские взгляды Алишера Навои, который высоко чтит путь Накшбанди и его нравственные правила. В произведениях, выражающих знания святых, широко освещены нравственные, философские, божественные понятия честных святых.

Ключевые слова: божественность, просветление, человеческая добродетель, божественная любовь, знание, путь спасения, борьба с похотью, лукмаи халаяль (или лукма хиллияти), секта Накшбанди, хадисы, мудрость, доктрина Накшбанди, творчество, этика общества.

LOYALTY TO THE IDEAS OF PATTERN IN THE WORKS OF ALISHER NAVOI - HONESTY AND PURITY

**Axatova M.S. - Teacher of Shahrisabz branch of Tashkent State
Pedagogical University, Candidate of Philological Sciences**

Annotation. In this article, A., who has high respect for the Naqshbandi Way and its moral rules. Examples of Navoi's religious and philosophical works are included. The moral, philosophical, and divine notions of pure-hearted saints are widely covered in Navoi's works on the science of saints.

Key words: divinity, enlightenment, human virtue, divine love, knowledge, way of salvation, struggle against lust, luqmai halal (or luqma hilliyati), Naqshbandi sect, hadith, wisdom, Naqshbandi doctrine, creativity, the ethics of society.

Olamda bir daho borki, uning buyuk hikmatli inson ekanligini hamma birday tan oladi! Unda ijodiy qudratning behad bepoyon ekanligini e'tirof etadi! Bu inson - Mutafakkir Alisher Navoiydir!

Mutafakkir inson nafaqat o'z zamonasining savollariga javob topa oladi, balki uzoq kelajakni ham oldindan ko'ra biladi. Alisher Navoiy zamoni bilan bizning davrimizni besh asrdan ortiqroq vaqt dovoni ajratib turadi. Ammo ul zotning ilgari surgan g'oyalari bugungi zamonamiz uchun ham dolzarb, ayniqsa, halollik va poklik g'oyalari o'ta qiymatlidir.

Xo'sh, Navoiyning buyuklik cho'qqisiga chiqishiga qanday omillar sabab bo'lgan?

Ilohiylik! Yorqin ma'rifat bilan yo'g'rilgan insoniy fazilatlar tarannumi! Ishqi ilohiy! Ilmu irfon bilan sug'orilgan aynan halollik va poklik xislati!

Biror makon va zamonda to'g'rilik va halollik deya atalgan fazilat - safo va kimyo mavjud emas ekan, u maqomda asliyat va ezgulik ham yo'q!

Moziyga o'zbek nomi A. Navoiy siymosi bilan birga bitilgan! Millatning naqadar buyukligi A. Navoiy shaxsi bilan mujassam! Har bir o'zbekning, balki olamning ma'rifat xazinasi, har bir ziyoli uchun irfon cho'qqisidir A. Navoiy! Olamni ruhiyat tanazzulidan asraydigan qo'rg'on - u! Bog'i suvaydo bog'boni!

Sharqda tasavvuf – tariqat ilmi nodir ilm sohasi sanaladi. Nafs bilan kurashmoq. Tasavvuf ilmi avliyolar (komil inson) ilmi, ayrim farqli jihatlarini hisobga olmaganda bu mistika – sofistika degani. Tasavvufning poydevori islomdir.

O'zbekiston hududida qadimdan Yassaviya, Kubraviya, Naqshbandiya tariqatlari keng tarqalgan. Shularning ichida oxirgi yuzaga kelgan tariqat Naqshbandiya sanaladi. **“Naqshband”** «Alloh lafzining yurakda naqshlangani» ma'nosidadir [4].

A. Navoiy - naqshbandiya tariqati vakili va u valiy zot! Uning ijodiyoti ilohiy ma'rifatga cho'lg'angan! Shu sababdan quyida tariqat olami haqida kengroq to'xtalish joizdir.

Payg'ambar (a.s.) xulqlari bilan sevikli bo'lganlar. Xalq ko'ngliga yaqin bo'lgan Naqshbandiya tariqatida pok xulq masalasiga urg'u beriladi. Unga ko'ra, iymon bu toza axloqdir.

Ayonki, Ahmad Yassaviy ta'limotida tarkidunyochilik, Kubraviyada bag'rikenglik bo'rtib tursa, Bahovuddin Naqshband Allohga yaqinlashishning yanada afzal yo'lini tavsiya etgan. Bajarilgan xayrli ishlardan ham insonning o'ziga, ham boshqalarga ham amaliy naf tegsin. U xalq manfaati yo'lida jon koyitishga, uning hayot yukini o'z zimmasiga olishga chaqiradi. Naqshbandiyaga ko'ra, “xalq yukin ko'tarmak kerak”. Agar odam bu ishga qodir bo'lmasa, o'z yukini el ustiga tashlamay, halol mehnat bilan kun ko'rishi lozim.

Oisha raziyallohu anho aytadilar: **“Kimki tinimsiz ibodatda bo'lgan kishidan o'zib ketmoqchi bo'lsa, gunohlardan tiyilsin”**. Demak, ma'siyatlardan saqlanish, halol yashash toat-ibodatlarini bajo keltirishdan muqaddam turar ekan [1].

Najot yo'li nafsga qarshi kurashish va uni xarom-harishdan tiyish, halollik va poklikda ko'rinadi. Buning savobi ham vojibotlarni bajarish orqali erishilajak ajru mukofotdan ko'proq bo'ladi. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam dedilar: **“Harom narsalardan tiyiling - eng ibodatli kishi bo'lasiz”**. (Termiziy rivoyati).

Luqmai halol (yoki **luqma hilliyati**) qoidasiga rioya etish Naqshbandiya tariqatining asosiy shartidir. XV asrda yashagan naqshbandiylik tariqati vakili Xoja Ahror Valiy Hazratlari **“iymon o'n qismdan iborat bo'lsa, undan bir qismigina**

ibodat, qolgan to‘qqiz qismi esa luqmai halol, ya’ni o‘z mehnating bilan topilgan mahsulotning hisobiga yashash” deya ta’lim beradi.

Halollikni targ‘ib etuvchi mazkur hadis va hikmatlar naqshbandiylik ta’limoti va A. Navoiy ijodiyotini botinan quvvatlantirib, yorqinlantirib turadigan suvli chashma yanglig‘!

Tasavvuf ilmida Alloh zikrining oshkor (jahriy) va yashirin (xafiy) ko‘rinishlari mavjud. O‘z navbatida shirin zikrning ham bir ko‘rinishi bor – tanaga zarb bermaslik va ayni paytda til ham qimirlamasdan zikrni yo yurak, yo ko‘krak o‘rta qismi, yo bug‘iz, yoki tananing boshqa bir qismidan talaffuz qilish kerak. Bu esa nihoyatda murakkab. Mana shunday zikr bilan mashg‘ul bo‘lish inson ongu shuuri, ruhiyati poklanishining eng samarali usuli. Naqshbandiylikning murakkabligini yashirin zikrning mana shu shakliga muqoyasa qilish mumkin. Bu yo‘lda botiniy poklikning tom ma’noda mavjud bo‘lishi eng muhimi sanaladi. Kichik olamda bo‘layotgan g‘alayonlarni hech bir ko‘rinishda katta olamga sezdirmaslik uning asosiy belgisidir.

Naqshbandiylikning «**Xilvat dar anjuman**» («Xilvatni anjumanda qilish») shartiga muvofiq A. Navoiy asarlari mulohazasiga ko‘ra tog‘dagi g‘orga kirib jamiyatdan uzoqlashib toat-ibodat bilan shug‘ullanish juda oson. Lekin insonlar ichida xilvatda bo‘lish bu – mashaqqatli! Ularning dardu tashvishini ko‘tarish, nodonlik balosining ortidan keladigan zahmatlarga bardoshli, kechirimli bo‘lish mushkul! Jamiyatda, ya’ni anjumanda odamning sabri sinaladi. Bu yo‘lda inson g‘oyatda halol va ko‘ngli pok bo‘lishi lozim. Tuproqqa qorishgan olmos o‘z qiymatini yo‘qotmaganidek, toza qalb ham insonlararo sofligini saqlab qolishi kerak. Bu yo‘l - murakkab yo‘l.

Naqshbandiylikning mukammalligi uning shartlari bir vaqtning o‘zida ham murakkablik, mashaqqat, ham oddiylikning ustiga qurilganidadir. Uning xalqchilligida hamdir...

Ulug‘ A. Navoiy asarlarida mana shu kabi naqshbandiylikning shartlariga sodiq qoladi.

Shoir asarlariga ko‘ra, inju kabi sof bo‘lmoq ilmu irfon qaymog‘i!

Ma’rifat – halollik, soflik! Hur ruh vujudga ozodlikni - kibrdan, mahdudlikdan poklanishni inom qiladi! Gunohlardan arinishga da’vat etadi!

A. Navoiyning irfoniy mazmundagi she’rlarida qalbi hurlik va halollikka ilhaq orifu - siddiqlarning axloqiy, falsafiy, ilohiy tushunchalari keng yoritilgandir. Shuning uchun ham: poklik, ozodlik maqomi, poklik, poklanish iztiroblari, soflik, xulqni poklash, botiniy poklanish, axloqiy erk, axloq tozaligi, tavba suvi, komilu pokboz, ichki hurlik, pok vasl, toza e’tiqod, ozodlik libosi, hur ruh kabi tushunchalar shoirning tasavvufiy poetikasini tubdan nurlantirib turadi [3;].

A. Navoiy asarlarida halollik sifati yuksak pardalarda tarannum etilgan. Shoirning halol bo‘lmoq xususidagi mulohazalarini ijodining bir qancha o‘rinlarida uchratish, bu xususda necha-necha asarlar bitish mumkin.

A. Navoiyning “Mahbub ul-qulub” («Ko‘ngillarning sevgani») asarining uchinchi qismi «Har xil foydali maslahatlar va misollar (hikmatlar, tanbehlar)» deb ataladi va 109-tanbehoda “odamlarning yaxshisi kim?” deya so‘raladi. Javoban: “Odamlarning yaxshisi taqvor va pok bo‘lg‘ay. U haq so‘zni aytishda hech narsadan qo‘rqmagay. O‘zi pok va ko‘zi pokni inson desa bo‘lg‘ay. Tili pok va ko‘ngli pokni musulmon desa bo‘ladi”[2], - deyilgan.

Bundan tashqari shoir asarlarida halollik g‘oyasi yoritilgan quyidagi fikrlari keltirish mumkin:

“Nazari to‘g‘ri odam to‘g‘ri, pokiza kishi bo‘ladi”.

“Kimning qo‘li egri bo‘lsa, u o‘g‘ridir. Qo‘l egrilikka moyil bo‘lsa, uni kesibgina to‘g‘rilash mumkin”.

“Quyosh jim turgan suvda to‘g‘ri aks ko‘rsatsa, suv qo‘zg‘olsa, egri ko‘rsatadi”. “Sulukka kirganga piri murshid zarur ekanidan murod shuki, insonning vujud mamlakatini poklamoqdir”.

“Halollik bilan qilinmagan ish yaxshi bo‘lmas, ip kalavasi hasa bo‘lmas” [2;]va boshqalar.

Bugun bunyodkor va oliyjanob xalqimiz yangi va yuksak marralarni ko‘zlab yashamoqda. Jonajon Vatanimiz taraqqiyotning yangi bosqichi sari dadil odimlamoqda. Ana shunday tarixiy davrda shunday oliy maqsad bilan yashayotgan ekanmiz, Hazrat Alisher Navoiy siymosini yangicha qarashlar asosida o‘rganishimiz lozimdir. Davlatimiz rahbarining ziyolilar bilan uchrashuvlarida bot-bot Alisher Navoiyning muborak nomini tilga olayotgani, bebaho ijodiyotini o‘rganishga da‘vat etayotgani zamirida ham ulug‘ shoirning bugunimiz uchun havodek zarur bo‘lgan o‘gitlaridan samarali foydalanish, uni, ayniqsa yoshlar qalbi-shuuriga singdirish tashabbusi mujassamdir. Ulug‘ bobomizning 579 yillik sanasi yurtimiz va jahonda keng miqyosda nishonlandi.

“Davlat xizmatchilari xalqqa xizmat qilishi kerak, bilaks emas”. Mana prezidentimiz tomonidan mamlakatda joriy etilgan ajoyib tamoyil. Unga ko‘ra, davlat xizmatchilarining barchasi lavozimidan qat‘iy nazar xalq ichida bo‘ladi. Har bir xonadonga kirib borib fuqaroning oddiydan to yirik muammosigacha o‘rganadi, uni hal qilishga ko‘mak beradi. Shu insonning masalasi echilmagunicha tinchimaydi. Bu uning elkasiga qo‘yilgan katta majburiyat. Shu yo‘lda juda halol, qat‘iyatli, bardoshli, ma’suliyatli, ba’zan xalqning o‘zidan keladigan dilxiraliklarga ham chidamli bo‘lishi, sabrli bo‘lib chiroyli muomala, yordam ko‘rsata olishga, shu zaylda ishida davom etaverishga kuchi etadigan bo‘lishi kerak. Shaxsning o‘z-o‘zini tarbiya qilishi, ma’naviyatini, xulqini boyitishi, o‘zligiga nisbatan mujohada ko‘rsatishi degani bu.

Bu yoʻlda oʻzini, nafsini sindirishi, yomon illatlardan qutilishi kerak u. Buning uchun chin maʼnoda naqshbandiy boʻlish kerak. A. Navoiydek pok qalbli boʻlish lozim. Bizda maʼnaviy mujohada, naqshbandiylikka xos ish koʻrish mana shunday joydan qidiriladi.

Jamoat manfaatlariga xizmat etish savob ish deb hisoblangan, halol mehnat bilan yashashni shart qilib qoʻyuvchi Naqshbandiya tariqati, uning axloqiy qoidalari bugun ham shaxsiyatparastlik va xudbinlik xastaligiga shifo boʻlishi shubhasiz. Bahovaddin Naqshband **“Dil ba yoru, dast ba kor”** (“Diling Xudoda, qoʻling ishda boʻlsin”) deb iymonga va bunyodkorlikka chaqiradi. Naqshbandiya tariqati – qalbi Alloh nuri bilan yoritilgan va qoʻllari bunyodkorlik bilan band insonlar mafkurasidir. Shu mafkurani mujassamlashtirgan Naqshbandning taʼlimoti. Bunday tiniq chashmadan suv ichgan A. Navoiy asarlari jamiyatning axloqida uning ajralmas qismi boʻlib qolishi kerak.

Alloh yaratgan xos odamlarning tanlagan mushkulotsiz yoʻli - ilmi irfon, mujohadai akbar yoʻli. Darhaqiqat, ular uchun bu yoʻlda mashaqqat yoʻq.

Biz shunday ogʻir yoʻlni oson va afzal bilgan ajdodlar merosxoʻrlarimiz!

Umuminsoniy maʼrifat, falsafa va ishq, asllikka intilish va oʻzlikni anglash, tasavvuf va Naqshbandiya gʻoyalarini oʻz sheʼriyatida aks ettira olgan Alisher Navoiydek ulugʻ shoir shaxsini anglash va singdirishga bugun ham bashariyat shuurida ulkan muhtojlik mavjud. Ayniqsa, shoir ijodiyotida yoritilgan halollik va poklik tuygʻusi insoniy, axloqiy gʻoyalar tobora tark etib borayotgan jamiyatlar uchun najot farishtasidek gap! Shunday ekan, bu kabi yorqin xulosalarga kelayotgan maʼrifatli dunyo borgan sari Navoiyning tamoman maftuni! Demak, dunyoni johillikdan Navoiyning xazinasini asraydi!

Adabiyotlar

1. Shayx Najmiddin Kubro. Tasavvufiy hayot. – T.: Movarounnahr, 2004, B-60-61.
2. Navoiy A. Mahbub ul-qulub (Koʻngillarning sevgani). – T.: Movarounnahr, 2011.
3. Navoiy asarlari uchun qisqacha lugʻat. (Tuzuvchi: fil. fan. dok. B. Hasanov). T.: Fan, 1993. – B. 262.
4. Uludogʻ S. Tasavvuf teremleri soʻzluku. – Ist., 1995. – B. 604.
5. Шамсиев П. Ўзбек классик адабиёти асарлари учун қисқача луғат. – Т.: ЎзССР фанлар акад.нашр, 1953. – В. 452.

KOʻNGIL ILTIJOLARI

Norboboyeva M.T.- Toshkent davlat pedagogika universiteti Shahrisabz filiali oʻqituvchisi

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada Oydinniso she'rlaridagi inson ruhiy kechinmalarini kuzatish, badiiy talqin etish tadqiqot ob'yekti sifatida o'rganilgan. Shoir she'rlariga xos xususiyatlar badiiy tahlilga tortilgan, inson ruhiy iztiroblari, lirik his-tuyg'ulari, insoniy kechinmalar tahlili o'z ifodasini topgan.

Key words: yangi o'zbek she'riyati, she'r, badiiy kashfiyot, iztirob, lirik tuyg'ular, ruhiy kechinma

ДУШЕВНАЯ МОЛЬБА

**Норбобоева М.Т.- преподаватель Шахрисабзского филиала
Ташкентского государственного педагогического университета**

Аннотация. В данной научной статье наблюдение духовных переживаний человека в стихах Айдыннисо, художественная интерпретация изучаются как объект исследования. Особенности стихов поэтессы находят отражение в художественном анализе, анализе душевных переживаний человека, лирических переживаний, человеческих переживаний.

Ключевые слова: новая узбекская поэзия, поэзия, художественное открытие, страдание, лирические переживания, духовный опыт.

REQUEST OF SOUL

**Norboboyeva M.T.-teacher of shahrisabz branch of Tashkent state
pedagogical university**

Annotation. In this scientific article, the observation of human spiritual experiences in the poems of Aydinniso, the artistic interpretation is studied as an object of research. The peculiarities of the poet's poems are reflected in the artistic analysis, the analysis of human mental anguish, lyrical feelings, human experiences.

Key words: new Uzbek poetry, poetry, artistic discovery, suffering, lyrical feelings, spiritual experience.

She'riyat ibtido, she'riyat oxir. deganida Rauf Parfi haq edi. She'riyat qalb yaralarini, xotira siniqlarini, ko'ngil sirlarini oshkor etuvchi ko'zgudir. Dunyo yaralibdiki, she'r ne-ne insonlar qalbining nozik torlarini chertmadi ekan.

Oydinniso she'riyatga o'zining nozik, biroq jur'atli tuyg'ulari, ehtirolari bilan kirib keldi. 2003-yilda nashr etilgan "Mensizlik" to'plamida shoiraning mavhum sirlariga oshno bo'ldik. 2010-yilda kitobxonlarga taqdim etilgan "Qaytish" to'plami esa o'quvchini ko'ngliga, o'zligiga qaytishga undaydi, ruhini uyg'otadi. Shoiraning "Mensizlik" to'plamidagi she'rlari ichki lirik kechinmalarning aksidir, "Qaytish" to'plamidagi she'rlaridan shoiraning biroz ulg'ayganligini sezish qiyin

emas. Bundan ayon bo‘ladiki, tuyg‘ular ham, dardlar ham ulg‘ayadi. “Qaytish” nomi Rauf Parfini eslatgani kabi jur‘atilik ham raufona.

Ushbu kitobida shoiraning yurak urishi, nafas olishi sezilmasdan iloji yo‘q. Sababi shoira she‘rlaridagi dard ohangi nihoyatda yurakka yaqin. Zero, Bahrom Ro‘zimuhammad Oydinniso haqida shunday deydi: “Shoira o‘z qismatini og‘rinmay qarshi olarkan, dardu iztiroblarini boricha qog‘ozga to‘kishdan cho‘chimaydi”[1; 4-b.]. Oydinnisoning ushbu she‘riy to‘plamida ko‘ngilga murojaat, o‘zlikka qaytish asosiy o‘rinda bo‘lsa-da, tabiat lirikasi, hayot falsafasi ham teran tasvirlangan.

Shoira ko‘ngil ifodalarini qog‘ozga to‘karkan, tabiatdan, hayotdan hech kim topa olmagan go‘zalliklarni topa oladi. “Xijolatdan qizardi havo singiblar ketgisi keldi ismingga. Singiblar ketgisi keldi, to‘kib qo‘ydi u ismingning ohorlarini” (1; 111-bet).

Oydinniso she‘rlarida kutilmagan obrazlilik mavjud. Shoiraning “Ko‘zguda ko‘rinmas yurakning yuzi”, “Baxtni kutib nurayotgan ko‘z”, “Ko‘zsiz yig‘lab yotar qafasda kuyuk, Og‘izsiz kulmoqda qafasda ohor”, “Yirtib tashladim men tabassumingni”, “Shamol ajin soldi hayot yuziga”[2] kabi obrazli harakatlarni kashf etishi, uning tafakkur dunyosi kengligidan, didi nozikligidan dalolat.

Oydinniso she‘rlarida boshqa ijodkorlarda takrorlanmaydigan chiroyli tashbehlar bor.

Yaqinroq surilasan
yurak tomonga,
Qaraysan ko‘ksingga
ko‘zingni qadab.

Ingrab jon beradi
sirpanchiq muzda
Yiqilib boshini yorgan iztirob (1; 80-b.).

Tashbehning go‘zal va betakrorligini qarang: “Ingrab jon beradi sirpanchiq muzda Yiqilib boshini yorgan iztirob”. Oshiqni ezayotgan, ichini kemirayotgan iztirobni shoira naqadar go‘zal va beshafqat o‘ldirmoqda, avval muzga yiqitib, iztirobga azob berib o‘limga mahkum etmoqda.

Yana bir o‘rinda shoira “...Tashlab ketay deyman umrimning barin. Tinglab, kelajakni titkilab qaytgan Tushlarimning hansirashlarin” deydi. Tushlarning hansirashi bu hech kimning xayoliga kelmagan o‘xshatish bo‘lib, shoira mavhum tuyg‘ularga jon baxsh etmoqda.

Oy, yulduz
go‘yoki ko‘zingga ekilgan.
Yer chiqadi nigohingga osilib –
Qo‘ynidagi butun lash-lushi bilan (1; 20-bet).

Oyni go‘zalning yuziga, yulduzni ko‘ziga o‘xshatish she‘riyatda avvaldan ma‘lum edi, biroq shoira “oy, yulduzni go‘zalning ko‘ziga ekilgan”ligini aytib yangi badiiylik kashf etmoqda. Yana bir satrga e‘tibor qarataylik:

Suratingni
yirtib tashladim.
Yirtib tashladim men
Tabassumingni... (24-bet).

Suratni yirtishni aql qabul qiladi, shoiraning mahoratini qarangi, tabassumni ham yirtishga tutinadi. Ya‘ni suvrat bilan birga uning tabassumi ham yirtilayotganiga ishora qiladi. Go‘yoki suvratini yirtish bilan qaytib Uning tabassumini ko‘rmaydiganday tutadi o‘zini. Suratda muhrlangan tabassum hayotda qayta takrorlanmasligini istaydi shoira. Bunday betakror satrlar faqat Oydinnisoga xos.

Oy dunyoga go‘zal ko‘rinmoq uchun
Ko‘lni ko‘zgu qilib oldi o‘ziga.
Oy qolib ko‘zguni o‘pdi
Majnuntol (1;108-b.).

Shoironing tabiat go‘zaligini sof tuyg‘ular bilan chizishi kishini hayratga soladi. Oyning aksi shu qadar go‘zalligidan majnuntolning ko‘zguni o‘pishi aslida egik qomati osmondagi oyga yeta olmaganidan ko‘lni, ko‘zguni o‘pishi haqiqatga yaqindir. Bu satrlarda ham shoironing sirli go‘zallikka oshuftaligi namoyon.

Ketaverdim havolarga qoqilib.
Ketaverdim,
havolar yeb qo‘ydi izimni.
Havolar yeb qo‘ydi, tushunyapsizmi,
tovonimga yuragim joylab
qonlar tirqiratib bosgan izimni! (1; 109-b.)

Satrlarga singib ketgan dard – qarang, “yurakni tovonga joylab qo‘yish”, aslida o‘zi ezilayotgan, qiynalayotgan yurak tovon ostida yanada ezilishga, qiynalishga mahkum. Yurakdan oqayotgan qonlar, izlarni havolar yeb qo‘yishi bunday o‘xshatishlar haqiqiy iste‘doddan darak beradi.

Oydinnisoning “Qoralama” to‘plamidagi she‘rlarga e‘tiborimizni qaratsak, unga kiritilgan she‘rlarda shoironing ruhan uyg‘oqligini, tuyg‘ularining yanada ulg‘ayganligini anglaymiz. Shoironing sezimlaridagi noziklikni o‘quvchining his qilishi biz uchun muhim hodisa.

Men – buyuk telbaman!
Qirg‘og‘idan toshgan dengizday,
Ortib qolganman o‘zim-o‘zimdan.
Ko‘pirib qahqaha otyapman, qarang,
Yig‘layapman o‘kirib-o‘kirib,

Bo‘rondayin isyon ko‘tarayapman.
Aldayapti demang, ranjimang sira,
Shunday o‘zi... men buyuk telba,
Kulgim, yig‘im, isyonim – jimlik!

Birinchi uchlikdan shoiraning ruhiyatini anglashga harakat qilsak, parchada sezimlarning kuchi buyukligiga iqror bo‘lamiz. Inson shunday ruhiy tushkunlikka tushganki, o‘zini telba hisoblaydi, dengiz qirg‘og‘idan qanday toshgan bo‘lsa, uning telbaligi haddan oshgan, “Ortib qolganman o‘zim-o‘zimdan” jumlasini his qilib ko‘ring, inson o‘zidan-o‘zi ortib qolishi mumkinmi, bu aqlga sig‘adigan hodisami? – mana sizga insonning o‘jizligi, insoniy kechimlarning betartibli-yu, chegarasizligi.

Keyingi satrlar diqqatimizni tortadi, inson gohida alamidan bo‘kirgisi keladi, bo‘g‘ziga shunday achchiq alam tiqiladiki, uni o‘zgalarga oshkor etib bo‘lmaydi, bo‘kirayotgani, bo‘g‘zidagi hayqiriq jimlik orqali namoyish etilishini shoira go‘zal ifodalar bilan o‘quvchiga yuqtiryapti, nozik chizgilarga ko‘chiryapti.

Nimani axtarib kirdim bu yo‘lga?
Ko‘zim to‘q, ko‘nglim to‘q... turibman.
Hamma-hamma narsa bor edi menda,
Hoynahoy, ochlikni izlab yuribman.

Shoiraning mana bu satrlari haqida o‘ylab ko‘raylik, inson hayotdan nima izlaydi, axir, hamma narsaga erishgan bo‘lsa, hayotning oxirini izlay boshlamaydimi, hech narsaning qiziqishi qolmaydi unda, demak, shunday lahzalar sinovidan o‘ta olmagan inson qing‘ir yo‘lga kirishni to‘sab qoladi. Shoira buni jonli chizgilarda aks ettiradi.

O‘ylar toshqinini birma-bir to‘kib,
Men raqsga tushaman, qolgani ro‘yo.
Men raqsga tushaman dunyoni tepib,
Mendan shafqat so‘rar beshafqat dunyo.

Shoiraning nafasini his qilyapsizmi, dunyoning barcha g‘am-qayg‘usini unutilib raqsga tushyapti, dunyoni shunday tepib raqsga tushyaptiki, dunyo ham shoiradan shafqat tilayapti. She‘riyatda yangi qarash, yangi yurishlar Oydinniso ijodida namoyon.

Balki bu g‘alati tuyuldi, dersiz, Suv qilib ichganman yashash – ko‘nishni.
Yiqilganda qaytib turishni emas, Yiqilib yotib ham xandon kulishni.

Shoira o‘quvchiga she‘r orqali yiqilganda ham qotib kulishni tuydirmoqda.
Yashash zavqini his qilishni o‘rgatmoqda. Bu she‘riy satrlardan mana shunday lirik kechinmalarni his qilishimiz mumkin.

Adabiyotshunos M.Yo‘ldosheva shoira haqida “Oydinniso o‘zbek adabiy tiliga “kulgishakl”, “yig‘ishakl”, “o‘kinchshakl” kabi yangi so‘zlar qo‘shdi. Balki bu so‘zlar umuman iste‘molga kirmas, ammo o‘quvchiga o‘z va o‘zgalar kechinmalarini

tushunish, tushuntirishning yangi vositasi bo‘lib xizmat qilishi shubhasiz. Kulgishakl yoki o‘kinchshakl libosini kiygan tasavvurni tasavvur qilib ko‘ring-a? Demak, shoiraning quvonchi, huzuni, qah-qahasiyu alami chin bo‘lmagan ekan. Barchasi xayolot mahsuli ekan. Unda qaysi tuyg‘u haqiqiy? Yo barchasi nihon, yurakka ko‘milganmi?[3;]” – deb ta’kidlaydi.

Oydinniso Yo‘ldosheva o‘z nafasi bilan she’riyatga kirib kelgan shoiralardan. Uning she’rlaridagi obrazlarning betartib harakati, hissiyotlarning beboshligi, ayniqsa, mavhum tuyg‘ularning jonli harakati, shoiraning yangi o‘zbek she’riyatida o‘z nafasi borligini ifodalaydi. Shoiraning dardi qog‘ozga to‘kilarkan vujudni titratadi, o‘quvchini o‘z izmiga soladi, dardni tanda his qilishga o‘rgatadi, go‘yoki o‘quvchining dardi bo‘lib qoladi. U.Hamdam shunday degan edi: “Chinakam shoir she’r yozayin deb emas, balki bag‘ridagi olov shashtini pasaytirayin deb, chorasizlikdan qo‘l uradi bu ishga”[4;]. Oydinniso ham o‘zi istab emas, yurak amri ila yozganligi uning har bir satridan ayon. Shoiraning qalbidagi dardlar uyumini har bir satr yemirib borayotganga, uning cho‘g‘ini kamaytirayotganga o‘xshaydi. Biroq bu lag‘cha cho‘g‘ yanada yolqinlanib yangi satr yozishga undaydi go‘yo. Shoir ahli dard ila tirik, Oydinnisoni shu dard, she’r dardi tark etmasin.

Adabiyotlar

1. Oydinniso. Qaytish . –T.: 2010. –B. 20, 24, 108, 109 .
2. Oydinniso. Qoralama. –T.: 2020. –B.
3. M.Yo‘ldosh. Yasha meni, olam. Maqola. Yoshlik, 4-son, 2012.
4. U.Hamdam. Yangilanish ehtiyoji. –T.: Fan, 2007.

ВЕЧНОЕ НАСЛЕДИЕ НАВОИ

**Джалилова Д.С.- преподаватель Шахрисабзского филиала
Ташкентского государственного педагогического университета**

Аннотация. Статья посвящается литературному и духовному наследию государственного деятеля, основателя литературного языка Алишера Навои. Отмечаются наследие Наваи, поэзия, выражающая идеи гуманизма, воздействуют не только на развитие узбекской литературы, но и на литературу других тюркских языков.

Ключевые слова: государственный деятель, духовное наследие, общечеловеческие ценности, политический деятель.

THE ETERNAL HERITAGE OF NAVOI

Jalilova D.S. - teacher of the Shakhrisabz branch of the Tashkent State Pedagogical University

Annotation. The article is devoted to the creative activity of the statesman, the founder of the literary language, the literary and spiritual heritage of Alisher Navoi. Highlighted the humanistic poetry of Navoi, heritage, influence on the development of not only Uzbek but also other Turkic-language kinds of literature.

Key words: statesman, spiritual heritage, universal values, literary deeds, politician.

NAVOIYNING ABADIY MEROSI

Jalilova D.S. - Toshkent davlat pedagogika universiteti Shahrisabz filiali o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada davlat arbobi, o'zbek adabiy tilning asoschisi, Alisher Navoiyning adabiy va ma'naviy merosiga bag'ishlangan. Navoiyning merosi, insonparvarlik g'oyalari yo'g'rilgan she'riyati, nafaqat o'zbek, balki boshqa turkiy tillar adabiyoti rivojiga ta'siri ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: davlat arbobi, ma'naviy meros, umumbashariy qadriyatlar, adabiy ishlar, siyosatchi.

Алишер Навои - гуманист, мыслитель, государственный деятель, основатель узбекского литературного языка, оставивший потомкам богатое литературно-духовное наследие. Его имя - это символ прогресса своей эпохи для народов всего мира.

Я славлю жемчуг слова! Ведь оно
Жемчужицею сердца рождено.
Четыре перла мирозданья - в нем.
Всех звёзд семи небес блистанье - в нём.

* * *

С булатным ты язык сравнил клинком,
С алмазным слово я сравню сверлом.
Речь - лепесток тюльпана в цветнике,
Слова же - капли рос на лепестке.

Думается, в этих прекрасных словах и заключается главная задача, которая стоит сегодня перед преподавателями нашей республики: помочь подрастающим поколениям овладеть искусством слова. О творчестве А. Навои высказывались не только современники А. Навои, но и другие поэты и

писатели. К примеру, известный азербайджанский поэт Физули признавал Алишера Навои царем стиха, учился у него мастерству слова.

Кишвари в XVI веке свидетельствовал, что величие и благородство творчества Навои дружески сблизили народы земли.

Великий Абай причислил его к самым первым поэтам Востока. Каракалпакский классик Бердах назвал его в своих стихах владыкой мысли. Все выдающиеся поэты Востока называли его своим учителем и наставником. А мы, потомки Алишера Навои, гордимся его бессмертным творчеством, потому что оно учит мудрости жизни, призывает к добру и торжеству просвещения. Любовь к родному языку, к родине, чувство осознания его безмерного богатства и величия формируются в нас, прежде всего, благодаря произведениям предков. Чем больше наш народ, молодежь будут приобщаться к этому бесценному наследию, тем успешнее будет процесс формирования добрых гуманистических качеств в обществе. Это играет важную роль в воспитании подрастающего поколения в духе патриотизма, самоотверженности, ощущении причастности к судьбе Родины. Бесценное творческое наследие великого поэта и мыслителя, выдающегося государственного и общественного деятеля Алишера Навои имеет особое значение в истории развития не только узбекской, но и мировой литературы, национальной культуры и литературно-эстетических мировоззрений нашего народа. В своих бессмертных произведениях он воспевал высокие идеалы гуманизма и общечеловеческие ценности, используя огромные возможности, богатство и красоту родного языка, и прочно занял достойное место в сердцах миллионов читателей. Алишер Навои был первым выдающимся поэтом, открывшим миру красочный, необычайно образный мир узбекского языка, его богатство и изящность. Этот мир был запечатлен в немалом наследии поэта и мыслителя – почти 30 поэтических сборниках, крупных поэмах, прозе, научных трактатах.

1. Как поэт, Навои проявил себя уже в 15 лет, причем писал он одинаково хорошо как на фарси, так и на тюркском.

2. С юных лет Алишер воспитывался вместе с детьми тимуридских семей, особенно он дружил с Хусейном Байкарой, который впоследствии стал главой Хорасанского государства.

3. Поэт вел аскетическое существование, никогда не был женат и не имел наложниц.

4. Несомненным вкладом Алишера Навои в литературную деятельность своего времени, было введение староузбекского языка, наряду с фарси, в творчество литераторов.

5. По инициативе Навои в Герате было развернуто масштабное строительство. На берегу городского канала Инджил построили общественный научно-просветительский комплекс: библиотека, медресе, ханака, больница.

6. Сулейман Великолепный высоко ценил творчество Навои и имел в своей библиотеке манускрипты с его произведениями «Сокровищница мыслей», «Пятёрица» и «Спор двух языков»

7. В мире есть несколько памятников Алишеру Навои: в Москве, Навои, Оше, Ташкенте, Самарканде, Баку, Токио и Шанхае. В планах — установка памятника поэту в Вашингтоне.

8. В 2009 году Кратер на Меркурии был назван в честь Алишера Навои.

9. В 1991 году к 550-летию поэта был выпущен советский юбилейный рубль с изображением Алишера Навои.

10. В городе Мазари-Шариф в Северном Афганистане установлен барельеф в честь Алишера Навои.

Всю свою жизнь Алишер Навои комбинировал литературные деяния с политическими. Будучи человеком высокого положения, он внес значительный вклад в усовершенствование социально-экономической жизни страны; покровительство науки, искусства, и литературы; всегда пытался установить мир и гармонию. Как видим, наследие Навои по тематике и по жанру разнообразно. Его произведения с XV и по сей день служат развитию узбекской литературы. Веками его произведения являлись объектом подражания и воодушевления.

Убеждённый гуманист, борец против средневекового деспотизма и произвола, Навои выступал защитником народа перед султаном и решал дела в пользу несправедливо обиженных.

Прогрессивные позиции Навои вызвали недовольство при дворе. В 1487 году Навои был сослан в отдалённую провинцию Астрабад в качестве правителя. Крах надежд на возможность политического переустройства страны и установления мира в государстве, раздираемом усобицами Тимуридов, вынудили Навои оставить службу. Вернувшись в Герат в 1488 году, конец жизни Алишер Навои провёл в усиленной творческой работе.

Гуманистическая поэзия Навои многогранна, наследие его обширно. Он оказал влияние на развитие не только узбекской, но и других тюркоязычных литератур.

Яркая фигура Навои, художественная сила его поэзии вызвали большой интерес востоковедов. Возникла особая область научных изысканий — навоиведение. Поэмы Навои переведены на многие языки. Его рукописи хранятся в крупнейших библиотеках мира (в России, Англии, Турции, Иране и других странах). Навои не считает человеком того, кто не живет заботами о

народе. Сам он на протяжении всей своей жизни следовал этому рекрасному, гуманному принципу. Алишер Навои был не только поэтом, но и великим государственным деятелем. Вновь и вновь оглядываясь в историю, можем с уверенностью сказать, что лишь доброта и забота Навои, как наставника детей Хусейна Байкары, могли бы на самом деле послужить основой для новых произведений. Бесценными являются творения великого Мир Алишера Навои. Он был не только поэтом, но и мудрым политическим деятелем, крупнейшим ученым и меценатом, великим мыслителем, музыкантом, художником. Основа творчества лирики Навои — размышления о человеке. Но человек у Навои не абстрактное существо, а носитель порока или добродетели. Пороки бичевали почти все поэты восточного средневековья. Нетерпимость к человеческим недостаткам исходила из глубокого гуманизма служителей музыки, стремления их помочь людям.

Литература

1. Абдуллаев В. Навои в Самарканде.- Самарканд, 1941.
2. Бертельс Е.Э. Навои. Опыт творческой биографии.- М.;Л., 1948.
3. Бертельс Е.Э. Избр. труды. Навои и Джами.- М., 1965.
4. Бертельс, Е.Э. Навои и Аттор // Суфизм и суфийская литература. М.: Наука 1965, с. 377-420.
5. Болдырев А.Н. Персидские переводы «Маджалис ан-Нафаис» Навои // Учёные записки ЛГУ.- Л., 1952.- Сер. 128.- Вып. 3.

INNOVATSION FAOLLIK JARAYONIDA PEDAGOGIK- PSIXOLOGIK INTEGRATSIYA MEXANIZMINI SHAKLLANTIRISH USULLARI

**Sirojiddinova I.M.- Andijon mashinasozlik instituti
kafedra mudiri, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)**

Аннотация. Ushbu maqolada pedagogika va psixologiya sohalarida integratsiyalashning zamonaviy asosda talqin etish, innovatsion ta'limning ilm-fan, jamiyat, millat va davlatning kelajagini belgilab beradigan, uning taraqqiyotiga xizmat qiladigan muhim omili sifatida psixologik-pedagogik mexanizmini ishlab chiqish masalalari haqida fikrlar bayon etilgan

Калит so'zlar: integratsiya, ta'lim sifati, innovatsiya, motivatsiya, ta'lim-tarbiya, iqtisod.

**МЕТОДЫ ФОРМИРОВАНИЯ МЕХАНИЗМА ПСИХОЛОГО-
ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ИНТЕГРАЦИИ В ПРОЦЕССЕ
ИННОВАЦИОННОЙ АКТИВНОСТИ**

Сирожиддинова И.М. - Андижанский машиностроительный институт, заведующий кафедрой, доктор философских наук по педагогике(PhD)

Аннотации. В статье рассматриваются вопросы современной трактовки интеграции педагогики и психологии, разработки психолого-педагогического механизма инновационного образования как важного фактора, определяющего будущее науки, нации и государства и его развитие.

Ключевые слова: интеграция, качество образования, инновации, мотивация, образование, воспитание, экономика.

**METHODS OF FORMATION OF THE MECHANISM OF
PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL INTEGRATION IN THE
PROCESS OF INTEGRATIVE ACTIVITY**

**Sirojiddinova I.M - Andijan Institute of Mechanical Engineering
Head of the Department, Doctor of Philosophy in Pedagogy (Ph.D.)**

Annotation. This article discusses the issues of modern interpretation of the integration of pedagogy and psychology, the development of psychological and pedagogical mechanisms of innovative education as an important factor in determining the future of science, nation, and state, serving its development

Key words: integration, quality of education, innovations, motivation, education, upbringing, economics.

Bizning mamlakatiimizda pedagogik innovatsiyani yaratilishi va rivojlanishi natijasida keng jamoatchi pedagoglar harakatiga, maktablarning tez rivojlanishiga, moderinizatsiya qilinishiga, standartlarni takomillashtirilishiga va dasturlarni yangilanishiga katta ehtiyoj tug'ildi. Bundan tashqari dars va darsdan tashqari jarayonlarda integratsion yondashuv asosida pedagogik-psixologik bilimlarni takomillashtirishga erishish imkoniyatlarini ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Yangiliklarni izlash, yaratish, qo'llash ishlari jadallashib bordi. Shu sababli yangi bilimlarga bo'lgan talab, "yangilik", "innovatsiya" va "innovatsion jarayonlar" paydo bo'ldi va u tushunchalarni izohlash, anglash zaruriyatini keltirib chiqardi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan mamlakatimizda yetakchi soha va tarmoqlarni innovatsion rivojlantirish, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga keng joriy etish yuzasidan izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Davlatimiz rahbarining 2017-yil 29-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to'g'risida"gi farmoni bu boradagi ishlarni yangi bosqichga ko'tarishga xizmat qiladi [1].

Innovatsion jarayonlarning mikrostrukturasi o'rganib olimlar yangilik kiritishning "hayotiy qismi" konsepsiyasini ishlab chiqdilar, u yangilik kiritish vaqt davomida o'tib boradigan jarayon degan fikrni ilgari surdilar [2]. Bu jarayonda yangilikning yaratilishi va ijro etilishini ta'minlovchi faoliyatlarni turlarga ajratuvchi bosqichlarga bo'linadi. Shu davrga kelib ilmiy adabiyotlarda innovatsion jarayonlarni quyidagi bosqichlarga ajratilmoqda:

1. Yangi g'oya paydo bo'lishi yoki yangilik konsepsiyasi yuzaga kelishi bosqichi. Uni shartli ravishda fundamental va amaliy ilmiy tekshirishlar (yoki birdan paydo bo'ladigan) natijalardan kelib chiqadigan yangilik bosqichi deb ataydilar.

2. Kashf etish vaqti, ya'ni amalga oshgan obyekt, moddiy yoki ma'naviy mahsulot namuna ko'rinishdagi yangilik yaratish.

3. Yaratilgan yangilikka amaliy ko'rinish topilib, uni qo'shimcha ishlab mukammallashtirish amalga oshiriladi. Bu bosqich yangilik kiritishdan mustahkam samaradorlikka erishish bilan yakunlanadi. Shundan so'ng, yangilikning mustaqil mavjudligi boshlanib, yangilik kiritish jarayoni keyingi bosqichga o'tadi. Bu bosqich faqatgina yangilikni qabul qilish shartida amalga oshadi. Yangilikdan keyingi bosqichlar ko'rinadi.

4. Yangilikning biror sohada tarqalishi, uning boshqa sohalarga diffuziyalanib (qo'shilib) keng tatbiq etilishi bilan yakunlanadi.

5. Yangilikning biror sohada hukmron bo'lishi, bunda xususan yangilik o'z yangiligini yo'qotib, yangilik sifatida mavjud bo'lmay qoladi. Bu bosqich yangi samarali yangilik paydo bo'lishi yoki undan ko'ra yanada samaralirog'i bilan almashtirilishi bilan yakunlanadi.

6. Yangilik doirasi qisqarib, uni yanada mahsuldorrog'i bilan almashtirilishi bilan yakunlanadi [3, 4].

Yuqorida keltirilgan innovatsion jarayonning bir – birini vaqtlar davomida yangi bosqichga ketma – ket almashtirib, muntazam tizim, uning rivojlanib borishining soddalashtirilgan ko'rinishlarida ifodalaydi. Biroq aniq innovatsion jarayon bu bosqichlarni o'z ichiga olib, ularning ketma-ket va bog'liqliklariga har doim rioya qilinishi shart emas. Yangilikni kiritishni yangilik yaratish va tarqatish kompleks va maqsadga muvofiq jarayon sifatida qarab, uning maqsadi inson talab va ehtiyojlarini yangi vositalar bilan qondirilishi bo'lib, uning samaradorligi muntazam

va hayotiy yangilikni ta'minlovchi uslub va tizimlarni ma'lum sifatli o'zgarishiga olib keladi.

Innovatsion jarayon boshqa sifatli holatga eskirib qolgan hamda vaziyat va ahamiyatlarini qayta ko'rib chiqish bilan bog'liq bo'ladi. Bir darajali qator yangiliklar yig'indisi (umumiyligi) innovatsion yaxlitlikni tashkil etadi. Innovatsion faoliyat davrida yangiliklar, innovatsiyalar, tom ma'noda ta'lim jarayoniga kirib keladi.

Innovatsion jarayoni tuzilishi yangilikning bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o'tib borishi bilan o'zgarib boradi. Shu bilan yangilikning dinimaki xususiyatlaridan uning natija – yakuni va samarasi o'zaro bog'liq bo'ladi. Yangilikning yakunlanganligi va uning imkoniyatlari amalga oshirilganlik darajasi innovatsion jarayonning hamma bosqichlari qanchalik muvafaqiyatli o'tib borishiga bog'liq bo'ladi. Oddiy ishlab chiqarishdan kengaytirilganiga o'tish keskin vaziyat hisoblanadi, bu o'tish amaliyotida ko'p hollarda amalga oshirilmaydi. Bu hol qaysidir yangilikning yakunlanmasligiga sabab bo'lib, ko'pgina innovatsion muammolar mavjudligini yuzaga keltiradi.

Lug'aviy jihatdan "innovatsiya" tushunchasi ingliz tilidan tarjima qilinganda "yangilik kiritish" degan ma'noni anglatadi [5].

Innovatsion ta'lim – ta'lim oluvchida yangi g'oya, meyor, qoidalarni yaratish, o'zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg'or g'oyalar, meyor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta'limdir. Pedagogik texnologiya deganda, ta'lim funksiyasini amalga oshirishdagi san'at va mahorat tushunilib, u juda qulay usullar asosida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga asos bo'ladi [6].

Barcha umumta'lim maktablarda boshlang'ich ta'lim sifat va samaradorligini oshirish zamonaviy pedagogik, innovatsion va axborot texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq yetish, ilg'or ish tajribalarini ommalashtirishni taqozo etadi. Boshlang'ich ta'limda innovatsiya va axborot texnologiyalarning asosiy vazifalari:

- ta'lim-tarbiya jarayonini umumiy, yaxlit ishlab chiqish;
- tarbiya jarayonida hal etilishi lozim bo'lgan aniq maqsad va vazifalarni belgilash;
- ta'lim-tarbiya jarayoni mazmunini ishlab chiqish;
- ta'lim-tarbiya jarayonida ta'lim oluvchining yerkin, mustaqil faoliyat ko'rsatish uchun muayyan shart-sharoitlarni yaratish hamda ko'nikma va malakalarni shakllantirish;
- ta'lim oluvchilar faoliyatini nazorat qilish hamda baholashni tashkil yetish;
- kadrlar tayyorlash Milliy dasturi maqsadi va vazifalarini ro'yobga chiqarish;
- fan-texnika taraqqiyotidagi axborotlarni yoshlarga yetkazishni tezlashtirish.

Boshlang'ich sinflarda innovatsiya va axborot texnologiyalardan foydalanish quyidagi imkoniyatlarni beradi:

o'quvchilarning bilim olish faoliyatini faollashtirish, o'quv materialini o'zlashtirish sifatini va ta'lim samaradorligini oshirish;

tayyorgarlik darajasi turli bo'lgan o'quvchilarga nisbatan differensial yondashish hamda darslarni yuqori estetik darajada tashkil qilish (musiqa, animatsiya);

o'quvchilarning atrof-muhitdagi axborot oqimlarini tanlash qobiliyatlarini rivojlantirish, tasviriy ifodalash usulidan amaliy faoliyat ko'rsatish turiga o'tish, bu tarzda o'quvchi o'quv jarayonining subyektiga aylanadi.

Dunyoda integratsiya jarayonining takomillashuvi va zamonaviy ilmni ko'p talab qiluvchi texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarishning ustuvor rivojlanishi har qanday mamlakatning iqtisodiy o'sishi va turmush sifati oshishining zaruriy sharti – innovatsion faollikdir [7]. Innovatsion faollik, o'z navbatida, davlatning iqtisodiy va ilmiy-texnik imkoniyatlari, innovatsiyaga oid siyosati va salohiyati, jamiyatning ma'naviy holatiga bog'liq. Bu borada iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida ta'lim sohasini innovatsion rivojlantirishga alohida xalqaro e'tibor qaratilayotgani ahamiyatga moliqdir. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek «Xalqimiz dunyoqarashida innovatsiya muhitini yaratish – yeng muhim vazifamizdir» [8]. Keyingi yillarda yuz berayotgan tub o'zgarishlar jamiyat hayotining barcha sohalariga yangicha innovatsion yondashuvlar, mavjud qarashlar, tushunchalar va munosabatlarni taraqqiyot ko'zgusi va samaradorlik mezonlari bilan qayta ko'zdan kechirishni taqozo etmoqda.

Yangilikning yakunlanganligi uni samaradorligi bilan belgilanadi, ya'ni innovatsion jarayon amalga oshirilayotgan tizim, turli ko'rsatgichlarga yangilikning amalga oshirilgan imkoniyatlari ta'sirini aniqlash mumkin, shu bilan birga ularning o'zaro bog'liqligi yaqqol ko'rinadi.

Shu o'rinda yangilikni ikki turi haqida gapirish mumkin.

1. Birinchi marta yaratilgan yangilik. Bu yangilik ixtiroga teng, ya'ni yangi o'rnatilgan yangi haqiqat demakdir.

2. Avval mavjud bo'lgan nazariyani yanada takomillashtirib, zamonaviylashtirib, shu kunning talabiga moslashtirishdan iboratdir.

Innovatsion didaktikaning predmetini yangilikni o'rgatish, o'rganish, yangilash, uni mazmunini boyitish tashkil etadi. Bunda ishtirok etayotgan barcha komponent bir – birlari bilan shunday uzviy aloqadaki, ulardan birortasini chetda qoldirish mumkin emas.

Har xil mazmun uni o'zlashtirishning o'ziga xos yangicha usullari bilan farq qilganligi uchun o'rganishning qanday bo'lishi uning mazmuniga bog'liq, bu esa o'rganishni tashkil etuvchi o'rgatuvchining yangicha yondashuviga bog'liq.

O'qituvchi o'quvchini faollashtiradigan, o'zi va o'rgatuvchi uchun qulay bo'lgan yo'llarni, yangicha uslublarni, o'qitishning innovatsion shakllari, metodlari va vositalarini yangi-yangilarini izlaydi, ularni takomillashtiradi.

Shu boisdan ham "pedagogik texnologiya", "didaktik texnologiya", "ta'lim texnologiyasi" atamallari bilan bir qatorda "innovatika", "innovatsion pedagogika", "innovatsiya", "innovatsion faoliyat", "innovatsion jarayon" atamallari mustahkam o'rin olib bormoqda.

Yuqorida sanab o'tilgan tarzda o'rgatish, o'rganishda ta'lim mazmunini innovatsion asosda tashkil etish asosiy o'rin tutadi. Shuning uchun ham Davlat ta'lim standartlari, dasturlar, yangi avlod darsliklari yaratildi, ta'lim muassasalariga, o'qituvchi va o'quvchilarga yetkazildi.

Hozirgi kunda yaratilgan standart, dasturlar tajriba – sinov uchastkalarida sinab ko'rildi. Tadqiqotlar, ilmiy izlanishlar natijasida takomillashtirilgan standartlar va moderinizatsiya qilingan dasturlar va tender asosida yaratilgan darsliklarning yangi avlodi ta'lim muassasalariga taqdim etildi.

Navbatdagi kechiktirib bo'lmaydigan vazifa shu innovatsion standartlarni tezroq o'quv jarayoniga tatbiq etish mexanizmini yaratish va kiritish zarur. Chunki, davlat standartlari, yangi dasturlarni o'quvchilar bilimiga qo'yiladigan majburiy minimal darajalaridan oshirib va ta'lim sifatini kafolatlashning, ularning iqtidor, ehtiyojlarini ta'minlovchi yagona omil – ularni amalga kiritishga innovatsion yondashuvdir. Bu masalani ijobiy hal etish uchun ilg'or tajribalar, innovatsion texnologiyalarni izlash, ularning didaktik imkoniyatlarini sinab, tajriba – sinovdan o'tkazib, amaliyotga tatbiq bo'lgan hayotiy ehtiyoji yuzaga keltirdi. Bundan keladigan amaliy xulosa – ta'limdagi ilg'or innovatsion tajribalarni, ularning jamg'armalar bankini tashkil etish, sinab ko'rish, pedagogik amaliyotga tatbiq qilishning ilmiy – amaliy yondashuv va xulosalarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish tizimini yaratishni taqozo etadi.

Ammo fanda o'qituvchi innovatsion faoliyatining shakllanish bosqichlari ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Birinchi bosqich – tayyor metodik tavsiyanomalar olib qo'llaniladi.

Ikkinchi bosqich – mavjud tizimga ayrim masalalar (modifikatsiyalar) metodlar kiritiladi.

Uchinchi bosqich – yangi g'oyani amalga oshirish mazmuni, metodlari va shakllari to'la ishlab chiqiladi.

To'rtinchi bosqich – o'qituvchi o'qitish va tarbiyalashning o'z konsepsiyasini va metodikasini ishlab chiqadi [9].

Hozirgi kunda shunday tizimni yaratish yo'lida bir qator izlanishlar, sa'y – harakatlar amalga oshirildi. Jumladan, vazirlik, viloyat, tuman xalq ta'limi boshqarmalari tarkibida takomillashtirilgan davlat ta'lim standartlarini monitoringini

olib boradigan bo‘limlar faoliyat ko‘rsatmoqda. Bu tashkil etilgan yangi bo‘g‘inlar quyidagi ishlarni olib borishga yo‘naltirilgan:

- ta‘lim sohasidagi yangi o‘quv meyoriy xujjatlarning bajarilishi nazoratini yuritish;

- Kadrlar tayyorlash milliy dasturini ta‘lim jarayoniga tatbiq etish, takomillashtirilgan ta‘lim standartlari va modernizatsiya qilingan dasturlarning bajarilishi monitoringini olib borish;

- Ta‘limni boshqarish mahalliy organlari va o‘quv muassasalarining umumiy tashkiliy pedagogik ishlari qatori pedagogik innovatsiyalarning samaradorligini tahlil qilib borish;

- Pedagogik tajriba – sinov ishlarining borishini analitik tahlili, umumlashtirish, ommalashtirish va tatbiq etish bo‘yicha tavsiyalar tayyorlash;

- Pedagogik innovatsion texnologiyalarni to‘plash, nazorat qilish va joriy etish ishlarini, o‘quv ishlarini tashkil qilish, shunga oid seminar, treninglar, qisqa muddatli o‘quvlar tashkil etish choralarini ko‘rish;

- Innovatsion texnologiyalarni yaratish, izlash, topish haqida tegishli ma‘lumotlar jamg‘arma bankini yaratish, to‘plash, tahlil qilish, tanlash, ta‘lim muassasalariga joriy etish bo‘yicha ishlarni tashkil etish [10].

Yuqoridagi ishlarni tashkil etish va joriy etish uchun ma‘lum izlanishlar, tadqiqotlar va tashabbuslar bo‘lmog‘i lozim. Pedagogik innovatsiyalarni yaratish va ularni boshqarish, avvalambor, ana shu dolzarb vazifalarni ijobiy hal qilib beradi.

Shu boisdan ham pedagogik innovatsiyalar g‘oyasini ilgari surish, konsepsiyasini yaratish, yangiliklarni izlab topish, o‘rganish, tahlillar qilish asosida eng ko‘p sifat va samara beradiganlarni tanlab olish va ularni ta‘lim amaliyotiga qo‘llash tartibini belgilab beradigan yaxlit tizimni yaratish maqsadga muvofiqdir.

Pedagogik-psixologik fanlarni integratsiasini ta‘minlash va bir o‘quv predmetida bir-biri va chegaradosh fanlarni, yirik g‘oyalar, omillar, hulosalarni cheklab birlashtirishdadir. Masalan, tarix kursining integrativligi uning arxeologiya, etnografiya, san‘atshunoslikka tegishli dalil va nazariy hulosalarni o‘z ichiga oladi. Umumiy o‘rta ta‘lim mazmunini shakllantirish barcha maktab predmetarini o‘qitishni insoniylashtirish, ijtimoiy-iqtisodiy jihatlarini kuchayirishini ta‘minlashga qaratilgan. Jamiyatshunoslik, tarix, o‘qish sinfdan tashqari o‘qish, musiqa, tasviriy san‘at jamiyatimizning chuqur insonparvarlik tabiatini yorqin aks ettirishga qaratilgan.

Shu bilan birga, o‘qituvchi va psixologlar o‘quvchilar tomonidan materialni o‘zlashtirishning yosh xususiyatlarini hisobga oladilar. San‘at sohasidagi umumiy o‘rta ta‘lim mazmuni o‘z ichiga g‘oyaviy tomoni va to‘kis badiiy shakli birligini hosil qiluvchi asarlarni o‘z ichiga oladi. Badiiy jihatdan bo‘sh, g‘oyaviy jihatdan haqiqatta to‘g‘ri kelmaydigan asarlar bolalarning ruhiyatiga ta‘sir qila olmaydi, tasavvur va tafakkurni rivojlantirmaydi, go‘zallik va badbasharalik to‘g‘risida tasavvurni

shakllantira olmaydi [11]. Bolalar bilan ishlashda san'at asarlarining chin badiiyligini hisobga olish, shakl va mazmunning birligi, ma'naviyat va xaqchilik prinsiplarini amalga oshirishda muhimdir.

Integratsiyalangan darslarning tuzilishi o'rganishning barcha bosqichlarida o'rganilayotgan materiallarning aniqligini va izchilligini, puxta o'rganilganligini va o'zaro mantiqiy aloqalarini talab qiladi. Bunga dasturdagi o'quv materialining ixcham va yig'ik ekanligi, undan tashkari o'quv materialini o'rganishning tashkil etishning ba'zi zamonaviy usullarini kiritish orqali erishish mumkin.

I.G.Pestalotssi ta'kidlaganidek «aql notinch sezgili idrok qilishdan aniq tushunchalarga ko'tariladigan» manbadir [12]. Bu tushunchalarni anglash esa nutq san'ati bilan birga yuradi. Yorqin tabiat obrazlari bolada mantiq bilan birga ta'sirchanlikni ham rivojlantiradi. Har bir darsda nutq o'stirish masalalari hal qilinadi, bunda o'rganilayotgan materialning o'ziga xosligi va nutq o'stirish masalasini tanlashning maqsadga muvofiqligi hisobga olinadi.

O'quvchilar bunday darslarni juda yaxshi ko'radilar. Ular ko'p yangi, kerakli tushunchalar beradi, tasavvurlarini tartibga soladi, o'quvchilar boshqa darslarda olgan bilimlaridan foydalanishlar zarur bo'lgan xolatlarni yaratadi. Bunday holatda bolalar o'rganilayotgan materialni yaxshiroq o'zlashtiradilar, bilimlar tizim xoliga keladi va o'quvchilar uchun juda zarur bo'lib qoladi. Shu bilan bog'liq integratsiyalangan dars taklif kilinadi, u o'quvchilar uchun tushunarli va olingan bilimlarni yangi o'quv sharoitida ishlata bilish ko'nikmasini shakllantirishga yordam beradi.

Adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston Davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston.T; 2016-y.
2. Амоношвили Ш. К «Каждому ребенку-индивидуальный подход» Воспитание основы (начальная школа 1991г). Бухарева Л. Н. Интеграция учебных занятий в начальной школе на краеведческой основе (начальная школа 1991г № 8).
3. Давидов В. В. Обобщающие обучение М. Просвещение 1980 г.
4. Занков Л. В. Усвоение и развитие младших школьников. М. Просвещение 1965г.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati, -T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2007, 5 jild, 687-bet
6. Машарипова У. Роль инновационных технологии в развитии речи младших школьников // Молодой ученый. –Чита, –2013. –№4. –С. 580–582.
7. Ishmuxamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste'dod, 2008. – 180-bet.

8. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. –T.: O'zbekiston, 2017. – 102-b.

9. Masharipova U. Boshlang'ich sinf o'quvchilar nutqini o'stirishda ilg'or pedagogik metodlaridan foydalanish // Xalq ta'limi –Toshkent, 2017. –№3.-B. 42-45.

10. Карплал Р. «Естественно научные дисциплины в начальной школе» (перспективы 1982г. № 1-2) Калягин Л.Л. Алексинка О.Л. «Интеграция школьного обучения» (начальная школа 1990г. № 9)

11. Мавлянова Р. А. Обучение в 1-ом классе. Пособие для учителей в начальных школах. Т.

12. Кузмин Л. Л. , Зырина С. В. , И.Г.Песталоцци. В. Проверочные задания по темам «Растения весной», «Насикомые и птицы весной». М.Просвещение 1991г.

13. <http://www.redalyc.org/pdf/4561/456145112005.pdf>

14. www.ziyonet.uz

15. www.edu.uz

SOZANDALIK MAHORATINI RIVOJLANTIRISHDA MILLIY MUSIQA MADANIYATINING O'RNI

**Sobirov N.X. - O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
o'qituvchisi**

Annotatsiya. Mazkur maqolada mutaxassis kadrlarda sozandalik mahoratini rivojlantirishda milliy musiqa madaniyatining o'rni, rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil etilgan va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: maqom, festival, akademik ta'lim, klassik musiqa, ijro uslubi.

РОЛЬ НАЦИОНАЛЬНОЙ МУЗЫКАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ В РАЗВИТИИ МУЗЫКАЛЬНОГО МАСТЕРСТВА

**Собиров Н.Х. - преподаватель Узбекского государственного
института искусств и культуры**

Аннотация. В статье анализируется роль национальной музыкальной культуры в развитии музыкального мастерства профессиональных кадров, её значение в развитии, даются рекомендации.

Ключевые слова: маком, фестиваль, академическое образование, классическая музыка, стиль исполнения.

THE ROLE OF NATIONAL MUSIC CULTURE IN THE DEVELOPMENT OF MUSICAL SKILLS

Sobirov N.X. - teacher of the Uzbek State Institute of Arts and Culture

Annotation. This article analyzes the role of national music culture in the development of musical skills in the professional staff, its importance in the development, and makes recommendations.

Key words: maqom, festival, academic education, classical music, style of performance.

Har bir inson, avvalo, o'zi tug'ilib yashagan hududning an'alariga talpinadi, qalban ularga bog'lanadi. Maqom ashulalarini o'rganishda menga eng yaqini, qondoshi Farg'ona -Toshkent maqom yo'llari sanaladi. Ushbu maqom san'atining yaralishiga "Farg'ona-Toshkent musiqa uslubi"ga xos bo'lgan yalla, ashula va katta ashula janrlarining xususiyatlari o'z ta'sirini o'tkazgan. Mumtoz adabiyotning yirik darg'alari Sakkokiy, Navoiy, Bobur, Muqimiy, Uvaysiy, Lutfiy, Fuzuliy, Furqat va boshqalarning aruz vaznida yozilgan she'riy asarlari ohangga solinadi. Ularda inson kechmishi, ma'no va mazmun, hayotning og'ir sinovlariga chidam ila bardosh berish kabi g'oyalar ilgari surilsa, kuylarida inson ruhiyatiga taskin va tasalli, zavq ulashuvchi sokinlik, vazminlik tarannum etiladi.

O'zbek milliy cholg'u asboblari bo'lmish rubob, ud, dutor, chang, doira, tanbur, sato, nay kabilarning murakkab texnik ijrosi ham yillar davomida sayqallanib kelmoqda.

Ustoz san'atkor professional kompozitor Mutal Burxonov "Shashmaqom – jahon madaniyatining bebaho merosi. Undan har bir inson, irqi va e'tiqodidan qat'iy nazar, o'z qalbiga yarasha go'zallik topishi mumkin", degan fikrlarida haqiqatan maqom san'atining har bir inson ruhiyati uchun jozibadorligini ta'rif etgan. Asl san'at millat va elat tanlamaydi, u inson qalbidan o'rin oladi. Maqom san'ati ham musiqaning asl namunasi bo'lib, inson tafakkuri va madaniyatining ulkan cho'qqisi sanaladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan yurtimizda "Xalqaro maqom" festivalining o'tkazilib kelinayotgani ham bejiz emas. Mazkur festivalda dunyoning turli burchaklaridan kelgan ustoz san'atkorlar, olimlar, xonandalar, kompozitorlar, bastakorlar, va mahoratli sozandalar ishtirok etishadi. Shu bilan birga, festivalning o'tkazilishi ham o'zbek xalqining boy musiqiy merosi va madaniyatini yuksak darajada qadrlab yashashi va kelajak avlodga yetkazishda sobit qadam bo'lishini anglatadi.

Zamonaviy ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasida sozandalik mahoratini rivojlantirishda maqom san'atining o'rni yuksak darajada turadi. Yosh

ijrochilar va talabalarni turli festivallarda, xalqaro forumlarda ishtirokini ta'minlash, sahna madaniyatini o'stirish, xalqaro aloqalarni keng yo'lga qo'yish muhim o'rin tutadi. Pedagogik yondashuvlarda talabada sozandalik mahoratini rivojlantirish borasida individual ishlash, ijodiy qobiliyatlarni o'stirish, ijodkorlik va kreativlikni oshirish masalalari yotadi. Shu o'rinda, pedagogdan ijrochilik qobiliyati va mahorat ham talab etiladi. Dars sifatining yuqoriligi pedagogning ijodkorlik mahoratidan kelib chiqadi. Zamonaviy texnologiyalar rivojlangan axborotlashuv davrida ham asriy an'analar, boqiy musiqa merosimizning tarannumi sira kamaygani yo'q. Aksincha, asrlar sadosida ularning bebaho qadri va baland viqori savlat sohib turibdi.

Musiqa ilmiy va ijodiy jarayonlarini parallel ravishda o'rganish katta kuch, mehnat va albatta ulkan iste'dod talab etadi. O'zbek milliy musiqa merosini ilmiy, falsafiy jihatlarini chuqur o'rganish, uning amaliy jabhalardagi yaratmalarini keng ommaga tadbiiq etish va asosiysi, ulg'ayib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalashda katta qadamlar tashlanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi" PF-4947 Farmoniga muvofiq, ko'plab sohalarda zaruriy islohotlar amalga oshirilmoqda. Darhaqiqat, islohotlarning ko'p qismi davr bilan bog'liq bo'lib, insonlarning talab va ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Bugungi davr axborotlashuvning ilg'or taraqqiyoti ekan, inson shaxsida milliy madaniyat va san'at asarlariga bo'lgan ehtiyojlar sira kamaygani yo'q. Jumladan, o'zbek milliy musiqa merosini o'rganish va asrab-avaylash ham mazkur islohotlar zahirida yotgan muhim maqsadlardan sanaladi.

Musiqa mehri qo'yan va kelajakda musiqiy kasb egasi bo'lmoqchi bo'lgan insonda iste'dod bo'ladi. Uni shakllantirish va bosqichma-bosqich rivojlantirib borish lozim. O'zbek milliy musiqa madaniyati sozandalik mahoratini ham asrlar mobaynida rivojlantirib keldi. Yunus Rajabiy, To'xtasin Jalilov, Turg'un Alimatov, Rifatilla Qosimov, Faxriddin Sodiqov, Ahmadjon Umrzoqov, Muhammadjon Mirzayev kabi uztoz san'atkorlarning faoliyati o'zbek musiqa madaniyatini o'rganish va rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Buyuk ma'rifatparvar ijodkor Abdurauf Fitrat o'z kitobida "Bizning adabiyotimizda bo'lg'ani kabi musiqamizda ham ikki oqim bordir. Adabiyotimizda aruz vazni bilan she'r yozmoq bilan aruzsiz, ya'ni barmoq vaznida she'r yozmoq yo'li bor... Musiqamiz ham xuddi shunga o'xshab yuradir. Musiqamizda usul vaznida bog'lang'an kuylar kabi, usulsiz bog'lang'an kuylar ham bor" deya o'zbek klassik musiqa merosining naqadar boy va mukammal ekanligini o'rganib, isbot etib berdi. [6.] Olimning ushbu tadqiqoti musiqa ilmini chuqur o'rganishda ancha qo'l keladi. Shuningdek, klassik musiqaning nazariy jihatlarini tadqiq qilib, ko'plab tillarga tarjima qilgan. Endilikda sozandalik mahoratini o'rgatish, ulg'ayib kelayotgan yoshlar tarbiyasida mahoratni rivojlantirish yo'llarida uchrayotgan ayrim muammolardan biri yorqin iste'dodlarning ijodiy

barkamolligini ta'minlash bo'lib qoldi. Bunda eng asosiy vazifa moliyaviy kamchiliklarni bartaraf etishdan iborat. Sababi, akademik ta'lim olgan, o'zbek milliy cholg'u asboblarini chala oladigan yoshlarning ayrimlari to'yga, tirikchilik dardida xalq xizmatiga chiqib ketgan holda asl mahoratning o'tmaslashuviga olib kelmoqda. Ushbu muammo davr mummosi bo'lib, fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyalashuvi tomonidan ham keng yo'sinda o'rganilishi lozim.

O'zbek milliy cholg'u asboblari bo'lmish dutor, ud, rubob, doira, nay, chang, surnay, karnay, tanbur, sato, do'mbira, chanqovuzlarning sehrli sadosi, mo'jizaviy tovushlari qalbga orom berib, ruhan katarsisga soladi. Oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar mahoratini rivojlantirishda "ustoz-shogird" an'anasidan foydalanib kelinadi. Ushbu tendensiya yillar davomida o'z samarasini berib kelmoqda. Mahoratli sozanda tayyorlashda endilikda pedagogik yondashuvlarning yangicha metodlari, zamon va makon bilan hamnafas pedagogik texnologiyalar, innovatsion g'oyalar asosida ishlash talab etiladi. Ta'lim va tarbiya metodikasida zamonaviy innovatsion loyihalardan foydalanish allaqachon davr talabiga aylanib ulgurdi. Bunda samarali usullar albatta nazariy va amaliy jihatdan sinovdan o'tkaziladi hamda milliy tamoyillarga mos ekanligi nazoratga olinadi.

Shuningdek, so'nggi yillar mamlakatimizda bolalar musiqa va san'at maktablarini tashkil etilishi, faolyatini keng yo'lga qo'yilishi, professional ijodkorlar va pedagoglarning mazkur maktablarga biriktirilishi ham sohada ulkan yutuqlarni tuhfa etadi. O'sib kelayotgan yosh avlodni musiqaga muhabbat qo'yib ulg'ayishida ijod maktablarining o'рни katta. Shuningdek, mamlakatimizda yoshlarning turli xalqaro tanlovlar va festivallarda ishtirok etib, o'z iste'dodlarini namoyon etishlari uchun ham keng imkoniyatlar yaratilgan.

Professor Oqilxon Ibrohimov o'zining "O'zbek xalq musiqa ijodi (Metodik tavsiyalar)" nomli izlanishlarida xonandalik va sozandalik mahoratlarini rivojlantirish borasidagi nazariy va amaliy bilimlarini bergan. [9.] Mazkur qo'llanmada o'zbek milliy musiqa merosining sara namunalarini ijro uslublari, notalari, tarkibiy tuzilmalari borasida zarur ma'lumotlar keltirilgan. Shu bilan birga, musiqiy pedagoglar uchun metodik tavsiyalar yozilgan bo'lib, bular yoshlarda sozandalik mahoratini rivojlantirishda ancha qo'l keladi.

Har bir pedagog oldida o'z talabasiga yuksak darajada bilim berish, mahoratini rivojlantirish an'anasi muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, ijodkor talabalar bilan ishlashda ularning qiziqish va qobiliyatlarini inobatga olgan holda darajasi belginaladi. Masalan, qaysidir talaba tanbur sozini chalsa va qiziqsa, boshqasi rubob va ud kabilarni chalsa, demak ularni yo'naltirish ham mana shu imkoniyatlar darajasidan kelib chiqadi. Bunda metodik tarbiyaning muhim bosqichlari amalga oshirilib, sozandalik mahorati rivojlantirilib boriladi. Musiqa cholg'u asbobini chalish

orqali yangi kuylar yaratish, asriy musiqa merosini yuqori saviyada ijro eta olish, pirovardida milliy san'atda o'ziga xos uslubni yaratish qobiliyatlari o'rgatiladi.

Pedagog olimlarning "Hozirgi zamon didaktikasi ko'p yillar davomida to'plangan o'qitish qoidalari, fan yutuqlari va ilg'or tajribalar asosida boyib bormoqda deyishga asos bor. Ammo o'quv jarayonining hamma qismlarini o'qitishni tashkil qilishning mazmuni, usullari, vositalari va shakllari bilan munosabatlari yaxshi ochib berilmagan. Bularning hammasi didaktik qoidalardan amalda foydalanishni qiyinlashtiradi", degan fikrlarida haqiqat bor. Shundan kelib chiqib, oliy ta'lim muassasalarida har doim o'qitish metodikasining yangicha innovatsion usullaridan foydalanish, talaba bilan individual ishlash, davr islohotlariga mohiyatan yondashuvchan professional darajadagi kadrlar yetishtirish lozim. O'zbek milliy musiqa merosini ilmiy jihatdan yanada kengroq o'rganilish va boshqa tillarga tarjima qilinishi ham kamchiliklar doirasida turibdi. Zero, har bir mamlakat taraqqiyoti ilm-fan yutuqlari bilan chambarchas bog'liq bo'ladi.

Sozandalik mahoratini rivojlantirishning samarali usullaridan biri yoshlar tarbiyasida maqom san'atiga bo'lgan muhabbatni oshirishdir. Musiqashunos olim Otanazar Matyoqubovning fikricha: "Faqat asl hujjat va ma'lumotlarni atroflicha o'rganish, ularni tanqidiy qiyoslash yo'li bilangina maqomlar mohiyatiga xolis yondashish mumkin. Mazkur tadqiqotda O'rta Osiyo klassik musiqasining tarixiy shakllangan yagona tizimi Maqomot, ya'ni Buxoro Shashmaqomi, Xorazm maqomlari, Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari, shuningdek, uning XX asrda O'zbekiston va Tojikistonda yuzaga kelgan yangi ko'rinishlari o'z aksini topgan. Ularning barchasi umumlashtirilib, "Maqomot" (maqomlarning ko'plik shakliga nisbatan o'zbek-tojik tillarida ishlatiladigan maxsus atama) nomi bilan yuritiladi". [7.] Yoshlar tarbiyasida sozandalik mahoratini shakllantirishda nazariy bilimlardan so'ng albatta amaliy ko'nikmalar hosil qilinadi. Ilm va ijod parallel ravishda o'rganilishi ulkan yutuqlar xazinasini ochadi. Hozirda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida mazkur an'ana davom ettirilib kelinmoqda. Ustoz san'atkorlar Orolmirzo Safarov, O'lmas Rasulov, Beknazar Do'stmuhammedov, Mashrab Ermatov, Ahmadjon Dadayev talabalarga bilim berib, ulardagi xonandalik va sozandalik mahoratlarini rivojlantirish, ijro qobiliyatlarini o'stirishda faol bo'lib kelmoqdalar. Ijodkor pedagoglarning o'z kasb tajribasidan ma'lumki, ko'plab shogirdlar o'zbek san'atida professional darajaga yetishib kelmoqda. Oliy ta'lim muassasasi O'quv teatrida muntazam ravishda "An'anaviy maqom" kechasi bo'lib o'tadi. Bundan tashqari barcha darslar sifatli darajada tashkil qilinadi. Turli mahorat darslari, sinf konsertlar, gala konsertlar, festivallar, musobaqalar tashkil etib boriladi. Televideniye, radio, ijodiy studiyalar tadbirlari va ommaviy bayramlarda ham iste'dodli talabalar jalb etilib, sozandalik mahoratlarini namoyish etishadi.

Sozandalik mahoratida yoshlarning musiqani tafakkuri ila anglashi, qalban his etishi, vujudi bilan ohanglarni ritmga solib, sozlay olishi muhim o‘rin tutadi. Olimning quyidagi fikrlarini keltiramiz: “O‘z kasbining mohir ustalari bo‘lgan hofiz, sozanda va bastakorlar ijodi tufayli maqom dildagi niyat, amalga oshishi mumkin bo‘lgan mavhum musiqiy g‘oyadan kuy yoki ashulalarga aylanadi. Barhayot maqom an‘analari har qanday musiqiy faoliyat kabi uchta asosiy tamoyilga tayanadi: tinglovchi, ijrochi va yaratuvchi. Ana shu uchta tamoyil negizida musika san‘atining mushtarak jarayoni yuzaga keladi” [8.] Demak, sozandalik mahoratini rivojlantirishda tinglovchi, ijrochi va yaratuvchi kabi muhim bo‘g‘inlarning uyg‘unlashuvidan foydalaniladi. Bu murakkab va muhim tendensiya bo‘lib, shaxsning ma‘naviy ehtiyoji, musiqaga bo‘lgan talabidan kelib chiqadi. Har bir pedagog o‘z talabasining sozandalik mahoratini oshirishda mana shu tamoyillarga alohida ahamiyat qaratishi lozim.

Tobora taraqqiy etib borayotgan davrda fan va ta‘limning yutuqlari ham ortib bormoqda. O‘zbek milliy musiqa ilmini yanada chuqur o‘rganish va amaliyotga tadbiiq etishda Harakatlar strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda muntazam ravishda o‘tkazilayotgan “Sharq taronalari”, “Maqom chellenj”, “Hunarmandlar” kabi xalqaro festivallar ijodkorlar uchun ulkan imkoniyatlar eshiklarini ochmoqda. Shu bilan birga, mazkur festivallar doirasida bo‘lib o‘tayotgan turli konferensiyalar, forum va haftaliklar esa musiqa merosini ilmiy-nazariy asoslarini o‘rganish va rivojlantirish maqsadlarini ko‘zlagan. Islohotlar doirasida ijodiy uchrashuvlar, mahorat darslari, xalqaro aloqalar, brifinglar, jonli ijro, aytishuvlar tashkil qilinib, ijro mahoratlari yanada sayqal topib kelmoqda. Oliy ta‘lim muassasasi bitiruvchilari jamiyatning turli bo‘g‘inlarida ish bilan ta‘minlanib, ilmiy-ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanmoqdalar. Shuningdek, musiqa yo‘nalishlari bo‘yicha magistratura bosqichida ham mutaxassislar tayyorlanadi.

Adabiyotlar

1. Matyoqubov O. “Maqomot” –T.: “Musiqqa”. 2004-y. 9-b.
2. O‘sha manba, 13-b.
3. Devonzoda Yu.M. “Xorazm musiqiy tarixchisi” – T: “Yozuvchi”. 1998-y. 30-b.
4. Ibrohimov O. “Maqom asoslari” –T: “Turon-Iqbol”. 2018-y. 82-b.
5. O‘sha manba, 11-b.
